

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OILY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“IJTIMOIY – GUMANITAR FANLAR ” KAFEDRASI

**“O'zbekistyon tarixi” fanini o'rganish bo'yicha
uslubiy tavsiyalar**



Samarqand - 2008

O`zbekiston Respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası

**“O`ZBEKISTYON TARIXI” FANINI O`RGANISH BO`YICHA
USLUBIY TAVSIYALAR**

**Tuzuvchilar: dots. O`. Tuxtamishov,
o`qit. Sh.Abdurashidov,
o`qit. A. Yo`ldoshev
o`qit. Yu. Po`latov**

Samarqand - 2008 yil

**“O`zbekistyon tarixi” fanini o`rganish bo`yicha
uslubiy tavsiyalar. Samarqand 2008, 109-bet.**

**Tuzuvchilar: dots. U.Tuxtamishev.
o`qit. SH.Abdurashidov.
o`qit. A.Yuldoshev.
o`qit. YU.Pulatov**

**Taqrizchilar: t.f.n.dots.S.Nazarov.
t.f.n., dots.Mo`minov N.A.**

**O`zbekiston tarixi fani bo`yicha o`quv soatlarining taqsimlanishi:
Kurs-1, Semestr-1-2,
Ma`ruza-36 soat,
Amaliy mashg`ulot-34 soat.
Jami-70 soat.**

**Mazkur uslubiy tavsiyanoma Samarqand iqtisodiyot va servis instituti ijtimoiy-
gumanitar fanlar kafedrasining 4 noyabr 2008 yildagi majlisida hamda institut o`quv-
uslubiy Kengashining _____ noyabr 2008 yildagi yig`ilishida muhokama etilgan va
chop etishga tavsiya qilingan.**

Majlis bayoni №__ “_____”2008 yil.

O'zbekiston mustaqillika erishgandan so'ng haqqoniy tariximizni o'rganishga keng imkoniyatlar ochildi. Ushbu uslubiy tavsiyanomada mualliflar tarix fanning ilmiy metodlari metodologik tamoyillariga amal qilgan holda, yangicha haqqoniy va xolislik bilan yoritildi. Halq buyuk davlar arboblari va rahbarlari, iqtidorli va qobiliyatli, fidokor va qaxramon kishilarning tarixda tutgan o'rniga alohida e'tibor berildi .

Uslubiy tavsiyanomada O'zbekiston tarixiga milliy va umuminsoniy qadriyatlar sifatida xurmat va ehtirom bilan e'tibor berildi. Shuningdek, etnografiya, arxeologiya, antropologiya, geneologiya va boshqa fanlarning roliga alohida ahamiyat berildi. Ushbu uslubiy tavsiyanomada dunyo madaniyati rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan vatandoshlarimiz faoliyati batafsil bayon etilgan, tarix bilan qiziquvchanlarga mo'ljallangan.

Kirish

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng vatanimizning, halqimizning o'tmish tarixiga bo'lgan qiziqish yanada kuchaydi. Milliy va mahalliy an'analarimiz qayta, tiklanib ardoqlanib bormoqda. Ayniqsa so'ngi paytlarda Prezident I.A.Karimov turli asar va ma'ruzalarida va savol-javoblarida milliy qadriyatlarimiz, o'lkamizning o'timish tarixi, xalqimizning kelib chiqishi masalalarini o'rganish nihoyatda muhim ekanligi, ularni yoshlar ongiga mumkin qadar chuqurroq sindirish lozimligini qayta-qayta takrorlamoqda.

Darxaqiqat, Yurtboshimiz ta'kidlagandek «Madomiki o'z tarixini bilgan undan ruxiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmaydi. Biz xaqqoniy tariximizni tiklashimiz xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish yana bir marta qurollantirish zarur».

Shu nuqtai nazardan ham hozirgi kunda barcha o'quv yurtlarida O'zbekiston tarixini yanada chuquroq o'rganish, talaba- o'quvchilarga zamon talablariga javob beradigan o'quv qo'llanmasi, darslik va dasturlar yaratish shu kunning muhim masalasi hisoblanadi.

Ushbu ma'ruzalar matni ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchilari tomonidan lotin yozuvi asosida tayyorlangan birinchi ma'ruzalar to'plami bo'lib, eng qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha bo'lgan tariximizni qamrab olgan 18 ta muammoli ma'ruzalardan iborat.

Har bir mavzuga alohida adabiyotlar ro'yxati ilova etiladi. Ushbu ma'ruzalar matni yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan. Hamkasblarimizga avvaldan minnatdorchilik bildiramiz.

1 - mavzu: O'zbekiston tarixi fanining predmeti, nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati.

REJA:

- 1.O'zbekiston tarixining predmeti va dolzarb muammolari.
- 2.O'zbekiston tarixini yoritishning nazariy-metodologik asoslari.
- 3.Komil insonni tarbiyalashda tarixning roli.

Adabiyotlar.

- 1.Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., 1998
- 2.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., Sharq 1998
- 3.X.G'ulomov, A.Tatiboyev, "O'rta Osiyo va jahon tarixi, T., Universitet", 1994
- 4.F.Sulaymonova. "Sharq va G'arb" T., "Fan" 1997
- 5.N.Jo'rayev. Agar sen ogoh. T., O'zbekiston 1998
- 6.O'zbekiston yangi tarixi. Konseptual - metodologik muammolar. Konferensiya materiallari. T., 1998

Ma'ruza maqsadi

Sobiq sho'ro saltanati yillarida eng qadimgi davrlardan to XIX asr ikkinchi yarmiga qadar bo'lgan tariximiz soxtalashtirildi. Prezidentimiz I.Karimov bu xaqida: "O'zbekistonning, o'zbek xalqining bugun keng ommaga yetkazishga arziydigan xaqqoniy tarixi yaratilimi-yo'qmi? Sovet davridagi yozilgan tarixni men tarix sanamayman. O'zgalar yozib bergan tarixini o'qitishga mutlaqo qarshiman. Mustamlakachi o'ziga qaram bo'lgan xalq xaqida qachon xolis, adolatli fikr aytgan? Ular bor kuch-g'ayratlarini Turkistonning o'tmishini kamsitishga, bizni tariximizdan judo qilishga sarflaganlar. Tarixdan judo bo'lish nimaligini yaxshi bilsangiz kerak. Inson uchun tarixidan judo bo'lish – xayotdan judo bo'lish demakdir" – deb juda o'rinli uqtirgan edilar. Shunday ekan mazkur ma'ruzaning maqsadi xaqiqiy tarixning o'rganishi ob'yektini to'g'ri aniqlash, xolislik, ob'yektivlik, ilmiylik, uzviylik tamoyillariga tayanish shart uning davrlarini va manbalarini to'g'ri tushunish va eng muximi o'zbek xalqining mustaqillikni qo'lga kiritishi tasodifiy xodisa bo'lmasdan, uning chuqur tarixiy zaminga ega ekanligini asoslab berish lozim.

1 savol. XXI asr bo'sag'asida Vatanimiz tarixida yangi davr boshlandi. O'zbekiston o'zining davlat mustaqilligini qo'lga kiritdi. Dunyo xaritasida yana bir mustaqil davlat - O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi.

Mustaqillik haqida so'z yuritganda uzoq o'tmishimiz va yaqin kelajagimizni o'ylab fikr yuritamiz. Respublikamizning mustaqil deb e'lon qilinish davri g'oyat murakkab vaziyatda yuz berganligi hammaga ma'lum.

Ba'zilar ozodlik osongina qo'lga kiritildi deyishadi. Bu bir qarashda shunday tuyuladi. Aslida-chi? Mustaqillik uchun kurash O'zbekistonda hech qachon va hech zamon to'xtalmagan.

Tarix manbalaridan ma'lumki, O'rta Osiyoda qadimgi xalqlar orasida ham o'z yurti va qabilalari mustaqilligi uchun kurashgan mard kishilar bo'lgan (masalan To'maris, Spitamen, Shiroq, Muqanna va boshqalar.)

Mustaqillik deganda nimani tushunamiz?

"Mustaqil - ixtiyori o'zida bo'lgan, tobe, qaram bo'lmagan, o'zgalarning ta'siridan holi", yoki "Mustaqil - o'zganing yordamisiz yoki rahbarligisiz ish qila oladigan, yashay oladigan"1

Har bir xalq, har qaysi mamlakat o'zining uzoq va betakror tarixiga ega bo'lganidek, O'zbekistonning o'zbek xalqining tarixi ham boy va sermazmundir.

Tarix fani turli xalqlar qanday yashaganligi, ularning hayotida qanday voqealar sodir bo'lganligi,

odamlar hayoti qanday va nima uchun o'zgarib, xozirgiday bo'lib qolganligini o'rgansa, O'zbekiston tarixi esa shu ona zaminimizda o'tmishida yashagan xalqlarning hayoti va ularning rivojlanish jarayonida sodir bo'lgan o'zgarishlar, voqea-hodisalar, ularning turmush tarzi, iqtisodi, madaniyati va shu kabilarni to'laligicha o'rganadigan fandır.

Prezidentimizning shu haqidagi fikrlari katta ahamiyatga egadir. "Hozir O'zbekiston deb ataluvchi xudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganligi butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan allomalar, fozilu - fuzalolar, olimu-ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari ana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha fayzini, mahoratini yo'qotmagan osori - atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, xunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaxarsozlik san'ati yuksak bo'lganidan dalolat beradi". Ana shu qayd qilingan, bizning ongimizdan tashqarida va bizning ongimizga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan borliq, voqelik O'zbekiston tarixi fanini o'rganish ob'yektidir.

O'zbekiston tarixi faqat turli bilimlar tarzidagi fan emas, balki bir necha asrlar davomida to'planib kelgan o'zaro ichki qonuniyatlar bilan chambarchas bog'langan bilimlar tizimi sifatidagi fandır. Shu ma'noda u o'zining o'rganish ob'yekti va predmetigi ega bo'lgan mustaqil fandır.

Oliy o'quv yurtlari talabalariga o'rgatiladigan "O'zbekiston tarixi" maktabda o'qitiladigan kursdan sifat jihatidan farq qiladi.

Bakalavr tayyorlash Davlat standarti talablariga javob beruvchi dastur 70 soatdan iborat, unda 36 soat ma'ruza, 34 soat amaliy mashg'ulot darslari tashkil etadi.

Bundan maqsad oliy o'quv yurtini bitiruvchi kishilarni mustaqil fikr yurita oladigan mutaxassislar qilib tayyorlashdir. Yangi davlat standartlari ana shu talablarga javob beradigan saviyada tuzilgan.

O'zbekiston xududlarida ilk davlatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanishi, dastlabki shaxarsozlik madaniyatining shakllanishi, o'zbek xalqining kelib chiqishi masalalari Vatan tarixining hozirgi kundagi eng dolzarb muammolaridir.

2 savol. O'zbekiston tarixini yoritishda nazariy - metodologik asoslarni bilish katta ahamiyatga ega. Ilmiylik, xolislik, tarixiylik metodlari tarixini yoritishning asosiy kaliti hisoblanadi.

Birinchidan, O'zbekiston tarixining yaxlit konsepsiyasini yaratish, buni amalga oshirish uchun, bir butun tarixiy jarayonni nisbatdan mustaqil bo'lgan bo'laklarga, ya'ni davrlarga bo'lish va ularni chuqur tahlil qilish lozim. Eng asosiy vazifalardan yana biri - yangi yozilgan tarixni o'rganishni tashkil qilishdir.

Haqiqatdan ham mustaqillik yillarida to'plangan bir qancha tarixiy xujjatlarni ilmiy asosda umumlashtirish vaqti keldi. Bu borada bir qancha harakatlar ham bor. Ammo ularni yanada jadalroq, qat'yiroq amalga oshirish talab qilinadi.

Ilmiylik bilan bir qatorda xolislik turadi. Bunda har bir tarixiy voqea - hodisalarni tahlil qilayotganda xolis, haqqoniy ravishda o'rganish yoki tarixnavisning xoxish irodasidan tashqarida, voqea-xodisalar qanday sodir bo'lgan bo'lsa shundayligicha yoritish ko'zda tutiladi. Har bir tarix yozuvchi kishi shaxs sifatida o'zining mulohazalari, idroki va boshqa xis-tuyg'ulari bilan atrofni o'rab turuvchi muhit, xukmron mafkura bilan uzviy ravishda bog'liq. Bu bog'liqlik unga o'z ta'sirini o'tkazadi. Aytish mumkinki, har qanday xolislikda ham sub'yektivlik hukm suradi. Tarixiy tahlil, tadqiqotlarning ilmiyligi, haqqoniyligi, sub'yektiv fikrlarni nihoyat darajada kamligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston tarixini o'rganishning metodolgik asoslaridan yana biri bu voqea va xodisalarni dialektik tarzda o'rganishdir. Bu metod O'zbekiston tarixini o'rganishda uni to'laligicha, voqea-hodisalarni bir-biri bilan bog'liqlikda, ayrim tarixiy voqelikni o'rgatuvchi fanlarni ham bir butunlikda, uning bo'laklarini ajratib olmaslik va voqea-xodisalarni doimo o'rganishda, rivojlanishda o'rganishni taqazo qiladi. Biror bir davr haqida fikr-mulohaza yuritilayotgan bo'lsa, ana shu davrning o'ziga xos xarakterli xususiyatini anglab olib, uni ko'rsatishni talab qiladi. Tarixiy jarayonni umumiylik va alohidalik qoidalaridan kelib chiqqan holda tushunish lozim.

Masalan: O'zbekiston tarixining Jahon tarixi bilan o'zaro bog'liqligi masalasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki ona - yurtimiz tarixini jahon sivilizatsiyasi tarixi tizimida ko'radigan bo'lsak, uning

o'ziga xos roli va o'rni yaqqol ko'rinadi.

Jumladan, O'zbekiston tarixi avvalo Markaziy Osiyo mamlakatlari tarixi bilan chambarchas bog'langan. Qadim zamonlardan yaqin yillargacha Vatanimiz O'rta Osiyo mintaqasidagi ko'pgina davlatlar bilan - Afg'oniston, Eron, Shimoliy Xindiston kabi mamlakatlar bilan yagona iqtisodiy va madaniy makonda bo'lib keldi. Bu katta xududda yashovchi urug', qabila, qavm, elatlar etnik jihatdan doimo o'zaro ta'sir va aloqada bo'lganlar, qo'shilish jarayonini boshdan kechirganlar, ularning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayoti bir-birlari bilan uzviy bog'liq o'tgan. Shu sababli O'zbekiston tarixini qo'shni mamlakatlar tarixi bilan bog'liq holda o'rganish taqazo etiladi. Qozoq, qirg'iz, qoraqolpoq, turkman, tojik, fors, afg'on, xind, arab va boshqa xalqlar tarixini qanchalik yaxshi bilsak, u O'zbekiston xalqlari tarixini shunchalik chuqur, har tomonlama o'rganishga imkon yaratadi. ko'maklashadi.

Tarixiy voqea, xodisalarni o'rganish, taxlil etish va yoritishda xolisona, xaqqoniy, adolatli yondoshuv muhim metodologik qoidadir. Xolislik qoidasini tarixiy voqea, xodisalarni o'rganayotganda ular bilan bog'liq bo'lgan barcha faktlarning xech bir istisnosiz butun majmuini birga olib tekshirishni talab qiladi. Tarixiy xodisalarni bir butun holda o'zaro aloqada va munosabatda deb tekshirish lozimdir. Oldindan to'qilgan bir g'oyani, uydirmani oqlash darkor bo'lsa, faktlar silsilasidan faqat ayrim mos keladiganlarinigina saylab, tanlab ilinishi "tajribasi" sir emas, albatta bunday yo'l bilan chiqarilgan xulosa va baho xolisona, xaqqoniy bo'lmay u bir tomonlamalikka olib keladi.

Tarixni o'rganishda tarixiylik metodologiyasi muhim ahamiyatga ega. Tarixiylik qoidasi voqea, xodisalarni o'z davrining aniq tarixiy sharoitidan kelib chiqqan holda o'rganishni taqazo etadi. Voqea, xodisalarni o'rganishda tarixiy bog'lanish, tarixiy rivojlanish jarayoniga e'tibor qilmoq zarur.

Har bir voqea, xodisani boshqa voqealar, xodisalar bilan bog'lab o'rgangandagina mazkur voqea, xodisaning umumiy tarixiy jarayondagi o'rnini to'g'ri aniqlash, belgilash mumkin bo'ladi. Har bir voqea, xodisaga umumiy tarixiy jarayonning bir qismi, bo'lagi deb qaramoq zarur. Har bir hodisa qanday tarixiy sharoitda muhitda paydo bo'lganligini bu hodisa o'z taraqqiyotida qanday asosiy bosqichlarni o'tganligini, keyinchalik u qanday bo'lib qolganligini bilish tarixiylik qoidasining asosiy talabidir. Masalan, bironta davlat faoliyatiga tarixiylik nuqtai nazaridan turib baho bermoqchi bo'lsak, birinchidan, u qachon, qanday tarixiy sharoitda paydo bo'ldi, ikkinchidan, u o'z taraqqiyotida qanday bosqichlarni bosib o'tdi, uchinchidan, u hali ham mavjudmi, hozir qay ahvolda, qanday bo'lib qoldi, degan savollarga aniq javob berish zarur bo'ladi.

Tarixiylik metodologiyasi xalqning o'tmishini, hozirgi zamon va kelajagini yagona tabiiy tarixiy jarayon deb, o'tmish hozirgi zamonni tayyorlaydi, hozirgi zamon kelajakni yaratadi degan taraqqiyot qonuni asosida qaraydi. Insoniyat ana shunday umumiy yo'ldan borayotgan ekan, istiqboldan porloq hayot, turmush qurmoqchi bo'lgan avlod tarix fani orqali o'z o'tmishini yaxshi bilmog'i lozim. O'tmishni, ajdodlarimiz tarixini qanchalik yaxshi bilsak, anglab yetsak, hozirgi zamonni, mustaqilligimiz mazmunini shunchalik mukammal tushunamiz, kelajakni to'g'ri tasavvur etamiz. Shuningdek, hozirgi zamonni bugungi avlodning bunyodkorlik faoliyatini to'g'ri idrok etish o'tmishni, tariximizni chuqur anglashga ko'maklashadi.

Insoniyat taraqqiyotining ma'lum bosqichida urug'chilik tuzumi yemirilib, xususiy mulkchilik kelib chiqqach, urug' jamoalari turli ijtimoiy tabaqalarga bo'lishgach, tarixiy voqea va xodisalar ana shu tabaqalarning manfaati bilan bog'liq holda kechadigan, xar bir ijtimoiy tabaqa o'z manfaati nuqtai nazaridan harakat qiladigan, ularning manfaati bir-biri bilan to'qnashadigan, g'alayonlar qo'zg'olonlar ko'tariladigan bo'lib qoldi. Bunday vaziyatda sodir bo'lgan voqealarni, tarixiy jarayonni o'rganishda ijtimoiy yondoshuv prinsipiga rioya etish zarur bo'ladi. Ijtimoiy yondoshuv metodologiyasi tarixiy jarayonlarni aholi barcha tabaqalarning manfaatlarini hisobga olgan holda o'rganishini taqazo etadi.

Voqealarni alohida bir ijtimoiy tabaqa - kambag'allar, yo'qsillar yoki mulkdor, boylar manfaati nuqtai nazaridan turib tahlil etish, yoritish bir tomonlama yondoshuv bo'lib, u tarixni soxtalashtiradi, to'g'ri xulosaga olib kelmaydi. Sovet imperiyasining taqdiri va Sovet tarixshunosligi esa buning yaqqol misoli bo'la oladi.

Shohlar, amirlar, beklar faoliyatini yoritishda sivilizatsion (taraqqiyot) nuqtai nazaridan yondoshmoq

kerak.

Ularni boy tabaqalardan chiqqan, katta mulkdor bo'lgani uchungina qoralash badnom qilish haqiqatdan adolatdan emas.

Mamlakat yurtboshisiz, boshliqsiz, davlat idora organlarisiz, boshqaruvchilar, amaldorlarsiz bo'lmashini isbot etishning hojati ham bo'lmas kerak. Shunday ekan barcha davlat arboblari, amaldorlarini yoppasiga qoralash ham to'g'ri emas. Jonajon Vatanimiz ko'xna tarixi ham ular orasida xalqparvar, ma'rifatparvar, adolat bilan siyosat yuritgan mashhur yurtboshilar, arboblar bo'lganligidan guvohlik berib turibdi. Ijtimoiy yondoshuv prinsipi davlat arboblarning, siyosiy kuchlar, partiyalar, turli uyushmalar, ular yo'l boshchilarining tarixiy taraqqiyot darajasiga ko'rsatgan ijobiy yoki salbiy ta'sirini, jamiyatni u yoki bu yo'ldan rivojlanishdagi rolini bilib olishda muhim ahamiyatga egadir.

Mamlakatimiz tarixini o'rganishda milliy qadriyatlar, xalq an'analari va urf-odatlar, din, islom dini tarixi, odamlarning diniy e'tiqodlari, diniy ta'limotlar va ularning asoschilari faoliyatini tahlil qilishga, yoritishga sivilizatsion munosabatda bo'lib, ularni hurmatlash, e'zozlash nuqtai nazaridan yondoshmoq kerak.

Hayot xalqning necha ming yillar davomida yaratgan ma'naviy madaniyatini, axloqiy mezonlarini ikkiga - ekspluatatorlik madaniyati va axloqi hamda ekspluatatsiya qilinuvchilar madaniyati va axloqi bo'lish va birinchisini qoralashdan iborat lenincha yo'riqnomaning naqadar zararli ekanligini ko'rsatdi. Ma'naviy merosga bunday yondoshuv ma'naviy qashshoqlanishga, milliy qadriyatlarning, urf-odatlarning oyoq osti qilinishiga, ko'pgina olimlar, ma'rifatparvar ziyolilar, ruhoniylarning badnom qilinishiga olib kelganligini hech qachon unutmaslik kerak.

Tarixni o'rganishda yuqoridagi metodologik qoidalar bilan bir qatorda faktlarni taqqoslash, mantiqiy-qiyosiy xulosalar chiqarish, davrlashtirish, sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish, statistik, matematik va boshqa usullardan ham foydalanish mumkin.

3 masala. O'zbekiston tarixi fanini o'rganish yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, el-yurt va millat manfaatining o'tashin himoyachilari qilib kamol toptirishda cheksiz imkoniyatlarga egadir. Miloddan avval yashagan yunon adibi Lukianning "Vatan sha'niga" nomli asarida shunday so'zlar bor: "Mening bu gaplarim g'oyat eski gaplardir. Lekin haqiqat shundaki, o'z otasini sevmagan farzand o'zganing otasini ham xurmat qila olmaydi, o'z Vatani sevmagan kishi o'zgalar Vatani ham qadrlay olmaydi" Ikki ming yildan ortiqroq vaqt o'tgan bo'lsa ham Lukianning bu gaplari naqadar zamonaviy jaranglaydi.

Vatan deganda nimani anglash kerak?

(Sizlar bu borada qanday fikrlaysizlar)

To'g'ri 1) Vatan - bu kishi tug'ilib o'sgan va o'zini uning fuqorasi xisoblagan mamlakat, ona yurt

2) Vatan - kishining tug'ilib o'sgan o'lkasi shahri yoki qishlog'i, yurt, diyor.

3) Vatan - turar joy, boshpana, makon, uy. Shuning uchun ham biz Vatan so'zini ko'p ishlatamiz, ayniqsa qadriyatlarimizning belgilashda, masalan, Vatan tuprog'i, Vatan adabiyoti, Vatan tuyg'usi, Vatan tarixi..

Vatan chegarasini uning tarixi belgilaydi. Shuning uchun ham vatan tarixini qaytarib yoki to'xtatib bo'lmaydi. Shuning uchun ham Vatan tarixini bo'yoqlarsiz, ob'yektiv tarzda o'rganishimiz lozim.

Mashhur qozoq yozuvchisi O'ljas Sulaymonov aytadiki: "Bizning butun qadimgi tariximiz amalda jahon tarihiga kirmagan.. Turkiy xalqlar tarixi, madaniyati yana ham kengroq va ongli targ'ib qilinishi kerak"

O'z o'tmishimizga, tariximizga va madaniyatimizga yetarli e'tiborda bo'lmaganimiz sababli nafaqat yoshlarimiz, hatto yoshi ulug' avlodlarimizning ham aksariyat ko'pchiligi, shu jumladan ziyolilarimiz ham o'z ona yurt tarixini bilmaydilar. Chunki sovet hokimiyati yillarida maktablarimizda Rossiya tarixini, Rumo, Vaviloniya, Vizantiya, Fransiya, Amerika, ingliz va boshqa jahon mamlakatlari tarixini o'qitdik, ammo O'zbekiston tarixiga e'tibor berilmadi. Yoshlarimiz Yuliy Sezar, Kay Xisrav, Buyuk Karl, Chingizxon, Napoleon, Ivan Grozniy, Pyotr I, Boris Godunovlarni, yaxshi biladilar, ammo Buyuk Temur, Ulug'bek, Boburlarni bilmaydilar. Temurni bilganlaram uni mo'g'ullar avlodidan va bosqinchi kallakesar deb tushunadilar. Yoki xalq baxt-saodati uchun hurlik va ozodlik uchun ekspluatatsiya va zulmga qarshi kurashgan rumolik Spartakni, fransuz Janna d'Ark, Rossiyadan I.Bolotnikov, Stepan Razin, Yemelyan Pugachyovlarni, Suvorov va Kutuzovlarni yoshlarimiz yaxshi biladilar, ammo o'zimizning To'maris,

Spitamen, Muqanna, Tarobiy, Temur Malik, Jaloliddin singari afsonaviy milliy qahramonlarimiz ham bo'lganligini bilmaydilar. Albatta jahon tarixini ham yoshlarimiz bilishlari kerak, ammo o'z yurtining Vatan tarixi bilmay bo'lmaydi.

Demak, Vatanimiz tarixining komil, ma'naviy boy insonni tarbiyalashdagi ahamiyati beqiyosdir.

Komil inson tushunchasiga yurtboshimiz shunday ta'rif beradilar:

“Komil inson deganda biz avvalo ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli bilimli odamni oldi qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi, u har bir narsani aql-mantiq tarozisiga solib ko'radi, o'z fikr o'yi, xulosasini mantiq asosida ko'rgan kishi yetuk odam bo'ladi”.

Bugungi kunda xalqning, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish borasidagi ishlar davlatning oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Ma'naviyat, ma'naviy barkamollik shundaygina kishi ruhiga kirib qolmaydi. Unga har kuni va har soatda tinmay sabr-bardosh bilan mehnat qilish orqali yetishtirish mumkin. Bu xayrli ishda O'zbekiston tarixini o'rganishning o'rnini beqiyosdir.

“Tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta tarixiy xotira kerak. tarixiy xotirasi bor inson - irodali inson. Kim bo'lishdan qat'iy nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday insonlarni yo'ldan urish mumkin emas. Ayniqsa bunday insonlarni har xil aqidalar ta'siriga tortish mushkul bo'ladi”.

2 -mavzu: O`zbekiston insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o`choqlaridan biri:

Reja:

1. Jaxon sivilizatsiyalar tizimida. Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining o`rni.
2. Ibtidoiy jamoa tuzumi; Uning tarixiy davrlari.
3. Bronza va temir davri yutuqlari.
4. Yurtimizdagi dastlabki davlatlar diniy e`tiqodlarning paydo bo`lishi. "Avesto" kitobi.

Adabiyotlar

1. Arxeologlar hikoya qiladi. To`plam T., 1974y.
2. Arxirovskiy A. Arxeologiya asoslari. T., 1970y.
3. Kabirov J, Sagdullayev A. O`rta Osiyo arxeologiyasi. T., 1990y.
4. Muxammadjanov A. R. Qadimgi Buxoro. T., 1991y.5.
5. O`zbekiston tarixi. A. Sagdullayev, B. Eshov taxriri ostida. T., Universitet, 1997y.
6. Gafurov B.G, Tadjiki. t., 1 Dushanbe, Irfon 1989y.

Ma`ruza maqsadi:

Dunyoning turli burchaklarida yashaydigan halqlarning o`ziga xos tarixiy davrlari, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlari mavjud, ularning ma`lum taraqqiyot bosqichiga ko`tarilishi sivilizatsiyatushanchasi deb izohlanadi.

O`zbekiston xududi eng qadimgi davrlardan boshlab sivilizatsiya o`choqlaridan biri ekanligi hozirgi kunda hech qandiy shubxa tug`dirmaydi.

Bizning maqsadimiz O`zbekistonning bu taraqqiyot bosqichida insoniyatni paydo bo`lishi va rivojlanishi, jamiyat rivojlanish darajasi, moddiy va ma`naviy madaniyatini yuksalishi, qabilalar va xalqlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlarni o`rgatishdan iborat.

2 mavzudagi bilimlarning egallanganlik darajasini aniqlash uchun tayanch tushunchalar:

Sivilizatsiya tushunchasi; paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza asri, temir asri antropogenez jarayoni, davlatchilik tushunchasi, diniy e`tiqod, zardo`shtilik.

1 savol. Hozirgi kunga kelib Vatan tarixiga bo`lgan diqqat-e`tibor nixoyatda kuchaygan bir davrda, O`zbekiston xududi eng qadimgi davrlardan boshlab jaxon sivilizatsiyasining o`choqlaridan biri ekanlagiga hech qanday shubxa qolmadi. Undan tashqari, nafaqat O`zbekiston, balki, butun O`rta Osiyo xududlarida olib borilayotgan keng miqyosdagi tadqiqot ishlarining natijalari xam Vatanimizning jaxon sivilizatsiyasida tutgan yuqori o`rnini yana bir bor ta`kidlaydi.

Dunyoning turli burchaklarida yashaydigan xalqlarning tarixning turli davrlarida, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarida erishgan yutuqlari xamda taraqqiyot bosqichiga ko`tarilishini sivilizatsiya tushunchasi deymiz. Bu taraqqiyot bosqichi insoniyatning paydo bo`lishi va rivojlanishi, jamiyat rivojlanish darajasi, moddiy va ma`naviy madaniyatning yuksalishi, qabilalar va xalqlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlar bilan izohlanadi.

O`rta Osiyo sivilizatsiyasi turli xududlarda turli davrlarda paydo bo`ldi va rivojlandi. Misol uchun, janubiy xududlarda yashagan qadimgi qabilalar miloddan avvalgi VI ming yillikdayoq dexqonchilikka o`tib, unumdor xo`jalikni rivojlantirgan bo`lsa, bu davrda shimoliy xududlardagi qabilalar asosan ovchilik, baliqchilik va chorvachilikning ilk shakllari bilan shug`ullanganlar. Bu notekislik jarayonini tabiiy-geografik sharoitlar va o`zaro munosabatlar bilan izoxlash mumkin. Bu o`rinda O`rta Osiyoning cho`l va dasht xududlari xamda tog`oldi va daryo voxalari xududlarining rivojlanish darajasidagi madaniy notekislikni taqqoslab ko`rish (Kopetdog`, Xisor, Zarafshon tog` oldi xududlari xamda Qizilqum, Qoraqum, Qashqadaryo va Zarafshon voxasining dasht xududlari) muximdir.

Undan tashqari O`rta Osiyoda turli tuman madaniyat yaratgan qadimgi axolining neolit davridayoq,

ya'ni miloddan avvalgi VI-IV ming yilliklardagi munosabatlari va bu axolining Sharqdagi, dastavval, Old Osiyodagi boshqa qadimgi sivilizatsiya o'choqlari bilan uzviy bo'lishi xam maxalliy sivilizatsiyaning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

O'zbekiston xududlaridagi eng qadimgi odamlarning manzilgoxlari Farg'ona vodiydagi Selung'ur, Toshkent viloyatidagi Ko'lbuloq, Buxorodagi Uchtut makonlaridan topilgan. Bu davr odamlari toshlardan qo'pol qurollar (chopperlar) yasab, termachilik va jamoa bo'lib ov qilish bilan shug'ullanishgan.

Ilk paleolit davri odamlari jismoniy jixatdan xam, aqliy jixatdan xam xozirgi odamlardan farq qilishgan. Tabiat oldida ojiz bo'lib, unda tayyor bo'lgan maxsulotlarni o'zlashtirganlar. Ular na diniy tushunchani, na dexqonchilikni va na chorvachilikni bilganlar.

O'rta paleolit davri makonlari Toshkent voxasidagi Obiraxmat, Xo'jakent, Samarqanddagi Omonqo'ton, Boysun tog'laridagi Teshiktosh makonlaridan topilgan. Obiraxmat makoni yoysimon shaklda bo'lib, bu yerda 10 m qalinlikdagi 21 ta madaniy qatlam aniqlangan. Topilmalar orasida nukleuslar, parrakchalar, o'tkir uchli sihcalar, qirg'ichlar uchraydi, shuningdek, turli xayvonlar suyaklari ham ko'pchilikni tashkil etadi. Yana bir mashxur yodgorlik Teshiktosh g'or makoni bo'lib bu yerdan turli-tuman qurollar va xayvon suyaklaridan tashqari, 9-10 yashar bolaning qabri qazib ochilgan. Qabrdagi murdaning yoniga turli tosh qurollar va arxar shoxi qadab qo'yilgan. O'rta paleolit davriga kelib ibtidoiy jamiyat odamlarining mehnat qurollari takomillashib turmushida yangi unsurlar paydo bo'la boshlaydi. Eng muhimi, ibtidoiy to'dadan urug'chilik jamoasiga o'tish boshlanadi. Shimoldan ulkan muzlik siljib kelishi natijasida olov kashf etiladi. Odamlar o'choqlar atroflarida to'planib ibtidoiy turar-joylarga asos soldilar. Jamoa bo'lib ov qilish paydo bo'ldi.

So'ngi paleolit qadimgi tosh asrining so'ngi bosqichidir. Bu davrga oid makonlar Ohongorondagi Ko'lbuloq, Toshkentning g'arbidagi Bo'zsuv 1, hamda Samarqand shahridan topilgan. Ulardan topilgan topilmalar orasida qirg'ichlar, kesgichlar, sihcalar, pichoqlar, boltalar kabi qurollar bor. Bu davrga kelib odamlar faqat tog'li xududlarda emas, tekisliklarga ham tarqala boshlaydilar. Bu davrning eng katta yutug'i urug'chilik tuzumiga (matriarxat) o'tilishidir.

Mezolit davri yodgorliklari Surxondaryodagi Machoy g'or - makonidan, Markaziy Farg'onaning ko'pgina yodgorliklaridan topib o'rganilgan. Bu davrga kelib muzlik yanada shimolga qaytadi. Hayvonot va o'simlik dunyosida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Insoniyat o'z tarixidagi dastlabki murakkab moslama - o'q - yoyni kashf etadi.

Mezolit davri qurollari paleolitga nisbatan ihchamligi va sifatiligi bilan farq qiladi. Mezolit davri qabilalari asosan ovchilik va termachilik xo'jaligini yuritganlar. Bu davrning oxirlariga kelib dastlabki uy chorvachiligi yoki xayvonlarni xonakilashtirish boshlanadi.

Neolit davriga kelib qadimgi qabilalar xayotida katta - o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu davr odamlari aksariyat xollarda daryo sohillari va tarmoqlari yoqasida, ko'llar bo'ylarida yashab, tabiiy imkoniyatlardan kelib chiqib, baliqchilik va ovchilik yoki dehqonchilik va chorvachilik xamda qisman xunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Eng katta yutuqlardan biri - kulolchilikning paydo bo'lishidir. Shuningdek, bu davrga kelib to'qimachilik va qayiqsozlik ham paydo bo'ladi. Neolit davri qabilalari xo'jalik shakllariga qarab quyidagi madaniyatlarga bo'linadi: Joytun madaniyati, Kaltaminor madaniyati, Hisor madaniyati.

Joytun madaniyati. Janubiy Turkmaniston hududidagi mil. avv. XI-V ming yilliklarga oid madaniyat. Bu yerdan O'rta Osiyodagi birinchi paxsa uylar qoldiqlari, sopol idishlar namunalari aniqlangan. Aholisi asosan chorvachilik, dehqonchilik va qisman ovchilik bilan shug'ullangan.

Kaltaminor madaniyati. Qadimgi Xorazm hududidan topilgan bo'lib, mil. avv. V-IV ming yilliklarga oiddir. Topilmalar Kaltaminor qabilalarining baliqchilik, ovchilik va qisman hunarmandchilik bilan shug'ullanganligidan dalolat beradi.

Hisor madaniyati. Asosan, Hisor - Pomir tog'laridan topilgan. Mil. avv. V-IV ming yilliklarga oid. Hisorliklar sopol idishlar yasab, asosan chorvachilik, ovchilik, qisman termachilik bilan shug'ullanganlar.

Eneolit - mis-tosh davrida odamlar dastlabki metal bilan tanishdilar. Bu davrga kelib mis qurollar ancha takomillashgan bo'lsada, undan og'ir mehnat qurollari yasashning imkoni yo'q edi. Misdan asosan uy-ro'zg'or buyumlari, taqinchoqlar va xarbiy qurollar yasalgan. Eneolit davri yodgorliklari Buxoro

viloyatining Lavlakon, Beshbuloq, Uchtut (mis koni) mavzalarida, Samarqand atroflarida (Sarazm madaniyati) topib tekshirilgan. Bu davrga kelib dehqonchilik O'rta Osiyoning shimoliy-sharqiy hududlariga ham yoyildi.

Hozirgi kunda ibtidoiy jamoa tuzumining turli sabablarga bahs bo'layotgan muammolaridan biri antropogenez - odamning paydo bo'lishi va rivojlanishidir. Turli hududlarda qadim zamonlarda yashagan ilg'or mutafakkirlar odamning paydo bo'lishi haqida ilmiy ta'rifga yaqin fikrlarni bayon etganlar. Ular asosan insoniyat hayvonot olamidani ajralib chiqqan degan fikrni bildiradilar. Insoniyat paydo bo'lishi millionlab davom etgan rivojlanish jarayonining natijasidir. Eng qadimgi qazilma odam qoldiqlari Sharqiy Afrikadan (Olduvay) Indoneziyadan (Yava Pitkanthrop), Xitoydan (Sinantrop), Germaniyadan (Geydelberg) topib tekshirilgan. Keyingi zamonaviy odamga ancha yaqin bo'lgan odam qoldiqlari dastlab Neandertal (Germaniya) vodiysidan topilgan (O'zbekistondagi Teshiktosh).

O'rta tosh davrida, birinchi navbatda mehnat jarayonida inson tafakkurining rivojlanishi natijasida neandertal qiyofasidagi odamlar hozirgi qiyofadagi odamlarga aylana boshladilar. Ular jismoniy jixatdan kamol topib, hozirgi qiyofadagi kishilar vujudga keldi va shu bilan antropogenez jarayoni tugadi (kromanon ko'rinishidagi odamlar). Odamning paydo bo'lishi yerdagi eng buyuk xodisalardan biri bo'lib, u dastlab toshdan oddiy to'qmoq yasagan bo'lsa, uzluksiz mehnat, intilish natijasida yuksak madaniyat yaratish darajasiga yetib keldi.

Dunyo tarixida ibtidoiy tasviriy san'at, xususan g'orlarning devorlariga turli tasvirlar chizish so'ngi paleolit davriga o'g'ir. O'rta Osiyodagi g'orlar, ungurlar va qoyatoshlarga ishlangan rasmlar mezolit davrida paydo bo'ladi. Neolit davriga kelib esa rivojlangan bosqichga ko'tariladi. Kaltimanor, Hisor, ayniqsa Joytun madaniyatiga mansub yodgorliklardan ibtidoiy san'atning namunalari topilgan. O'rta Osiyoning tog'lik hududlarida keng tarqalgan qoyatosh rasmlari ishlanish usuliga ko'ra ikki xil bo'lgan. Bir xili bo'yoq (oxra) bilan, ikkinchi xili esa - urib-o'yib ishqlash, chizish usuli bilan ishlangan (petrogliflar) rasmlardir.

O'zbekistondagi qoyatosh rasmlarning eng nodir namunalari Zarautsoy, Sarmishsoy, Bironsoy, Ko'ksaroy, Takasoy, Teraklisoy kabilari bo'lib, ular yuzdan ziyoddir. Bu yerdagi qoyatoshlarda O'zbekistonning qadimgi va hozirgi xayvonot olami vakillarining rasmlarini kuzatish mumkin. Ular ibtidoiy buqalar, sherlar va yo'lbarslar, qoplon, tulki va bo'rilar, bug'u va jayron kabilardir. Rasmlar orasida o'q-yoy, uzun qilich, xanjar, dubulg'a, qopqon kabi narsalar ham ko'pchilikni tashkil etadi.

Eng qadimgi rasmlar Zarautsoy (Surxondaryo) bo'lib, bu rasmlar mezolit-neolit, ya'ni, mil. avv VIII-IV ming yilliklarga o'g'ir. Qoyatosh rasmlari orqali o'sha davr odamlarining ov, mehnat va jangovor qurollarini bilib olishimiz mumkin. Shuningdek, qoyatosh rasmlar qadimgi avlodlarimizning g'oyaviy qarashlari va diniy e'tiqodlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Bronza va temir davri yutuqlari. Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikriga qaraganda bronzaning vatani Kichik Osiyo va Mesopotamiya bo'lgan. Mil. avv. III ming yillikka kelib O'rta Osiyo hududlarida ham bronza qurollar keng tarqaladi. O'zbekiston hududlarida bronza davri yodgorliklari ko'plab uchraydi. Bu davrga mansub madaniyat izlari dastlab Xorazm, keyinroq esa Zarafshon va Qashqadaryo hamda Farg'ona vodiylaridan topilgan.

Ulardan eng yiriklari Tozabog'yob, Zamonbobo, Sopollitepa, Jarqo'ton, Chust, Amirobod yodgorliklaridir. Bu yodgorliklarda olib borilgan tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, bronza davrida kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotida katta-katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aholi xo'jalik yuritishning muayyan ko'rinishlariga, ya'ni vohalarda, ko'llar, daryolar va soylar bo'ylarida dehqonchilikka, dasht va tog'oldi hududlarida chorvachilikka (mehnatning dastlabki yirik taqsimoti) o'tib oldi.

Bu davrga kelib O'rta Osiyoning ijtimoiy tuzumida ham o'zgarish jarayonlari bo'lib o'tdi. Urug'chilik tuzumi bronza davrida ham davom etgan bo'lsada, ona urug'ining mavqei yo'qolib bordi. Metal eritish va xo'jalikning rivojlanishi natijasida jamiyatda erkaklar mehnati va mavqei birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib bordi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, bronza davri jamiyat taraqqiyotida, dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va xunarmandchilik rivojlanishida erkaklar yetakchilik qilganlar. Ayollar erkaklar ishlab chiqargan narsalarni iste'mol qilishda ishtirok etsalar ham, unga egalik qilishdan mahrum bo'ladilar. Ishlab chiqarishda xukumronlik qilish shu tariqa erkaklar qo'lga o'tadi va ona urug'i tuzumi o'rmini ota

urug'i (patriarxat) tuzumi egallaydi.

Bronza davriga kelib ishlab chiqaruvchi kuchlarning, o'sishi mehnat unumdorligining oshishi natijasida ayrim kishilar qo'lida boylik (dehqonchilik qurollari, dehqonchilik, chorvachilik mahsulotlari va boshq.) to'planib borgan bo'lsa, ba'zi birlari qashshoqlashib ularga qaram bo'lib boradi.

Bronza davriga mansub madaniyat izlari O'zbekistonda dastlab Xorazm, keyinchalik esa Zarafshon va Qashqadaryo hamda Farg'ona vodiylarida topilgan. Bu hududlardagi manzilgohlarni o'rganib shunday xulosa chiqarish mumkinki, bu davrda ikki xil madaniyat xukum surgan. Birinchisi dehqonchilik bilan shug'ullanadigan qabilalar madaniyati. Ikkinchisi, qurg'oqchilik yerlarda, tog'oldi yaylovlarda chorvachilik bilan shug'ullanuvchilar. Metallardan ishlangan qurollar qadimgi ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirgani tufayli Markaziy Osiyo dasht va tog'oldi xududlarida yashagan aholi boshqa aholidan (dehqonlardan) ajralib chiqadi va asosan chorvachilik bilan mashg'ul bo'ladi. Bu tarixiy jarayon kishilik jamiyati taraqqiyotidagi dastlabki yirik mehnat taqsimoti edi.

O'zbekistonda bronza davrida asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan qabilalarning moddiy-madaniy yodgorliklari Xorazmdagi Tozabog'yob madaniyati (atrofdagi kanal nomi) nomi bilan mashhur. Tozabog'yob madaniyatiga mansub Ko'kcha makoni atrofidan qadimiy mozarlar ochilgan. Qabrdagi o'liklar bukchaytirib, boshlari g'arbga qaratib qo'yilgan. Bosh tomonda idishlar va bronza, zebziynatlar topilgan. Umuman olganda, Tozabog'yob madaniyatiga mansub yodgorliklar Xorazmda 50 dan ziyodi o'rganilgan.

Xorazmda tekshirilgan so'ngi bronza davri yodgorliklari Amirobod madaniyati nomi bilan atalgan. Bu davr yodgorliklari yarim yerto'la, turar joy, sug'orish inshootlari izlari va qo'lda yasalgan sopol idishlar bilan izohlanadi.

Ilmiy adabiyotlarda quyi Zarafshon bronza davri yodgorliklari Zamonbobo nomi bilan ataladi. Ochilgan 46 ta qabr qoldiqlaridan 8 tasi juft 28 tasi esa yakka holda dafn etilgan jasad skeletlari qayd etildi. Xatto ikki qabrda kattalar yoniga yosh bola jasadi qo'yilgani aniqlangan. Erkaklar qabrlaridan asosan o'q - yoy paykonlari, pichoqlar, tosh qurollar, ayollar qabrlarida esa sopol idishlar bilan bir qatorda bronza ko'zgu, surmadon, upadon kabi pardoz buyumlari, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlardan turli shaklda ishlangan munchoq va marjonlar qayd etildi.

Zamonbobiliklar asosan, dehqonchilik va xonaki chorvachilik bilan kun kechirib, chaylasimon kulbalarda istiqomat qilganlar.

Zamonbobilik jamoasida xunarmandchilikning turli tarmoqlari, xususan kulolchilik, bronzani eritib undan xar xil ashyolar yasash, ayniqsa toshni ishlash texnikasi ancha rivojlangan.

Sopollitepa topilmalari mil. avv. II ming yillikning birinchi yarmi va o'rtalariga oiddir, ilmiy adabiyotlarda "Sopolli madaniyat" i nomi bilan mashhur va O'zbekistonning janubdagi dastlabki dehqonchilik qishlog'i hisoblanadi.

Shunday qilib bronza davrida kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Paleolit zamonida vujudga kelgan urug'chilik tuzumi bronza davrida ham davom etgan. Ammo bu davrda ona urug'i (matriarxatning) mavqei yo'qolib bordi.

Metal eritish va xo'jalikning rivojlanishi natijasida jamiyatda erkaklar mehnat va mavqei birinchi darajali ahamiyatga ega bo'ladi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, ona urug'i tuzumi o'rnini ota urug'i (patriarxat) tuzumi egallaydi.

Ota urug'i tuzumining rivojlanib borishi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi ayrim oilalarning boylik orttirishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berdi. Shunday qilib, so'ngi bronza va ilk temir davriga kelib Markaziy Osiyo dastlab mulkiy tabaqalanish, keyin esa ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari ro'y berdi.

Temir davri. Birinchi ming yilikda temir davri boshlangan. Temir qishloq xo'jaligi va xunarmandchilikda revolyutsion rol o'ynadi. Endi temir yirik maydonlarda ishlash uchun imkon yaratdi; u xunarmandga shunday o'tkir va mustaxkam ish quroli bo'ldiki, unga shu paytgacha mavjud materiallarning birortasi qarshi turolmas edi.

Inson uchun atrof-muhitga moslashishdan, uni o'ziga moslashtirishga o'ta boshladi. Yirik sug'orish inshootlari qurildi. 1 kilometrgacha bo'lgan kanallar qazildi. Mavjud maydonlardan unumli foydalanish

kishilarni markazlashish uchun imkon yaratdi. Farg'ona, Zarafshon, Chirchiq vodiylarida, Xorazm, Baqtriya, Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida yirik aholi punktlari vujudga keldi. Xunarmandlik takomillashib, metallni qayta ishlash takomillashdi, qo'l tegirmon (yorg'uchoq) paydo bo'ldi, devorlarga ganchdan ishlov berila boshladi, paxsa va guvaladan imoratlar qurila boshladi. Uylar qurilishidagi turli-tumanliklar (yerto'la, guvala, yog'och paxsa) ibtidoiy jamoa tuzumi buzila borib uning o'rnini sinfiy jamiyat egallay boshlagidan dalolat beradi. Dastlabki, shahar, davlatlar vujudga kela boshladi. (Chust, Dalvarzin, Ashqoltepa, Elaton va Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlaridagi shaharlar.)

O'rta Osiyo xalqlari haqida yozma ma'lumotlar mil. av. VIII asrda YAqin Sharq manbalarida uchraydi. Ularda Mo'g'iliston cho'llaridan Qrimgacha bo'lgan territoriyada "skiflar" yashagani haqida ma'lumot beradi. Rim tarixchisi Pompey Trog skiflarni "qadimiy qabila" (qadimiyligi jixatidan Misrga teng) deb atagan. Skiflar yashagan joylardan ko'plab oltindan yasalgan xayvonlar haykalchalar topilgan. Grek tarixchilari Strabon va Gerodot bu yerda yashagan qabilalar mashg'ulotlari xaqida ma'lumotlar berganlar.

Yunon tarixchilari (Pliney) fikricha skiflar umumiy nomi bilan O'rta Osiyoda 20 ga yaqin qabila va xalqlar yashagan. Ular ichida massagetlar, saklar, daylar, issedonlar, derbiklar, barkaniylar, tapurlar, astaklar, rumniklar, xorazmiylar, girkanlar, kaspiylar, argippaylar, egllar ajralib turishgan. Bular ichida massagetlar, saklar va xorazmiylarning ta'siri kuchli bo'lgan. Gerodot "Tarix" nomli asarida massagetlar "ko'p sonli" va "jangovor" bo'lishganini yozadi. Ular Amudaryoning o'ng qirg'og'idan Sirdaryogacha, bo'lgan territoriyada yashagan. Ular misdan nayza, kamonlar yasashgan. Ularning tillasi ko'p bo'lib, xar xil taqinchoqlar qilishgan. Ko'p oilalikdan yakka oilalikka o'ta boshlashgan. Strabon "Ularning bittadan xotini bo'lsada, boshqalarning xotini bilan ham ochiqchasiga yuraverishadi" deb yozgan. Ular tabitan ayyor, yovvoyi va jangovor bo'lib, biroq boshqalar bilan munosabatda soddadildir deb yozishadi yunon tarixchilari. Qarib o'lish yoki jangda halok bo'lish ular uchun faxriy xisoblangan. Kasallanib o'lganlarni yomon ko'rishgan va xayvonlarga tashlashgan. Ular ko'proq ko'chmanchi xayot kechirib, xayvon terisidan va junidan kiyimlar kiyishgan. Quyoshga sig'inishgan.

Yunon sayyoxi Dionisiy Periesht "Sirdaryo oqimi bo'ylab saklar yashaydi, ular kamon otishga nixoyatda ustadirilar" deb yozadi. Ular xozirgi janubiy Qozog'iston, Qirg'iziston, Yettisuv, Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysi territoriyasi bo'ylab yashashgan. Ularning ham asosiy qismi chorvachilik bilan shug'ullansada, katta qismi dehqonchilik qilishgan. Yunon tarixchisi Efor (405-303 mil.avv.y.). Ular adolatli "ko'chmanchi" bo'lib, boylikka o'ch emas, bir-biriga nisbatan adolatli, biroq ayollar, bolalar va butun oila umumiy deb yozadi. Ayollar ham erkaklar qatori jang qilishgan. Zarina ismli podsho ayolning xarbiy talanti yuqori bo'lgan. Yunonlar xorazmliklarga ham katta ahamiyat berishgan. Ular Amudaryoning quyi oqimida joylashgan tub joy aholidir. Ba'zi ma'lumotlarda, ular Janubiy Turkmaniston yoki Shimoliy Eronan kelib qolishgan degan fikrlar ham mavjud. Chunki xorazmiylar sulolasi Siyovushiylarning asoschisi Siyovush Eron afsonalari qahramonidir. Siyovush qadimgi Eroncha "qorasoch" degan ma'noni bergan, qadimgi turkcha "qorasoch" ni, "xorasmiy" deyishgan. Xorasmiylar kelib chiqishi haqida boshqa fikrlar ham mavjud. 4 savol. Urug' va qabila bo'lib birlashgan odamlar suvi bor yerlarda turar joy ko'rib yashagan. Sekin-asta yirik qishloqlar, shuningdek, dushmanlardan, tabiiy ofatlardan saqlash uchun o'zining eng aqlli va botir jangchilaridan birini u urug'ning rahnomasi qilib tayinlagan. Bir territoriyada yashab turgan bir necha urug' birlashib qabilaga aylangan. Eng kuchli urug'ning boshlig'i esa qabila boshlig'i hisoblangan. Qabilalar qo'shni sug'orma dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy taraqqiyot natijasida urug' jamoalarining parchalanishiga va quldorlikning rivojlanishiga olib keldi. yirik daryo vodiylarida dehqonchilik xo'jalikning asosiga aylanadi, cho'l va tog'li rayonlarda esa chorvachilik va bog'dorchilik hanuz katta ahamiyatga ega edi. O'rta Osiyoning ba'zi rayonlarida aholining ko'pchiligi (chorvadorlar) ko'chmani tarzda hayot kechirgan.

Qabilalar bilan urushlar (suv, yer, yaylov talashib va boshqalar) qilib turgan. Ba'zan boshqa davlatlar xujumidan himoya qilish uchun birlashishganlar. Yetakchi qabila boshlig'ining xukmronlik quvvati asta-sekin kuchayib, u kengashda boshchilik qiladi. Natijada u harbiy rahbarlik darajasidan podshoh (fors-tojicha-buyuk nazoratchi)ga aylanib, qabilasi oliy qabila deb hisoblangan. Podshoh qabilasi va uning a'zolari davlatning boshqarishda asosiy vazifalarni egallab oladilar. Podshoh shaxsiy posbonlariga ega bo'lib, unga

tayangan holda qabilalarni itoatda tutgan. Qadimgi Xorazm, Baqtriya va boshqa davlatlar shu tariqa vujudga kelgan. Bunday davlatlar dastlab dehqonchilik rayonlarida: Farg'ona, Xorazm, So'g'd, Marg'iyona rayonlarida, so'ngra esa chorvachilik rayonlarida vujudga kela boshladi.

Davlatni markazlashtirilgan tartibda boshqarishga o'tish vohalardagi yerlarda sug'oriladigan dehqonchilikning tez rivojlanishiga yordam berdi. Tog' soylarining suvlarini kichik ariqlarga oqizib, dehqonchilik qilishdan endi ancha uzunlikdagi kanallar qazib, dehqonchilik qilishga o'tildi.

O'rta Osiyo territoriyasida mln. avvalgi I ming yillikda vujudga kelgan dastlabki quldorlik davlatlari quyidagilar: Xorazm, Baqtriya, So'g'd, Parfiya.

Xorazm davlati O'rta Osiyoning Amudaryo etaklarida tashkil topgan. Bu davlat xaqidagi dastlabki ma'lumotlar Dorolarning Bihistun kitoblari va Avestoda uchraydi; shuningdek, XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashagan rus sharqshunos olimlaridan V.V.Bartold va N.I.Veselovskiylar hamda sovet davri tarixchisi Yakubovskiy, S.P.Tolstovlar olib borgan arxeologik va etnografik tadqiqotlarda ma'lumotlar berilgan. Xorazm aholisi eneolit davrida (million yil avval 2 ming yillik boshi) dayoq sug'orma dehqonchilik va chorvachilikning sodda usullaridan xabardor bo'lganlar. Sug'orma dehqonchilik qilish mukammallashtirildi, yaylov chorvachiligi rivojlangan. O'troq manzilgohlar 20 tagacha xonadoni birlashtirgan qishloqlarga aylangan. Sinfiy munosabatlar shakllanadi, shaharlar vujudga keldi, mustabid podshohliklar tashkil topdi. Ayni vaqta Xorazm vohasining shimoliy-sharqiy davlatlarda, Sirdaryo etaklarida chorva xo'jaligi ustun bo'lgan madaniyat vujudga kelgan bo'lsa ham uning sohiblari dehqonchilik qilinadigan rayonlar bilan yaqindan bog'liq edilar. Mazkur so'nggi bronza asri madaniyati asosida Orololdi dashtlarida Xorazm bilan asrlar davomida madaniy-tarixiy jihatdan bog'liq bo'lgan sak-massaget qabilalari madaniyati (Toshkent) vujudga keldi. Strabon (qadimgi yunon geografi va tarixchisi) ma'lumotlarida sak-massaget xalqlari tarkibiga kiritgan xorazmliklar million yil avval 7-6 asrda deyarli butun O'rta Osiyo va Sharqiy Eronning bir qismida qabilalar uyushmasini boshqarganlar va ularning eng taraqqiy etgan markazlari Murg'ob va Harirud daryolari havzasida bo'lgan deyiladi. Xorazm xaqidagi ma'lumotlar bevosita shu territoriyada topilgan manzilgohlar, qabristonlar va boshqa arxeologik topilmalar asosida tiklangan Kaltaminor madaniyati, Ko'kcha-3 qabristoni, Amirobod madaniyati, Qo'zaliqir, Tuproqqal'a materiallari asosida to'ldirilgan.

Xorazm million yil avval 6 asr o'rtalarida Axmoniyilar davlati tarkibiga kirgan miloddan avvalga 4 asrda esa Iskandar Zulqarnayn tomonidan bo'sundirilgan. Miloddan avvalgi 4-3 asrlarda Xorazm iqtisodiy va madaniy jihatdan ravnaq topgan sug'orish sistemasi kengaytirilgan va mukammallashtirilgan, yangi shaharlar (Bozorqal'a, Jonbosqal'a) va ibodat markazlari (Qo'yqirilgan qal'a) qurilgan, xunarmandchilik va san'at rivojlangan. Miloddan avval 1 ming yillik oxirlarida Xorazm madaniyatida dasht qabilalari ta'siri aniq ko'zga tashlanadi. Ko'plab topilgan kushon tangalari, ba'zi tasviriy san'at yodgorliklari stili milodning dastlabki asrlarida Xorazm Kushan podshohligiga tobe bo'lgan taxmin qilinadi: Tuproqqal'adan topilgan xujjatlar Xorazmda quldorlik mavjud bo'lganligini ko'rsatadi; bu xujjatlar "Xorazm erasi" (boshi mil. 1 asr o'rtalariga to'g'ri keladi) deb ataluvchi yil hisobi bilan sanalgan. Xorazmda zardushtiylikning mahalliy varianti xukmron din hisoblangan. Shuningdek, Xorazm yozuvi ham mavjudligini tuproq qal'adagi arxiv xujjatlarida qayd qilingan hamda teri va yog'ochga, shuningdek, tangalarga, muhrlarga va metal buyumlarga bitilgan yozuvlar tasdiqlaydi.

Baqtriya davlati Amudaryoning o'rta oqimida, xozirgi Tojikistonning janubiy tumanlari, O'zbekistonning Surxondaryo viloyati va Turkmanistonning sharqiy qismi hamda Shimoliy Afg'oniston yerlarini o'z ichiga olgan. Baqtriya tarixiy manbalarda Baktriyana, Baktra nomlari bilan tilga olinib, qadimgi eroncha-boxtar zamin ya'ni "sharq tomonidagi o'lka" ma'nosini bildiradi. Baqtriya to'g'risidagi ma'lumotlar eng qadimgi Eron podshohlari: Doro va Kserks yozdirgan Behistun va Naqshi Rostam kitoblarida, "Avesta"da qadimgi yunon asarlarida zikr etilgan. Bu ma'lumotlarga ko'ra Baqtriya territoriyasida qadim zamonlardan oq dehqonchilik rivojlana boshlagan. Miloddan avvalgi 6-4 asrlarda Baqtriya Axmoniyilar davlatining satrapligiga aylangan. Baqtriyaning bosh shahri Balx yaqinidagi Zariaspa bo'lgan. Million yil avval 4 asrda Iskandar Zulkarnayn bosib oladi.

So'g'd davlati territoriyasi Qashqadaryo va Zarafshon daryolari xavzalaridagi yerlardan iborat bo'lgan

(hozirgi O'zbekiston va Tojikiston territoriyasi) so'g'd so'zi yunoncha So'g'diyonadan olingan. So'g'd haqida ma'lumotlar dastlab Avesto, Doro qabri kitoblarida shuningdek, Xitoy, arab-foro va boshqa manbalarida berilgan. So'g'd davlati aholisi bo'lgan sug'diylarning asosi saklarning ko'chmanchi va o'troq qabilalaridan iborat bo'lib, miloddan avvalgi 1 ming yillik o'rtalaridan boshlab So'g'dga kelib joylashgan. So'g'diylar sug'orma dehqonchilik, bog'dorchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Ularga milodning boshlaridan sharqdan Yuechji, hunn, turkiy qabilalarketmaket kelib qo'shilib turgan. So'g'diylarning oromiy alifbosi asosida vujudga kelgan So'g'dga yozuvi bo'lib, arab yozuvi singari o'ngdan chapga qarab yozilgan va o'qilgan. Bu alifboda yozilgan xujjatlar Turfon, Mug' tog'idan topilgan. Qadimgi Xitoy manbalarida sug'diylar bolalarni 5 yoshdan o'qish-yozish va hisobga o'rgatganliklari, bolalar balog'atga yetgach, savdo karvonlariga qo'shib, savdogarlikka o'rgatganligi aytiladi. Sug'diylar zardushtiylik diniga e'tiqod qilganlar. Ular marhumlarni ossuariylarga (sopol, tosh yoki ganch ko'raga) solib, nauslarga (to'rt burchakli bino shaklidagi gumbaz uy) dafn etganlar.

So'g'd davlati miloddan avvalgi 6-4 asrlarda Axmoniylar davlati tarkibiga kirgan. Miloddan avvalgi 4 asrda esa Iskandar Zulkarnayn zabt qilgan.

“Avesto” – muqaddas kitobi

Vatanimiz hududida yashab kelayotgan xalqlar dunyoning eng qadimiy madaniyatiga ega bo'lgan xalqlardan biri ekanligini tarixda “Avesto” nomi bilan ma'lum bo'lgan muqaddas kitob ham isbotlaydi. Dunyodagi eng qadimiy dinlardan biri Zardushtiylik, ya'ni otashparastlik, zoroastrizm dinidir. “Avesto” ana shu zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanadi. Unda Markaziy Osiyo hududlarida yashagan barcha turkiy xalqlar, fors-tojik, ozarbayjon, afg'on va boshqa xalqlarning qadimgi davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatlar, ma'naviy madaniyatlari o'z aksini topgan. Manbalarda “Avesto” kitobining muallifi Zardusht bo'lganligi qayd etiladi. U hayotda yashab o'tgan tarixiy shaxs. Taniqli faylasuf olim Ibrohim Karimov “Muloqot” oynomasining 1992 yil 11-12 (23-24) sonlarida chop etilgan “Zardushtiylik haqida haqiqat” maqolasida Zardushtning miloddan avvalgi 589-512 yillarda, ya'ni bundan 2600 yil muqaddam yashab o'tganligini yozadi. Olimlarning ta'kidlashiga, Zardusht Spitoma Markaziy Osiyo hududida faoliyati ko'rsatgan ilohiyotchi, faylasuf, shoir va tabiatshunos olim bo'lgan. Zardusht 40 yoshga yetganda o'zigacha bo'lgan ko'p xudolilik diniy aqidalariga hamda tabiat hodisalariga qarshi chiqib, yakkaxudolikka asoslangan birinchi diniy kitob “Avesto”ni yaratgan. Zardusht zardushtiylik dinining payg'ambari sifatida tan olgan va e'tirof etilgan. Olim E.Brezinning fikricha, zardushtiylik dini “Xind-Eron qabilasi dinidan kelib chiqqan”- deb aytgan. Olimlarning katta bir guruhi zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da yakkayu yagona xudo – Oxuromazda yaratgan 16 mamlakatning nomi berilgan.

“Avesto” kitobida Yer dumaloq shaklda yaratilganligi, uning atrofi okeanlar bilan o'ralganligi, nomlari keltirilgan mamlakatlardja xudo Oxuramazda ezgulik qonunlari Zardusht orqali vahiy qilganligi haqida yozilgan.

Zardusht yaratgan ilohiy kitobning o'zi bizgacha yetib kelmagan. Zardusht yashagan davrda kishilik jamiyati ilgarilab rivojlana berdi. Ko'chmanchilikka asoslangan Markaziy Osiyo, sug'orioladigan dehqonchilik, chorvachilik, xunarmandchilik borgan sari taraqqiy etdi. Yangi-yangi shaharlar, qishloqlar paydo bo'la boshladi.

Zardushtiylikning muqaddas kitoblar to'plami “Avesto” Iskandar Zulkarnayn hokimiyati inqirozga yuz tutgach, milodimizdan burungi 250 yillarda, arshoxiylar davrida yana tiklana boshlagan va yangi matnlar bilan to'ldirilgan. “Avesto”ning 3 ta kitobi qadimgi tilda va bittasi pahlaviy tilda tiklangan. Birinchi kitob “Videvat”, ya'ni devlarga qarshi qonun deb ataladi. “Yesin va Visparad” ni qo'shganda u “Videvat” – “Sade” deb ham yuritiladi. Ikkinchi kitob “Yosin” bo'lib, Zardusht hat nomalari uning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bu kitob 72 bashoratdan iborat bo'lib, Oxuramazdaning vahiylari haqligiga imon keltirishga doir duolar bor. Diniy sohada ezgulikni qaror toptirish ruhi bilan yovuzlik ruhi o'rtasida keskin kurash boradi. Oxuramazda ezgulikni vujudga keltiraveradi, yovuzlik ruhi bo'lgan Axriman unga qarshi kurashib odamlarni yomonlik sari, yovuzliklarga boshlayveradi. Imonli-e'tiqodli odam albatta ezgulik, yaxshilik sari

intiladi. Yovuz ruhlar – dev, pari, iblis va boshqa gunohlar, adashishlar, yolg'onlar, kasalliklar timsoli sifatida muhim o'rin tutadi. Oxuramazda odamlarni ulardan saqlanish, o'zini chetga olishga da'vat etadi.

“Avesto”da shaxsning ahloqiy xislatlari, haqgo'ylik, adolatlik ulug'lanadi. Bunday ezgu sifatlariga Oxuramazdaning o'zi ham ega bo'lib, u shu bilan birga ezgulikka zid bo'lgan yovuzlikka murasasiz dushmandir. Asarda Oxuramazda tilidan bunday deyiladi:

“Men borliqni Qo'riqchisiman
nomdir menga tag'in Himoyat
yana bir nom bilguvchilikdir
voqiflikdir yana bir tarzim,
mening nomim Haqgo'ylik erur
mening nomim Asraguvchidir”

“Avesto” kitobida materialistik dunyo, borliq muqaddaslashtiriladi. Yer, suv, havoni bulg'ash, ifloslantirish eng og'ir gunohlar qatoriga qo'shiladi. Bashoratlarning birida: “Bug'doy o'stirila boshlasa, devlarni ter bosadi, sovrilgan bug'doy tayyor bo'lsa, devlar zaiflashib qoladi. Un tayyor bo'lgach, devlar nolayu fig'on chekishadi. Devlarni mag'lub etish uchun xonadonda hamisha unli ovqat bo'lishi lozim. Bu ovqatni odam yegandan so'ng, devlar juda qizishib ketishadi va qocha boshlashadi”.

Oxuramazda qonunlari quruq va bo'z yerlarni o'zlashtirish, uni jamoa o'rtasida adolatli taqsimlash eng savobli ishlardan biri bo'lib hisoblangan.

Zardushtiylik o'gitlarda ona zaminga, dehqonchilikka, xunarmandchilik, chorvachilik, vatan va xalqqa ulug' muhabbat ruhi markaziy o'rinni egallaydi. Buni biz zardushtiylikning Navro'z, Ro'za, Mehr va boshqa barcha marosimlarida ochiq-oydin ko'ramiz va bir qarashda oddiygina ko'rinadigan bu so'zlarda juda katta falsafiy ma'nolar, tarbiyaviy o'gitlarborligiga amin bo'lamiz.

Bashoratdagi odam Ato haqidagi fikrlar o'ziga xos bir tarzda bayon etiladi. Unda ta'kidlanishiga, Iyim nomi bilan atalgan birinchi odam Oxuramazda irodasiga ko'ra 900 yil yashaydi va u shu davrda odamlarni, hayvon va qushlarni parvarish qiladi, qizil shu'lali olovni ko'paytiradi. Yer odamlar yashashi uchun torlik qilib qolganda u nayzani yerga sanchib yerni kengaytirishni iltijo qilib, xudodan so'rab va erishadi. Oxuramazda Odam Atoga yerga sovuq ofat kelayotganini va uni olish lozimligini aytadi. Iyim o'ziga bir uy qurib hayvonot va o'simlik zotlarining eng yaxshilardan bir juftan olib, ularni saqlab qoladi. Shu tariqa Odam Ato tirik, tabiatni ofatdan saqlab qolishga erishadi.

Ammo Odam Ato o'z qilgan ishlaridan mag'rurlanib, xudo tomonidan taqiqlangan ne'mat qoramol go'shtidan iste'mol qilib qo'yadi. U xudoning qahriga uchrab, abadiylikdan judo qilinadi. Ikkinchi davr Zardusht faoliyati va uning diniy islohoti bilan bog'liq. olib borilgan 3000 yillik kurashlardan so'ng Zardusht farzandi boshchiligida dunyoda tinchlik, osoyishtalik va forovonlik yuzaga keladi. Yomonlik va yovuqlik kuchlari timsoli bo'lgan dev-Axriman yengiladi. Uchinchi davrda qiyomat qoyim – kechirlishilari bo'yicha unga hisobot beradilar. Xudoni aldab bo'lmaydi.

“Avesto”ning uchinchi kitobi “Vasparad” deb ataladi. Bu kitobda olamni, hamma narsani bilishga oid pandu nasihatlar o'rin olgan. Kitob asosan ibodat namozlari yig'indisi bo'lib, 25 qismdan iboratdir. Bu kitob “Bundaxash”, qadimiy Eron tili pahlaviy tilidan yozilgan. Zardushtnomalar sig'inishni qoralaydi va yakka xudolikka da'vat qiladi. Bu yakka xudolikka asoslangan Zardushtiylikni asosiy yo'nalishi ko'p xudolikdan iborat bo'lgan mazdaniylik bilan aralashtirish oqibatidir. Zardushtgacha ham Oxura, Mitra, Mazda va boshqa xudolar haqida fikrlar bo'lgan. Ammo u xudolar xuddi odamlardek hayot kechirishgan. Zardusht talqinidagi Xudo-Oxuramazda esa oliy ibtido bo'lgan, uning bola chaqalari yo'q. u hamma narsani, butun borliqni yaratuvchi Oliy ruh bo'lib, barcha ezguliklar va yaxshiliklar bilan odamlar qalbini munavvar qiladi. Zardusht asos solgan yakka xudolik dini Eronda Axmoniylar hokimiyat tepasiga kelib, ular Markaziy Osiyoni bosib olgach zavolga uchraydi. “Kichik Avesto”da Oxuramazda olamni yaratuvchi va tartib o'rnatuvchilikdan ko'ra ko'proq qabilaviy xudolarni birlashtiruvchi bosh xudoga aylanib qoldi. Ahamoniylar Yunonistonni bosib olish uchun borgan urushlari hamda yunonlarning Eron va Turonni ishg'ol qilishlari oqibatida Oxuramazda Yunonistonda bosh xudo-Zeys, Zardusht esa Aflotun sifatida talqin etiladi. Ahamoniylar

zardushtiylikni o'z e'tiqodlariga bo'ysundirsalar, Iskandar Zulqarnayn bu dinni butunlay yo'q qilib tashlamoqchi bo'ldi, bu dinga oid kitoblarni butunlay yoqtirib yuboradi.

O'lkamiz arab xalifaligi qo'shinlari tomonidan fath etilib, islom dinning tarqalishi davrida ham zardushtiylik va uning muqaddas kitobi "Avesto" qattiq ta'qib ostiga olindi. Zardushtiylik Markaziy Osiyoda vujudga kelganligi va uning jahon madaniyatiga ko'rsatgan ijobiy ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. "Avesto"ning bizgacha yetib kelganligi uchun eng avvalo ingliz va fransuz olimlaridan minnatdor bo'lishmiz kerak chunki, 1755 yilda fransuz olimi A.Dyupperon Hindistonga ilmiy safar qilib, ularning ibodatlari, urf-odatlar bilan yaqindan tanishgan va "Avesto"ni fransuz tiliga tarjima qildi. "Avesto" G'arbiyyuvropa, Eron va Hindiston orqali bizga yetib kelganligidan undagi nomlar, ismlar va terminlar asliga to'g'ri kelmaydi.

Beruniy yozgan rivoyatlarga qaraganda Zardusht Baqtriya podshohi Vishtasp huzuriga kelib, "Avesto"ni unga tortiq qiladi. O'ng va so'l tomonlari kesilgan ko'ylak kiygan, yuziga parda tortilgan, qo'lida bir eski qog'ozni ko'kragiga mahkam bosganicha Zardusht kunduzgi uyqudan uyg'onib ketadi. Zardusht "Avesto" kitobini Vishtasp oldiga qo'ydi va xudoga iltijo qiladi. "Avesto" agar shu kitob haqiqatdan seniki bo'lsa, sen shu kitob bilan meni podshoh huzuriga yuborgan bo'lsang, meni misning zararidan saqlagin dedi. So'ng uning iltijosiga ko'ra, qizdirib eritilgan misni keltirildi, uni Zardushtning ko'kragiga va qorni ustiga qo'ydilar. Mis tanasi ustidan oqib tuklarga donachalar bo'lib, yopishdi, lekin kuydirmadi. Shu mahaldan e'tiboran Kavi Vistasp Zardusht e'tiqodini qabul qildi va o'ziga tobe o'lkalarga diniy bu e'tiqodni qabul qilishni buyurdi.

Tarixdan ma'lumki, zardushtiylik miloddan avvalgi VII asrdan milodimizning VII asrigacha qariyb ming yil Markaziy Osiyo, Eron, Ozarbayjon va boshqa o'lkalardan diniy e'tiqod sifatida yashadi. Zardusht yashagan va "Avesto" kitobi yozilgan davrda Markaziy Osiyoda aholining asosiy qismi o'troq hayotga, dehqonchilik, xunarmandchilikka o'ta boshlagan, ko'chmanchi chorvachilikka e'tibor kuchaygan, qadimgi shaharlar va dehqonchilik viloyatlari Sug'diyona, Marg'iyona, Baqtriya, Parfiya, Xorazmning shakllanishi jarayoni kechayotgan pallasi edi. Vatanimiz xalqlari hayotida yuz berayotgan bu ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar uning taraqqiyoti yo'liga g'ov bo'layotgan mafkurani chigilashni, yangi jamiyat talablariga javob bera oladigan diniy islohiyatni amalga oshirishni talab etar edi. "Avesto"da ana shu islohiy talab o'z ifodasini topdi.

"Avesto" asarida patriarxal urug' jamoasi haqida, uning so'nggi qismi Videvdotda iqtisodiy tengsizlik, sinfiy tabaqalanish haqidagi muammolar ochiladi. Jamiyatning ijtimoiy tarkibi va undagi sinfiy tabaqalanish jarayoni to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beriladi. Shunday qilib, "Avesto" miloddan avvalgi IX-VII asrlar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot haqida g'oyatda muhim ma'lumotlar beruvchi halqimizning merosi, ma'naviy boyligidir.

Uning uch o'g'il va bir qizi bo'lgan. Imonsiz odamlar yashayotgan mamlakatlar jumlasiga Parfiyona podsholigining markaziy Nisoya va Midiyaning eng katta shahri Raga kiritiladi. Foro tadqiqotchisi Kapadia fikricha, Zardushtning ilohiy faoliyati Vishpasp podsholigining poytaxti Balx shahri bilan bog'liqdir. U podshohlar homiyligida Zardusht Baqtriya payg'ambariga aylanganligiga diqqat-e'tiborini qaratadi. Zardushtiylik bo'yicha ilgarigi ko'pxudolik dinidan rasm-odat bo'lib qolgan murdalarni olovda kuydirib, kulini dafn etishni qat'iy qoralab, marhum suyaklarini maxsus ostadonlarga solib, ko'mishdan iborat yangicha odatlar joriy qilingan. Bunday ostadonlar tadqiqotchi YU.A.Rapoportning ta'kidlashiga, asosan Markaziy Osiyo hududlari yer ostidan topilayotir, Eron hududida esa bitta-yarimta uchramoqda, xolos. Bu hol zardushtiylikning vatani Markaziy Osiyo deb aytish uchun tarixiy asos bo'la oladi.

Zardusht yashagan davrda o'troq yashash turmush tarzining afzalliklarni ko'rsata bordi. Ana shu o'troqlik turmush tarzining odamlarga benihoya kulfatlar keltirayotgan ko'chmachilikka asoslangan turmush tarziga nisbatan afzalliklarini amalga yetkazish davrining asosiy muammosi bo'lgan. Ana shu zaruriy muammoni Zardusht hammadan oldin ko'ra olgan va uni hal qilish yo'llarini topa olgan. Xalqlarni, qabilalarni birlashtirib, farovonlikka erishtirishning birdan-bir yo'li yakka xudolik vahdoniyatga o'tish, deb bildi va o'zining butun ongli faoliyatini shu muqaddas ishga bag'ishlab, yakka xudolik uchun olib borilgan urush (jihld)dafzi ham halok bo'ldi.

Kitobda poklanish, yovuzlikni qarg'ayotgan vaqtda tanani qanday maromda tutishlik, shayton-iblislarni

haydashga qaratilgan harakatlar, gunohdan forig' bo'lishlik uchun quyidagi duo tavsiya qilinadi: "Ey, olamning xukmdori Oxuramazda! Men barcha gunohlarimga iqrorman, ularni takrorlamaslik uchun senga so'z beraman, har qanday niyatlardan ya'ni yomon fikrlardan voz kechaman, men fikrlagan va gapirgan yoki qilmoqchi bo'lgan va qila boshlagan va qilgan hamma nojo'ya ishlarimdan voz kechaman, qilgan gunohlarimni keng karaming ila kechirgil, tanam va jonimni u dunyoyu bu dunyoda munavvar etgil, ey parvardigorim". Zardusht Oxuramazdadan o'z ahloqiy qonun-qoidalarini ma'lum qilishni so'raydi. Oxuramazda butun mavjudlikning ikki oliy ibtidosi-ezgulik va yovuzlik to'g'risida vahiy qiladi. Bir-biriga qarama-qarshi bu boshlang'ich kuchlar doimo birgalikda mavjud bo'lib, ular hayot va o'lim, osmon va jahannam ma'nolarini bildiradi. Jahannam Oxuramazda vahiyida "Hayotning eng yomon onlari", osmon esa ruhning eng yuksak holati sifatida gavdalanadi. Olamdagi yovuzlik va notakomillilik hodisalar va ularning mohiyatidan kelib chiqadi. Ularni bartaraf etish esa istiqboldagi ish bo'lib, imonli kishilarning faolligi tufayligina bunga erishiladi, imonli kishilar Oxuramazda yuborgan qonun-qoidalar, tartibotlar, nasihat va o'gitlarga amal qilsalar ezgulik yovuzlik ustidan albatta g'alabaga erishib boraveradi.

Kitobda qayd etilishicha, olam qarama-qarshiliklar asosida qurilgan: jismoniy narsalarda yorug'lik bilan zulmat, jonli tabiatda hayot bilan o'lim, ma'naviy olamda ezgulik bilan yovuzlik, ijtimoiy hayotda odalatli qonunlar bilan qonunsiliklar o'rtasidagi doimiy qarama-qarshiliklar bor. Kitobning 30-bashoratida ta'kidlashicha, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi abadiy kurashda oraliq yo'q, har bir odam bu jarayonning u yoki bu tomonidan ishtirok etishga majbur. Shu boisdan dindorlikda imon-e'tiqod barkamollik nishonasi sifatida muhim o'rin tutadi.

Imon-e'tiqod odamlarga ezgulikni yovuzlikdan farqlash imkonini beradi.

Yosinning 14-bashoratida xudo: "Men ezgu fikrlarni, ezgu so'zlarni va ezgu amallarni yoqtiraman. Men mazdayosin qonunlariga asoslangan tartibotlarni ulug'layman" - dedi. Bundan ko'rinadiki, zardushtiylik imoni uch tayanchga asoslanadi: fikrlar sofliigi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligidir. Oxuramazda odamlarni o'z istaklarida xolis bo'lib, bir-birlari bilan murosasiz qilib yashashni odam o'rtasida hasadgo'ylik, shuhratparastlik, qonunsiz ishlardan o'zlarini tiyib yurishlarini, bergan so'zlarining ustidan chiqishni, unga sodiq qolish, qarzni vaqtida to'lash, aldamchilik va xiyonatdan xoli bo'lish imonlik alomatidir. Imonli odam o'g'rilik va talonchilikdan, o'z-o'ziga xiyonat qilish, ya'ni imonga xilof ishlardan o'zini saqlay biladigan komil insondir.

"Avesto"da keltirilgan jamiyatning ijtimoiy tarkibi haqida ma'lumotlarga suyanib fikr yuritadigan bo'lsak, miloddan avvalgi 1 ming yillikning birinchi choragida Markaziy Osiyo hududida ibtidoiy jamoa tuzumi yetirilib, yangi, ilk sinfiy jamiyat tarkib topayotgan jarayonning guvohi bo'lamiz.

3 - mavzu: O'zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyoti bosqichlari.

Reja

1. Ilk davlat uyushmalarining paydo bo'lishi jahon tarixidagi dastlabki davlatlar.
2. Kushon davlatining paydo bo'lishi va rivojlanishi. (mil. I-IV asr).
3. Turk xoqonligi davrida Markaziy Osiyo.
4. IX-XII asrlarda tashkil topgan markazlashgan davlatlar.

Adabiyotlar

1. Abu Rayxon Beruniy. Qadimgi ajdodlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1 jild. T., "Fan" 1968 yil.

2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T., 1993 yil.
3. B.G. G'afurov. Tadjiki T. 1 Dushanbe 1989 god.
4. M.Narshahiy . Buxoro tarixi. "Meros" turkumi. T., "Kamalak" 1991 yil.
5. M.Pidayev Sirli Ko'shan saltanati. T., "Fan" 1990 yil.
6. K.Shoniyozov. Kang davlati va kangliklar. T., "Fan" 1990 yil.
7. T.Kilichev. Ko'hna qal'alar diyori. T., "Fan" 1993 yil.
8. YA.G'.G'ulomov. Xorazmning sug'orilishi tarixi. T., 1959.
9. A.R.Muhammadjonov. Qadimgi Buxoro. T., 1991.
10. Baqtriya-Tohariston qadimda va o'rta asrlarda to'plam, Samarqand. 1993 yil.
11. A.S.Sagdullayev. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda T., 1996 yil.

Ma'ruza maqsadi.

Ilk davlatchilikning paydo bo'lishi masalalari hozirgi kunda tadqiqotchilar orasida eng dolzarb bo'lib turgan muammolardan biri hisoblanadi.

Markaziy Osiyo xududi "Avesto" vujudga kelgan zamonlardayoq o'z tarixiy davlatchiligiga ega. Bizning maqsadimiz davlatchilikning kelib chiqish asoslarini ularning paydo bo'lish shart sharoitlari va rivojlanishini ko'rsatish.

Sobiq sho'rolar davrida eski tushunchalardan voz kechishimiz lozim, ya'ni davlatning kelib chiqishi nimaga asoslanadi? - deganda, biz qarama-qarshi sinflarning paydo bo'lishi va ular o'rtasidagi keskinlashgan ziddiyatlarni ko'rsatar edik.

4 mavzudagi bilimlarining egallanganlik darajasini aniqlash uchun tayanch tushunchalar: davlatchilik tushunchasi, katta Xorazm davlati, Baqtriya podsholigi, Grek-Baqtriya, Parfiya, Kang'a, Dovon davlati, Parkana, Chos, Toxariston, Kushon podsholigi, Turk xoqonligi, Toxiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, Seljukiylar, Gaznaviylar, Xorazmshoxlar davlatlari.

1 savol. Markaziy Osiyo xududida davlatchilik qachon boshlandi? Arxeologik manbalarga qaraganda miloddan avval 1500 yilda O'zbekiston xududida davlatchilik boshlandi. (Ikkinchi ming yillik o'rtalarida) Masalan-Kitob. Tashqi va ichki ishlarni nazorat qilish va rivojlantirish natijasida davlat yuzaga keladi. Masalan, O'zbekiston xududida dehqonchilik ko'p mehnat talab qiladi idora tartib uslubi paydo bo'ladi. (Suv inshootlarini himoya qilish, ariqlar qazish va boshqalar) ular hech qanday xukmron sinflar emas edi, demak davlatlarining paydo bo'lishidagi eski tushuncha endi to'g'ri kelmaydi.

Davlatning paydo bo'lish belgisi, yirik qishloqlar, xunarmandchilik, tashqi aloqalarning yuzaga kelishi (bronza davri). Aholi ikki guruhga bo'linadi.

I o'troq aholi-dehqonchilik madaniyati (m.av. 9-8 asr)

II ko'chma dehqonchilik-uy chorvachiligi (m.av. 9-8 asrlar)

Ular haqida "Avesto" ham ma'lumot beradi va birinchi davlatni "Aryonam Vayjo" deb ataydi.

O'zbekistondagi davlatchilik tarixini kuzatadigan bo'lsak, ular quyidagi bohqichlarga bo'linadi.

I ilk qadimgi davlat uyushmalari. U o'z navbatida:

a) 1500-1000 ming yilliklar ihtisoslangan xo'jalik va madaniy hayot rivojlandi. (bronza davri).

b) mil.av. X-VIII asrlar. Etnik va madaniy jarayon kuchaldi. "Avesto"da uchraydigan "Harbiy demokratiya".

v) mil.av. . VIII-VI asrlar. Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining moddiy va madaniy bazasini Qadimgi Baqtriya tashkil etadi.

Bu davlatlar qabilalar konferensiyasi bo'lib xarbiy demokratiya prinsipi asosida tashkil topgan. (bu haqida yunon-grek tarixchilar ma'lumot beradi).

II. O'zbekiston xududida antik davrida tashkil topgan davlatlar e.av. IV-e. IV asrlarda.

a) e.av. IV-e. I asr ellistik davlatlar tarkibida bo'lgan. (312 yildan Salavakiylar davlatida Xorazm, Davon (Farg'ona) Qang' davlati).

b) e.av. II asr-e. I asri, greklar xukmronligi tugatilish va uncha katta bo'lmagan Xorazm, Baqtriya, So'g'd davlatlarining tashkil topishi.

v) e. I- IV asrlari. Qadimgi Kushon davlati, uning asosiy qismi O'zbekistonning janubida tashkil topgan (asoschilari-yuyechji qabilalari). Qang' davlati ham mavjud bo'lgan. Uchinchi davrida taraqqiy rivojlanish yuqori darajada bo'lgan. Rim imperiyasi Kushon davlati bilan hisoblashgan.

III. V- XI asrlarda tashkil topgan davlatlar.

a) Eftalitlar davlati (V asr).

b) Turk xoqonligi. VIII asrdan siyosiy ahamiyati yo'qotadi.

v) IX asrdan markazlashgan feodal davlatlarning tashkil topishi.

Neolit va bronza davrlariga kelib aholining ijtimoiy va iqtisodiy hayotida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xususan, qadimgi aholi ishlab chiqarishning ma'lum bir sohalariga-dehqonchilik, chorvachilik va xunarmandchilikka ixtisoslashib bordi. Bu jarayon ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi va ularning bir yerga to'planishi uchun zamin yaratadi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi o'z navbatida mahsulot hajmining o'sib qo'shimcha mahsulot paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Jamiyatdagi ayrim kishilar qo'lida boylik to'plana boshlaydi. Qo'shimcha mahsulot va xususiy mulkning paydo bo'lishi bilan esa, ijtimoiy va mulkiy tengsizlik paydo bo'ladi. Demak, qadimgi xo'jaliklarning ixtisoslashuvi, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi, metallning hayotga jadallik bilan kirib kelishi va yoyilishi, xunarmandchilikda turli tarmoqlarning rivojlanishi, o'zaro ayirboshlash va savdo-sotiq taraqqiy etishi natijasida jamiyat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish kuzatiladi. Bu yuksalish ilk davlatchilikning asosiy poydevori hisoblanadi.

Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra dunyo tarixidagi eng qadimgi davlatlar miloddan avvalgi IV- III ming yilliklarda Misr va Mesopotamiyada paydo bo'ladi. Mil.av. IV ming yillikning ikkinchi yarmida Misrda sug'orma dehqonchilik (Nil daryosi) savdo - sotiq va xunarmandchilik rivojlanib boradi. Qadimgi Misrning rivojlanish o'rta, yangi va so'nggi podsholik davrlariga bo'linadi. Mil.av. III ming yillikning boshlari Mesopotamiyaning (Tigr va Yefrat daryolari vodiysi) janubida Shumer, o'rta qismida esa Akkad kabi davlatlar, Eredu, Ur, Larsa, Uruk, Umma, Lagas kabi bir nechta shahar-davlatlar mavjud edi. O'sha davr Mesopotamiya rivojlanishining asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etgan.

Jaxondagi davlat tarixi. Quyidagi bosqichlarni bosib o'tgan:

1 Eng qadimgi davlat Misr m. av. 4 ming yil.

2 Ikki daryo (Yefrat va Tigr) o'rtasidagi davlat-Mesopotamiya.

3 Krit davlati.

4 Gretsiya davlat m.av.2 ming yilda u Kritni o'ziga bo'ysuntiradi.

5 Xitoy davlati m.av.1 ming yillikda.

6 M.av. 221 yilda Szinning I xokoni e'lon qilindi. Ulug' Xitoy devorini qurishga buyruq beradi. 10 000 iyeroglifdan iborat yozuv paydo bo'ladi. U bambukda yoziladi.

7 M.av.1 ming yillikka kichik-kichik davlatlar birlashib 3000 yili Ashoka boshchiligidagi Xindiston paydo bo'ladi.

8 Rim davlati m.av. VIII asrda paydo bo'ladi va u Italiyani birlashtiradi.

9 Eron davlat m.av. VI asr. Kir Yovush I podshosi keyin esa O'zbekiston xududidagi davlatchiligi xaqida gapirish mumkin.

Jamiyat hayotida sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar mil.av. 3 ming yillikning oxiri 2 ming yillikning boshlariga kelib O'rta Osiyo xududlarida dastlabki shaharlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Shahar madaniyatining shakllanishi ham xudud jamiyat taraqqiyotida bo'lgan kabi uzluksiz taraqqiyot yo'li bilan rivojlangan. Bu qonuniyatga ko'ra shaharsozlik madaniyatining shakllanishi, uzoq, bosqichma-bosqich davrlarni bosib o'tgan. Mil.av. 2ming yillikka oid Jarqo'ton, Sopolli (O'zbekiston), Dashti (Afg'oniston), Gonur, Namogox, Oltin tepa, Ulug'tepa (Turkmaniston) kabilarda ilk shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida quyidagi omillar muxim ahamiyatga ega bo'ladi.

- axolinig o'troq dehqonchilikka o'tish va keng xo'jalik bo'ylab yoyilishi;
- xunarmandchilikning rivojlanishi va ayrim soxalarga ixtisoslashishi;
- qadimgi savdo yo'llarining rivojlanishi natijasida iqtisodiy va madaniy aloqalar xamda savdo-sotiqning taraqqiy etishi.

- tabiiy-geografik xamda xarbiy-strategik shart-sharoitlar .

Shaxar madaniyati dastavval O'zbekistonning janubida, Surxandaryo xududida shakllandi, so'ngra esa shimolga So'g'd (Qashqadaryo Samarqand,Buxoro),Xorazm ,Shosh va Farg'ona xududlarida tarqaldi. Bu aynan yurtlar va xalqlar taraqqiyotidagi notekislik kabi tarixiy qonuniyatga zid emas .

Ijtimoiy-iqtisodiy axvolni taxlil qilish shuni ko'rsatadiki mil.av. IX-VIII asrlarga kelib Baqtriya (Janubiy O'zbekiston, Janubiy Tojikiston, Shimoliy Afg'oniston) xududlarida xarbiy axamiyatga ega bo'lgan siyosiy birlashmalar tashkil topdi. Marg'iyona va So'g'diyona qadimgi Baqtriyaning ayrim qismlari bo'lganligi xaqida turli ma'lumotlar bor. Baqtriya Sharqdagi eng muxim xarbiy va iqtisodiy markazlardan biri bo'lib,axoli, qudratli shaxarlar va qal'alarni ko'pligi, tabiiy xom-ashyoga boyligi,markaziy savdo yo'llari chorrasida joylashganligi, xunarmandchilikning ravnaqi shundan dalolat beradi.

Xorazm masalalariga birmuncha aniqliklar kiritildi. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra ,Xorazm tuprog'ida mil.av.VIII-VII asrlarga oid paxsa yoki xom g'isht turar joylar aniqlanmagan (turar joylar yarim yerto'lalardan foydalanilgan). Qadimgi Xorazm mil .av. VI asrda Amudaryoning o'rta oqimi qismidan orolga yaqin bo'lgan yerlarda vujudga kelgan. Baqtriya va Xorazm davlatining xududiy chegaralari O'rta Amudaryo oqimidagi yerlar orqali o'tgan. Xorazmning yirik sug'orish inshootlari mil.av. VI-V asrlarga oiddir. O'lkada bu davrlarga oid ko'pgina shaxar va qishloqlar xarobalari ochib o'rganilgan . Ulardagi topilmalar, manzilgoxlar xom g'isht va paxsadan qad ko'tarilgan bo'lib ,axoli dexqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Shaxarlarda xunarmandchilik rivojlangan .

Qadimgi Sug'diyona Zarafshon va Qashqadaryo voxalarida joylashgan bo'lib, janubiy –sharqda Baqtriya, shimoli –g'arbda Xorazm bilan chegaradosh bo'lgan. So'g'diyona xaqida Avesto , axmoniylar davri mixxat yozuvlar va grek-rim tarixchilari ma'lumotlar beradilar. Qashqadaryodagi bir qator turar-joylar va uy-qo'rg'onlar qoldiqlari mil.av. IX-VIII asrlarga oiddir. So'g'diyona, Afrosiyob,Yerqo'rg'on, Uzunqir kabi yirik shaxar markazlari qo'shni viloyatlari va davlatlar bilan o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalar bilan bog'liqdir.

O'zbekiston xududlarida eng qadimgi davlatlar xaqida zardushtiylarning muqaddas diniy kitobi “ Avesto” , axmoniylarning mixxat yozuvlari(Bexistun, Naqshirustam ,Suza, Persepol) grek-rim tarixchilari (Gerodot, Gekatey , Kursiy Ruf, Arrian, Strabon va boshqalar) ma'lumotlar beradi. So'nggi yillarda qadimgi Baqtriya,So'g'diyona va Xorazm xududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ko'p xollarda yozma manbalar ma'lumotlarini tasdiqlaydi.

Mil.av. 559 yilda Eronda podsho Kir II Axmoniylar davlatiga asos soladi. Mil.av.545-540 yilarga kelib axmoniy podsholari O'rta Osiyodagi Parfiya,Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona kabi viloyatlar va ko'chmanchi qabilalar ustidan o'z xukumronlarini o'rnatadilar. O'rta Osiyo xalqlari bosqinchiliklarga qarshi mardonavor kurash olib bordilar. Xususan, ko'chmanchi massaget qabilalar axmoniylarning katta qo'shinlarini tor-mor etdilar (mil.av.530 yil). Bu jangda fors podshosi Kir II xam vafot etdi. Shuningdek, mil.av.522va519-518 yillarda Marg'iyona xamda saklar o'lkasida forslarga qarshi qo'zg'olonlar ko'tariladi. Bu davrda qadimgi Baqtriya axolisining asosiy mashg'uloti dexqonchilik edi. Qal'alikir ,Kuchuktepa, Qiziltepa,Bandixon kabi mil.av. VI-IV asr yodgorliklaridan ko'plab mexnat qurollari topilgan. Dexqonchilik sun'iy sug'orishga asoslangan. Bu xududlarda undan tashqari chorvachilik, kulolchilik, temirchilik va badiy xunarmandchilik (Amudaryo xazinasini) xam rivojlanadi.

Bu davrda Xorazm xududlarida xam yirik-yirik manzilgoxlar mavjud edi. Qishloqlarda dexqonchilik,shaxarlarda esa xunarmandchilik rivojlangan edi.Qo'zaliqir, Tuproqqal'a kabilar madaniy markazlar xisoblangan. O'zbekistodani eng qadimgi maxalliy yozuv namunalari xam Xorazm xududlaridan (Tuproqqal'a, mil.av.IV asr) topilgan.

Mid.av.329 yilga kelib makedoniyalik Iskandarning O'rta Osiyoga yurishlari boshlandi. Iskandar qo'shinlari So'g'diyona va Ustrushona yerlarida juda qattiq qarshilikka duch keldi. Janglarda Iskandarning o'zi xam bir necha marta yarador bo'ldi.Mil.av. 329-327 yillar davomida maxalliy axoli Spitamen boshchiligida grek-makedon bosqinchilariga qarshi kurash olib borib ularga juda katta talofat yetkazdi.Iskandar qo'shinlari xech qachon So'g'diyonadagidek qarshilikka uchramagan edi.

Mil.av. 323 yilda makedoniyalik Iskandar vafot etgandan so'ng O'rta Osiyo yerlari Salavka hukumronligi

ostiga o'tadi (mil.av.306 yil). Salavkiylardan bo'lgan Antiox I davrida (mil.av.280-261 y.y) O'rta Osiyo viloyatlarida tinch hayot boshlanib, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo-sotiq anchagina rivojlandi. O'rta Osiyo viloyatlarining Salavkiylar davlati tarkibiga kirgan davri grek-makedon yurishlari paytida vayron bo'lgan ishlab chiqaruvchi kuchlarning baqtriyaliklar, so'g'diylar hamda parfiyaliklarning bosqinchilarga qarshi kurash birlashuv davri bo'ldi. Mil.av.III asrning o'rtalariga kelib salavkiylar davlatida taxt uchun o'zaro kurashlar avj olib ketdi. Natijada dastlab Parfiya keyin esa Grek-Baqtriya davlatlari salavkiylardan ajralib chiqdi. Mil.av.250 yilda birinchi Grek-Baqtriya podshosi Diodot o'zini xukumron deb e'lon qildi va tangalar zarb etdi. Tanggashunoslik ma'lumotlariga ko'ra mil.av.III asrning oxirigacha Grek-Baqtriya davlatida bir necha podsholar o'tganki, ular yozma manbalarda eslatilmaydi. Mil.av. II asr boshlariga kelib Demetriya, Yevkratid kabi podsholar Grek-Baqtriya yerlarini janubga tomon kengaytirib boradilar. Mil.av.II asrning ikkinchi yarimidan boshlab ko'chmanchi qabilalarning hujumlari va o'zaro kurashlar natijasida Grek-Baqtriya podsholigi qulatiladi.

Mil.av.III asrning o'rtalarida mustaqil davlat sifatida tashkil topgan parfiya davlat hozirgi Turkmaniston va Eronning bir qismni o'z ichiga olgan. Bu davlatning birinchi hukumdori Arshak bo'lib, u mil.av.247 yilda taxtga o'tiradi. Mil.av.235yildan boshlab Parfiya podsholari o'z yerlari hududlarini kengaytirib bordilar. Milodiy III asrning birinchi choragida Sosoniylar arshakiylar hukumronligi tugatib, Parfiyada hokimiyatni qo'lga oldilar. Antik davr Parfiyaning qishloq xo'jaligida qullar mehnatidan keng foydalanilgan. Parfiyaliklarning yozuvi oromiy (niso hujatlari) yozuvi bo'lib, ular zardo'shtiylar diniga e'tiqod qilishgan. Qadimgi Farg'ona turli davr manbalarida Davon, Boxan, Polona, Parkana kabi gomlar bilan eslatib o'tiladi. Ma'lumotlarga qaraganda Ershi (Marxamat) shaxri Davonning poytaxti edi. Antik davri Davon axolisi dexqonchilik, uzumchilik, yilqichilik bilan shug'ullanishgan. Davonning "samoviy otlari" o'lkadan tashqarida ham ma'lumot va mashhur bo'lgan.

Mil.av.II asrning oxirlarida Xitoy xukumdorlari Davon yerlarini bosib olishga harakat qiladilar. Ammo qo'shni davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan dovonliklar o'z mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo'ladilar.

Shimoli -g'arbga siljib, Emba va Ural daryolari oralig'iga joylashgan. Bir qismi esa g'arbga siljib, mahalliy aholiga qo'shilib ketgan. XII asrlarda qang'lilarning bir qismi O'rta Osiyoga qaytib kelgan. Ular bir necha urug'larga bo'lingan: masalan, sari-qang'li, qora-qang'li, bo'ka-qang'li va boshqalar. Davrlar o'tish bilan ular mahalliy halqalar tarkibiga singib ketgan.

2 savol. Kushon podoligi quldorlik davlatlaridan biri bo'lib, hozirgi O'rta Osiyoning katta qismi,Afg'oniston, Pokiston,Shimmoliy Xindiston va Sinszyanni ham o'z ichiga oladi. Kushon podsholigining ravnaq topgan davri-milodiy I asr oxiri va III asr boshlari edi.

Kushon podsholigi xaqidagi tarixiy ma'lumotlar, o'sha davrga oid yozuvlar, kushon tangalari, Xitoy ma'lumotlaridan iborat. Kushon podsholigining asoschisi Kujula Kadfiz I (Amudaryoning yuqori oqimida yashagan 5 tuxor (yuyechji) qabilalaridan biri bo'lgan-kushonlar qabilasining boshlig'i edi. U qabilani birlashtirib, Baqtriya, So'g'd, Sharqiy Afg'oniston va Xind daryosining yuqori territoriyalarini bo'ysundirib, mustaqil davlat tuzgan. Undan so'ng xokimiyat tepasiga uning o'g'li Vima Kadfiz II, so'ngra Kanishka I chiqqan.

Vima Kadfiz II mamlakatda pul islohatini o'tkazib, tangalarni oltin va misdan zarb qildirib,podsholikni mustaxkamlashga qaratilgan biri muncha tadbirlarni amalga oshirgan. Kushan davlati territoriyasida turli tillarda gaplashgan,o'zining turmushi va madaniyatiga ega bo'lgan xalqlar yashagan. Kushon podsholigida jamiyatning asosiy qismini qadimdan dexqonchilik qilib kelgan urug' yoki qishloq jamoalari tashkil etgan. Xar bir jamoa hukumatga o'z xo'jaligidan soliq to'plash bilan birga harbiy qo'shin uchun hamda ariq qazish, qa'la va yo'l qurilishi uchun odam ajratish lozim bo'lgan. Afg'oniston, Pokiston, O'zbekiston hamda Tojikiston territoriyalarida olib borilgan arxelogik qazilmalar natijasida Kushon podsholigida anchagina shaxarlar bo'lganligi, juda ko'p inshootlar qurilganligi, sug'orish va xunarmandchilik ishlarining, Xitoy va Sharqiy yevropa mamlakatlari bilan savdo-sotiqning taraqqiy etganligi aniqlangan. O'rta Osiyo xalqlari orasida otashparastlar (mazdaizm tarafdorlari) va yunon dinining ta'siri bilan bir qator Xindistondan kelgach buddizm ta'siri ham ko'rina boshlagan. Kushon davlati bu dinni o'z himoyasiga olgan. Buddizm (yangi

mazhabi-maxayana) rasmiylashtirilgan ,yangi ibodatxonalar quriladi.

XIV asrlarda Eron shoxlarining harbiy yurishlari, mustamlaka xalqlarining ozodlik uchun kurashlari va boshqa ko'pgina sabablar Kushon podsholigini tushkunlikka uchratgan va u mayda podshoxliklarga bo'linib ketgan.

Qang' davlati territoriyasiga mil.av. II asrda hozirgi Toshkent voxasi va Sirdaryo oralig'idagi yerlarning bir qismi kirgan. Mil.av. I asrda Qang' davlatiga Xorazm va boshqa bir qancha mulklar xam bo'ysungan . Tarixiy manbalarda bu davlatning nomi mil.av. II asrdan boshlab zikr qilinadi. Axolisi asosan Sirdaryo (ilk o'rta asrlarda "Qangxa daryosi " deb atalgan) bo'ylaridagi ko'chmanchilardan iborat bo'lgan. Qang' davlat qator o'troq dehqonchilik viloyatlari hamda ko'chmanchilik rayonlarini birlashtirgan yirik davlat bo'lgan. Qang' davlati Farg'ona va Sharqiy Turkiston xalqlarining Xitoyga qarshi qilgan kurashlarida faol ishtirok etgan.Taxminan I-III asrlarida Xorazm va Toshkent voxasi Kushon podsholigi tasarrufiga o'tgan bo'lsada , Orol dengizining Shimolidan hamda Ural daryosi janubidagi ba'zi qabilalarni bo'ysundirishga ham muvaffaq bo'lgan. IV asrdan keyingi tarixiy manbalarda Qang' davlati haqida ma'lumotlar uchramaydi.

Qang' davlatini vujudga keltirilgan qang'lilar-turkiy qabilalar uyushmasi bo'lib, ularni Urxun- Yenisey yozuvlarida "kanxaras" deb atalgan. Ular yarim o'troq holda yashab, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishgan.

3 savol. Turkiy qabilalar eramizning 1 asrlardayoq Oltoy tog'larining g'arbiy qismida shakllanib bo'lgan edi . Xitoy manbalarida ta'qidlanishicha eraning 92 yilida Xitoy ko'shinlari tomonidan gunlarga berilgan zarbadan so'ng ularning Ashina nomi bilan ataluvchi qabilasi Oltoy tizmalari chegaralariga kelib joylashgan. Ular Xitoy ruhsati bilan xitoylar uchun beradigan soliq o'rniga temir qazib berishga kelishgan. Xitoylar bu qabilani Tukuyu deb, mo'g'illar Turkyut (Turklar) deb atashgan. Turk so'zi kuchli, mustaxkam degan ma'noni anglatgan. Turkiy tilda so'zlashgan bu qabilalar asta –sekin birlashib qudratli Turk xoqonligini tashkil etishgan. Oltoy adirlari, tog'lari yashil maysazorlarga to'la bo'lib, ob-havosi va tabiati dehqonchilik, chorvachilik uchun qulay bo'lgan. Shu sababli chorva mollari tez ko'paygan, dehqonchilikdan mo'l xosil olingan. Gusht, sut, jun, teri mo'l bo'lgan, ekinzorlar tez o'sgan. Turk qabilalari o'z yerlarini asta – sekin kengaytira borib. U asr oxirlarida ular butun Yettisuvni egallaganlar.

Turk hoqonligining kuchayishida savdo aloqalarning rivojlanishi muhim rol o'ynaydi. Ko'chmanchi qabilalar o'zlari yetishtirgan mahsulotlar bilan savdogarlarning diqqatini jalb qilar edi. Chet el savdogarlari bu ko'chmanchilarga mahsulotlarni sotish bilan turk ko'chmanchi qabilalaridan ularda serob bo'lgan chorvachilik mahsulotlarni teri, jun, suyak, go'sht, mol yog'i kabilarni sotib olar edi.

Natijada VI asrda savdo yo'llari shimol tomonga siljiy boshladi. Savdo karvonlari Samarqanddan chiqib Toshkent va Avliyo – ota (hozirgi Jambul) orqali Yettisuvga – Chu daryosi sohillarigacha borgan.

VI asrga kelganda Amudaryo bilan Chu oralig'idagi yerlarda yashovchi qabilalar o'zlarining kiyimlari, yozuvlari, tillari va umuman hayot tarzla bilan bir butun halqni tashkil qilganlar degan fikr ehtimoldan uzoq emas. Aholining bir qismi dehqonchilik bilan shug'ullangan bo'lsa, qolgan ko'chmanchi chorvadorlar bo'lgan. Chu daryosi bo'yidagi Suyab shahrida savdo – sotiq markazi joylashgan bo'lib, bu yerda turli mamlakatlardan kelgan savdogarlar turar edi.

552 yilda turklarning juan – juanlar (mo'g'illar) bilan birinchi yirik to'g'nashuvi bo'lib, unda turklar g'alaba qilgan. Bu g'alaba natijasida turklar xitoylarga tobelikdan tamomila qutulgan.

Turk xoqonligida temir qazib chiqarish va undan turli qurollar ishlab chiqarishda katta tajribaga ega bo'lganlar. Oltoyliklar temirdan qilichlar, pichoqlar, boltalar, o'q yoy uchiga o'rnatuvchi o'tkir nishli o'qlar va boshqa qurollar, qozonlar yasashga ancha usta bo'lganlar. Tuva yerida temir bilan birga oltin, mis, kumush, qo'rg'oshinlar ham qazib olinib, ulardan turli xil bezaklar, qurollar, uy – ro'zg'or asboblari yasashgan. Turkiy qabilalarda ayollarni xurmat qilishgan. O'g'illar oldin onalariga va keyin otasiga ta'zim qilishgan.

Turkiylar hayotidagi diniy aqidalarda Osmondagi tangriga ishonish xukm surgan. Tangriga doimo sajda qilishgan.

554 yildan boshlab turk qabilalarning katta qismi g'arbga siljigan. Ularning otliq qo'shinlari jangovarlikda katta mahoratga ega edilar. 555 yilda turklar Orol dengiziga chiqib, Xorazm va Markaziy Qozog'istonni

egalladi. 558 yilda ular xun (sarmat – alan qabilalari avlodi) qabilalarini, varlarni va og'orlarni (uyg'urlar, vengerlar avlodlarni) tor – mor qildilar va Volga daryosiga chiqib oldilar. Ammo turklar Volgadan nariga o'tmasdan Yeyiq dashtlarni bo'sundirish bilan cheklanadilar.

565 yilda Turkklar janubga yurish qildilar va Eftalitlarni tor – mor qilib Xitoydan – Volga daryosigacha bo'lgan joyda ulkan Turk hoqonligini bunyod qildilar. O'rta Osiyo ham Turk xoqonligi tarkibiga kirdi.

Turk xoqonligida hokimiyatni xoqonlar boshqarar edi. Xoqonlar o'zlariga juda katta boylik to'plagan va ularning boyligi Eron shohi boyligidan kam bo'lmagan.

Turk hoqonligida talonchilik maqsadlarida doimiy urushlar olib borilgan. Urushlardan xon va uning atrofidagilar katta boylik orttirishgan. Boylikning urug' yoki qabila boshliqlari qo'lida to'planishi va asrga tushganlarni qo'l qilib yangi yerlarda ishlatishi natijasida to'plangan boylik urug'lar boyligi va yer – mulkini kengaytirib bordi. Urug'lar o'zlarining boyliklari, molu-mulklarini talovchilardan muhofaza etish maqsadida bir – biriga yaqin urug'lar va qabilalar o'zaro ittifoqlarga birlasha bordilar.

Dastlabki Turk qabilalari birlashmalaridan biri (Og'uz) deb ataluvchi jamoa bo'lgan. Qabilalar bir – biridan og'uzlar soni va uning nomi bilan ajralgan, masalan uyg'urlar “To'g'g'uz og'uz” deb, qarlular “uch og'uz” deb atalgan. Shunday qilib, bu davrda uyg'urlar, qarlular, dulular, nushiblar, kidanlar, guzular, komanlar (poloveslar) kabi xalqlar tashkil topa boshlagan.

Turk hoqonligi davlati ayniqsa VI asr oxirgi va VII asr boshlarida ancha kuchayib ketdi. Turk hoqonligining deyarli barcha xonlari xitoylik malikalarga uylanishgan.

Turk hoqonligi davlati o'zining ulkanligi jixatidan Xunn davlatidan yirik bo'lgan, ammo uning 200 yillik xukumronligi davrida aytarli farq qiluvchi sotsial – iqtisodiy siljish bo'lmagan. Uning sababi Turkklar, Xitoy, Eron va Arab xalifalarlari bilan doimiy urushlar olib borganligi edi. Urushlardan faqat yuqori tabaqa boyigan bo'lsa, urushlar ishlab chiqarish taraqqiyotiga olib kelmadi, aksincha turk qabilalarini zaiflashtirdi. Bu esa o'z navbatida Turk hoqonligi zanorlashuviga olib keldi.

O'rta Osiyoning Turk hoqonligiga kirganligi ijobiy ahamiyatga ham ega. Turk hoqonligi o'ziga itoat ettirgan yerlardan soliq olib turgan. Ammo bu halqlarning ichki ishlariga aralashmagan. Movarounnaxr davlatlari amalda o'z mustaqilligini saqlab qolgan edi. Turk hoqonligi davri Buyuk ipak yo'li katta rol o'ynadi. Katta miqdordagi ipak, duxoba va boshqa turli matolar, shisha va chinni idishlar, parcha, charmdan yasalgan mollar, turli bezaklar Xitoydan YAqin Sharqqa Balh, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Marv, Qashg'ar, Suyab, Kuch, Turfon kabi shaharlar orqali o'tar edi.

Buyuk Ipak yo'li ko'p savdo – sotiqning rivojlanishiga, iqtisodning, hunarmandchilikning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Turk hoqonligi hukmronligi davrida O'rta Osiyoda chorvachilikka asoslangan ko'chmanchilik hayoti bilan o'rtoq dehqonchilik hayoti o'rtasidagi aloqa yanada mustahkamlandi. Turkiy qabilalar uyushmalari: el, bo'linma sistemalari, turli pog'ona, mansab lavozimlari, xarbiy intizom, meros qoldirish tartibi va boshqalarni yaratdi. Turk xoqonligiga kirgan barcha halqlar o'zlarining madaniyatlarini erkin holda, o'zaro hamkorlikda rivojlantirgan.

Samarqand haqida Xitoy sayoxatchisi Vay Sze yozishicha shahar aholisi savdoga usta bo'lgan. O'g'il bolalar 5 yoshga kirgandayoq o'qishga o'rgatilgan. U o'qiy olgach, savdo qilishga o'rgatilgan. Shahar aholisi foyda olishni yuqori baholagan.

O'rta Osiyo aholisining ijtimoiy qatlami – dehqonlar, xunarmandlardan iborat bo'lgan. Dehqonlar boy va kambag'allardan – katta mulk va kichik mulklilardan iborat bo'lib mayda mulklilari yirik mulklilariga bo'ysungan.

Deyarli barcha qishloq va shaharlarning o'z hokimi bo'lgan. Shaharlarda podsholar bo'lgan. Ular “Farg'ona podshosi”, “Buxoro podshosi”, “Afshona podshosi”, “Tarabenda podshosi” deb atalgan.

Bir qator joylarda podsholik meros bo'lgan. Ko'pgina podsholar qavmu qarindoshchilik orqali bog'langan. Ular xavf – xatar paydo bo'lganda bir biroviga yordamga kelgan.

Turk xukumdorlari katta Ipak yo'li bo'ylarida o'zlariga poytaxt qurib olgan edilar. Hoqonlar savdogarlarga xomiylik qilib turgan, chunki ular savdo – sotiqning kengayib rivojlanishidan manfaatdor bo'lgan.

Shunday qilib, Xorazm davlatida, Eftalitlar imperiyasida va Turk xoqonligi davrida O'rta Osiyoda ilk feodal

munosabatlar rivojlana boshlagan edi. Feodal davlatlarida yer – mulk egaligi oliy hokimga, ya'ni podshoga tegishli bo'lgan, feodallar va boshqa lavozimdagi hokimlar o'z lavozimlari va xizmatlariga qarab podshodan mukofotga yer – mulk olganlar.

Hamma narsa bilan o'zini ta'minlovchi mayda ishlab chiqarishga asoslangan dehqon jamoalari xo'jalikning asosini tashkil qilgan. Dehqon jamoalari hamma zaruriy narsalarini o'zlari ishlab chiqqanlari holda ular turli suv inshootlari qurilishida, ularning yaroqligini saqlashda, suvni adolatli taqsimlashda, yaylovlarning yarog'liligini kuzatishda asosiy ishchi kuchi bo'lib qolganlar.

Dehqon jamoalarida feodal hukmronligi sharoitida ezilgan dehqonlar sinfiga feodal zulmiga qarshilik ko'rsatuvchi vositani saqlab qolish imkonini yaratdi.

Dehqon jamoalarida feodal ekspluatatsiyasi yoki tobelik faqat yer solig'i shaklida bo'lgan. Bu soliq mahsulot yoki pul bilan to'langan. Ayrim yerlarda esa bu soliqlar turli ishlarni bajarib berish yo'li bilan ham amalga oshirilgan.

Shunday qilib, eramizning VI – XII asrlarida O'rta Osiyoda ilk feodalizm jamiyat shakllangan edi. Movaraunnaxrda o'sha paytda bir qancha kichik – kichik davlatlar mavjud edi (Poykent, Buxoro, So'g'd, Kesh, Farg'ona, Shosh, Xorazm va boshqalar).

Bu davlatlar o'zaro savdo orqali bog'langan edilar va Buyuk Ipak yo'li orqali jahon savdo – sotig'iga aralashgan edilar.

O'rta Osiyo xalqlarining boyligi doimo bosqinchilarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelgan. VII asrning ikkinchi yarmiga kelib O'rta Osiyo yerlari arablar nazariga tushdi.

4 savol. Arab halifaligiga qarshi O'rta Osiyoda Abu ibn Lays, Muqanna va boshqalar rahbarligidagi xalq qo'zg'olonlari shafqatsiz bostirilsa – da, ammo bu harakatlar izsiz yo'qolmadi. Xalq harakatlarining uzluksiz va keng miqyosda davom etishi xalifalikni zaiflashtirdi va davlat hokimiyatining yuqori organlarida mahalliy zodagonlarning ishtirok qilishi uchun imkoniyatlarni kengaytirdi. Mahalliy zodagonlar joylarda hokimiyatni asta – sekin qo'lga olish bilan birga markaziy idora ishlarida ham faol qatnasha boshladilar. Ayniqsa, Xalifa Mansur. (754 – 775 y.) va uning vorislari Xalifa Maxdi (775 – 785 y.) va Horun ar – Rashid (786 – 809 y.) davrlarida Movaraunnaxrning ko'pgina viloyatlarida mahalliy amaldorlar kuchayib, asosan barmakiylar va somoniylar avlodiga mansub kishilar yuqori lavozimlarni egallay boshladilar. Xorun ar – Rashid mahalliy musulmon ruhoniylarining rolini oshirdi, ulardan tayanch izladi, ruxoniylarga ko'p miqdorda yerlar berdi. Shu bilan bir vaqtda mahalliy feodal amaldorlarni xalifalik tomoniga og'dirish siyosatini davom ettirdi.

Abbosiylar (abbosiylar – arab xalifalari sulolalaridan biri) xalifalar mahalliy zodagonlarning davlati idora qilish ishlarida ishtirok etuviga yo'l qo'yishga majbur bo'lsalar – da, ayni zamonda ularning faolliklaridan cho'chir edilar. Ular 1) davlatni saqlab qolish; 2) xalq qo'zg'olonlarining oldini olish; 3) mustaqillika intilishlarni to'xtatish uchun shunday qilishga majbur bo'lib qoldilar. O'rta Osiyoda ketma – ket xalq harakatlarini bostirish uchun abbosiylar kuch sarf qilayotganda, xalifalikda muhim siyosiy o'rinlarni egallab olgan barmakiylar xonadonining abbosiylarga qarshi yashirincha olib borayotgan siyosati payqab qolinadi. Xorun ar – Rashid keskin choralar ko'rib, barmakiylar xonadoniga qaqshatqich zarba beradi, quvg'in qilinadi. (Barmakiylar Balxdan chiqqan bo'lib qariyb 50 yil davlat idorasidagi katta mansablar ularning qo'llarida bo'lgan). Barmakiylar o'rniga hokimiyat tepasiga toxiriylar keladi.

Xorun ar – Rashid vafot etgach (809 y.) uning o'g'illari Amin va Ma'mun o'rtasida taxt uchun kurash boshlandi. Xirot atrofidagi katta yerlar egasi Tohir ibn Xusayn 809 – 813 yillarda Ma'mun bilan Amin o'rtasidagi bo'lgan kurashda Ma'mun tarafini olgan va Bog'dodda xalifa taxtini egallashda unga yordam bergan. Ma'mun xalifalik taxtiga ko'tarilgandan so'ng Tohir xalifalikda harbiy kuchlarga boshliq bo'ladi. Natijada poytaxda halifadan keyin Tohir ibn Husayn eng muhim o'rinni egallagan. 821 yilda u Hurosonga noib qilib tayinlandi. O'sha vaqtdagi tartibga muvofiq Movaraunnaxr ham Huroson tarkibiga kirgan.

Oradan bir yil o'tmay Tohir ibn Husayn o'zi boshqarayotgan keng viloyatlarini mustaqil deb e'lon qiladi. 822 yilda u hatto Jome' masjidida juma namozi o'qiladigan xutbadan xalifa nomini chiqartirib tashlash to'g'risida buyruq beradi. Tohir ko'p o'tmay to'satdan vafot etdi. Tohirning mustaqillik uchun kurashi, uning Bag'doddan ajralishga intilishiga qaramasdan, xalifa Ma'mun Xurosonga Tohirning o'g'li Talxani

noib qilib tayinlaydi. Talxadan keyin Hurosonga noiblik uning ukasi Abdul Abbos Abdullaga tegadi. Huroson va O'rta Osiyo hukumati toxiriylar avlodiga meros bo'lib qoladi. Toxiriylar xukmronlik qilgan Huroson rasman xalifaga tobe bo'lsa-da, lekin amalda deyarli mustaqil davlatga aylangan edi. Toxiriylar sulolasining kuchayishidan xavotirga tushgan xalifa Ma'mun somoniylar xonadonining ko'tarilishini qo'llab – quvvatlab turdi.

Somoniylar – feodal sulola (819 - 999) bo'lib Balx (Shimoliy Afg'oniston) yaqinidagi Somon qishlog'iga asos solgan yirik yer egasi Somon xudod nomidan olingan. IX asrning boshlarida O'rta Osiyoda Muqanna an'analari asosida xalifalikka qarshi yana qo'zg'olon boshlanib ketgan bo'lib, uni bostirishda Somonning nevaralari Nux, Axmad, Yax'yo va Ilyoslar faol ishtirok etdilar. Xalifa Ma'munga sadoqat bilan xizmat qilgan somoniylar Movoraunnaxrning ayrim shahar va viloyatlarga noib qilib tayinlandilar. Ma'mun 820 yili Nuxga Samarqandni, Ahmadga Farg'onani, Yax'yoga Shoshni (Toshkent), Ilyosga Hiroti berdi. IX asrning o'rtalariga kelib Movarounnaxrning Buxoro viloyati, Qashqadaryo va Chag'anrud (hozirgi Surxondaryo) vohalaridan boshqa barcha muhim viloyatlari Ahmad va uning o'g'illarining ta'sir doirasiga kirdi. Bu juz'iy birlashishga Tohir ibn Abdulla (844 – 862 y.y.) to'sqinlik qilmadi, chunki u birinchidan, bu vaziyatini yanada keskinlashtirishi mumkin edi, ikkinchidan, u endi somoniylar ustidan o'z ota – bobolari singari hukmronlik qila olmasligiga ko'zi yetgan edi. 875 da Axmadning o'g'li Nasr xalifa Mutaddidning roziligi bilan Movoraunnaxrda yagona Somoniylar davlatini vujudga keltirdi.

Abbosiylar mahalliy feodallarning xalifalik qonun – qoidalarini sidqidildan bajarishiga ishonch bo'lmagani uchun joylarda g'oziiylar deb atalgan harbiy qismlar tuzgan edilar. Qism boshliqlari xalifalikda yuqori lavozimlarni egallar edilar. Ular harbiy jihatdan kuchayib olishgach, viloyatlarda hokimiyatini qo'lga olishga intilar edilar, ba'zan maqsadlariga ham erishar edilar. Ular feodallarning zulmidan norozi bo'lgan mehnatkashlarning chiqishlaridan o'z maqsadlari uchun foydalanar edilar.

IX asrning oxirlarida O'rta Osiyo va Eron chegarasida xalq harakati bo'lib, bu harakat markazida g'oziiylar (din himoyachilari) turar edi. Bu harakatlardan asli hunarmandlardan chiqqan YOqub binni Lays (misgar) foydalandi. U toxiriylarga qo'shinlarini tor-mor keltirib, Huroson prytaxti Nishopurni ishg'ol qildi. 874 yili halifa YOqubga butun topshirishga majbur bo'ldi. Shunday qilib, Hurosonda toxiriylar davlati tugatilib ,uning o'rnida “safforiylar” (misgarlar) sulolasi vujudga keldi. YOqubdan keyin uning ishini ukasi Amir binni lays (879-900) olib boradi.

Toxiriylar taxtdan tushgach(873) Somoniylar to'la mustaqillikka erishish uchun harakat qildilar . Xalifa Mutadid (870-892) 875 yili Nasr 1 Samoniyni Movorannaxr amiri deb tan oldi.

Xalifa Mutadid feodallar o'rtasidagi qarama-qarshiliklardan ustalik bilan foydalanadi. Somoniylarni safforiylarga qarshi qo'ydi. Amir qo'shnilari 900yili balxda Ismoil Somoniy qo'shinlari bilan bo'lgan to'qnashuvda mag'lubiyatga uchraydi . Xalifa Somoniylar sadoqatini yana bir bor sinab ko'rgach, Hurosonni ham Movoraunnaxrga qo'shib Ismoil Somoniy boshqaruviga topshiradi. Ismoil sharqda Talas (hozirgi Djambul)gacha borib, unda turklarni yengadi va o'z davlatini anchagina kengaytirdi. Safforiylar yengilishi munosabati bilan Sharqiy Eronning katta-katta viloyatlariga ham ega bo'ldi. Ismoil Somoniy feodal zodagonlar, ruxoniylar va savdogarlar yordami bilan Sharqda yirik davlatni vujudga keltirdi. Somoniylar davrida tarqoqlik va ichki urushlarga barham berildi . Ko'chmanchilarning Movoraunaxrga qilib turgan hurujlar to'xtatildi (893). Bu xol mamlakatning iqtisodiy va madaniy rivojlanish uchun muhim omil bo'ldi.

Xalifa Mansurdan (754-775) tortib Ma'mungacha (813-833 podsholik qilgan abbosiylar davrida halifaliklar davlatni boshqarish bo'yicha markaziy mahkamalar (devon)larning muvofiq sistemasi ozmi-ko'pmi shakllandi. Somoniylar davrida ancha soddalashtirilgan va mukammallashtirilgan markaziy devonlar sistemasidan iborat davlat apparati tuzildi.

Shaxar bilan qishloq o'rtasidagi tovar ayrboshlashning kuchayishi ,savdoning rivojlanishi qishloq xo'jaligi, kon ishlari, hunarmandchilik va korxonalarining yuksalishi uchun turtki bo'ldi. Somoniylar davrida qishloq xo'jaligini rivojlantirishga katta ahamiyat kasb etgan “ariqlar haqida kitob” qoidalarini to'plam tuzib chiqiladi. Bu qoidalar ikki yuz yil mobaynida suvdan foydalanish va u bilan bog'liq bo'lgan har xil baholarni hal qilish uchun amalda qo'llanma bo'lib xizmat qildi.

Movoraunaxrning sug'oriladigan yerlarida dehqonlar bug'doy, arpa ,sholi,tariq, paxta va hakazolar

yetishtirar edilar. Qishloq xo'jaligi xom ashyosi bilan bog'liq bo'lgan xunarmandchilik, ipakchilik, ip-gazlama va yog' ishlab chiqarish katta o'rin egallay boshladi. Narshoxiyning aytishicha, Tohiriylar zamonasidayoq Buxoroda katta to'quvchilik korxonasi bo'lgan. U yerda to'qilgan buyumlar YAqin Sharq bozorlarigacha olib ketilgan. Hatto Buxoroning Arab xalifaligiga to'laydigan solig'ini ham shu korxona ko'targan.

Movounnaxr somoniylar davrida Sharqning rivojlangan hunarmandchilik-sanoat markaziga aylandi. Bu yerda ishlab chiqilgan sovunlar butun Osiyo bo'ylab tarqalgan. Mashhur samarqand qog'ozi qog'oz ishlab chiqarishda to'ntarishyasadi. Paptrus va pergamentni ham yasab chiqardi.

Bu davrda O'rta Osiyoda, Movoraunaxrda karvon savdosi taraqqiy etgan bo'lib, bu karvon savdosi Janubiy-Sharqiy yuvropani, ayniqsa, YAqin Sharq mamlakatlarini O'rta Osiyo, Eron, Kavkaz orqali Mo'g'iliston va Xitoy bilan bog'langan. Karvon Volga bo'yidagi ikkita yirik bozor Itil bilan Bulg'or bozorlarigacha borgan, shimoli sharqdagi chegaralarda yashagan ko'chmanchilar bilan savdo qilgan. Movarounnaxrdan o'tgan karvon yo'li Bag'doddan Xomadon, Nishopur, Marv, Omul, Chorjo'y, Buxoro, Samarqand, Shosh, (Toshkent), Taroz, (Jambul), Kulon, Marki, Bolasog'un, Siyob, Issiqqo'lning janubiy qirg'og'i va so'ngra Sharqiy Turkiston orqali Xitoy tomonga o'tgan. ba'zan karvonlar juda katta bo'lgan. Ibn Fadlan (X asr boshlari) guvoxlik berishicha, karvonning ba'zan 5000 kishisi tuyalarni hisoblamagan 3000 oti bor edi deydi.

Shaharlar va qishloqlarda Somoniylar xonadonining katta yerlari egalab olishlari va ularga qarshi shavqatsiz eksplutatsiyadan norozi bo'lgan guruhlarining harakatlari mamlakatning turli yerlarida ko'tarilib turgan. Bu xol X asr oxirlariga kelib feodal tarqoqlikni yanada kuchaytirdi. Sirdaryoning o'ng soxilidagi yerlar, shuningdek Chag'oniyn va Xorazm ham Samoniylarga itoat qilishdan bosh tortdilar. Yettisuv bilan Qashg'arda bo'lib btgan va Qoraxoniylar davlatining tashkil topishiga olib kelgan. Voqealar Somoniylar davlatini inqirozga olib keldi. X asr oxirlarida Yettisuv xududida Qoraxoniylar davlati tashkil topishi arafasida yagona hokimiyat yo'q edi. Turli tumanlarda hokimiyat turli turkiy qabilalar-qarluqlar, chig'illar, arg'ular, yag'molar qo'lida edi. Garchi Somoniylar Yettisuv ustiga bir necha marta yurishlar qilgan bo'lsa ham, haqiqatda esa Yettisuv Somoniylar davlati tarkibiga kirmas edi. X asrning 90-yillarida bu yerda tashkil topgan Qoraxoniylar davlati Qashg'ardan tortib-to Isfijobgacha (Sayram) cho'zilgan hududlarni o'z ichiga olgan. Qoraxoniylar (Qoraxoniylar sulolasi yag'mo qabilasiga mansub bo'lib, asoschisi Abdulkarim Sotuq Bug'roxi (Qoraxon) edi. 996-999 yillari Nasr Ibn Ali boshchiligida Movoraunaxrga bostirib kirib, butun bo'ysuntirdilar. Hokim sinflarning ko'pchiligi somoniylarni himoya qilmadi. Musulmon ruhniylari birinchilardan bo'lib, bostirib kirgan qoraxoniylar tomonidan bo'ldi. Bu hujum natijasida Somoniylar davlati qulagan. Qoraxoniylar davlatining poytaxti dastlab Qashqar, Bolasog'un, O'zgan shaharlarida bo'lib keyin yana Qashqarga va Samarqandga ko'chirilgan. Qoraxoniylar xukumronlagi yillarda feodal jamiyati uchun og'ir yuk bo'lgan qadimgi dexqon zodagoni kuch bilan yo'qotila bordi. Ularning yer va suvlarni davlat ixtiyoriga olinib, "iqto" tartibida xarbiy amaldorlarga, ruhoniylarga va boshqalarga berila boshladi. Bu xol feodal tuzumining yanada mustaxkamlanib, chuqurlashib borayotganligini ko'rsatar edi. Mexnatkash dehqonlar yangi "iqto" olgan feodallarga chorakorlikka yollanib ishlay boshladilar. "Iqto" yerdan foydalanishning xukmron formasiga aylandi.

Qoraxoniylarning saljuqiylar bilan to'qnashuvlari, xokimiyat uchun avj olgan o'zaro kurashlari zaif bo'lgan markaziy hokimiyatning inqirozini tezlashtirdi. Qoraxoniylar davlati 1212 kelib (butunlay) tugatildi.

G'aznaviylarning siyosiy markazining yuksalishi X asrning ikkinchi yarimidan boshlandi. G'azna shahri Afg'oniston shimolida joylashgan bo'lib, Hindistonning boy noxiya va shaharlariga yaqinligi va boshqa geografik qulayliklarning somoniylar hukumronligiga qarshi noroziligini kuchaytirgan. G'aznaviylar davlatining asoschisi Sobuqtagin 977 yili G'azna shahri hokimligini egallagan va shundan boshlab hokimlik uning avlodlari qo'lida qoladi. (Manbalarda aytilishicha Sobuqtagin Turkistondagi barsxon turkiy qabilasidan bo'lib, o'spirinlik yillari asriga tushgan. 4 yil asirlikda bo'lgan, so'ngra uni Movoraunaxr savdogarlariga sotishgan).

998 yilda G'azna hokimligi Sobuqtigining o'g'li Mahmud qo'lga o'tdi. Mahmud G'aznaviy hukmronligi davrida (998 - 1030) g'aznaviylar davlatining qudrati oshdi. Mahmud G'aznaviy Bog'dod halifasidan

hokimiyatining o'ng qo'li va dindorlik jamoasining ishonchli vakili unvonini va Xurosonni idora etishga vakolat ham oldi. Sulton Mahmudning talonchilik siyosati tufayli (1010 – 1011 yillarda hozirgi Afg'onistonning Gur viloyati uchun bo'lgan janglar) aholini turmush darajasi pasayib ketdi.

1017 yilda Mahmud G'aznaviy Xorazmdagi siyosiy tanglikdan foydalanib, tezda katta qo'shin to'plab Xorazm ustiga yurish qildi. Xorazm xalqining qattiq qarshiligi sindirilib, u zabt etildi. U hujumni davom ettirib, 1024 yilda Amudaryodan o'tib samarqandgacha bordi.

Sulton Mahmud o'z siyosatining asosiga kofirlarga qarshi muqaddas urush (g'azovot) shiorini qo'yib, 1002 yildan 1026 yilgacha bo'lgan davrda Hindistonga 15 marta talonchilik yurishlari qildi. Talab olingan mol – mulklar G'aznaviylar xazinasini boyitar, qo'shinining sonini to'xtovsiz oshirishga xizmat qilar, inshootlar, madrasalar qurishga imkon berar edi. Lekin urushlar o'z navbatida yangi soliqlar va ofatlar olib kelar edi.

G'aznaviylar davlati kengayib, shimoliy g'arbiy Hindistondan, to Kaspiy dengizining janubiy qirg'oqlarigacha cho'zilgan viloyatlarni o'z ichiga olgan edi (shunday qilib, Somoniylar o'rnida ikkita yangi davlat tashkil bo'ldi).

G'aznaviylar davlati harbiy yurishlar natijasida buyuk davlatga aylandi. Sulton Mahmud o'z davrining kuchli hukmdori darajasiga ko'tarildi. Lekin bu davlatning siyosiy tuzumi, ijtimoiy – iqtisodiy ahvoli tinkani quritadigan davomi urushlarga chidash bera olmas edi.

XI asrning birinchi yarmidagi Movoraunnaxr hududida boshlangan saljuqiylar harakati, keyinchalik kengayib, g'aznaviylar davlatini parchalab tashladi va uning o'rnida Saljukiylar davlatini tashkil etdi. Saljukiylarning sulolasi o'g'izlarning kinik nomli qadimiy turkiy qabilasidan edilar. Bu qabilalar Sirdaryoning o'rta oqimi bo'ylab, to Talas daryosigacha bo'lgan joylarda ko'chib yurar edilar. Sulola nomi ko'chmanchi qabila boshlig'i Saljuq nomidan olingan. XI – va XIV asr boshida YAqin va O'rta Sharqdagi bir necha davlatlarda hukmronlik qilgan. XI asrning boshlarida turkiy saljuqiylarning ijtimoiy va siyosiy ahvoli og'irlashib, avval Xorazmga, so'ngra Xurosonga ko'chib o'tdilar. Mahmud G'aznaviyning ruxsati bilan 1025 yilda Abiverd, Nes va Farovi nohiyalariga 4 ming o'tovdan iborat turkman gruppasi ko'chib keldi. Ko'chmanchilar ijtimoiy jihatdan tabaqalashgan bo'lib, bu ichki ziddiyatlarni keltirib chiqarar edi. Hayot uchun kurash ko'plab chorvador qabilalarni yangi yerlarga ko'chib o'tishini taqazo qilar edi. Bu o'z navbatida yer, yaylov talashishlarga olib kelar, qabilalar o'rtasida ziddiyatlarni kuchaytirar edi. Bu ziddiyatlardan foydalangan saljukiylar siyosiy kurashlar natijasida bir qancha shahar va qishloqlarni o'z qo'llariga kiritadilar. XI asr 30 – yillarida harbiy xizmatlari evaziga Hurosonda g'aznaviylardan mulklar oldilar. Movarounnaxrning ancha mulklari ularning hukmronligiga o'tib qoladi. 1038 yili ular Nishopurni egallab, o'z rahbarlari To'g'ulbekni sulton deb e'lon qildilar.

1040 yilda Sarakas va Marv orasidagi Dandonakan yonida O'rta Osiyo xalqlari tarixida eng qonli janglardan biri bo'ldi, unda saljukiylar g'aznaviylarning katta armiyasini butunlay tor – mor keltiradi. G'aznaviylar davlati kichkina bir davlatga aylanib qoldi. Mamlakat ichidagi qarama – qarshiliklar, Mahmuddan keyingi avlodlari ichidagi o'zaro kurashlar ham bu jarayonni tezlashtirdi. G'aznaviylar sulolasiga qarashli bepayon yerlar birin – ketin qo'ldan keta boshladi. Bu sulolaning oxirgi sultoni esa Afg'onistonda vujudga kelgan yangi davlat Gur qo'shinlari tomonidan (XII asr oxiri) asirga olinadi. (Afg'oniston xududidagi bu tog'li mamlakat deb atalgan davlat XI asr oxiri XII asr boshlarida vujudga kelgan. XII asr oxirlarida Gurlar o'zining davlatiga Janubiy Tojikiston va O'zbekiston viloyatlarini qo'shib olgan. 1152 – 1206 yillarda xo'jaligi va madaniyati yuksalgan davri bo'lgan. Lekin bu yuksalish uzoq davom etmadi. Urta Osiyo viloyatlariga nisbatan qoloqlik o'zini ko'rsatgan edi).

Saljuqiylar o'zlarining yurishlarini g'arb va shimolga qaratdi. Ular sekin – asta butun Xurosonni (1038 - 44), Xorazmni (1044) zabt etib, G'arbiy Eron (1042 va 1051 yillar orasida), Ozarbayjon (1045) va Iroqni (1055 yilda Tug'ulbek qo'shinlari Bag'dodga kirib keldi) bosib oldilar. Ular Kichik Osiyo, YAqin va O'rta Sharqni egallashadi va poytaxt qilib Rey shahrini tanlashdi. Saljukiylar musulmon dunyosining g'arbiy qismida o'z hukmronligini o'rnatgandan so'ng Movoraunnaxrni istilo qilish uchun yurish boshlaydilar. XI asrning oxiriga kelib (1097) butun Movarounnaxr bosib olindi. Sulton Sanjar (1086 - 1157) davrida saljuqiylar davlatining kuch – qudrati eng yuqori cho'qqiga chiqdi. Qoraxoniylar saljuqiylar davlatiga tobe bo'lib, hukumati inqirozga yuz tutib, Movoraunnaxrda feodal tarqoqlik kuchaygan bir davrda uning shimoliy

– sharqiy va g'arbiy tarafida ikki yirik harbiy – siyosiy kuch paydo bo'ldi. Bulardan biri qoraxitoylar bo'lib (etnik tarkibi aniqlanmagan), ba'zi ma'lumotlarga ko'ra ular – turklashgan mo'g'ul qabilalari bo'lishgan. Ularning kelib chiqishi esa Shimoliy Xitoydan edi. Ular XII asr boshlarida dastlab Chuguchak, keyinchalik qoraxoniylar poytaxti Bolasog'un shahrini (Bolasog'un vayronalari Qirg'istondagi To'qoq shahri yaqinidagi qadimgi Oqpishin shahri o'rnida), butun Yettisuv vohasini ishg'ol qildilar. Bolasog'unni o'z davlatining bosh shahri qilib oldilar. Shu yerdan turib Movoraunnaxrga hujumlar qilib turar edilar. Qoraxitoylar Shoshga, Farg'onaga, Zarafshonga va Qashqadaryo vodiylariga bosqinchilik hujumlari qilardi. 1141 yili ular Samarqandga yaqin Katavon degan joyda Mahmudxon va Sulton Sanjarning birlashgan qo'shinlarini tor – mor qilib, avval Samarqandni, keyin esa Buxoroni bosib oldilar. Qoraxitoylar Qoraxoniylardan farqli o'laroq istilo qilgan yerlarida uzoq turmasdan, faqat o'lpon yig'ib olish bilangina kifoyalanishgan va orqaga qaytib ketishgan. V.V.Bartold bayon qilganidek, qoraxitoylar mo'g'ullarning rus – udel knyazliklaridan xiroj olishda o'rnatgan tartiblarini ulardan ancha oldin amalga oshirgan edilar.

YUqorida aytilgan ikkinchi bir yirik harbiy siyosiy kuch Xorazmda paydo bo'lgan edi. Qoraxitoylarning Movoraunnaxrning ichki hayotiga ta'siri oz bo'lib, ular saljuqiylarni tor – mor keltirish bilan qudratli Xorazmshohlar davlatining vujudga kelishga yo'l ochdi. Ilgari Saljuqiylarga tobe bo'lgan Xorazm 1127 yili mustaqillikka erishdi. Xorazmning mustaqillikka erishuvi Xorazmshoh Otsiz (1127 – 1156 y.) nomi bilan bog'liq bo'lib, u musulmon sharqida yangi kuchli bir davlatning tashkil topishga asos yaratadi. Bu davlat bora-bora kuchayib qoraxitoylarning Movoraunnaxrga bo'lgan da'volariga chek qo'ydi.

Xuroson va Movoraunnaxrning turli joylarida yuz berib turgan alg'ov-dalg'ovlar: saljuqiylar, qoraxoniylar va qoraxitoylar singari sulolalari o'rtasidagi kurashdan foydalangan Xorazm o'z qudratini oshirdi.

Lekin davlatlar o'rtasidagi o'zaro urushlar mexnatkash xalq ommasining axvolini yanada og'irlashtirdi.

4 - mavzu O'zbek xalqining etnik shakllanishi.

Reja

1. Qadimgi zamonlardan milodning VIII asrgacha bo'lgan davr.
2. IX - XII asrdagi etnik jarayon.
3. XVI asrning ikkinchi yarmidan keyingi davr.

Adabiyotlar

1. I.A. Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". T., 1998 y.
2. Abulg'oziy. Shajarai turk. T., "CHO'lpon" 1992 y.
3. Zaki Validiy "O'zbek urug'lari" T., 1992 y.
4. B. Axmedov. O'zbek ulusi T., "Nur" 1992 y.
5. B. Axmedov, A. Asqarov "O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi" (dastlabki mulohazalar) "O'zbekiston ovozi" 1994 yil 20 yanvar.
6. I. Jabbarov "O'zbek xalqining etnografiyasi" T., "O'zbekiston" 1994 y.
7. Shaniyazov K. SH. Uzbeki-karluki (istoriko-etnograficheskiy ocherk) T., Nauka 1964 g.
8. K. SH. Shoniyozov O'zbek xalqining etnogenezig oid ba'zi nazariy masalalar. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. 6-son, 1998 y.
9. Hasan Ato Abushiy. "Turkiy - qavmlar tarixi" T., "CHO'lpon" 1994 y.
10. Usmon Turon "Turkiy xalqlar mafkurasi" T., "CHO'lpon" 1995 y.

Ma'ruza maqsadi

Xalqning kelib chiqishi murakkab dolzarb muammo va umumtarix fanining yutuqlari bilan chambarchas bog'liq. Shu kunlarga qadar xalqning kelib chiqishi yoki etnogenezi alohida fan sifatida shakllanib yetgani yo'q. Keyingi 25 yil davomida O'zbekistonda keng miqyosda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida o'zbek xalqi etnogenezi sohasida muhim ma'lumotlarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'lindi.

Lekin o'zbek xalqining kelib chiqishi tarixini o'rganishni qaysi davrdan boshlash kerakligi xaqida umumiy fikr yo'q. Bir qator olimlar etnogenezni yozma manbalarda xalq nomi (etnonimi) tilga olingan davrdan boshlashni maqsadga muvofiq deb biladilar. Ikkinchi guruh olimlar esa bu jarayonni mumkin qadar qadimiy davrlardan boshlash kerak, deb hisoblaydilar. Biz ikkinchi guruh tadqiqotlari nuqtai nazarini tarafdorimiz. Chunki bu masalada fan hozirgi kunda qator yutuqlarni qo'lga kiritdi. Masalan Farg'ona vodiysidan Selung'ur va Surxandaryodan Teshiktoshdagi topilgan qadimgi ajdodlarimiz qoldiqlari, ayrim olimlar tomonidan bildirilgan Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston, qadimiy davrlardagi mongoloid irq shakllangan xududga kiradi, degan fikrning ilmiy asossizligini antropologik ma'lumotlar tasdiqladi. Demak, o'zbek xalqining kelib chiqishi tarixini o'rganishini qancha erta davrlardan boshlasak, uning tarkibida hozirgi kunlarga saqlanib kelinayotgan irqiy va etnik unsurlarning mahalliy xalq tarkibiga kirgan davri va uning nisbiy miqdori to'g'risida shunchalik keng fikr yurita olamiz.

3 mavzudagi bilimlarning egallaganlik darajasini aniqlash uchun tayanch tushunchalar. Urug', qabila, elat, va millat tushunchalari, etnogenez, antropogenez, "o'zbek" atamasi.

1 savol. Har bir xalqning o'z kelib chiqish va rivojlanish tarixi bor. O'zbek xalqining ham uzoq va voqeliklarga boy tarixi mavjud bo'lib, u xalq bo'lib shakllaguncha qadar uzoq va murakkab etnik jarayonlarni boshidan kechirdi. Umuman olganda, hozirgi kunda xalqlarning kelib chiqishi - etnogeneziga e'tibor ayniqsa kuchayganki, bu millatlar ichida o'z-o'zini anglash jarayonining o'sganligi, o'z tarixi, o'tmishiga qiziqishning oshganligi, ya'ni mustaqil davlatlar paydo bo'lishi bilan o'z ifodasini topadi.

Mustaqillik sharofati ila o'tmishimiz, tariximizga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Tariximizni, boy o'tmishimizni ilmiy, xolisona tarzda bayon qilish zamon talabiga aylandi. Prezidentimiz I.A. Karimovning 1998 yil iyun oyida bir guruh olimlar bilan o'tkazgan uchrashuvida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 1998 yil 27 iyul qarorida va Prezidentimizning maxsus tarixiy o'tmishimizga bag'ishlangan "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida o'zbek xalqining tarixini ilmiy haqqoniy tarzda bayon qilish, tarixiy tadqiqotlarga keng ko'lamda yo'l ochib berish, ko'plab muammolarni hal etish masalalari ko'rib chiqildi.

Prezidentimiz "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida tarix xususida to'xtalib, jumladan shunday degan edi: "Tarixiy xotirasi bor inson - irodali inson". Takror aytaman, irodali insondir. Kim bo'lishidan qat'iy nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni xushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi". Darhaqiqat, tarixning o'rni va roli, ayniqsa, hozirgi kunda, ya'ni davlatimizning ma'naviy hayotida tutgan o'rni beqiyosdir.

O'zbek xalqining kelib chiqishi tarixi hozirgi kunda tariximizda kam yoritilgan va ilmiy asosda tamomila yangitdan ko'rib chiqishga mansub bo'lgan masalalardan biridir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek "biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixining tag - tomirigacha nazar tashlaymiz". Darhaqiqat, uch ming yillikdan ziyod davlatchilik tarixiga ega bo'lgan xalqimizning ildizlari asrlar qa'riga borib taqaladi.

O'zbekiston O'rta Osiyoning qadimdan o'troq dehqonchilik madaniyati o'choqlari tarkib topgan xududda joylashgan. Diyorimiz shu bois arxeologik va me'morchilik yodgorliklariga boy. Farg'ona vodiysining Selung'ur g'oridan topilgan qadimgi tosh davriga oid topilmalar va Teshiktoshdan topilgan o'rta paleolit davriga oid odamzod qoldiqlari, bizning yurtimiz Afrika va Old Osiyo bilan bir qatorda insoniyat paydo bo'lgan xududlar tarkibiga kirganligi hozirgi kunda uzil-kesil isbotlandi. Shuningdek, mezolit davriga (o'rta tosh davri) oid Machay g'oridan topilgan yodgorliklar, neolit (yangi tosh) davriga oid ovchilik va

balıqchilik madaniyatini o`zida jam qilgan Kaltaminor, janubdagi ilk dehqonchilik madaniyatiga oid bo`lgan xilma xil Chust, Zamonbobo, Sopollitepa, Sarazm, Dalvarzintepa madaniyatlari o`lkamizda qadimgi ajdodlarimiz xo`jaligining jadallik bilan rivojlanganligi isbot qiladi.

Dunyoda yashayotgan barcha xalqlar tasodifan yoki to`satdan paydo bo`lgan emas. O`tmishda O`zbekistonda turli qabila va urug`lar yashagan. Ularning ijtimoiy, madaniy va til taraqqiyoti turli bosqichda edi. Shu davr mobaynida ayrim xalqlar o`zlarining etnik nomlarini saqlab qolishgan bo`lsa, ayrimlari boshqa xalqlar tarkibiga singib ketgan.

Etnik qatlamlar xam ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarda o`zlariga nisbatan ustunrok turgan guruxlar ta`sirida boshqa qavmlarga singib ketishgan xollar uchraydi. Turkiy qavmlar ham o`z nomlariga ega bo`lgunga qadar, turli etnik nomlar ostida boshqa qavmlar bilan birga yashagan.

O`rta Osiyo dunyoda insoniyat eng qadimdan yashagan makonlardan biri hisoblanadi.

Amudaryo va Sirdaryo oralig`ida yashovchi aholi tipini olimlar “O`rta Osiyo ikki daryo oralig`i tipi” (L.V. Oshanin), yoki “Pomir-Farg`ona tipi” (A.A.Yarko) deb atashgan. Bu tipning asosiy vakillari o`zbeklar va tojiklar bo`lib, yevropoid irqiga mansub quyidagi belgilari bilan xarakterlanadi: pigmentatsiyasi qora, soqoli o`rtacha qalinlikda, sochi asosan qora va to`g`ri, yuzi uzunchoq, keng to`g`ri burun, to`g`ri peshonali bo`lib, ayrim guruhlarida mongoloid irqi ham aralashgan.

Paleoantropologiya materiallari bu tipdagi aholining tub yerli xalq ekanligini ko`rsatdi. Bu irqni L.Oshanin uch guruhga ajratadi.

1.Tog`liklar - tog`lik tojiklar.

2.Janubiy-G`arbiy Pomirdagi kam sonli qabilalar (rushan, shug`non, vaxan).

3.Tekislikdagilar - O`zbekistonda yashovchi o`zbeklar, shuningdek tojik va uyg`urlarning ayrim guruxlari kirgan.

Ilmiy izlanishlar shuni ko`rsatadiki, O`rta Osiyo xalqlari qadimdan bir-birlari bilan muntazam aloqada bo`lganlar. Bu borada o`zbek va tojik xalqlarining etnik asoslari, moddiy madaniyatlari, urf-odatlar asrlar davomida yaratilgan san`atlari ko`pincha ajratib bo`lmas darajada yaqindir. Chunki bu xalqlar bir territoriyada, bir xil taraqqiyot bosqichida rivojlanib borganlar.O`zbeklarning qadimgi ajdodlari miloddan avvalgi I-II ming yilliklarda Amudaryo va Sirdaryo oralig`i, Xorazm, Qashqadaryo, Surxandaryo, Zarafshon vohasi va Farg`ona vodiylarida necha-necha asrlardan buyon istiqomat qilishgan - bu ko`chmanchi sak va massaget qabilalari, sug`diylar, xorazmiyliklar, baktiryaliklar, shoshliklar va parkonliklar (Farg`ona).

O`zbeklarning etnik shakllanishida yuqorida nomi qayd etilgan urug` va qabilalardan tashqari, ikki daryo Amudaryo (qadimgi nomi Ukuz) va Sirdaryo(qadimgi nomi Inju Ukuz) oralig`iga Janubiy Sibir, Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston hamda Ural daryosi bo`ylaridan kelgan etnik uyushmalar ishtirok etgan.

O`rat Osiyo xalqlari haqidagi dastlabki ma`lumotlar miloddan avvalgi VIII asrga oid yaqin Sharq manbalaridan uchraydi. Qadimgi yunon va rim tarixchi -jug`roflari yozishicha - mo`g`ul cho`llaridan Krimgacha bo`lgan territoriyada skiflar deb nomlangan qabilalar yashagan. Esrlaringizda bo`lsa Rim tarixchisi Pompey Trog skiflarni misrliklar bilan tenglasha oladigan darajada qadimiyydir deb yozgan.Dashti Qipchoq, O`rta Osiyo, Oltoy, Markaziy Osiyoda bunday 2,5 ming yillar avval yashagan sarmat qabilalari skiflar, saklar va massagetlarga yaqin bo`lganligini tasdiqlovchi arxeologik topilmalar (tilla, bilakuzuklar, nayza, qilich va o`q-yoylar, turli xayvonlarning shakllari v.b.) Oltoydan, Ural dashtlaridan, Kaspiy dengizi bo`ylaridan va Qashg`ardan topilgan.

Kaspiy dengizidan Markaziy Osiyogacha Pleney ma`lumotlariga ko`ra bu yerda 20 ga yaqin qabilalar yashab, ular ichida saklar, massagetlar, issedonlar, daylar, astaklar, xorazmiylar, girkonlar, kaspiylar, derbeklar, barkaniylar, tapurlar va boshqalar o`zlarining ko`psonligi va jangovorliklari bilan ajralib turgan. Skiflar nomi bilan atalgan bu xalqlarga yunonlar, xitoylar, eroniylar, o`z tillariga moslab nom qo`yishgan. Skiflarning etnografik, antropologik xususiyatlari xunlarga yoki turkiy xalqarga o`xshashdir.

Skiflar murakkab qabilalar birikmasidan iborat bo`lib, bu qabilalarning bir qismi shimoliy eron tillariga mansub qabilalardan tashkil topgan (hozirgi osetinlar avlodi). Ayrim ma`lumotlarda skiflar davlatiga asos solgan podshox Targitoy va uning o`g`li Yergitoy ismlari turkcha bo`lib, bu skiflarning ba`zi guruhlari turkiy tilda so`zlashgan deyishiga asos bo`ladi.

Xunlarda mansablar turkiy nom bilan ifodalangan. Masalan: o'ng ko'l bilgakan; so'ng ko'l bilgaxon, o'ng qo'lxan, so'l ko'lxan, ulug' tutunbog', batisxon, tumanboshi, mingboshi, yuzboshi, unboshi kabi amaldorlik va harbiy lavozimlar joriy qilingan.

Xunlar turkiy xalqlarda qo'llanilgan nog'ora, nay kabi musiqa asboblaridan foydalanishgan.

Keyingi 20 yil ichida Mavorounnaxrdan turli davrlarga oid ashyoviy dalillarning ko'plab topilishi, O'rta Osiyo xalqlarining kelib chiqishi sohasida fanda uyg'unlashgan yangi fikrlarni vujudga keltirishdan tashqari, mavjud fikrlarni ham qayta ko'rib chiqish zaruriyatini tug'dirmoqda. Masalan, Teshik tosh g'oridan topilgan neandrtal bolani venger antropologiya A.Toma 16 yil muqaddam mo'g'uliy irqqa mansub deb chiqqan edi. Keyingi xulosalar esa Teshik tosh odami bosh va gavda tuzilishi jihatidan old Osiyoda istiqomat qilgan kishilar toifasiga kirib, mustye davriga taaluqli ekanligini va uning antropologik tuzilishi yevropoid irqiga mansubligi ko'rsatadi.

Xo'sh unda mo'g'uliy irq O'rta Osiyoda qanday paydo bo'ldi?

Mo'g'uliy irq vakillari O'rta Osiyoga dastlab miloddan avvalgi 1 ming yillik o'rtalarida kirib kelgan. Biroq ular keng tarqalmasdan dehqonchilik xududlari chegaralari bo'ylab hayot kechirganlar.

Antik davrda O'rta Osiyo xalqlari tarkibida mo'g'uliy belgilar nisbatan ortib borgan.

Ko'chmanchi aholi asta-sekin mahalliy aholi bilan faqat madaniy va xo'jalik aloqalarida bo'lib qolmay balki genetik aloqalarda ham bo'lgan. Antropologik ashyolarga asoslanib, ko'chmanchi aholi avvalo shaharlar va yirik qishloqlar aholi bilan ko'proq aralashgan degan xulosaga kelish mumkin.

Qishloqlar va dehqonchilik vohalari aholisi ko'chmanchilar ta'siridan holi bo'lib, o'zlarining qadimgi antropologik qiyofalarini saqlab qolishgan.

Antik davrda saklar va ulardan keyingi davrda kelgan mo'g'uliy qabilalarni O'rta Osiyo mahalliy aholisi o'z tarkibiga singdirib yuborgan. Chunki ko'chmanchi qabilalar birinchidan madaniy jihatdan orqada bo'lsa, ikkinchidan mahalliy aholiga nisbatan kam sonli bo'lgan.

Pompey Trog esa "Baktriya va So'g'diyonani skif qabilalaridan bo'lgan sarauklar va osiyo egallashdi" deb ma'lumot beradi. Miloddan avvalgi 2 asrda ana shu qabilalar asosida Kushon davlatini vujudga keltirdi. (Turg'un Olmos. Xunlarning qisqacha tarixi. Qashqar 1986 y.) Bichurinning ma'lumotiga ko'ra, 120 ming oiladan iborat bu davlatning askari aholisini kushonlar tashkil etib, ularning tillari urf-odatlar va rasm-rusumlari kangxa (qanglilar) kanlar, usunlar, tyukyularga yaqin bo'lgan. Kushon davlatida juan-juanlar (mo'g'ullar) ham yashashgan. Qanglar turkiy xalq bo'lib, Sirdaryoning o'rta oqimlarida yashashgan.

O'rta Osiyo va unga yaqin mamlakatlar shakllanishida ma'lum rol o'ynagan eftalitlar nomli qabilalar uyushmasi xam turkiy etnik elementlar negizida shakllangan. Masalan, kushanlar va eftalitlar (xionitlar, abdallar) davriga oid ellin baktriya xatida beshinchi asrda turkiy tilda bitilgan jumlar saqlanib qolgan: Kuysan (kushon) tilintin tuxri tilincha yaratmish Bu misol Kushon (guyshuonlar) va eftalitlar turkiy xalqlari bo'lganliklarini tasdiqlaydi.

Xind ma'lumotlarida eftalitlar xunlar nomi bilan uchraydi. 433 yili Atilla rahbarligida xun qabilalari ittifoqi vujudga kelgan, biroq keyinchalik bu ittifoq tarqalib, xunlar bulg'orlar, suvarlar, avarlar va xazarlarga bo'linib ketdi.

V asrning ikkinchi yarmida eftalitlar O'rta Osiyodan keyin butun Sharqiy Turkistonni ham egallashdi. Eftalitlar keyinchalik janubga xujum qilib, Shimoliy Xindiston yarmini qo'lga kiritadilar. Shunday qilib, tarixan skiflar, xunlar, eftalitlar va boshqa nomi bilan yashagan O'rta Osiyo xalqlari VI- asr o'rtalaridan boshlab o'tgan bir yarim ming yil davomida turklar nomi bilan mashxur bo'ldi.

VI - asrda Oltoy bilan O'rta Osiyo chegaralarida yangi davlat - Turk xoqonligi vujudga keldi. U O'rta Osiyo xalqlari hayotida muhim rol o'ynaydi. Turklar yozma manbalarida turli o'xshash nomlar bilan ma'lum. Masalan, Xitoylar ularni tutszyuye, mug'ullar turkyurt, forslar turk deb atashgan.

Eng qadimiy turkiyzabon xalq Xitoy salnomalarida millodan avvalgi (1756 yilda) boshlab uchraydi. Bu xalq unda "Xunlar" deb atalgan.

Ularning tili turkiyzabon bo'lishiga qaramasdan turk deb atalmagan. Turk so'zi etnik nom sifatida milodning V asrdan boshlab uchraydi. O'sha xunlar toifasini ular bilan aralashib turgan mo'g'ullar "Turk - utu, ya'ni mo'g'ulcha "bo'ri urug'i deb ataganlar". Turk xokonligiga asos solgan kishining nomi Ashin bo'lib,

mo'g'ulcha bo'ri degan ma'noni berar ekan.

552 yili Ili daryosi vodiysida turklar bilan juan - juanlar o'rtasidagi jangda turklar g'olib chiqqach ularning boshlig'i Bo'min o'zini Ulug'xon deb e'lon qildi. 554 yili Bo'min vorislaridan biri xoqon Muxan boshchiligida turklarning katta oqimi g'arbga yo'l oladi. 555 yili ular biror jiddiyroq qarshilikka duch kelmasdan Markaziy qozoq dashtlarini, Orol bo'ylari va Xorazm vohasini egalladilar. 558 yili ular sarmat - alan qabilalirini, ugorlar (hozirgi xung'lar avlodlari) ni yengib Volga bo'ylarigacha etib borishdi. Ular O'rta Osiyodan eftalitlarni Afg'oniston va Xindiston tarafga surib, ularning o'rnini egalladilar. Biroq o'zaro urushlar tufayli Turk davlati ikkiga: Sharqiy va G'arbiy turk xoqonliklariga bo'linib ketdi.

Yozma manbalarda birinchi va ikkinchi turk xokonligini vujudga kelishida quyidagi turkiy urug' va qabilalar ishtirok etganligi bayon etiladi. Ular ashin, arg'u, as-basmil, izg'il, o'g'uz, to'qqiz o'g'uz, uch o'g'uz, o'n uygur, o'tiz tatar, qarluq, kurdanta, qipchoq, kitan, qiriqaz, tardush, tatabi (tunguzlar)dulu, nushub, tukri (taxarlar) tolis, turgash, tuputi, sir, kurikan, duba (tuba) urug'laridir.

O'rta Osiyoga kelib o'rtoklasha boshlagan turkiy qabilalar shaharda xunarmandchilik, savdo-sotiq, qishloqda, cho'l va tog' etaklarida esa dexqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullandilar. Ular sharqiy Eron tillarida so'zlashuvchi aholi bilan aloqalarini kuchaytirdilar.

Movarounnaxrda biron-bir jiddiy qarshilikka uchramagan turkiy xalqlarning yangi guruxlari Sirdaryo bo'ylariga va Zarafshon rayonlariga ko'plab ko'chib kela boshladilar. O'z navbatida So'g'dning tub joy aholisi turk xoqonlari ximoyasida savdo-sotiq ishlarini xotirjam rivojlantirgan. Turkiy xalqlarning Mavorounnaxrda qalinlashib borishi VII-VIII asrlarda yaqqol sezila boshlangan. natijada, o'zbeklar ajdodlarining uzoq asrlar davom etgan o'zaro uyushuvi nihoyasiga yetdi va o'zbek elatining shakllanishi uchun zarur omillar vujudga keldi.

VII asrda Arab xalifaligi tomonidan O'rta Osiyoni istilo qilinishi, bu yerda yashayotgan xalqlarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy xayotlari rivojiga putur yetkazdi. Mavorounnaxrdagi bezovtalik turkiy xalqlarning kirib kelishini birmuncha sekinlashtirdi. Biroq, Somoniylar davlati davrida (875-999) O'rta Osiyo xalqlari siljish ro'y bera boshladi. Ularda qabila urug'chilik munosabatlari yemirilib, ular ichida sinfiy kurash avj oldi.

Bu davrga kelib Shosh, Farg'ona va Xorazm yerlarida mahalliy aholining etnik tarkibida turkiy elementlar tobora kuchayib, turkiylashgan aholi endi "sart"- deb ataluvchi etnik qatlamga aylanib borgan. Yusuf Xos Xojib va Mahmud Qashg'ariy asarlarida "Sart" so'zi "savdogar" ma'nosida tilga olingan. XIII - asrda mo'g'ullar Xorazm aholisini, keyinchalik esa savdo va xunarmandchilik bilan shug'ullangan Mavorounnaxr aholisini sartovul, sartak, sartaqi deb ataganlar.

X - asr o'rtalarida Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Janubiy Tyonshan viloyatlarida bir necha turkiy qabilalar: tuxsi, karluk, yagmo va boshqalar birlashib Buxroxon rahbarligida Qoraxoniylar davlatini vujudga keltirdilar. Ular islom dinini qabul qilishgach, X - asr oxirlarida Buxoroning nabirasi Xorun ibn Sotun boshchiligida turkiy qabilalarning Movarounnaxrga yurishi natijasida bu yerda Somoniylar davlati yemirilgan. Movarounnaxrda Qoraxoniylar xukmronligi o'rnatildi natijada, turkiy qatlam So'g'dning barcha tumanlariga, xatto chekka qishloqlarga ham kirib borgan.

Qoraxoniylar xukmronligi davri (X-XII asrlar)da o'zbek elati to'la shakllandi, shaharlar kengayib, qishloqlar obodonlashgan, dehqonchilik va xunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniyat rivojlangan. Eski o'zbek tiliga asos bo'lgan karluk-chig'il lahjasi rivojlanib, yozma adabiy til darajasiga ko'tarilgan va o'zbek elatining umumiy tili bo'lib qolgan. Qadimgi o'zbek adabiy til va she'riyatini o'rganishda Mahmud Qashg'ariy, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniylarning yaratgan dostonlari beqiyos ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, har qanday xalqning shakllanish jarayoni uning nomiga nisbatdan qadimiy bo'ladi. Masalan, fransuzlar yuvropaning qadimiy xalqlaridan biri bo'lishiga qaramasdan, ularning nomi X asrda G'arbiy Frank qirolligi asosida vujudga keladi. Ukrainlar o'z yurtlarida qadimdan yashashlariga qaramasdan rus yilnomalarida XII-XIII asrlardagina uchray boshlaydi.

"O'zbeklar" atamasi ham shu nom bilan yuritilgan xalqqa nisbatan ancha keyin paydo bo'lib, bu nom dastlab XII-XIII asr manbalarida biror xalq nomi bilan emas, balki shaxs nomi sifatida uchraydi.

"O'zbek" degan nomning kelib chiqishi hali uzil-kesil aniqlangan emas. XIV asr oxirida Sharqiy Dashti

Qipchoqdagi turk va turklashgan qabilalar o'zbeklar degan nom bilan yurganlar. Ammo o'zbek degan so'zning o'zi qayerdan kelib chiqqanligida qat'iy nazar uning XI-XVI asrlardagi ma'nosi hozirgi vaqtdagi "O'zbek" so'zining ma'nosi bilan aralashtirib bo'lmaydi.

"O'zbek" xalqining asosini XVI asrda Dashti Qipchoqdan kelgan ko'chmanchi "o'zbek" largina emas balki So'g'd, Farg'ona va Xorazmning o'troq aholisi va ular bilan qo'shni bo'lib yashagan turli ko'chmanchi qabilalar tashkil qilganlar.

Shunday qilib ko'chmanchi o'zbeklar O'rta Osiyoga "o'zbek" degan atamani olib kelib o'zbek xalqi shakllanishining so'nggi uchinchi bosqichini yakunladilar. "O'zbek" atamasi ilmiy jihatdan xali to'liq o'rganilmagan. Dastavval "o'zbek atamasi arab muallifi Usam ibn Munqiz (XII asr oxiri), Eron tarixchisi Rashiddin (XIII asr oxiri XIV asr boshi) asarlarida uchraydi Hamidulloh Qazvinii(1281-1350) Dashti Qipchoqni "mamlakati o'zbek" deb yozsa, Al-Kalkoshandiy (1418 yil vafoti) ularning podshohlarini "maliki bilag o'zbek" ("o'zbeklar podshosi") deb ataydi.

Xullas "O'zbek" degan atama bizga XVI asrda kirib kelib, tarqalib, bu nom xalqimizga nisbatan ishlatila boshladi. Zero, necha-necha bosqinlarni boshidan kechirgan xalqimiz "qoni", genetikasi deyarli o'zgargani yo'q. U hamisha o'zligini saqlab qoldi. Ikki yarim ming yil davomida mahalliy aholiga kelib qo'shilgan turkiy tilli elat va xalqlar o'zbek xalqining shakllanishida asosiy tarkibiy qism sifatida qatnashdi.

XIII-XIV asr o'rtalarigacha O'rta Osiyo xalqlari mo'g'ul imperiyasi asoratida yashadi. O'rta Osiyo mo'g'ullar tomonidan bosib olingan keyin xokimiyat Chingizxonning o'g'li Chig'atoy qo'liga o'tdi. Bu davrda Movarounnaxrda mo'g'ul ko'shinlari bilan birga Oltoy, Yettisuv va Sharqiy Turkistondan turkiy va mo'g'ul qabilalari: jaloyir, nayman, qipchoq, saroy, bayovut, sulduz, nuquz, kavchin, arlot, barlos va boshqa qabilalar xam kelib qoldilar. Ular o'zlarini Chig'atoy ulusi deb atashib, mamlakatning siyosiy, ijtimoiy, harbiy, iqtisodiy hayotida faol qatnashdilar.

Temuriylar davlati vujudga kelishi arafasida qarluq, chig'il, o'g'uz, yog'mo, qipchoq, barlos, qovchin, arlat, jaloyir kabi turkiy qabilalarning mavqei oshib bordi.

3 savol. O'rta Osiyo temuriylar davrida har sohada gullab yashnadi. Temuriylar saltanati, nafaqat o'zbek xalqi balki butun O'rta Osiyo xalqlarining fani va madaniyatini rivojlantirib, ularni jahonga tanitdi.

Temuriylar davlati har tomonlama rivojlanayotgan bir davrda Dashti Qipchoqdan yashab turgan ko'chmanchi turkiy urug'lar bilan Chingizxon davrida kelib qolgan mo'g'ul qabilalari o'rtasida qo'shilish, aralashish jarayoni ketayotgan edi.

XV asr oxirida temuriylar davlati inqirozidan foydalangan Dashti - Qipchoq ko'chmanchi o'zbeklar Shayboniixon boshchiligida Movarounnaxrga bostirib kirdi.

O'zbeklarning O'rta Osiyoning dexqonchilik vohalariga ommaviy tusda bostirib kelishga sabab, birinchidan, feodal munosabatlarning rivojlanishi natijasida ko'p qabilalar o'troq hayotga o'rganishdir. Bu esa xukmron yuqori tabaqalar tomonidan yaylovlarni bosib olishga, ko'chmanchi aholini esa yangi yerlar izlashga olib keldi. Ikkinchidan, xon va beklar uchun bosqinchilik yurishlar boyishining asosiy manbai edi. Uchinchidan, ko'chmanchilarning yaylovlari uchun o'zaro kurashlar ko'pgina qabilalarni O'rta Osiyoning ichki viloyatlariga boshlab bordi.

Dashti Qipchoq o'zbeklari turk - mo'g'ul qabilalari arlot, baxrin, burkut, do'rmon, iymon, xitoy, karluk, mo'yor, qipchoq, qiyot, tangut, uyg'ur, karlovut, mangit, nayman, nuquz, qo'ng'irot, markit, kushchi, o'tarchi, chimboy, kenagas, uyishi, tuboyi, toymas, echki, ming, shodbaxtli, shunqorli va boshqa urug'lardan iborat bo'lib ular XIII asr oxiri XIV-XVI asrlarda o'tgan Sharq tarixchilari tomonidan umumiy nom bilan "o'zbek" deb atalgan.

Shayboniixonning zamondoshi Ruzbehonning "Mehmonnomai Buxoro" kitobida muhim ma'lumotlar uchraydi. U Dashti Qipchoq o'zbeklarini uch toifadan: shayboniylar (Shaybon ulusiga kirgan o'zbeklar), qozoqlar va mang'itlardan tashkil topganini ko'rsatadi.

Mang'it ulusi Emba va Yoyiq daryolari oralig'idagi yerlarda yashagan.

Ko'chmanchi o'zbeklar tarkibidagi ayrim qabilalar turli etnik guruhlarining quramasi edi. Ular ko'p xollarda etnik kelib chiqishi emas, balki territorial prinsipi bo'yicha uyushgan edi. Shuning uchun ham ular keyinchalik osonlik bilan Movarounnaxr xalqlari tarkibiga singib ketdilar. Bu qabilalar o'zbek xalqi kelib

chiqishi tarkibining muhim qismlaridan biri bo'lib, o'zbek millati shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

XVII asr boshlarida O'rta Osiyoda o'zbek urug'lari va qabilalari son jihatdan o'sish bilan birga iqtisodiy va siyosiy hayotda ham faol qatnasha boshladilar. Bu vaqtga kelib urug'lar soni 92 taga yetdi. Ularning ko'pchiligi o'troq hayot tarziga o'tishdi. Urug'lar yashagan joylar ularning nomlari bilan atala boshladi: Nukus, Qo'ng'iroq, Qipchoq, Mang'it va boshqalar.

Temuriylar davridayoq avj olgan o'zaro urush janjallar xonlar va zadogonlarning o'zbek qabilalariga bo'lgan e'tiborini kuchaytiradi. Qarama-qarshi kuchlar qabila, urug' boshliqlarini o'z tomonlariga og'dirish uchun ularga katta - katta yerlar in'om qilib yirik feodallarga aylantirdilar. Bundan foydalangan qabila boshliqlari keyinchalik mustaqillik uchun kurasha boshladilar. Ular Shaxrisabzda kenagas urug'i, Afg'onistonning shimolida Amudaryo bo'ylarida qatog'on urug'i, Farg'ona vodiysida minglar va qo'ng'irotlardan iborat edi. Kurashlar natijasida minglar Farg'ona vodiysida, qo'ng'irotlar Xivada, mang'itlar Buxoroda xukmron mavqeilariga ega bo'ldilar.

O'rta Osiyo xalqlari qatori qoraqalpoq xalqining paydo bo'lishi ham murakkab tarixiy jaranlar orqali sodir bo'lgan. Ularning avlodlari VII-II (mil.avv.)asrlarda Orol dengizining janubiy qirg'oqlarida yashagan sak, massaget qabilalari edi.

VI-VIII asrlarda bostirib ketgan turkiy xalqlar, bijanaklar va o'g'uzlar ta'sirida qoraqalpoqlarning shakllanish jarayoni boshlandi. XIV-XV asrlarda qoraqalpoqlarning no'g'oylar bilan aloqasi qoraqalpoq etnogeneziga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida qoraqalpoqlar, Xiva xonligiga bo'ysundirilgan. Ularning boshqa qismi XVIII asr boshlarida Farg'ona, Zarafshon vodiylariga ko'chib "o'zbek xalqi" tarkibiga qo'shilgan.

Xulosa shuni ko'rsatadi.

O'rta Osiyo xalqlarining kelib chiqishiga mo'g'ullar istilosi ham Shayboniyxon qo'shinlarining bostirib kirishi ham hozirgi O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston xalqlari tashqi qiyofasiga, ularning madaniyatiga, turmush tarziga, xatto tiliga ham sezilarli o'zgartirishlar kiritmadi.

Movarounnaxr xalqlari o'zlarining tarixiy taraqqiyotlari jarayonida murakkab yo'llarni bosib o'tishsada, o'zlarini borliqlarini, mustaqilliklarini saqlab qolish uchun doimo astoydil harakat qilib kelganlar.

5-Mavzu: Buyuk ipak yo'li: shakllanish, rivojlanish bosqichlari.

Reja:

- 1.Buyuk ipak yo'liniing paydo bo'lishi va rivojlanishi
- 2.Buyuk ipak yo'lining tarmoqlari.
- 3.Buyuk ipak yo'lining tarixiy ahamiyati.

Adabiyotlar.

- 1.Karmov I.A. Savdo yo'lidan ipak yo'lini tiklash sari. Asarlar, 2. Jild, T."O'zbekiston", 1996 yil
2. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. T."O'zbekiston", 1997 yil.
- 3.Ratkevich V.A. Velikiy, Shedkoviy put. M.M. 1990 yil.
- 4.Ipak yo'li afsonalari . T. "Fan" 1993 yil.
- 5.Formirovaniye i razvitiy trass Velikogo Shelkovogo Puti v sentrlnoy Azii v Dvernosti i srednevekov. Tезisы dokladov Samarqand, 1990 yil.
6. Buyuk ipak yo'lidagi Markaziy Osiyo shaxarlari. Ma'ruzalar bayoni. Samarqand 1994 yil.

Ma'ruza maqsadi

Mil. av. 3000 yillikka kelib O'rta Osiyoning ko'pgina xududlari qadimgi axoli tomonidan o'zlashtirib

bo'lingan edi. Ammo, cho'l va dasht xududlarida o'zlashtirilmagan, xududlar xam mavjud edi. Bu xududlardagi chorvador axoli voxalaridagi o'troq axoli bilan o'zaro aloqalarini bronza davriga kelib yanada rivojlantiradilar. Tarixiy adabiyotlaridan ma'lum bo'lishicha buyuk Ipak yo'li tashkil topmasdan ancha ilgariroq qadimgi sharq va o'rta Osiyo xududlarida o'zaro almashinuv yo'llari mavjud edi. Qadimgi xalqlarning turli tomonlama rivojlanishda savdo va transsik yo'llarining amxamiyati nixoyatda kattadir. Shunday yo'llardan biri sharq bilan g'arbni bog'lovchi Buyuk Ipak yo'li. Bizning maqsadimiz ushbu yo'lining shakllanish, rivojlanish jarayonlarini, tarmoqlarini va axamiyatni to'liq yoritib berishdir.

5-mavzudagi bilimlarning egallanganlik darajasini aniqlash uchun tayanch tushunchalar: "lojuvard yo'li", "shox yo'li", "Buyuk Ipak yo'li", jaxondagi geografik kashfiyotlar, YUNESKO dasturi, ipak yo'lining tarmoqlari, karvon savdosi.

1-savol. Bronza davridagi (mil. av. III - II ming yilliklar) ana shunday yo'llardan biri "lojuvard yo'li" deb atalib, uning bir tarmog'i Badaxshon, Bakteriya va Marg'iyona xududlarini Xorazm, Sug'diyona Markaziy Qozog'iston va Ural bilan bog'lagan yana bir tarmog'i esa Baktriya va Marg'iyonani Mesopotamiya bilan bog'lagan. Bu yo'l Pomir tog'laridan boshlanib Eron, Old Osiyo, Misr orqali o'tgan. Badaxshon lojuvardining Xind vodisi, Mesopotamiya va Misrdan topilishi bu qimmatbaxo toshning qadimgi sharqda nixoyatda qadrlanganligidan dalolat beradi.

Qadimgi yo'llardan yana biri Eron axmoniylarining yo'li bo'lib bu yo'ning bir tarmog'i mil.av. VI-IV-asrlarda kichik Osiyo shaxarlarini xamda O'rta Yer dengizi bo'yidagi Efes, Sardi shaxarlarini Eronning markazlaridan biri Suza bilan bog'lagan bo'lsa, yana bir tarmog'i Eron, Baqtriya orqali Sug'diyona, Toshkent axolisi va Qozog'iston xududlaridan o'tib Oltoygacha borgan. Tarixiy adabiyotlardan bu yo'l "Shox yo'li" deb ataladi.

Mil. av. 138-yilda Xitoy imperatori U-Di Chjan Szyanning Osiyo yerlariga jo'natadi. Elchi Chjan Szyan (mil. av. 138-126-yillarida) Xitoyning xumlariga qarshi kurashi uchun itifoqchi izlab kelgan edi. Mil. av. II-I asrlarga kelib Chjan Siyan yurgan yo'llari Xitoyni O'rta va G'arbiy Osiyo bilan bog'laydigan karvon yo'li bo'ladi. Bu yo'l Buyuk Ipak yo'li deb atalib umumiy uzunligi 12 ming killometrdan iborat edi. Ilk o'rta asrlarga kelib Ipak yo'lining yanada rivojlanganligini kuzatish mumkin. O'z davrida nixoyat katta axamiyatga ega bo'lgan bu yo'ning dastlabki tarmog'i Xitoyning Sian shaxridan boshlashib Sharqiy Turkiston O'rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya orqali O'rta Yer denigizigacha cho'zilgan.

Buyuk Ipak yo'li –Xitoy, O'rta Osiyo va YAqin Sharq mamlakatlari o'rtasidagi qadimgi savdo yo'li. Bu yo'l orqali qadimgi Xitoydan, Xindiston, O'rta Osiyo va Kichik Osiyoga asosan ipak eksport qilinganligi sababli tarixda u "Ipak yo'li" nomi bilan shuxrat topgan.

Buyuk ipak yo'li mil. av. I ming yillikning 2- yarmidan to millodiy 15-asrgacha, ya'ni suv yo'llari qaror topguncha sharqni g'arb bilan bog'lagan asosiy savdo yo'li bo'lib, u Xitoy, Xindiston, O'rta Osiyo, yaqin Sharq xamda O'rta dengiz mamlakatlari o'rtasidagi savdo sotiq va madaniy aloqalarning rivojlanishida muxim rol o'ynagan.

Buyuk Ipak yo'li Xitoydagi Xuan Xe daryosining o'rta oqimida joylashgan Sian shaxridan boshlanib Lanch jou orqali Dunxuanga kelgan. Bu yerda u ikkiga ajralib biri-shimoli – g'arbga, ikkinchisi janubiy–g'arbga yo'nalgan. Shimoliy yo'l Turfon orqali. Tarim voxasiga va bu yerdan Qashqar Davon (Farg'ona vodiysi) ga borgan. U yerdan So'g'dning markazi bo'lgan Samarqand va Marg'iyona (Marv)ga yo'nallgan. Janubiy yo'l Xo'tan, Yorkent va Pomir –tizma tog'lari orqali o'tib, Baqtriyaning poytaxti Zariaspa (Balx)ga borgan. Balxda janubiy yo'l ikkiga ajralib biri Xindistonga, ikkinchisi g'arbga yo'nalgan va Marvda shimoliy yo'l bilan tutashgan. Marvda Buyuk Ipak yo'li Parfiyaning poytaxti Niso, Eronning Gekatompil, Apaliya va Ekbatana (Xammadon shaxarlari) orqali Mesopotamiyaga borgan. U yerda Ktesifon va Bog'dod shaxarlaridan o'tib Dajla (Tigr) daryosining o'ng qirg'og'i bo'ylab shimolga yo'nnalagan va Nisbin xamda Antioxiya (Antokiya) shaxarlari orqali Damashqqa borgan. Damashqqdan Tira shaxri bilan Quddusga va Misrga yo'nnalagan. Buyuk Ipak yo'li orqali Xitoydan tashqi savdo uchun ipak, Xitoyga esa xar xir gazlama gilam va paloslar, oyna, metall, zeb zinat buyumlari, qimmatbaxo tosh va dorivlorlar Baqteriya va Dovondan ot va tuyalar olib borilgan. Buyuk Ipak yo'li tufayli Xitoyning O'rta Osiyo YAqin Sharq mamlakatlari bilan savdo va elchilik aloqalari birinchi ikkinchi asrlardayoq kengayib borgan. Xitoydan xar

yili katta savdo karvonlari elchichlar bilan g'arb mamlakatariga jo'nadilar va g'arbdan turli tuman mollar, ortilan karvonlar bilan elchilar kelar edi. Garchi Xitoy sayyoxi Gai In 97 yili Fors qo'ltig'iga yetib borgan bo'lsa, Makidoniyalik Gay Titsian 100 yili Lanch - monagacha yetib kelgan. Lekin Buyuk Ipak yo'lining uzoqligi va sermashaqatligi sababli Xitoy G'arb davlatlari bilan bevosita aloqa olib borishi mumkin bo'lmagan. Shuning uchun xam Buyuk Ipak yo'li orqali olib borilgan savdo elchilik aloqalarida osiyoliklar ayniqsa so'g'dlar, baqteriyaliklar va eronliklar vositachilik rolini o'ynaganlar. III-IV- asrlarda Buyuk Ipak yo'li Xitoydan Xidistonga borib ziyorat qiluvchi budda monaxlari uchun xizmat qildi. X asrlarda Xitoy bilan arab xalifaligi va Vizantiya o'rtasida savdo va elchilik munosabatlarining kengayishi natijasida Buyuk Ipak yo'lining xalqaro axamiyati yanada kuchaydi. XIII-XIV- asrlarda Buyuk Ipak yo'li mo'g'illar imperiyasining chekka o'lkalarini Mo'g'iliston bilan bog'lashda katta rol o'ynadi. XV asrdan boshlab (Buyuk geografik kashfiyotlar) Italiyalik Xristofor Kolumb, Florensiyalik Amerigo Vespuchchi, Portugaliyalik Vasko Da Gama kabi sayohlarning sayohatlari va shuningdek, dengiz orqali suv yo'llarining kengayishi va unda savdo-sotiqning keng yo'lga qo'yilishi natijasida Buyuk ipak yo'lining ahamiyati sekin pasaytirdi.

O'tmishga bir nazar tashlasak: Yer yuzasining kattagina qismini egallangan-na siyosiy, na davlat chegaralarini bilmaydigan, qadimda bobolar solgan yo'l Buyuk ipak yo'li va bu yo'lning chinakam buyukligini va mahobatini ko'z o'ngimizda gavdalandirib turadigan va o'z ko'rki-jamolini saqlab kelayotgan qo'rg'onlar, karvonsaroylar, shaharlar namoyondir.

O'rta Osiyo Buyuk ipak yo'li chorrahalarda joylashgan bo'lganligi uchun ham bu yo'lning ta'siri va ahamiyati juda katta bo'lgan. Buyuk ipak yo'li orqali dunyo madaniyatining beshigi bo'lgan mamlakatlar o'rtasidagi jug'rofiy va milliy to'siqlardan ustun turadigan chinakam xalqaro muloqotlarga yo'l ochilgan. Bugun jahon madaniyati erishgan cho'qqidan sezayotganligini guvohi bo'lamiz. Demak, shunday ekan yana mavzuning uchi O'rta Osiyo o'tmishiga borib taqaladi.

O'rta Osiyo, uning Ko'hna Urganch, Xiva, Buxoro va shu kabi qadimgi shaharlar tuprog'i afsonalar mamlakati ekaniga, go'zal me'moriy obidalari jahon madaniy merosining ajralmas qismi ekaniga amin bu tarixiy shaharlar Buyuk ipak yo'lidagi ko'rki-tarovati, boy o'tmishi bilan benihoyat katta e'tiborni talab etadi.

Buyuk ipak yo'li faqat savdo-tijorat yo'ligina bo'lib qolmay, turli xalqlar qatorida O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga, xalqlarning o'zaro bir-birini boyitishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan, shaharlar va shaharsozlikning vujudga kelishiga, xunarmandchilik va madaniy qatlamlarning shakllanishiga bebaho hissa qo'shgan, ijtimoiy jarayonlarni harakatga keltirgan.

Masalan: Xitoy chinnisi va ipagining dovrug'i ham shu yo'llar orqali yoyilgan edi (Chinni IV-VI asrda Xitoyda vujudga kelgan va ayniqsa VII-XIII asrlarda chinnisozlik san'ati yuksak darajaga ko'tarilgan). Beruniy Eronda g'oyat mashhur bo'lgan uch xil Xitoy chinnisi haqida ma'lumot bergan. O'rta Osiyodagi oyna tayyorlash texnologiyasi esa 424 yili Xitoyga olib o'tilib, bu o'lkaning turli viloyatlarida oynasozlikning keng taraqqiy etishiga turtki bergan. Xitoydagi nafis qog'oz tayyorlash usullari (qog'oz birinchi marta II asrda Xitoyda Say Dun tomonidan o'simlik tolalarining suvli suspenziyasini sim to'rdan o'tkazib hosil qilingan) Turkistonga ko'chib, bu sohaning Samarqandda ravnaq topishga sabab bo'lgan. Shuningdek, karvon yo'lida joylashgan qadimgi shaharlarda hozirgi kunga qadar saqlanib kelgan tarixiy obidalaryuvropada, Lotin Amerikasida taraqqiyot yo'li uyg'onmagan, hatto inklar madaniyati ham bo'lmagan (inklar II-XIII asrlarda Peruning kechua tillari gruppasiga kiruvchi indeyets qabilalari) ming yillar burun bu yerda madaniyat gullab-yashnaganligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham hanuzgacha bu Buyuk ipak yo'lidagi yodgorliklar jahon jamoatchiligining diqqatini o'ziga jalb qilmoqda.

3 savol. O'rta Osiyo hududlarida antik davrdan boshlab rivojlanish jarayonlari Buyuk ipak yo'li bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, mil.av. II asrdan boshlab Xitoy va O'rta Osiyo viloyatlari bilan savdo va madaniy aloqalar rivojlanib bordi. Farg'ona, So'g'd va Baqtriya ipakchilik kirib keldi. Karvon yo'li rivojlanib borgan sari savdo-sotiq va madaniy aloqalar rivojlanib bordi. Kushonlar va eftalitlar davriga kelib O'rta Osiyo orqali o'tuvchi ipak yo'li tarmoqlari nazoratini mahalliy so'g'diy aholi qo'lga oldilar. Qo'shni davlatlar xam Ipak yo'lidan manfaatdor bo'lganligi sababli ilk o'rta asrlardan Eron va Vizantiya xukmdorlari

so'g'diylar bilan qonli kurashlar olib bordilar.

Milodning boshlarida qadimgi dunyoning ilg'or madaniyatli davlatlari, asosan to'rttaga: Rim, Parfiya, Xitoy va Kushon davlatlariga bo'linar edi. G'arbda Britan orollaridan sharqda Tinch okean sohillarigacha cho'zilgan bu zabardast saltanatlar insoniyat tarixida birinchi bo'lib "Buyuk ipak yo'li" deb nomlanuvchi yo'l bilan bog'landilar. Ipak yo'li rivojlanib borgan sari podsholarning o'zaro elchilar yuborishlari, bir-birlariga har xil sovg'alar in'om etishlari an'anaga aylandi. Savdo-sotiq misli ko'rilmagan darajada rivojlanib bordi. Shuningdek, Sharq bilan G'arb madaniyatining bir-biriga ta'siri kuchaydi. Davlatlar rivojlanishidagi ko'plab madaniy o'xshashliklar ham shu tufayli yuzaga keldi.

Buyuk ipak yo'li bo'ylab ko'plab karvonsaroylar, shaharlar barpo etildi. Bu yo'ldan borayotgan savdogarlar ko'pincha yo'lining oxirigacha bormas edilar. O'rta Osiyo viloyatlari bu yo'lning o'rtasida joylashganligi sababli savdogarlar Xorazm, Samarqand, Termiz va boshqa hududlarda o'z mollarini sotib, mahalliy mahsulotlarini xarid qilar edilar. O'rta asrlar O'rta Osiyo bozorlarida chetdan keltirilgan ko'plab mahsulotlar mavjud ediki, hozirgi kunda ipak yo'li ustidagi ko'hna shaharlar va manzilgohlarda arxeologik qazilmalar natijasida topilayotgan topilmalar fikrimizning dalilidir.

Mil. av. II asrda paydo bo'lib, milodning XVI asriga qadar faoliyat ko'rsatgan Buyuk ipak yo'li shu davr ichida Sharq va G'arb xalqlarining keng miqyosdagi o'zaro madaniy va iqtisodiy aloqalari tarixida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu yo'l orqali aloqalar qilgan qadimgi xalqlarning o'zaro hamkorlik, almashinuv va madaniyatlarining boyib borishi tinch va taraqqiyot uchun asos bo'lib, xizmat qildi. O'zbekiston xududlari bu yo'lning chorrahasida joylashgan bo'lib, bu yerga turli malakatlardan savdogarlar, hunarmandlar, olimlar va me'morlar tashrif buyurganlar.

YUNESKO tomonidan "Buyuk ipak yo'li – muloqot yo'li" dasturining ishlab chiqilishi Yevroosiyodagi 30 dan ortiq yetakchi davlatlarning 2000 yilga qadar ilmiy-madaniy faoliyatiga o'rganish uchun yo'nalish bo'ldi. Respublikamiz hududlarida ham bir qancha ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etildi. Buning natijasida ko'pgina tarixiy-madaniy obidalar o'rganildi, qadimgi yo'llar va yo'nalishlar aniqlandi, milliy va ma'naviy boyligimiz hamda an'analarimiz o'rganildi. Juda ko'pchilik tadqiqotchilar ishtirok etayotgan "Buyuk ipak yo'li – muloqot yo'li" dasturining asosiy vazifasi Sharq va G'arb xalqlari o'rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatgan hamda rivojlantirgan bu yo'lni xalqlarning birodarlik, o'zaro hamkorlik va samimiy muloqot yo'liga aylantirishdan iboratdir.

Jahonning turli mamlakatlaridan tashrif buyurgan olimlar karvonsaroylar tarixini ipidan-ignasigacha qizg'in muhokama qilishib, bu manzilgohlar Buyuk ipak yo'lining islomga qadar karvonsaroy, so'ng esa rabot deb atalgan shoh bekatlari ekanligini ta'kidlashdi. Ekspeditsiya a'zolari hayratga soluvchi tarixiy obidalarining qadimiyligi, go'zalligi haqida so'z yuritishib, lekin ularning ko'pchiligi ta'mirlashga, yordamga muhtojligiga to'xtalib, mas'uliyatli vazifalar haqida bosh qotirishdi. Buxoro, Xiva va boshqa shaharlardagi tarixiy yodgorliklarni asrab qolish yo'llarini izlash uchun jahonning ilmiy kuchlarini safarbar etishga tayyor ekanliklarini, shuningdek, ota-bobolaridan shunday mahobatli obidalar, mo'jizaviy go'zalliklar meros bo'lib qolgan xalq ham ularni gard yuqtirmasdan saqlash uchun jon kuydirishi zarur ekanligini ta'kidlashdi. Jumladan, ekspeditsiyaning ilmiy kotibi Axmad Xasan Doni Oqsaroy haqida shunday fikrlarni bildirdi: "Jahonda yodgorliklar ko'p. Biroq mening nazarimda ulug'vor Oqsaroy – Muxammad Temur saroyi mahobatini xech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. U betakror ijod mahsulidir. Bu obidaning hozirgi holati uning ulug'vorligi va ahamiyati aslo kam emas. Men uni hayrat bilan tomosha qilib shunday fikrga keldimki, mutaxassislar Shaxrisabzda yashovchi butun aholi bu yodgorlikka nihoyatda katta e'tibor qaratmoqlari lozim... Agar bu ishlar amalga oshirilsa, butun dunyoda juda ko'plab sayyohlar faqat Oqsaroyningina emas, shaharning san'at va madaniyat tarixiga doir ko'plab monumental yodgorliklarni ham hayratlanib tomosha qilgan bo'lardilar... Shu shahar ahliga, o'zidan keyin mana shunday ulug'vor va muhtasham me'moriy yodgorliklar qoldirgan buyuk insonga ulug' davlat arbobiga va lashkarboshiga ta'zim bajo, ehtiromimni bildiraman".

Xullas, buyuk ipak yo'li va uning karvonsaroylari, tarixi yildan-yilga chuqur izlanishlar natijasida yangi-yangi qirralarini ko'rsatib, kelajak avlodlari uchun ham qimmatli tarixiy yodgorlik bo'lib qoladi.

**6 – Mavzu: O`RTA OSIYO XALQLARI XAYOTIDA YUZ BERGAN UYG`ONISH (RENESSANS)
DAVRI, AJDODLARIMIZNING JAHON SIVILIZATSIYASIGA QO`SHGAN HISSASI
(IX-XII, XIV-XV asrlar).**

REJA:

1. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyatining yuksalishi.
2. XIV-XV asrda Markaziy Osiyoda moddiy va ma'naviy madaniyat ravnaqi.

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T., "O`zbekiston", 1996.
2. I.A.Karimov. Amir Temur davridagi bunyodkorlik va hamkorlik ruxi bizga namuna bo`laversin. Asarlar, 4 jild T., "O`zbekiston" 1996.
3. A.Abdugoriyev. Vklad v mirovuyu sivilizatsiyu. T., "O`zbekiston" 1998.
4. Buyuk siymolar, allomalar. (1,2 kitob) T., "Meros" 1995, 1996.
5. Nizomulmulk, Siyosatnoma T., "Adolat" 1997.
6. B.Axmedov. Ulug`bek. Esse T., 1994.
7. AMuxamedjanov. Temur va temuriylar davri. T., "Fan" 1996.
8. Temur va Ulug`bek davri tarixi. T., Qomuslar bosh tahririyati, 1996.
9. Nizomiddin Jomiy. Zafarnoma, T. "O`zbekiston", 1996.
10. Sharofiddin Yazdiy. Zafarnoma. T., "Sharq", 1997.
11. A.Qayumov. Alisher Navoiy T., 1994.
12. Ma'naviyat asoslari. T., "UME", 2000.

Ma'ruza maqsadi

IX-XII asrlarda yurtimizda tashkil topgan markazlashgan davlatlar iqtisodiy va madaniy hayotga ijobiy ta'sir qiladi. Ilm-fanga, madaniyaga intilish kuchayadi. Ma'ruzaning maqsadi-ushbu jarayonlarni to'liq va har tomonlama yoritib berish. Ma'lumki, XIII asrda mo'g'ullar istilosi natijasida mamlakatimiz madaniy tushkunlikka uchraydi. Amir Temur va temuriylar davrida madaniy ilmiy yuksalishining ikkinchi to'liqini boshlanadi, tariximizning mazkur sahifalarini to'liqligicha ochib berish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz.

6-mavzudagi bilimlarining egallaganlik darajasini aniqlash uchun tayanch tushunchalar: "Qomusiy bilim", "Axmad Farg'oniy", "Baytul hikma", "Xorazmiy", "Ikkinchi muallim", "Forobiyning Arastu asarlariga sharhi", "Abu Ali ibn Sino", "Abu Rayhon Beruniy", "Yusuf Xos Xojib", "Qutadg'u bilik", "Markaziy Osiyoda ma'naviyat rivojlanishi avjining ikkinchi to'liqini", "Mirzo Ulug`bek", "Kamoliddin Behzod", "Navoiy".

1 savol. O`rta Osiyoda IX-XII asrlarda feodal munosabatlar taraqqiy etishi, markazlashgan davlatlarning paydo bo`lishi, bu davrda ilm-fan, madaniy hayotning rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

O`rta Osiyo xalqlari xayotida arablar istilosidan so`ng iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlarda keskin o`zgarishlar sodir bo`ldi.

Mehnat bilan bevosita bog`liq bo`lgan xalq ommasiga zulm o`tkazish tobora takomillashib bordi. Xuddi shu tarixiy murakkab sharoitda ham O`rta Osiyoda fan va madaniyat taraqqiyotida ulkan hissa qo`shgan buyuk olimlar yetishib chiqdi. O`rta Osiyoda fan va madaniyat bobida nodir obidalar, buyuk fan kashfiyotlari va tadqiqotlarini yaratilishi jahon madaniyati xazinasiga bebaho hissa bo`lib qo`shildi.

O`rta Osiyo xalqlari o`rtasida islom dinining tarqalishi rasmiy-amaldorlik olamida So`g`d, Shosh, Farg`ona,

Xorazm zodagonlari orasida arab tili va yozuvining yoyilishiga olib keldi. arab tili faqat targ'ibot va diniy marosimlarda qo'llanilib qolmasdan, balki xo'jalik va huquqiy ishlarda, mahkamalarda ham xukmronlik qilar edi. Hamma xujjatlar shu tilda yozilar va bu tilni bilmagan kishi amaldor bo'la olmas edi.

Bir vaqtlar arablarga qarshilik ko'rsatgan mahalliy zodagonlar imtiyoz olish va uni saqlab qolish uchun arab tilini mukammal o'rganishga majbur bo'ldi. Arab tili madaniy hayotda va ilmiy ishlarda ham qo'llanildi, u tilda ilmiy asarlar yozildi. Arab tili YAqin Sharq, Eron, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston, O'rta Osiyo, Shimoliy Afrikaga va qisman, Janubiy yuvropaning qadimgi xalqlari orasida tarqaldi, ular uchun qariyb xalqaro til bo'lib qoldi.

Xalifalikning sharqiy viloyatlari hisoblangan O'rta Osiyo arab xalifaliklardan ajralib, hokimiyat toxiriylar, keyinchalik somoniylar qo'liga o'tgach, ahvol o'zgardi. Agar IX asr va X asrning boshlarida Movoraunnaxr fors tilida so'zlashuvchi aholisi o'z ona tilida yozmagan bo'lsa, X asr o'rtalariga kelib vaziyat o'zgardi va bizgacha juda kam o'zgargan xolda yetib kelgan tojik-fors adabiy tili adabiyotda, ayniqsa poeziyada ko'p qo'llanila boshladi. Somoniylar davrida fors tili asosan davlat tili sifatida qabul qilingan edi. Bu davrda tojik klassik adabiyoti vujudga keldi. dinga aloqasi bo'lmagan rasmiy xujjatlar asosan shu tilda olib borilar edi.

Qadimgi so'g'd tili, asta-sekin o'z ahamiyatini yo'qotib, keyin butunlay yo'q bo'lib ketdi. Movoraunnahr va Xurosonda fors tilidagi adabiyot maydonga kelishiga qaramasdan arab tili fanda ham, adabiyotlar ham katta rol o'ynar edi. O'rta Osiyolik Saol Ibnning "Yatimatul daxr" nomli arabcha asarida ko'rsatilishicha, o'sha vaqtda Buxoro, Xorazm va Xurosonda yashab arab tilida yozgan 119 ta shoir bo'lgan. Ko'rsatib o'tilgan shoirlarning ko'pchiligi amirlar, vazirlar, lashkarboshilar va boshqa oliy tabaqa vakillaridan iborat edi. Bundan arab tilida yozgan shoirlarning yuqori rasmiy doiralar bilan aloqasini ham ko'rish mumkin. arab tili yunon falsafasi yutuqlari va ilm-fanning yutuqlari bilan tanishish imkoniyatlarini berdi. (Marks i Engels F.Sochineniya, 2-izd. T. 20, str. 506) O'rta Osiyoda hamma ham arab (ayniqsa, mahalliy aholi) tilini bilmaganligi uchun fors tilining ahamiyati tobora oshib bordi.

Bu davrda Buxoro, Marv, Samarqand, Xorazm, Shosh, Farg'onada ilm, san'at, adabiyot va madaniyat ishlariga keng yo'l ochilib, bu shaharlar Bag'dod bilan aloqa qila boshladilar. Somoniylar davrida esa madaniyat va iqtisodiy hayotning markazi Bog'doddan Buxoroga ko'chdi. Somoniylar poytaxti Buxoro ilm-fanning markaziga aylandi. Nishopur, Urganch, Samarqand shaharlari halqaro taraqqiyot talablariga javob bera oladigan ilmiy va madaniy markazlar sifatida rivojlana boshladi.

Chig'atoy tili (eski o'zbek tili) Movaroaunnaxr, Xuroson, Farg'ona, Shosh va Xorazmning asosiy tillaridan bo'lib yetisha bordi.

Bu davrda ko'p tilda ijod qila oladigan fan sohiblari va ko'plab mutafakkirlar yetishib chiqdi. Qasida janrining dohiysi Rudakiy (tojik shoiri, Samarqand nohiyasini Panch – Rudak qishlog'idan) she'rlari bilan katta shuhrat keltirdi. Uning zamondoshi Firdavsiy (X-XI asr boshlari Xurosonning Tus shahridan) o'lmas "Shoxnoma" asarini yaratdi, katta tarixiy asarlar masalan, Gordiyziyning "Go'zal xabarlar" asari, Bayxakiyning o'ttiz tomlik tarix kitobi, Majididdin Admonning "Turkiston tarixi" asari paydo bo'ldi. Muxammad Narshoxiy "Buxoro tarixini" yozdi. Keyinroq bu asar tojikchaga tarjima qilingan. Nizomulmulkning "Davlatni idora" qilish to'g'risidagi kitob'i, Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik" asari, Maxmud Qashg'ariyning ulkan ijtimoiy – siyosiy klassik asari hisoblangan. "Turk tillari lug'ati" ("Devonu lug'atut turk" maydonga keldi.)

Movarounnaxr va Xorazmda yana juda ko'plab shoirlar va o'sha davr solnomachilari ijod etishgan, lekin ularning meroslarining hammasi ham bizning davrimizga yetib kelmagan.

Movarounnaxr va Xorazmda yana juda ko'plab shoirlar va o'sha davr solnomachilari ijod etishgan, lekin ularning meroslarining hammasi ham bizning davrimizga yetib kelmagan.

Movorounnaxr va uning atrof xududlarida joylashgan, markazlashgan feodal davlatlarda deyarli besh asr davomida (VIII – XIII asrlar) feodalizm davlat tuzumi shakllana bordi. Bu feodal davlatlarida muhim mavqeini egallagan musulmon ruhoniylari, davlat muassasalari bilan birlashgan holda islom mafkurasi va madaniyatining keng xalq orasida tarqatish va uni ta'sirini kuchaytirishga intildi. Davr o'tish bilan islom madaniyati xalq orasiga tobora kirib borishi uchun zarur imkoniyatlar yaratildi. Ayniqsa, Somoniylar davrida musulmonlar ruhoniylarining ta'siri yanada kuchaydi. O'rta Osiyodagi budda va xristian

ibodatxoalari machitlarga aylantirildi. Ispaniyadan tortib Xitoygacha bo'lgan savdo yo'llarida musulmon jamoalari, machitlar, mexmonxonalar paydo bo'ldi. Islomni qabul qilgan xalqlar ko'payib bordi. 960 yilda Oltoy va Issiqko'l oralig'ida joylashgan, keyinchalik Qoraxoniylar sulolasining asosini tashkil etgan turklar islomni qabul qildi. Islom keyinchalik vujudga kelgan Qoraxoniylar davlati diniga aylandi. Xuroson va Movorounnaxrda birinchi madrasalar ochildi. Buxoro musulmon dunyosining ma'naviy markaziga aylandi. Bu davrda islom dinida mavjud tuzumdagi ijtimoiy munosabatlarining adolatsizligidan norozilik sifatida paydo bo'lgan sufizm yanada kengroq tarqala boshladi. (Iz istorii sufizma: istochnik i sotsialnaya praktika. Tashkent. "Fan", 1991)

IX-XII asrlarda Movarounnaxrdagi markazlashgan davlatlarda hukm surgan musulmon ilohiyotining rasmiy olami bilan bir qatorda, o'zining ildizlari bilan O'rta Osiyoga, ayniqsa, Xorazm, Bobil, Eron va Hindistonning qadimiy madaniyatiga borib tarqaladigan ilmiy tong olami, boy ma'naviy merosi ham bor edi. Musulmonlar dunyosiga o'zining boy madaniyati bilan kirib kelgan O'rta Osiyo bu davrlarda Arab xalifaligi va butun musulmon Sharqining madaniy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Bu davrda O'rta Osiyodan buyuk olimlar yetishib chiqdi. Mashhur riyoziyotchi va falakiyotchi Abu Abdullo Muhammad ibn Muso Xorazmiy (780-850) katta ilmiy ishlari uchun Bag'dodga taklif qilingan. Bu yerda u Sharqning dastlabki akademiyasi "Bayt ul-Xikma" ("Donolar uyi") da faol ishtirok etgan. Bu yerda uning rahbarligida arablar va boshqa xalqlar qatori Axmad Farg'oniy, Ahmad ibn Abdulloh Marvoziy kabi O'rta Osiyolik olimlar tadqiqot olib borishgan. Xorazmiy diniy mafkuraviy dunyoqarash hukmronligiga qaramay, ilg'or ijtimoiy-falsafiy tafakkurga yo'l ochdi.

Xorazmiy riyoziyotda abstraksiya tushunchasini kengaytirdi. Induksiya yo'li bilan umumiy yechish usullarini hal qildi va deduksiya yo'li bilan umumiy usullar yordamida turli masalalarni yechdi. Uning asarlari dunyoviy fanlarning islom dinidan mustaqil rivojlanishiga yo'l ochdi. Uning "Astronomiya jadvallari", "Quyosh soatlari" to'g'risida risolalari va boshqa asarlari Sharq va G'arbning riyoziyot va falakiyot fani rivojlanish tarixida muhim davrni tashkil qiladi va ilm-fanning ravnaqiga katta ta'sir ko'rsatadi. Xorazmiy o'zining "Al – jabr val muqobala" risolasida olimlarni ularning ishlari, xarakteri bo'yicha uch guruxga bo'ladi: 1. "Ulardan birlari o'zlarigacha qilinmagan ishlarni qilib, uni kelajak avlodga qoldirib, o'zgalardan o'zib ketadilar", 2. "O'zgalar o'tmishdoshlari mehnatlarini sharhlab beradilar va bu bilan qiyinchiliklarni yengillashtiradilar", 3. "... u yoki bu odam ba'zi kitoblardan nuqsonlarni topadi va uzilganlarni ulaydi".

O'rta Osiyolik turkiy harbiy oilasidan chiqqan Abu Nosir Forobiy (873 - 950) avval Buxoroda, so'ngra Bog'dodda tahsil ko'rib, o'z zamonasining qomusiy allomasi darajasiga ko'tariladi. Uning yunon faylasufi Aristotelning mashhur "Metafizika" asariga ilmiy sharhlar ilm dunyosida katta qiziqish uyg'otdi. Forobiy materialistik falsafaning yirik namoyandasi sifatida moddiy dunyoning ob'yektiv ravishda mavjudligini e'tirof etdi, inson olamni bilishni mumkinligini isbot etdi. O'rta Osiyoning ko'plab mashhur olimlari va mutafakkirlariga, chunonchi Abu Ali ibn Sinoning ham falsafiy dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Forobiy hayotining so'nggi yillarida Xalab (Aleppo) da yashab, uning hokimi Sayfutdavla (943-967) iltifotiga sazovar bo'lgan. Xalabda u samarali mehnat qilgan. Hokim uni saroyga taklif qilganda Farobiy rad qilib, oddiy hayot kechirishni afzal ko'rgan.

O'rta Osiyo ilm-fani va madaniyati tarixida qomusiy bilimlar sohibi Abu Ali ibn Sino (980-1037) ning o'rni beqiyosdir. U Buxoro yaqinidagi Afshona (hozirgi Peshku nohiyasida) moliya amaldori oilasida tug'ilib, yoshlik yillarida o'z ma'lumotini oshirish uchun qunt bilan o'qidi. Ibn Sinoning "Al-Qonun fit Tib" ("Tib qonunlari") asari olti asr mobanida (XI asrdan XVII asrning o'rtalarigacha) yuvropa meditsinasida qo'llanma bo'lib keldi. U 30 martadan ko'proq nashr etildi. O'rta asrlarda "QOnun" Sharqdagina emas, balki G'arb mamlakatlarining dorilfununlarida ham talaba uchun meditsinadan yagona qo'llanma edi. U tabiatshunos, faylasuf, astranom, matematik, muzikashunos, huquqshunos, axloqshunos, filolog, yozuvchi va shoir edi.

Ibn Sino bebaho ilmiy meros qoldirdi. U yaratgan asarlarning jami 280 dan oshadi. Shulardan 40 dan ortig'i meditsinaga, 30 ga yaqini tabiiy fanlarga, 3 tasi musiqaga, 185 risola falsafa, mantiq, psixologiya, teologiya, etika va ijtimoiy – siyosiy masalalarga bag'ishlangan. Lekin bizgacha faqat 160 ga yaqin asari yetib kelgan.

Ibn Sino asarlarining asosiy qismi arab tilidan, ba'zilar fors-tojik tilida yozilgan. Uning ko'p asarlari o'rta asarlarda yuvropada ilmiy til hisoblangan lotin tiliga va u orqali yuvropaning boshqa tillariga tarjima etilgan. Ibn Sinoning bizga ma'lum bo'lgan katta asari "Kitob – ush-shifo" ("Shifo kitobi") 18 jildan iborat. U falsafiy bilimlari qomusi degan nom oldi.

Mislsiz qiyinchiliklarga bardosh berib, fan chirog'ini baland ko'targan yana bir daho Abu Rayhon Beruniy (973-1048) dir. U Xorazm tilidan tashqari arab, so'g'diy, fors, suryoniy yunon, hind va qadimgi yahudiy tillarini bilgan. Qomusiy bilimlar sohibi Beruniy o'z zamonasining hamma fanlarini, birinchi navbatda astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya fanlarini puxta egallagan.

Beruniy yosh bo'lishiga qaramay 990 yillardan boshlab Xorazmning Kyot shahrida falakiyot tadqiqotlarini o'tkazgan. Asboblar kashf etgan. Taxt uchun kurashlarda hayoti xavf ostida qolgan Abu Rayhon 22 yoshida vatanini tashlab chiqib ketishga majbur bo'ladi. U oldin Rayga (hozirgi Tehron yaqinida), 998 yildan keyin Jurjonga kelgan. Keyin yana Xorazmning yangi xukmdori Abu Abbos Ma'mun 11 tomonidan yangi poytaxt Urganchga chaqirtiriladi va saroyga joylashtiriladi. O'sha davrda Urganchda Xorazmshox saroyida mashhur olimlar to'planib, fanning turli sohalarida ilmiy ishlar olib borishgan va bu "akademiya"ning faoliyatida Beruniyning roli katta bo'lgan. Bu yerda uning Ibn Sino bilan yozishmalari bo'lgan. Xorazm Mahmud G'aznaviy tomonidan (1017) bosib olingach, Beruniy Xorazmshox saroyidagi boshqa bir qancha olimlar bilan birgalikda G'aznaga olib ketilgan. Davlat ishlariga aralashishdan xalos bo'lgan buyuk olim o'zining barcha vaqtini ilm-fanga bag'ishlaydi.

Beruniy butun hayotida 150 dan ortiq ilmiy asar yozgan bular orasida "O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Mineralogiya" kabi yirik asarlari bor. Uning "Hindiston" asari xindlar adabiyoti, falsafasi, geografiyasi, etnografiyasi, uirf-odatlar, din, tarixni o'rganimshda beqiyos ahamiyatiga egadir. U tabiiy fanlarga ham ulkan hissa qo'shdi. Beruniy o'z ilmiy asarlarida dunyoning tuzilishida Ptolemey sistemasiga suyansada, lekin Yerning harakati haqida Ptolemeyga zid hulosalarga keladi. Geologiya faniga qo'shgan hissasi bilan bu sohada buyuk nazariyotchi va asoschi darajasiga ko'tarildi. Uning "Yodgorliklar" nomli kitobi podshoxlar va mashhur shaxslarning tarixini yorituvchi yirik etnografik asardir.

Arxeologik va tarixiy – me'morchilik izlanishlar va boshqa bir qator manbalar shuni ko'rsatadiki, XIX asrgacha bo'lgan O'zbekiston hududidagi mavjud shaxarlarning tuzilishi asosan IX-X asrlarda yaratilgan. O'rta Osiyo xalqlarining biz yuqorida tilga olgan davrlardagi shaharlar qurilishi, me'morchilik va madaniyati qanchalik rivojlanganligiga, bizgacha yetib kelgan Buxoro, Afrosiyob, Varaxsha va boshqa shaharlar minoralari, madrasalari va maqbaralari (masalan, Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi, Turkistondagi Ahmad Yassaviy va h.k.), Xazor qishlog'idagi Dexgaron machiti (Buxoro viloyati), 1127 yilda Buxoroda solingan machiti Jomi (masjidi Kalon), Jarqo'rg'on minorasi (Surxandaryo viloyati) va boshqa ko'plab me'morchilik yodgorliklari guvohlik berib turibdi.

O'rta Osiyodagi fan va madaniyatining qay darajada rivojlanganligini bu yerda o'tgan buyuk siymolarning ba'zilarining faoliyatini o'rganish orqali bilib oldik.

IX-XII asr dunyoviy fanlar bilan birga bilimlar ham keng rivojlandi. Ismoil Buxoriy, Iso Termiziy, Burxonuddin Marg'iloniy, Abu Xafs Kabir Buxoriy kabi ulamolar islom ta'limotining rivojiga ulkan xissa qo'shdilar.

Islom dini ta'limotining ravnaqi va targ'ibotining kengayishida Buxor shahri marakaziy o'rin egalladi. Tasavvuf ta'limoti rivojlanib O'rta Osiyoda uning turli xil yo'nalishlari (XII asrda Turkistonda Yassaviya, XII asr oxirida Xorazmda Kubroviya, XIV asrda Buxoroda Naqshbandiya paydo bo'ldi va tarqaldi.

XIII asrning boshlariga kelib (1206-1215) Mo'g'ulistonda Chingizxon xukmronligida ko'chmanchi mo'g'ullarning ulkan davlati paydo bo'ldi. Bu davrda O'rta Osiyo xududlarida Xorazmshoxlar davlati mavjud bo'lib, o'zaro urushlar va boshboshdoqlik oqibatida bu qudratli saltanat inqirozga yuz tuta boshlagan davr edi. Chingizxon bilan Muxammad Xorazmshox o'rtasida qisqa muddat (1215-1218) elchilik munosabatlari davom etgan bo'lishiga qaramay bu munosabatlar oxir oqibat fojiali tugadi. Harbiy jixatdan puxta tayyorgarlik ko'rgan mo'g'ul qo'shinlari Xorazmshoxlar davlatidagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy

vaziyatdan foydalanib qisqa muddatda (1218-1221) O'rta Osiyo yerlarni bosib oldilar.

Asrlar davomida moddiy va ma'naviy madaniyati rivojlanib kelgan O'rta Osiyodagi ko'pgina shaxarlar – Buxoro, Xo'jand, Termiz, O'tror, O'zgand, Urganch kabilar vayronaga aylantirildi. Dexqonchilik vohalari xarobazorga aylandi. Mo'g'ul bosqinchilari mahalliy aholiga hamda ularning madaniyatiga hech bir shafqat qilmadilar. Arab tarixchisi Ibn al-Asir (1160-1244) O'rta Osiyodagi mo'g'ul bosqini haqida shunday yozadi: “. . . Xitoy chegaralaridan bir xalq chiqib Turkistondagi Qashg'ar va Balasog'un kabi viloyatlarni Movarounnaxrdagi Samarqand, Buxoro va boshqa shaxarlarni . . . vayron etib, qirg'in qilib, talon-taroj qilib egalladi. Tatarlar (mo'g'ullar) hech qaysi shaxarni omon qoldirmadilar, ketayotib vayron etdilar. Ular nimaniki yonidan o'tgan bo'lsalar, o'zlariga yoqmagan narsalarga o't qo'ydilar”.

O'rta Osiyo xalqlari mo'g'ul bosqinchilariga qarshi qaxramona kurash olib bordi. Xususan, O'tror hokimi Inalxon, Buxoro mudofachilari Itiyoriddin Qushdu, Xamid Pura Qoraxitoy, Suyunchxon, Xo'jand xokimi Temur Malik, Urganch shayxi Najmiddin Kubro, Shaxzoda Jaloliddin kabilar Vatan mustaqilligi va ozodligi uchun qon to'kdilar. Ammo, ular ona- yurt ozodligini saqlab qolisha olmadi. Mo'g'ullar istilosi oqibatida Movarounnaxr va Xurosonning obod viloyatlari, shaharlari xarobazorga aylantirildi.

Zarafshon, Marv, Xorazm vohalarida sug'orish tarmoqlari buzib tashlanishi natijasida yam-yashil dalalar, bog'-rog'lar xarobazorga aylandi. Bu davrda ilm-fan va ma'rifatga yetkazilgan jarohat ham oz bo'lmadi.

Bosqinchilar to's-to'poloni vaqtida Buxoroda, Samarqandda, Urganchda bir nechta kutubxonalar yonib ketdi. Misol uchun Buxoroda “Ma'sudiya madrasasi” va katta kutubxona yonib ketdi. Faqat XIII asrning 70-80 yillariga borganda O'rta Osiyoda asta – sekinlik bilan bo'lsa – da, shahar hayoti, xunarmandchilik jonlana boshlandi. Mug'ul bosqini davrida inqirozga yuz tutgan fan – adabiyot, ma'rifat va madaniyatning ayrim tarmoqlari ham tiklana boshlaydi. XIII asrda Buxoroda “Ma'sudiya” va “Xoniya” madrasalari qurildi. Jaloliddin Rumiy, Sa'diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy kabilar adabiyot sohasida ijod etdilar. Undan tashqari Abu Umar Mixrodjiddin Jurjoniyning “Tabahoti Nosiriy”, Alouddin Otamalik Juvayniyning “Tarixiy jahon gushay” (“Jahon fotixiy tarixi”), Fazlulloh Rashididdinning “Jome attavorix” (“Tarixlar to'plami”) kabi asarlari yaratilgan.

2 savol. XIV asrning 50-60 yillarida O'rta Osiyoda feodal tarqoqlik g'oyada kuchayib va ular qonli urushlarga aylandi. Amir Bayon Sulduz Samarqandda Amir Xoji Barlos Keshda, Amir Boyazid Jaloir Xo'jandda, O'ljoygu Sulduz Balxda, Muhammad Xo'ja Yazdiy Shirbug'unda o'zlarini mustaqil xisoblaganliklari sababli ular o'rtasida doimiy nizolar bo'lib turdi. Natijada davlatni boshqaruv va xo'jalik hayoti butunlay izdan chiqqan edi.

Amir Temur hokimiyat tepasiga kelganidan keyin (1370 yil), u va uning avlodlari davri mamlakatimiz tarixida turli tarixiy. Ijtimoiy va madaniy jarayonlarga boy davr bo'ldi. Bu davrda O'rta Osiyoda uzoq muddat davom etgan mo'g'ullar istibdodiga barham berildi. Xususan, bu davrda ilmiy-madaniy hayotning gurkirab rivojlanganligini kuzatishimiz mumkin. Amir Temur tibbiyot, matematika, astronomiya, tarix, adabiyot, tilshunoslik, diniy ilmlarga katta e'tibor berdi. Uning saroyida Mavlono Baxriddin Axmad, Alouddin Koshiy, Jalol Hokiylar kabi allomalar faoliyat ko'rsatishgan. Amir Temur harbiy yurishlar, davlatni boshqarish ishlaridan tashqari juda ko'plab me'moriy obidalar, bog'lar, saroylar bunyod etdi. Xususan, Bibixonim masjidi, Shoxizinda maqbarasi, Bog'i Dilkusho, Bog'i Nav, Bog'i Behisht, Bog'i Shamol kabi bog'lar, Ko'ksaroy va Bo'stansaroy kabi qarorgohlar shular jumlasidan.

Amir Temur Shaxrisabzda Oqsaroy va maqbaralar, Turkistonda Ahmad Yassaviy maqbarasi, Toshkentda Zangiota maqbarasi, Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bog'dodda madrasalar barpo ettirdi. Butun O'rta Osiyo hududlarida qishloqlar, karvon saroylar, hammomlar, madrasalar, maqbaralar qurilishi o'sha dava uchun misli ko'rilmagan darajada olib borildi.

Amir Temurdan so'ng uning avlodlari jahonning moddiy-ma'naviy madaniyati xazinasiga ulkan xissa qo'shdilar. Xususan, Ulug'bek davrida fan va madaniyatga xomiylik qilish, bu sohalarining gullab yashnashi va qurilish ishlari yanada avj oldi. Ulug'bek zamonida Samarqand, Buxoro, G'ijduvon, Shaxrisabzda masjid va madrasalar, saroylar bunyod etildi. 1428-1429 yillarda Samarqandda rasadxona bunyod etildi. Bu

rasadxonada Ulug'bek bilan o'z davrining mashhur olimlari Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid, Ali Qushchilar ham faoliyat ko'rsatib astronomiya sohasida ulkan ishlarni amalga oshirdilar. Rasadxona yordamida Ulug'bek mashhur astronomik jadvallar – “Ziji ko'ragoniy”ni tuzdi.

Bu davrda tarixiy fanlar sohasida ham ko'pgina ishlar qilindi. 1424-1425 yillarda Sharofiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”ni tugatdi. Xofiziy Abru “Tarixiy yilnomalar”, “Butun jahon tarixi” asarlarini yozdi. Abdurazzoq Samarqandiy o'zining “Mabla'i sada'i va majmai baxrayn” asarida Shoxruh davri tarixi yoritib berdi. Shuningdek, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilarning ham ijodi gullab yashnadi.

Bu davrda adabiyot sohasida ham samarali ishlar qilindi.

Alisher Navoiy u haqida “. . . Xurriyatparvar podshoh edi” degan.

Ayniqsa, XV asrning ikkinchi yarmida buyuk mutafakkir shoir va olim Alisher Navoiy (1441-1501) zamonida Sulton Xusayin hukmronligi (1469-1506) da mamlakatda ma'rifat, me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa rivoj topdi.

Alisher Navoiy 30 dan ortiq asar yozgan. U o'zbek tili asoschisi, badiy yuksak saviyadagi asarlari bilan o'zbek va fors adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi. Uning “Xamsa”, “Xazoyinul - masniy”, “Majolisun-nafois”, “Muxokamatul-lug'atayon”, “Mezonul - avzon” asarlari jahonga mashhur. U adolatsizlikka qarshi insonparvarlik g'oyasini misli ko'rilmagan darajada yuksakka ko'tara oldi.

Navoiy 1491-1492 yillarda yozgan “Majlisun nafa'is” (Nafis majlislar) asarida o'ziga zamondosh va undan oldin yashab o'tgan ko'pgina shoir, tarixchi, fan sohiblari haqida qiziqarli ma'lumotlar bergan. Unda 459 kishining nomi qayd etilgan.

Navoiyning ustози Abduraxmon Jomiy o'z zamonasining buyuk shoirigina bo'lib qolmay u grammatika, yunon va sharq falsafasi, tabiat, matematika, astronomiya va shunga o'xshash fanlardan ham yaxshi xabardor edi. Jomiyning ko'p asarlarida zulm, ochko'zlik qoralanadi, u mexnatsevarlik, insonparvarlik, o'zaro hamkorlik haqida orzu qiladi.

Tasviriy san'atni yuksak cho'qqiga ko'targan Kamoliddin Behzod ham shu davrda yashagan, Uning san'ati dunyo olimlari tomonidan yuksak baholangan. Chizishgan rasmlarining nafisligi jihatidan u Sharq tasviriy san'atida tamomila alohida o'rin egallaydi.

Behzod ko'pgina portretlar va mehnatkash halq hayotidan olingan manzarani chizgan. Behzodni ba'zan Sharq Rafaeli deb atashgan. Behzod Navoiy, Xusayn Bayqaro, Shaybonihon rasmlarini chizgan. Masalan, u Bibixonim madrasasi qurilishini o'z miniatyuralari orqali ko'rsatib bergan. (Navoiy ijodiga qaytib kelamiz, chunki butun madaniyat uning nomi bilan bog'liqligi bejis emas u davrni Navoiy davri deyishgan).

Navoiy o'z davridagi xalq ustalari ta'rifini “Farxod va Shirin” dostonida, “Navodir ush-shubob” she'riy devonida g'oyat ko'tarinki ohangda kuylaydi. Bu asarlarda Navoiy hunarmandchilik mahsulotlari sifatini dalil va aniqlik bilan ta'riflaydi. Xirotda bunyod qilingan ko'pgina binolar Navoiy nomi bilan bog'liq. Uning ko'rsatmasi va shaxsan rahbarligida madrasa, saroy, shifoxona, qiroatxona, ko'prik kabi 380 ga yaqin bino va inshoot qurilgan. (alohida ta'kidlash kerak)

Hirotni Navoiy davridagi madaniy hayotida asosan yuqori tabaqa vakillarigina emas, balki aholining muayyan qismi ham ushbu jarayonda ishtirok etdi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki?

Alisher Navoiyning butun hayoti va faoliyati insonning baxt – saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, mamlakat farovonligiga, feodal urushlarning oldini olishga, obodonchilik ishlariga, ilm-fan, san'atga va adabiyotni ravnaqiga bag'ishlandi. Buyuk Navoiy o'zbek adabiyoti, tili va klassik adabiyotini jahonga tanitdi.

Umuman olganda, temuriylar davridagi madaniy taraqqiyot "Temuriylar uyg'onishi (renessansi)" atamasiga muvofiq keladi. Lekin ba'zi adabiyotlarda IX-XV asrlarni Sharq uyg'onish davri deb ham yuritishmoqda. Bizningcha bu tushuncha unchalik to'g'ri emas. Chunki Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati tafakkuri bu davrdan oldin ham mudragan emas.

7 – Mavzu: Amir Temur va temuriylar davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi. Ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy va madaniy xayot.

Reja.

1. Amir Temur davlatining tashkil topishi.
2. Amir Temurning ichki va tashqi siyosati
3. "Temur tuzuklari" – adolatli hamda kuchli davlat barpo etishda muhim qonun – qoidalar sifatida.
4. Temur ma'naviyati – ulkan manba va tuganmas bir buloqdir.

Adabiyotlar:

1. I.A.Karimov Amir Temur davridagi bunyodkorlik va hamkorlik ruhi bizga namuna bo'laversin. Asarlar, 4 – jild, T., "O'zbekiston", 1996
2. I.A.Karimov Amir Temur haqida so'z. T. "O'zbekiston", 1996
3. Temur tuzuklari T. "G'ofur G'ulom" 1991
4. Nizomiddin Shomiy Zafarnoma T. "O'zbekiston" 1996
5. Sharofiddin ali Yazdiy Zafarnoma T. "Kamalak" 1994
6. N.Axmedov Amir Temur: rivoyat va haqiqat. T. "Komuslar bosh tahririyati". 1996
7. B.Axmedov, Amir Temur yod etib. T., "O'zbekiston" 1996
8. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. I – II jild. T., "Mehnat" 1992
9. Xerman Vamberi. Buxoro yohud Movoraunnaxr tarixi. T., 1990
10. Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san'at. T. "G'ofur G'ulom". 1996.

Ma'ruza maqsadi.

Yagona markazlashgan qudratli mamlakatda hayot kechirish xalq ommasi qiyofasida yaqqol sezilardi. Turli ijtimoiy qatlam va guruhlariga mansub aholi istagini his qila oladigan idrokli va kuchli irodaga ega shaxsgina bu vazifani hal qila olar edi. Shunday shaxsgina yoyilgan va tarqoq holdagi kuchlarni yagona bir oqimga yo'naltira olishi mumkin edi. U eng avvalo harbiy iste'dod va qobiliyatga ega bo'lishi talab etilgan. mana shunday sifatlariga ega bo'lgan shaxs Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodir edi. Bizning vazifamiz, ushbu shaxsning tarix sahnasiga kirib kelishi va uning qudratli imperiyasini boshqarishini ko'rsatish. Uning "tuzuklar"ini qonun – qoida majmun sifatida ekanligini ko'rsatish.

7 mavzudagi bilimlarning egallanganlik darajasini aniqlash uchun tayanch tushunchalar:

"Markazlashgan davlat", "Yerga egalik, savdo – sotiq va pul munosabatlari", "Soliq siyosati", "Harbiy – sarkardalik salohiyati", "Harbiy yurishlar", "Temur tuzuklari", "Kuch adolatdadir", "Suyurg'ol", "Ilm – fan, madaniyat va san'atga homiylik".

1 savol. Movoraunnaxr mo'g'ullar tomonidan bosib olingach, Chingizxonning o'g'illaridan biri Chig'atoyga suyurg'ol (in'om) qilib berilgan. Qariyb bir yarim asr mobaynida Chig'atoyning urug' – aymog'lari bu ulkan boyliklarni zulukdek so'rdilar. Mo'g'ullarning qonli yurishlarining shohidi bo'lgan arab muarrix Ibn al – Asir (1160 - 1233) bu haqda: "kunu tunlarda misli ko'rilmagan va hamma yoqni, xususan, musulmonlar yaratgan boyliklarni qamrab olgan g'oyat katta falokat bo'ldi. Agar birov hamma narsaga qodir Olloh odamni yaratgandan buyon dunyo bunday dahshatni ko'rmagan desa, haq gapni aytgan bo'lardi... bu la'natida vayron qilgan mamlakatlar oldida Quddus nima bo'libdi? Bitta shaharda mo'g'ullar kaltaklagan aholi barcha isroiliylardan ko'p bo'lgan. Ular hech kimni ayashmadi: ayollarni, erkaklarni, go'daklarni

shafqatsiz do`pposlashdi, homiladorlarning qornini yorib, bolalarini o`ldirishdi" – deb yozgan edi.

XIV asrning birinchi yarmida O`rta Osiyo uchta mo`g`ul davlati tomonidan bo`lib olingan edi. Uning shimoli – g`arbiy qismi Oltin O`rda (Jo`ji ulusi)ga qaragan (Xorazmning shimoliy qismi ham Urganch shahri bilan birga uning tarkibiga kirgan). 1312 – 40 yillarda bu yerda O`zbek xon hukmronlik qilgan. Uning markazi Yangi saroy (Saroy Berka) bo`lgan; Janubiy – g`arbiy qismi (Xuroson, Shimoliy Eron) Xulagiylar davlati tarkibiga kirgan; Sharqiy qismi – Movarounnaxr, Yettisuv, Sharqiy Turkiston Chig`atoy ulusini tashkil etgan.

Biroq bu uluslarga bo`lingan davlatlarning ko`pchiligi endi mustaqillik uchun kurash olib borishar, mahalliy zodagonlar hokimiyatini o`z qo`llariga olishga intilishi natijasida mo`g`ullar imperiyasi parchalana boshlagan edi. Mo`g`ul xonlari ham tez – tez almashtirilar edi. Masalan, Kebekxon 1318 – 1326 yillarda, 1326 yili Eljigitey va Tuva – Temur, 1326 – 34 yillarda Oloviddin Tarmashirin xukmron bo`lgan.

Kebekxon o`z poytaxtini Movoraunnaxrga (nasafga) Ko`chirgan birinchi mug`ul xoni edi. Uning bu qarori mo`g`ul xonlarining ko`chmanchilikdan o`rtoq turmush kechirishga o`tishida muhim ahamiyatga ega bo`ldi. Kebekxon Chig`atoy davlatida xo`jalik hayotini rivojlantirishga doir bir qator ma`muriy va pul reformalarini o`tkazdi. Samarqand va Buxoroda yangi tangalar – dinor va dirxonlar zarb qilina boshladi. Tarmashirin davrida islom dini davlat diniga aylantirildi.

Chig`atoy ulusi ichki siyosiy hayoti inqirozining xarakterli xususiyatlaridan biri uzluksiz davom etayotgan o`zaro urushlar edi. Mahalliy amirlar markaziy hokimiyatga bo`ysunishdan bosh tortib g`alayonlar ko`tara boshlashdi. O`zlarining jangovarliklari, uyushqoqliklari bilan ajralib turgan turkiy urug`lar boshliqlari mo`g`ullar saroylarida yetakchi lavozimlarni egallay boshlaganlar. Mo`g`ul xonlari o`z mavqelarini mustahkamlash, turkiylarni lavozimlaridan chetlashtirishga qanchalik urinishmasin mahalliy aholiga qarshi turishga o`qizlik qila boshladilar. Ularning saroylaridan mug`ul tili siqib chiqarilgan, turkiy til saroy tiliga aylanib qolgan edi.

Mo`g`ul xonlarning o`zaro nizolari, saroylardagi fitna va fisqu – fasodlar ularning obro` – e`tiborini tushirib, mavqelarni pasaytirib yubordi. Mahalliy aholi endi ularga qarshi bosh ko`tarib chiqa boshladilar. Ma`muriy islohotlar tufayli mamlakatning tumanlarga bo`linib ketishi turkiy zodagonlarning mustaqillikga intilishiga yordam berdi. Yirik urug`lar boshliqlari tumanlarga hokimlik qila boshladilar. Masalan, Barlos urug`i Qashqadaryo vohasini, Jaloyirlar Xo`jand tumani boshqaruvini qo`lga kiritadilar. XIV asrning 50 – yillariga kelib Chig`atoy davlati bir qator mustaqil bekliklarga bo`linib ketdi.

O`rta Osiyoda yer egaligi mug`ul hukmdorlari davrida to`rt turga bo`lingan: davlat (devon) yerlari, mulkiy yerlar, vaqf va dehqon yerlari. Dehqonlarning nisbatan ozgina qismi xususiy (mulkiy) yerlarga ega bo`lib, asosiy omma ijaraga yer olishgan. Mo`g`ullar dehqonlar bilan bir qatorda hunarmandlarga ham zulm o`tkazishgan. Ularning ahvoli qullarnikidan deyarli farq qilmagan. Nisbatan mustaqil hunarmandlar va savdogarlar guruhlari ham bo`lib, ular faqat davlat qaramiga soliq to`lashgan xolos.

Shunday qilib, mug`ullar bosib olgan yerlar kabi Movoraunnaxr mehnatkashlarining ahvoli vayrongarchiliklar, xo`jalik yuritishdagi uquvsizlik, urushlar, sug`orish tarmoqlarining buzilishi tufayli yanada og`irlashdi. Aholi mavjud boshqarish usulidan tobora ko`proq norozi bo`la boshladi.

XIV asrning 30 yillarida Xurosonda mo`g`ullar hukmronligi va mahalliy zodagonlarga qarshi xalq harakati ko`tarila boshladi. 1337 y. 16 martda mug`ul amaldorlarining ta`magirligiga qarshi Bashtin (Xuroson) qishlog`ida aholi qo`zg`olon ko`tardi. Shu yili qo`zg`olonchilar safi kengayib, ular Sabzovorni egallashdi va uni sabardorlar harakati (1337 - 81) markaziga aylantirishdi. Sabardorlar Vajihiddin Ma`sud (1338 - 44) rahbarligida Nishopurni egalladilar. Qo`zg`olonchilar soni 12 mingdan 22 ming kishigacha yetdi.

1353 yili Sarbadorlar mo`g`ullarning so`nggi xoni To`ga Temurni o`ldirdilar. Gurgan (Astrabod bilan birga), keyinchalik g`arbiy Xuroson sarbadorlar davlatiga qo`shib olindi.

Sarbadorlar davlatida ikki oqim – murosachilar (mo`g`ullardan ozod bo`lish uchun kurashgan mayda yer egalari) va so`l oqim (mol mulkni teng taqsimlash uchun kurashgan xunarmandlar va kambag`al dehqonlar) o`rtasida hokimiyat uchun to`xtovsiz kurash borgan.

Sabardorlar harakati tepasida e`tiborli, bilimdon kishilar turishgan. Ular o`z tanga pullarini zarb qilishgan. Aholidan olinadigan soliqlar kamaytirilgan, juzya solig`i bekor qilingan, qullarga yengillik berilgan.

Sabardorlar harakati Hulagiylar hukmdori Abusaid vafotidan keyin mamlakatda nihoyatda beqarorlik holatini vujudga keltirdi. Bu harakat Movoraunnaxrga ham yoyila boshladi.

Bu davrga kelib turkiy amirlar hokimiyatni qo'lga olish uchun faol harakat qila boshladilar. Shunday amirlardan biri Qozog'on edi.

Fosix Havofiy "Mujmal – i Fasihiy" nomli asarida Qozag'on bilan ilk to'qnashuvini 1345 – 46 yillar oralig'ida deb ko'rsatadi. Bu jangda Qozonxon g'olib kelgan. Fosix Havofiyning guvohlik berishicha ikkinchi jangda 1347 yil boshlari Qozag'on g'olib chiqib, Chig'atoy avlodining so'nggi avlodi Qozonxon shahid bo'lgan. Natijada Movarounnaxrda Chig'atoy naslining hukmronligiga barham berilgan. Xonlar endi mug'ullardan nomigagina qo'yilib, hokimiyat turkiylar qo'lga o'ta boshlagan. Qozag'on taxtga Doshmandchi o'g'lonni (Ugedey nasabidan) o'tkazadi. Biroq ko'p o'tmay (1348 yili) Doshmandchi o'g'lon fitna qurboni bo'lgach, Movoraunnaxr taxtiga Bayonqulixon o'tkazilib, markaz Buxoroga ko'chirilgan.

Amir Qozog'on ancha kuchli qo'shinga ega bo'lgan. Uning o'g'li Abdulloh vaqti – vaqti bilan qo'shni o'lkalarga hujum qilar, mulkini kengaytirishga intilardi. Jumladan, u 1353 yili Xorazmni bosib oladi. Qozog'ondan keyin Abdullohning obro' – e'tibori ortib borishi mo'g'ul zodagonlariga yoqmagan. Ular Abdullohga qarshi o'zlari kurashishga cho'chishib, bu kurashga turkiy amirlarni jalb qilgan.

"Mujmal – i Fosihiy " asarida qayd etilishicha, 1358 yilda Abdulloh ibn Qozogon qarshi kurash boshlagan mug'ul amiri bayon Sulduz yonida turkiy zodagon, Xoji Barlos ham bo'lib, u hokimiyat uchun kurashda qulay imkoniyatlardan foydalanib qolishga intilgan. Bu kurashda Abdulloh yengilib Andarab tarafga qochadi. Movoraunnaxr hokimiyati Bayon Sulduz qo'lga o'tdi. U Kesh va Qarshi bekligini Xoji Barlos ixtiyoriga beradi. Kesh bekligining tog'li va tog' oldi vohalarida yashagan barlos urug'lari ancha e'tiborli bo'lib, bu urug'dan ko'plab beklar va amirlar yetishgan. Amir Temur ham shu urug'dan bo'lib, Xoji Barlos uning amakisi bo'lgan.

"Temur tuzuklari" da yozilishda Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodir 736 sichqon yilida, Shabon oyining 25 kunida (milodiy 1336 yil 9 aprelda) Shahrisabz (Kesh) dan 13 chaqirim bo'lgan Xo'ja Ilg'or qishlog'ida to'g'ilgan. Otasi Tarag'ay barlos urug'ining nufuzli, xudojo'y beklaridan bo'lgan. U siyosiy kurashlarga va mamlakat hayotiga befarq qaramagan.

Mug'ullar hokimiyati ancha mustahkam bo'lgan sharqiy Turkistonda 1348 yili hokimiyat qo'lga kiritilgan. Tug'luq Temir Movoraunnaxrda bo'layotgan voqealarga befarq qarab tura olmagan. U 1359 yili mustaqillik uchun kurashayotgan barloslarning tanobini tortib qo'yish uchun Movoraunnaxrga qo'shin tortadi. Tug'luq Temurga bachs kelaolmasligini yaxshi bilgan Xoji Barlos Xurosonga qochish taraddudiga tushgan. Uning og'ir damlarda elni tashlab ketishi ko'pchilikka ma'qul bo'lmagan. Amakisi bilan Xurosonga ketishni istamagn Temur, hech ikkilanmasdan osoyishtalik qaror topib Tug'luq Temur qaytib ketgandan so'ng, oradan bir yil o'tib qaytib kelgan Xoji Barlosga Temur mardlik qilib Kesh hokimligini qaytarib bergan.

Amir Temurning bir so'zligi, do'stiga sodiqligini sezgan Balx hokimi Amir Xusayn u bilan hamkorlik qilishga intilib, unga singlisi O'ljoy Turkon – xotunni beradi. Ular birgalikda Sharqiy Turkiston xukmdori Ilyosxo'ja (Tug'luq Temurning o'g'li) ga qarshi kurashga otlandilar. Biroq 1365 yili Toshkent bilan Chinoz o'rtasida bo'lgan mashhur "Loy jangi"da ular Ilyosxo'jadan yengilishadi va o'n mingga yaqin qo'shinlardan ajralib, Balxga chekindilar.

G'alabadan mag'rurlangan Ilyosxo'ja Samarqandga yurish boshladi. Samarqand o'sha paytda sarbadorlar qo'lida edi. Shahar aholisi sarbadorlar rahbarlari – Mavlonozoda (madrassa talabasi) va Abu Bakir Kalavyi (so'l oqim tarafdori) boshchiligida mudofaani kuchaytiradi. Sarbadorlarga butun shahar aholisi yordam qilishadi va ular Ilyosxo'ja qo'shinlarning ketma – ket hujumlarini qaytarishdi. Bosqinchilar o'rtasida boshlangan kasallik, mudofaachilarning uyushqoqlik bilan dushmanga zarba berishi Ilyosxo'ja qo'shinlarini chekinishga majbur qiladi. Sarbadorlar g'alabasini eshitgan Amir Xusayn va Amir Temur Samarqandga kelishib harakat rahbarlari bilan uchrashadilar. Keyinchalik Amir Xusaynni buyrug'i bilan sarbadorlar harakati rahbarlari asir olinib, qatl qilinadi.

Tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy ma'lumotiga ko'ra Amir Temur iltimosi bilan Mavlonzoda ozod qilingan. Sarbadorlar harakati tugatilgach, Amir Xusayn o'zini Amir Qozog'onning nabirasi sifatida Movoraunnaxr amiri deb e'lon qildi. Temur uning o'ng qo'li va vassali bo'lib qoldi. Amir Xusayn o'ziga

markaz qilib Balx shahrini tanladi. Temur Samarqand hokimi bo'lib qoldi. Amir Xusaynning turli talablari, soliqlaridan bezor bo'lgan Temur unga qarshi bosh ko'tardi. Deyarli to'rt yil davom etgan nizolardan keyin Amir Temur g'olib chiqadi. Amir Xusayn o'ldirilgach uning saroyidan ko'p mol – mulk bilan birga Saroymulkxonimni (Qozonxonning qizi) o'z qaramog'iga o'tkazadi. Amir Temur undan farzand ko'rmaydi. Lekin bu ayol o'zining aql – zakovati bilan doimo unga yordam maslahat berib turgan. Amir Temurning suyukli nabiralari Ulug'bek va Muhammad sultonni tarbiyalagan. Shunday qilib, Balxda qozonilgan g'alabadan keyin 1370 yili chaqirilgan qurultoyda Amir Temur Movoraunnaxr amiri deb e'lon qilinadi. U Movorounnaxrni dunyoning yetakchi mamlakatlaridan biriga aylantirishni asosiy maqsad qilib qo'ydi. Buning uchun Amir Temur ilm – fan, madaniyat ahillarini, hunarmandlarni bu yerga to'planishiga, xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarga katta ahamiyat beradi.

2 savol. Amir Temur hokimiyatni qo'lga kiritgach, o'z oldiga asosiy maqsad qilib feodal tarqoqlikni tugatish, Movoraunnaxrda kuchli markazlashgan davlat tuzish vazifasini qo'ydi. Buning uchun Temur avvalo barcha urug'lar va qabila boshliqlarining e'tiborini qozondi, shuningdek din peshvolarning qo'llab – quvvatlashlariga erishdi. Dastlab u otasining yaqinlaridan biri shayx Shamsiddin Qulolni, 1390 yili shayx Sayid Barakani o'zining piri deb e'lon qilgan va bir umr ularning maslahatlariga amal qildi. Temurning uchinchi piri shayx Tayobodiy edi.

Amir Temur ma'muriy boshqarishda mo'g'ullar davridagi tartiblarga amal qildi; mamlakat tumanlarga bo'linib idora qilindi; mulk daxlsizligini ta'minlovchi qonunlar chiqarildi; qo'shinlar birligini ta'minlash uchun harbiy yurishlarda ko'proq Chig'atoy ulusidan chiqqanlar olindi, ularga maxsus imtiyozlar berildi. Bu haqda ispan sayyohi Klavixo shunday yozadi: "Chig'atoylar shoxdan maxsus imtiyozlar olgan bo'lib, mollarini istagan paytlarida o'tlatish, ekin – tikan qilishi, yoz va qishda ko'ngillari tusagan yerda yashashlari mumkin edi. Ular shohga soliq to'lashmasin, chunki Chig'atoylar harbiy safarbarlik e'lon qilinishi bilan urushda xizmat qilishga junaydilar .

Amir Temur feodal munosabatlarini yanada kuchaytirdi. Yerlarni suyurg'ol qilib bo'lib berdi. "Suyurg'ol" biror shaxsga ma'lum territoriyaning shahar va qishloqlari bilan avloddan – avlodga meros sifatida qoldirish xuquqini beradi. Amir Temur davlatining bir qismi o'zining oila a'zolariga, o'g'illariga, nabiralarga, barlos urug'idan bo'lgan xarbiy boshliqlarga xizmatiga qarab bo'lib bergan. Masalan, 1383 yili hirotliklar qo'zg'oloni bostirilgach, Hirotga hukmron qilib o'zining uchinchi o'g'li Mironshohni tayinlagan. Uning ihtiyoriga Balx, Kunluz, Badaxshon, Xuttalon, Hisor yerlari kirgan. 1393 yili xulagiylar xukmronligidagi yerlar (G'arbiy Eron, Iroq, Ozarboyjon va Armaniston) ikkinchi o'g'li Umarshayxga, G'aznaviylar yerlari nabirasi Pirmuxammadga, Xuroson, Mozandaron va Seyiston o'g'li Shohruhga berilgan.

Amir Temur Movoraunnaxrni o'z qo'lida qoldirib uni har jihatdan dunyoning yetaksi davlatlari qatoriga ko'tarishga intildi.

Temurning ichki siyosati moddiy – madaniy jihatdan Movoraunnaxrni rivojlanirishga qaratilgan edi. Bosib olingan mamlakatlardan keltirilgan boyliklarni saltanatda zarur sanalgan qurilishlarga sarf etdi Samarqand Temur davrida yirik madaniy va savdo markaziga aylandi. Bu yerda yil 12 oy davomida Xitoy, Hindiston, Rusiya va boshqa mamlakatlardan kelgan savdogarlarni uchratish mumkin bo'lgan. Samarqand to'kin – sochin shahar bo'lganini Klavixo shunday ta'riflaydi: "Bu shahar va zamin shunchalik boy va to'kin – sochinki, hayratda qolmay iloj yo'q . . . U noz – ne'matga to'la, bu yerda ipak gazlama, atlas, sandal, jun va mo'yna buyumlari mo'l, upa – eliklar, shirinliklar, tilla va lojuvard kabi narsalar g'oyat ko'p . . . Maydonlardan kechayu kunduz odamlar arimaydi, savdo – sotiq bir daqiqa bo'lsin to'xtamaydi".

1279 yili Temur qo'shinlari Xorazmni bosib olganda, "barcha mashhur olimlarni, mullalarni, qur'on bilimdonlarini va turli soha hunarmandlarini ko'chirib keldi, deb yozadi Yazdiy, Temur Keshni saltanatning ikkinchi markazi deb e'lon qilganini va bu shaharda Oqsaroyini qurdirganini yozadi. Temur faqat Samarqand va Keshning gullab – yashashi bilan cheklanmasdan Movoraunnaxrda xo'jalik ishlarini jonlantirishga katta e'tibor berdi. Xurosonda, Qobil havzasida, Mo'g'on dashtlarida ulkan sug'orish tarmoqlarini vujudga keltirdi.

Sohibqiron vujudga keltirgan ulkan davlatini nafaqat har taraflama taraqqiy etdirish, balki mudofaa qilish masalalari bilan ham shug'ullangan. Buning uchun u qo'shni davlatlardagi voqealarni ham ziyraklik bilan

kuzatib turgan. U o'z mamlakatiga Oltin O'rda xonligi katta xavf solishi mumkinligini sezib, unga qarshi kurashish chorasini ko'ra boshladi.

O'rusxon Sirdaryodan Volga bo'ylariga kelishi bilan Oltin O'rdada yangi xonlar sulolasi boshlandi. To'yx'o'ja o'g'lon qatl qilindi, uning o'g'li to'xtamish madad olib O'rusxonga qarshi yurish boshladi. Biroq undan yengilib Temur huzuriga qaytib keldi. Ikkinchi marta yurishda ham unga odam kulib boqmadi, yaralanib yana Temur panohiga keldi.

Ko'p o'tmay Temurning Buxorodagi qarorgohiga O'rusxonning elchilari kelib, To'xtamishni topshirishni talab qilishdi. Temur bu taklifni qat'iy rad etdi va tez o'zi kirishishni aytdi.

Darhaqiqat Temur tezda O'rusxon mulkiga yurish boshladi. U qo'shinlarini Sirdaryodan o'tkazib, O'troning bepoyon tekisligida qarorgoh tikdi. O'rusxon qo'shinlari Yazdiyning yozishicha, O'trordan 24 farsax keladigan Oq O'rda markazi – Sig'noqda joylashgan. Biroq qattiq qish, tinimsiz yomg'ir jangga xalaqit berdi. Ikkala tomon ham qariyb 3 oy bir – biriga ro'baro' turib urushmasin yurtlariga qaytishdi. Shundan keyin oradan ko'p o'tmasdan O'rusxon, keyin uning to'ng'ich o'g'li To'xtaqiya ham vafot etdilar (1375).

1376 – 77 yil kishida Temur o'zining katta amirlari (Tuman, Temur, O'zbek, Baxtihoji, O'rik Temur, Giyosiddin Tarxon va Bangi Kovchin)ni To'xtamishga qo'shib, Sig'noqqa jo'natdi. Amirlar barcha rasm – rusumlarni ado etib, To'tamishni xon qilib ko'tarilganini e'lon qildilar. Ma'lum vaqtdan keyin mavqeini mustahkamlab olgan To'xtamish Jo'ji ulusiga ko'z tika boshladi. Uning g'arbiy qismiga yigirma yildirki Mamay hukmronlik qilardi. 1380 yili Kulikovo jangida qudrati qattiq zaha yegan Mamay To'xtamishdan yengildi va qatl etildi. To'xtamish Oltin O'rdani oldingi xolatini tikladi. 1382 yili Moskvani talon – taroj qilib rus knyazlariga ko'rsatib qo'ydi.

Oltin O'rdaning kuchayishi Amir Temur davlatining shimoli – g'arbiy taraflariga doimiy xavf solib turar edi. Ma'lumki mo'g'ullar davrida Xorazm ikkiga bo'lingan: shimoliy qismi Urganch shahri bilan Oltin O'rda tarkibiga; janubiy qismi Qiyot shahri bilan birga Chig'atoy ulusi tarkibiga kirgan edi. XIV asrning 60 – yillarida shimoliy Xorazm Oltin O'rdadan ajralib chiqdi. Bu yerda Qo'ng'iro't urug'idan chiqqan Xusayn so'fiy hokimiyatni o'z qo'lga olib, shimoliy va janubiy Xorazmni birlashtirishga kirishdi.

Amir Temur Chig'atoy ulusi yerlarini qo'shib olinishiga norozilik bildirdi va Xusayndan o'z fikridan qaytishini talab qildi, biroq, rad javobini oldi. Bundan g'azablangan Temur 1379 yili Xorazmga yurish qildi va janubiy Xorazm yana qaytarib olindi. Bu yosh hukmdorning dastlabki g'alabasi edi. U Xorazmdan mashhur olimlarni, hunarmandlarni Samarqandga ko'chirib keldi.

Shundan keyin Amir Temurning zafarli yurishlari boshlandi. U Xurosonda sarbadorlar markazi Sabzovorni va Hiroti, Eronda Xulagiylar davlatini bosib oldi. Xirot o'sha paytda Xitoy va YAqin Sharqni boylovchi muhim savdo yo'lida joylashgan bo'lib, ko'plab do'konlari va karvon saroylari bo'lgan boy shahar edi. Uning 360 ga yaqin machit va madrasalari bo'lgan. Hirot turli matolar, tilla buyumlari, gilamlar ishlab chiqarish bo'yicha Damashqqa tenglashgan edi.

Amir Temur qo'shinlari Seyistonni ham egallashgach, Sharqiy Eron butunlay unga bo'ysundi. Shunday keyin Eron ichkarisiga yurish boshlandi. Uch marta muvaffaqiyatli yurishlaridan keyin Eron va Kavkazatori mamlakatlari qo'lga kiritildi. U bosib olgan mamlakatlarini qisman talon – taroj eti, qon to'kilishiga yo'l qo'ydi. Ammo buning hisobiga Movarounnaxr moddiy va ma'naviy jihatidan tez rivojlandi. Temur o'z hukmronligi davrida bu yerda feodal tarqoqlikka chek qo'ydi, yagona markazlashgan kuchli davlatni vujudga keltirdi. Amir Temur yurishlari "uch yillik" (1386), "besh yillik" (1392), "yetti yillik" (1399) deb nomlanib, asosan bosqinchilik xarakteriga ega edi. "Uch yillik" urushda Temurga Ozarbayjon, Tabriz, Mozandoron, Gilon bo'ysundirildi, shunday keyin u Kavkazga yurish boshlab Tiflis, Arzirum va Van qal'asini egalladi. Xuddi shu vaqtda To'xtamishning Movoraunnaxrga yurish boshlaganini eshitdi. To'xtamish o'z hukmronligining dastlabki yillarida Temurga nomigagina bo'ysunar, qulay payt kelishi bilan mustaqil bo'lish niyatida edi. Shunday qulay payt kelganidan, ya'ni Temurning Erondaligidan foydalangan To'xtamish Movoraunnaxrga Kamariddin yetakchiligida qo'shin yubordi. Samarqandiy bu haqda shunday yozadi "Qamariddinning Mo'g'ulistonda ishi yurishmagach, To'xtamish huzuriga kelib, u yerda o'zaro urushlar kelib chiqishiga zamin hozirladi. To'xtamishxon Qamariddin bilan Oqxo'ja o'g'lonni ko'p ming kishilik qo'shniga bosh qilib yubordi. Maxmudni Mo'g'ulistonga hokim etib tayinladi. Ma'lumki,

Kayxusrov sotqinligi uchun 1372 yili Temur farmoniga ko'ra qatl ettirilgan edi".

Shomiy ma'lumotiga ko'ra, ehtiyotkor Soxibqiron Movoraunnahrni harbiylarsiz tashlab ketmagan edi. Andijon harbiy sohada otasidan qolishmaydigan Umarshayx, Samarqandda esa amirlardan Sulaymonshox va Abbos Baxodir bo'linmalari qoldirilgan edi. Lekin bu kuchlar To'xtamish qo'shinlariga qarshi turishga ojizik qilardi. Dushman Movoraunnaxrga kirib aholini talay boshladi. Buxoro atroflariga yaqinlashib, hatto hujum qildilar. Biroq uni ololmagach, atrof tumanlarini taladilar, Zanjisaroyga o't qo'ydilar, Samarqand va Keshga xavf sola boshladilar.

1388 yil yanvarida Temurning qaytishini eshitgan dushman orqaga qayta boshladi. Temur amirlari Xudoydod, Xusayn, Shayx Ali Baxodir va boshqalarga dushmanni daf qilishni topshirdi. Ular Sirdaryo bo'yidagi Sarisuv degan joyda dushmanni quvib yetib unga katta talofot yetkazdilar. To'xtamish 1388 yil oxirida Temurga qarshi qayta hujum boshladi. Amir Temur esa urushga tayyorlanish uchun Sogaron (Kattaqo'rg'on) da o'z qarorgohini tikib, qo'shinlarini jangovar holatga keltirdi.

Ko'nci o'g'lon, Temur Qutlug' o'g'lon, Shayx Ali Baxodir qo'mondonligidagi qo'shilarni Amir Temur dushmanning orqa tarafidan hujum qilishga yubordi. Hujum muvaffaqiyatli bo'ldi. Dushman tor – mor etilib To'xtamish zo'rg'a qochib qutuldi.

Amir Temur 1389 yil bahorida To'xtamishni batamom yo'q qilish uchun Sirdaryo bo'yidagi Zarnuk tumanida qo'shinlarini shaylash boshladi. Qo'shinlar safiga Xurosonda Mironshoh boshchiligida, Balx, Kunduz, Baqlon, Badaxshon, Xuttalon, Hisor va boshqa viloyatlardan kelgan ko'plab sarbozlar qo'shildilar. Amir Temurning Temur Qutlug' o'g'lon, Sunjek Baxodir, Usmon Baxodir boshchiligidagi zarbdor kuchlari Aris tumanida To'xtamish qo'shinlariga zarba bergach, dushman chekina boshladi. Temur endi To'xtamish hujumini kutib o'tirmay katta qo'shini bilan Dashti Qipchoq chegaralariga bostirib kirib, uni o'z davlati ichida jazolamoqchi bo'ldi.

Amir Temur CHo'lpon Malik og'adan ayollari va ortiqcha amirlarini qo'shinlari bilan orqaga qaytarib, 1391 yili 22 yanvarda dushmanni quvishga tushdi. Yo'lda sulhni taklif qilib kelgan elchilarga duch keladi, biroq ularning taklifi rad etiladi.

1391 yil 21 fevral kuni qurultoydan so'ng Sohibqiron o'z amirlari bilan kengashgach, To'xtamish elchilarini olib Yassi, Qorator, Sabrondan o'tib, uch hafta dashtlikda yurdi. Nihoyat ko'p qiyinchiliklardan so'ng Sarig'o'zanga kelib bir necha kun dam oldi.

Shunday keyin Amir Temur ta'qibni davom ettirib, 1391 yil 29 mayda Yoyiq (Ural) daryosiga yetib keladi. Dushmanning bu yerdan yaqindan o'tganini bilgach, daryo oqimiga qarshi quvishni davom ettirdi va olti kundan keyin dushman askarlaridan birini asir oldi. U Temurga dushmanning o'tish joylarini ko'rsatib berdi. Shomiy va Yazdiy fikricha, Temur mazkur yurishida Yoyiq daryosidan boshqa yana bir daryoni kechib o'tdi. A.Moller yozishicha, u Volganing irmog'i Kunduzgacha daryosi bo'lgan. Sohibqiron Volga daryosi bo'ylab shimolga yo'l olgan. Yazdiy bu haqda shunday yozadi: "Oradan olti oy vaqti o'tdi, uning muzaffar bayrog'i shimol tomon siljiy bordi. Shunday joyga yetib kelishdiki, shom tushgunga qadar subh nishonlari namoyon bo'ldi. Quyoshning shimoliy burjda bo'lish vaqti hisobga olindi, shom namozini o'qish majburiy emasdi. To'xtamishning qulay payt poylab, to'satdan hujum qilish uchun Dashti Qipchoq ichkarisiga tobora kirib borishi Temurga tinchlik bermasdi. Shuning uchun katta jangga puxta hozirlik qo'ydi. U 1391 yil 18 iyunda dushmanni quvib yetib, qo'shinni yettita mustaqil bo'linga ajratdi. Qanot qismlariga o'g'illaridan Mironshox va MirzoUmarshayx, markazga esa nabirasi Muhammad Sulton boshchilik qildi.

Soxibqiron jang oldidan o'zini sovuqqon tutgan. Bu son jihatdan ustun dushmanni mensimayotgandek tuyulardi. To'xtamish bundan tashvishga tushgan. Uning qo'shinlariga juchi ulusining taniqli amirlaridan Toshtemir o'g'lon, Sulaymon Sufi, qo'ng'iroq (Xorazmning sobiq hukmdori), Navro'z Qo'ng'iroq va boshqalar rahbarlik qilgan.

Tarixchilar ma'lumoticha, 18 iyunda boshlangan jangda Temur jangchilari katta jasorat ko'rsatdilar. Amir Sayfiddin Hoji qo'shinlari birinchi bo'lib dushmanni parchalab tashlagan. To'xtamish qo'shinlari markaz va qanot bo'ylab qilgan harakatlari Temur qo'shinlarini ahvolini mushkullashtirib qo'ysada, sohibqironning maxsus farmoni bilan jangga kirgan 20 bo'lakdan iborat zahira kuchlari jang taqdirini hal qildi. Oltin O'rada qo'shinlari katta talofot ko'rdi. To'xtamish qo'shinlarini tashlab qochdi.

G'alabadan so'ng Amir Temur o'z amirlari va o'g'illaridan tabriklar qabul qildi, uning boshidan sovg'alar sochildi. 1391 yili mag'lubiyatdan keyin To'xtamish o'z o'jizligini tan olib, Temurga qarshi kurashda ittifoqchilar qidirib, Polsha va Litva xukmdorlariga yaqinlasha boshladi. To'xtamish ustidan g'alaba qozonib, Movoraunnaxrga qaytgan Temur bir yildan keyin Eronga yurish boshladi. 1392 – 93 yillarda Axmad Jaloyiriy va Temur o'rtasida urush harakatlari boshlandi. Biroq urushning yakunlanishiga yana To'xtamish halaqit berdi.

1393 – 94 yili Temur Shekida Ozarbayjonning shimoliy qismida turgan paytda To'xtamish Kavkazorti viloyatlariga xujum qildi. Temur Shekidan chiqib Kura daryosi bo'ylab yurdi. Oltino'rdakliklar Temur qo'shinlari kelayotganini eshitib chekinishiga majbur bo'ldilar. Jahongir yog'iyar chekinayotganini eshitib, 1394 – 95 yilgi qishlovni Kulzum dengizi bo'yida Maxmudobod yaylovida o'tkazdi. 1395 yil aprelida Amir Temur va To'xtamish o'rtasida urush harakatlari boshlanib ketdi. Jangning asosiy qismi o'ng qanotda bo'ldi. Ushbu qanotda mushkul vaziyat vujudga kelgach. Temur zaxira qo'shini bilan jangga kirdi va dushmani chekinishga majbur qildi. To'xtamish uchinchi jangdan keyin hokimiyatidan ajraldi va qayta o'zini tiklay olmadi.

Temur g'alaba sharafiga amirlar, lashkarboshlar va farzandlaridan qutlovdan qabul qildi, jangda jonbozlik ko'rsatganlar taqdirlandi. Favqulotda jasorati uchun shayx Nuriddin zarbop chopon, qimmatbaho toshlar bilan bezagan kamar, 100 ming dinor va yaxshi ot bilan taqdirlandi.

Mu'iniddin Nataziyning "Iskandariy qiyos" asarida bayon qilinishicha og'ir mag'lubiyatga uchragan To'xtamish Litva knyazi Vtovta buylarida bemalol yurishlariga hech qanday to'siq yo'q edi. Sohibqiron qo'shinlarining bir qismini orqaga qaytardi. Pirmuhammad boshchiligida 6ming qo'shin Sherozga, amir Shamsiddin Abbos yetakchiligidagi 3 ming suvoriy Samarqandga jo'nadi.

Yazdiyning yozishicha "Temur xar bir ishni oxiriga yetkazgandagina mamnunlik tuyardi". Temur Rusiya janubidagi Yelets shaxrigacha borgan. Moskva knyazlari Temur yaqinlashayotganini bilgach jangga tayyorlangan. Sofiya solnomasigako'ra, Moskva knyazi Vasiliy qo'shin yig'ib, avval Kolomna, so'ng Oka daryosi bo'ylarida yovini kutgan. Yazdiy esa Temurning Moskvaga yurishini yozadi: "Qimmatbaxo narsalarga shunchalik boy ekanki, sanog'iga yetish mushkul edi: oy yog'dusini dog'da sholdiradigan kumushu ,oltin,gazlamayu,,bo'z matolar Qor tog'iday uyulib yotardi,qunduz terisi behisob edi".

Ruslarning baxtiga Temur bu yerda uzoq turmadi. U1295 yili Volga bo'yiga qaytdi. Temurning rus yerlaridan keganini Rogoch yilnomasi quvonch bilan qayd etgan. Bu vaqtda Temur Kavkaz sari yurish boshlagan edi. 1396 yil bahorida Sohibqiron Volga bo'yidan Azov dengizi bo'ylariga, undan Darband sari yo'l oldi. U Kuraga yetib kelganida Shirvonshox shayx Ibroxim Darbandiy katta ziyofat bergan.

Sohibqiron Temurning harbiy mahorati shundaki, u o'z dushmanlvarini erkin nafas olishga qo'ymagan. Mironshox Ozarbayjon va Tabrizni egallagach , Bag'dod sari yo'lga chiqqan. Biroq Axmad Jaloriydan yengilib chekingan. 1399 yili Temur qo'shinlari Suvayish sari yo'l olganda Axmad uning YAqin Sharq sari yo'lining to'sishga botina olmadi. Birmuncha vaqt o'tgach, u Brusaga, mashhur sulton Boyazid huzuriga boradi. Bu vaqtda Amir Temur va Boyazid o'rtasida jang muqarrar bo'lib qoladi. Bu haqda A.Yakubovskiy shunday yozadi: "1400 yilda Temur askarlari O'rta Osiyodan uzoqda – G'arbda turk sultoni Boyazid 1 va Misr sultoni Farajga qarshi kurash olib bordi. O'sha vaqtda Temur ko'p xalqlarni, masalan, Kichik Osiyoda Sivasni, Suriyada Xalab (Aleppo)ni o'ziga qaratib olgan edi. 1402 yilda Ankara yonida bo'lgan bu jangda Usmon sultoni Boyazid batamom tor – mor etildi va Boyazid asir olindi". Bu g'alabaning ahamiyati shundaki, yuvropa xalqlari, Shimoliy Afrika, Vizantiya Boyazid hujumidan saqlab qolindi. Misr va Vizantiya Temur hokimiyatini urushsiz tan oldilar.

Sohibqiron Temur Ko'ragon (mo'g'ulcha kuyov) o'zining so'nggi yurishini Xitoyga qaratdi. U 807 yil 23 jumadul – avval (1404 yil 27 noyabri) da Samarqanddan chiqib, O'tror tomon yo'l oldi. U Oqsulot mavzeiga kelib 20 kun turgach, 1405 yil 14 yanvarda O'troga keldi. 1404 – 1405 yil qishi og'ir keldi. Bu yerda Sohibqironning kasali og'irladi va oradan 35 kun o'tgach 17 sha'bon (1405 yil 18 fevral) chorshanba kuni u olamdan o'tdi.

Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, Sohibqironning jasadi 22 sha'bon (23 fevral) va amir Xo'ja Yusuf boshchiligida Samarqandga yetkazib kelindi va o'sha kuniyoq marxum (Muxammad Sulton Mirzo

honaqoxiga) dafn qilindi. Shahar motam tutib barcha rasta va do'konlar yopildi.

Ramazon oyining 16 da (1405 yil 18 mart) dushanba kuni Xalil Sulton Mirzo hech qanday qarshiliksiz Samarqandga kirib, taxtni egalladi. Ikki kun o'tgach, Xalil Sulton Muxammad Sulton Mirzo xonaqoxiga borib, motam marosimini yanada ulug'vorroq va tantanaliroq o'tkazdi. Marsimda butun aholisi qatnashdi. Amir Temur ruhiga xatma qur'on o'qilib, beva – bechoralarga xayrnox ehsonlar ulashildi, bir necha kun fuqarolarga osh berilgan.

Sharofiddin ali Yazdiyning ma'lumotiga ko'ra Amir Temur vafot qilganda undan ikki o'g'il, 19 nevara va 15 chevara, jami 36 shahzoda qolgan. Bulardan tashqari Temurning kichik qizi Og'a begimdan tug'ilgan o'g'il – Sulton Xusayn Mirzo nomli nabirasi ham bo'lgan.

3 savol: Amir Temur va temuriylar davrida yozilgan tarixiy asarlar anchagina bo'lib, ular orasida "Temur tuzuklari" buyuk jahongir hayotiga va faoliyatiga bag'ishlangan asarlar ichida shubhasiz alohida ahamiyat kasb etadi. "Temur tuzuklari" jahonining mashhur kutubxonalaridan joy olgan qimmatli asardir.

"Temur tuzuklari" ikki qism, 56 ta banddan iborat tarixiy va huquqiy asar bo'ib, unda sohibqironing davlat tuzilish va mamlakatni boshqarish xususidagi nuqtai nazari bayon qilinadi. Bu asrdan ko'plab sharq xukmdorlari o'zlarining faoliyatlari davomida foydalanganlar va unga yuqori baho berganlar. Jumladan, Shoh Jahon (1638 -1657), Quqon xoni Muhammad Alixon (1821 - 1842), Buxoro amiri Abdulahadxon (1885 - 1910) "Tuzukot" dan parchalar ko'chirtirib, ulardan o'z faoliyatlarida foydalanganlar.

"Tuzklar"ning birinchi qismida Amir Temurning yetti yoshidan to vafotiga qadar (1342 – 1405 yil 18 fevral) kechgan hayoti va ijtimoiy – siyosiy faoliyati, uning Movoraunnaxrda markaziy hokimiyatni qo'lga kiritishi, feodal tarqoqlikka barham berishi va markazlashgan davlat tuzishi, qo'shni yurt va mamlakatlarni, masalan, Eron va Afg'onistonni o'z tasarufiga kiritishi, Oltin O'rda xoni To'xtamishxon (1376 - 1395), Turk sultoni Boyazid Yildirim (1389 - 1402) ga qarshi va nihoyat buyuk jahongirning Ozarbayjon, Turkiston va Hindistonga qilgan harbiy yurishlari ixcham tarzda bayon etilgan.

Ikkinchi qismi Sohibqironning nomidan aytilgan va uning toju taxt vorislariga atalgan o'ziga xos vasiyat va pandu – nasixatlaridan iboratdir. Unda davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, toju – taxt egalari burchi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini saylash, sipohiylarning maoshi, mamlakatlarni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo'shni boshliqlarning burch va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju – taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va hokazolar xususida gap boradi.

Amir Temur o'z oldiga ulug' davlatning ichki siyosati va ishchan davlat tizimini qadimiy tajribalardan ijodiy foydalangan holda tuzish, xarbiy siyosatini zamon talabi asosida tobora takomillashtirib, mug'ul istilosi asoratlarini tezroq bartaraf etib, xo'jalikni oyoqqa turgazish, savdo – sotiq hunarmandchilikni bir me'yorga tushirish va rivojlantirish aholi manfaatlarini himoya qilish, islom diniga rivoj berish, ilm – fan, madaniyat, me'morchilikni tubdan rivojlantirish, obodonlashtirish ishlarini keng ko'lamda jadallashtirish kabi dolzarb vazifalarni qo'ygan edi. Uning bunday say'i – harakatlari katta kuch – g'ayrat, mablag', bilim va oqilona tadbirlarni talab etar edi. Temur yetuk siyosatdon va mohir davlat arbobi bo'lib, u o'zidan avval o'tgan xukmdorlardan farqli ravishda, davlat va mamlakatni boshqarishda bir yoki ikki tabaqaga emas, balki aholining barcha tabaqalariga suyanadi.

4 savol. Ma'naviy ildizdrlarimizdan biri – bu Temur ma'naviyatidir. Bu qudratli manba insoniyat tarixida tengi yo'q markazlashgan davlatchilikka asos solish bilan yer yuzining deyarli hamma mamlakatlarida o'rganilib, hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biz faqat hozirgi kunga kelgandagina bu ma'naviyatni naqadar zarur ekanligini va buyuk kelajak sari qadam tashlayotgan xalqimiz uchun nihoyatda qadrlri ekanligini anglamoqdamiz.

Amir Temur insonni qadrlay oladigan va uni farqlay oladigan ulkan arbobb edi. Musulmonchilikda "eng yaxshi kishining ikki qo'li ham to'g'ri bo'ladi, u bir qo'li bilangina emas, ikki qo'li bilan ham yaxshilik qiladi" degan hikmatli iborasi bor. Amir Temur do'stiga ham dushmaniga ham xuddi ana shunday ikki qo'li bilan yaxshilik qildi. Qolganlarni ham shunga undadi. "Tuzukzot" da ham tarixiy asarlarning mualliflari ibn Arabshoh, Nizomiddin Shomiy, Sharofuddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Davlatshoh Samarqandiy asarlarida ham, Klavixov kundaligida ham buni yaqqol ko'rish mumkin.

Temur o'z faoliyati davomida Olloh buyurgan insoniy fazilatlariga astoydil amal qildi. Temur o'z farzandlariga qilgan vasiyatda shunday deydi: "... Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni ko'ring, yo'qsillarni zanginlar (boylar) zulmiga tashlamang. Adolat va yillik (yaxshilik) qilmoq dasturingiz va rahbaringiz bo'lsin". Adolatni shunchalik qadrlangan hukmdor albatta xalq orasida katta obro' – e'tiborga ega bo'lishi tabiiy hol edi.

Temurning "Kuch - adolatda" degan so'zi haqiqatda shiorga aylanib, hamma davrlar uchun jaranglab turuvchi ibora tusini olganligini shohidi bo'lishimiz mumkin. Temur halqning shikoyatlari va arzlarini o'rganuvchi maxsus arzbegi lavozimini joriy qilgan. Arzbegi shikoyat, arizalarini ko'rib chiqar, ularda kimlar aybdorligini aniqlar va bu xususda kengashda xabar qilar edi. Aybdorlar kim bo'lishidan qat'iy nazar qattiq jazolagan. Soliqlar, moliyaviy masalalarda qat'iy tartib – qoida o'rnatilgan. Rus sharqshunosi D.N.Logofet bu xususida shunday deb yozadi: "- biz hozir zo'r berib intilayotgan daromad solig'i degan narsa uning hokimiyatida o'shandayoq mavjud edi".

Temur ma'naviyati – ulkan manba va tuganmas bir buloqdir. Hozirgi mustaqillikka erishgan davrimizda yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda bu manbaning ahamiyati beqiyosdir.

8 mavzu: TURKISTONNING XONLIKLARGA BO'LINIB KETISHI, UNING SABABLARI VA OQIBATLARI

REJA:

1. XV asrning ikkinchi yarmi XVI asr boshlarida Movarounnaxrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat
2. Mamlakatning hududiy parchalanishga yuz tutishi, uning muhim sabablari.
3. Xonliklardagi siyosiy parokandalik va beqarorlik jarayoni.

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. T., "O'zbekiston", 1994.
2. I.A.Karimov. Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimlardagi tabrik so'z. "Xalq so'zi" 1993, 21 oktyabr
3. M.YU.Bayoniy. Shajarai Xorazmshohiy. T. "G'afur G'ulom" 1994
4. X.N.Bobobekov. Qo'qon tarixi. T., "Fan" 1996
5. .X.Ziyeyov. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T., "Sharq" 1998
6. .I.Ibrat. Farg'ona tarixi. T., "Kamalak" 1991
7. Mirza Abdulazim Somiy. Mang'it hukmdorlari tarixi. M., 1962
8. Mulla Olim Maqmuchoja. Tarixi Turkiston. T., 1995
9. Milliy uyg'onish. T., 1997
10. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachilik davrida (O'zbekistonning yangi tarixi) 1 kitob T., 2000

Ma'ruza maqsadi

XVI asr boshlarida mamlakatimiz tarixida yangi davr boshlandi, ya'ni davlat yangi sulolar qo'liga o'tdi. (400 yil davomida)

Ma'ruzada mahalliy feodal hukmdorlarning o'zboshimchaligi, zulmkorligining kuchayishini, ularning markazga bo'ysunmaslik siyosatini parokandalik va beqarorlik jarayonlarini kuchaytirdi.

Ma'ruzada yanada bir tomonga e'tibor beramiz: xonliklarining qoloqlik sabablarini ko'rsatish lozim.

8 mavzudagi bilimlarini egallanganlik darajasini aniqlash uchun tayanch tushunchalar: Shayboniixonlar, Ashtarxoniylar sulolari, xonlik, amirlik, monarxiya, siyosiy parokandalik, beqarorlik jarayoni, diniy mutaassiblik, etnik guruhbozlik, yagona elat.

1 savol. Tarixga nazar tashlar ekanmiz, shuni anglashimiz lozim, o'zbeklar qadimdan o'z davlatlariga ega

bo'lgan xalqdir. Uning davlatchilik tarixi ilk bor xunlar, somoniylar, gaznaviylar, saljuqiylar, chig'atoy ulusi, temuriylar, shayboniylar, ashtarxoniylar, mag'itlar, Qo'qon va Xiva xonliklari. Buxoro amirligi orqali Turkiston muhtor jumhuriyati, Buxoro va Xorazm xalq jumhuriyatlari, nihoyat O'zbekiston Sovet sotsialistik respublikasi orqali O'zbekiston Respublikasi shakliga yetib keldi.

Xalqimizning boshidan kechirgan o'ta mashaqqatli, murakkab hayoti uning ma'naviyatida hokimiyat va uning istiqboliga chuqur ta'sir etdi.

Erksevar o'zbek xalqi qo'lga kiritgan mustaqillikka osonlikcha erishmadi. O'zbekiston davlatining ilk qadamlari taraqqiyoti mazmunan yangi bosqichni boshlab berdi.

"Yo'limiz mustaqil davlatchilik va taraqqiyot yo'li" – risolasida I.A.Karimov davlatchilikning ahamiyat haqida gapirdi.

XV asrning o'rtalariga kelib, Mirza Ulug'bek vafotidan keyin (1449 yil) Temuriy shahzodalar o'rtasida toju-taxt uchun kurash yana avj oldi. Abulqosim Bobur va Abdusaid sultonning faoliyati ham o'zaro urushlarga barham bera olmadi. 1469 yilga kelganda Xurosonda Xusayn Bayqaro xokimiyatni egallab, bu xududlarda nisbatan tinchlik o'rnatdi. Uning do'sti buyuk Alisher Navoiy muxrdor, vazir, Astrabod hokimi lavozimlarida ishlab Xurosonning ijtimoiy – siyosiy hayotida katta rol o'ynadi. Navoining sa'iy – harakatlari bilan Hirotida ilm-fan, madaniyat gurkirab rivojlandi. Feodal urushlarga nisbatan barham berildi.

Movarounnaxrda esa bu davrga kelib feodal tarqoqlik avjiga chiqdi. Har bir viloyat, har bir shaharda temuriy shahzodalar o'zlarning mustaqil hukmronligini o'rnatishga harakat qildilar. Ular hokimiyat uchun o'zaro kurashlarda Dashti Qipchoq o'zbeklari kuchlaridan foydalanishar edilar. Masalan: 1451 yilda Urusxon nabiralari Abdusaidga hokimiyatni egallash uchun yordam bergan bo'lsa, oradan uch yil o'tgach Abdulxayrxon Muhammad Juqiyga hokimiyatni egallashga ko'maklashdi. Bu o'zaro kurashlar Movarounnaxr axolining axvolini yomonlashishiga olib keldi.

XV asr oxirlariga kelib, Movarounnaxrda temuriylarning bir-biridan o'zaro mukstaqil bo'lgan hokimiyati vujudga keldi: I. Samarqandda sulton Ahmad Mirzo hukmronligi; Toshkentda Sulton Maxmud Mirzo hukmronligi; Andijonda Umarshayx Mirzo hukmronligi. Bu uchchala davlatning o'zaro urushlari Movarounnaxr ahlining temuriylaridan noroziligini yanada avj oldirdi. Ayniqsa, yuqori tabaqa vakillari markazlashgan davlat tarafida turdilar. Bu temuriylarning davlat boshqaruvida mustahkam tayanchga ega emasligidan dalolat berardi. Bu vaqtda temuriylar huzurida ta'lim olgan Abdulxayrxonning nevarasi Muhammad Shohbat Shayboniy Dashti Qipchoqda ko'chmanchi o'zbek urug'larini birlashtirib, o'z hokimiyatini mustahkamlamoqda edi.

Shayboniyxon harbiy harakatlar olib borib markazlashgan davlat tuzish maqsadida goh temuriylar, goh shimoldagi mo'zg'ullar bilan ittifoq tuzdi. U 1487 – 1488 yillarda O'tror. Sayram, Yassa (Turkiston), Sig'noq shaharlarini bosib olib, 1499 yilda Movarounnaxr xududlariga jiddiy harbiy harakatlar boshladi.

Mahalliy hukmdorlar o'rtasidagi o'zaro kurashlar avj olgan Samarqand shahrini Shayboniyxon 1500 yilning boshlarida jangsiz egalladi. Ko'chmanchi o'zbeklar bir necha oy shaharni shavqatsiz talon-taroj qildilar. Bu esa mahalliy feodallar noroziligiga sabab bo'ldi. Bundan foydalangan Temuriy shahzoda Zaxriddin Muhammad Bobur o'sha yili (1500 yil) Samarqand taxtini egalladi. Ammo mahalliy oq suyaklarning ko'pchiligi Boburni qo'llab quvvatlamadilar. 1501 yilning bahorida Bobur Shayboniyxon bilan bo'lgan jangda yengiladi va Samarqandni ko'chmanchi o'zbeklarga topshiradi.

Ko'chmanchi o'zbeklar qisqa muddat ichida Buxoro (1500), Samarqand (1501), Toshkent (1503), Xisor (1504), Urganch (1505), Xirot (1507) kabi shahar va viloyatlarni egallab, Sharqiy Turkiston chegaralaridan Markaziy Afg'oniston xududlarigacha cho'zilgan yerlarda markazlashgan Shayboniylar davlatiga asos soldilar. Temuriylar davlatdagi feodal tarqoqlik hukmdorlarning ajralib mustaqillikka intilishi bu davlatning yemirilishiga olib kelgan bo'lsa, Shayboniyxon bunday tarqoqlikka chek qo'yib mamlakatning birligini mustahkamlay oldi. Shayboniyxonning janubga tomon yurishlari Eron Shohi Ismoil I tomonidan to'xtatildi. 1510 yil Marv atroflarida bo'lgan jangda ko'chmanchi o'zbeklar qo'shinlari, tor – mor etildi va Shayboniyxon halok bo'ldi. Eroniylar tomonidan qo'llab – quvvatlangan Bobur 1511 yilda Hisor, Qo'lob, Kunduz, Badaxshon va Samarqandni egalladi. Ammo, 1512 yilda shayboniylardan bo'lgan Ubaydulla

Sulton qo'shinlari G'ijduvon yaqinida Bobur va shoh Ismoilning birlashgan kuchlarni uchratdi. Shundan so'ng Bobur avval Qobulda, keyin esa Xindistonda o'z hokimiyatini o'rnatdi. Ko'chmanchi o'zbeklar esa Movarounnaxrda o'rtnashib qoldilar.

2 savol. Muhammad Shayboniyxon vafotidan so'ng Movarounnaxr va Xurosonda markaziy hokimiyat zaiflashdi Ubaydullon 1534 yildan butun markazlashgan o'zbek davlatining Oliy xukmdori etib saylandi. Ubaydullaxon poytaxtni Samarqanddan Buxoroga ko'chirdi. XVI asrning 40 – yillariga kelib feodallar va mahalliy sulolalar o'rtasida shaharlar va hududlar uchun kurash avj olib ketdi. Samarqand xukmdori Abdullatifxon (1541-1552 y.y.) bilan Buxoro xoni Abdulazizxon (1540-1550 y.y.) o'rtasidagi kurashni Toshkent va Sirdaryo bo'yidagi shaharlarning hukmdori Baroqxon (Navro'z Axmadxon) yanada kuchaytirdi. U xatto 1551 yilda Samarqandni bosib oldi. Karmana va Miyonqala xukmdori Abdulla Sulton Baraqxonga qarshi jang olib bordi.

1561 yilda taxtga o'tirgan Iskandarxon ham siyosiy tarqoqlikka barham bera olmadi. Ammo uning o'g'li Abdullaxon II markazlashgan Shayboniylar davlatini tiklash maqsadida sultonlar bilan ayovsiz kurash olib borildi. Tinimsiz urushlar natijasida Farg'ona (1573), Shaxrisabz, Qarshi, Hisor viloyatlari (1574), Samarqand (1578), Toshkent, Shohruhiya, Sayram, Ohangaron (1582), Balx (1583), Hirot (1588), Xorazm (1595) Abdullaxon qo'l ostiga birlashtirildi. Ammo 1598 yilda Abdullaxon II vafotidan so'ng uning o'g'li Abdulmo'min uzoq taxtni boshqara olmadi. So'nggi Shayboniy xukmdori Pirmuhammad II ham bebosh amirlarni tiyib qo'ya olmadi.

Yuzaga kelgan vaziyatdan Eron safoviylari, Xiva inoqlari va qozoqlar unumli foydalandilar. Eroniylar Balxni, qozoq sultonlari Toshkentni egallagan bo'lsa, Xorazm xonlari mustaqil bo'lib oldilar. Buxoroning feodal guruxlari astraxanlik Jonibek Sultonni taxtga taklif qildilar. Jonibek sulton o'g'illari foydasiga taxtdan voz kechdi va shu tariqa O'rta Osiyoda Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi boshlandi. Ashtarxoniylarning Balxdagi urushlarga qaramay Xorazm o'z mustaqilligini saqlab qoldi.

Ayrim ashtarxoniylar hukmdorlari Imomqulixon (1611-1642 y.y.) Abdulazizxon (1645-1680 y.y.) hukmronliklari davrida markaziy hokimiyatni kuchaytirishga garchand harakat qilishmasin, bu harakatlar aytarli ijobiy natijalar bermadi. Mahalliy amirlar va sultonlar o'z joylashgan shahar hududlarda hokimlik qilib, bu hududlarda yirik yer egalari bo'libgina qolmay butunlay xo'jayin edilar. Ulardan ko'pchiligi o'z guruxlari kuchiga tayanib markaziy hokimiyatga deyarli bo'ysinmas edilar. Xukmdorlar esa amirlar va sultonlarning bir-birlari ustiga yurishlaridan ko'p foydalandilar. Abdulfayzxon hukmronligi davrida (1711-1747 y.y.) markaziy hokimiyat o'z ahamiyatini yo'qotib bordi. Hokimiyat asta-sekinlik bilan mang'it urug'lari qo'lga o'ta boshladi. Bu urug' vakili bo'lgan Muhammad Rahim 1753 yilda amir unvoni bilan Buxoro taxtiga o'tirdi.

Xorazm xududida 1512 yilda mustaqil Xiva xonligi vujudga keldi. Shayboniy urug'idan bo'lgan Elbarsxon (1512-1525 y.y.) asos soldi. Elbars vafotidan keyin Xiva xonlari tez-tez almashib turgan. O'zaro urushlar va xukmdorlarning tez-tez almashtirib turishi natijasida bu davrda Xorazm hali markazlashgan davlat darajasiga yetmagan edi.

Xon hokimiyati qabila zadagonlari bilan cheklangan bo'lib, nizolar va feodal urushlar deyarli tinmagan. Shu davrda Xorazm chuqur inqirozda shahar hayoti sust rivojlandi. Bu jarayon XVII-XVIII asr boshlarida ham davom etdi. XVII asr oxiri XVIII asr boshlariga borib Xorazm haqidagi ma'lumotlarda siyosiy va iqtisodiy tanazzul ta'qidlanadi. Abdulg'ozixonning "Shajarai turk" asarida, Ivan Fedotov ma'lumotlarida buxolat qayd etilgan. Boshqaruvda vazir, qushbegi bilan birgalikda xon maslahatchilari, inoqlarning borligi ma'muriy tuzumning juda murakkabligidan darak beradi. Xo'jalik inqirozi va feodal urushlar Xorazm vohasi madaniyatiga ham putur yetkazdi. Feodal o'zaro nizolar Arab Muhammad (1602-1623 y.y.) va uning o'g'illari davrida eng yuqori nuqtaga yetdi. Asfandiyor (1623-1643 y.y.) Abdulg'ozixon (1643-1663), Anusha (1663-1687) lar davrida Buxoro bilan Xiva o'rtasida mamlakat ahvolini xarob qiladigan urushlar bo'lib o'tdi.

Ashtarxoniylar davridagi iqtisodiy-siyosiy tushkunlik Buxoro xonligini parchalanishiga olib keldi. Bu davrda Farg'ona xonlikdan alohida o'lka sifatida ajralib chiqdi. 1710 yilda minglar sulolasi keyinchalik Sirdaryo havzasini Yettisuvning bir qismini egalladi. Bu davlatning poytaxti Qo'qon shahri bo'lib qoldi.

XVIII asr boshlarida Buxorodan Balx, Xorazm ikkinchi yarmida Toshkent mustaqil davlat sifatida ajralib chiqdilar. Ichki kelishmovchilik, nizolar va siyosiy parokandalik mamlakatni bo'linib ketishining asosiy sababi bo'ldi. Shunday qilib Buxoro xonligi XVI-XVIII asrlarda ikkita sulola tomonidan idora qilingan shayboniylar (1500--1599) va ashtarxoniylar (1599-1753)

Abdullaxon markazlashgan davlat barpo etish borasidagi urinishlar bexuda ketdi. Chunki eslaringizda bo'lsa o'zi va so'ngra bitta-yu bitta o'g'li Abdumo'min fitna qurbonlari bo'lgan edi. Xorazmning qo'ldan ketishi natijasida xonlik ancha qisqardi, chorva xo'jaligi o'zining ilgarigi iqtisodiy negizlaridan mahrum bo'ldi. Ko'p sonli ko'chmanchi aholi o'z ehtiyojlarini iqtisodini rejalashtirish yo'li bilan emas, balki savdo karvonlari va dehqonchilik nohiyalarini talash yo'li bilan qondirardi. Bu esa ishlab chiqarish kuchlarining keskin pasayib ketishiga olib keldi.

XVII asrdagi feodal urushlar Movarounnaxrning xo'jalik inqirozini chuqurlashtirdi. Feodallarning moliya ishlarini o'z holiga tashlab, dexqon xo'jaliklarini tushkun holga keltirdi.

Mayda dehqon xo'jaliklari ko'lamida yirik feodallarning mulklari ajralib ko'zga tashlanardi. Masalan, Imomkulixonning ukasi Nodir Muxammadning yilqilar uyurini hisobga olmaganda otxonasida 800 bosh nasldor oti, 8000 bosh qo'yi bor edi.

Buxoroda dala ishlarida ko'plab qullar ishlashardi. Imomkulixonning zamondoshi Yalangto'shbiyning 3000 nafar quli bo'lib, ularni shahar qurilishlarida ishlatgan.

Feodal munosabatlarining kuchayishi uning ayrim vakillarining xarbiy-siyosiy kudratining ortishiga olib keldi. Yalangtushbiy va unga o'xshashlar katta qo'shinga ega bo'lib, boburiylar mulki Qobulga, Xurosonga yurishlar qilgan.

Buxoroda xon tayinlash marosimida avvalgidek oq namatga o'tkazish, shuningdek Samarqanddagi kulrang toshga o'tkazishi singari temuriylar udumi saqlanib qolgan.

Buxoro xonligida qo'shinlar muntazam bo'lmay, lozim bo'lganda xon farmoniga ko'ra qo'shin to'plangan, yarim mustaqil ko'chmanchilar-qozoqlar va qoraqolpoqlar o'z sultonlari bilan birga Buxoro xoniga yordamga borishgan. Qurol-yarog'lari nayza va kamondan iborat bo'lgan.

Xonlar turli sultonlari singari shaxsiy gvardiyaga ega bo'lishgan, o'zga millat qullari (ruslar va qalmiqlardan) tashkil topgan.

Tuyalarga ortilgan kichik to'plarni xisobga olmaganda, artilneriya deyarli yo'q edi. Faqat Buxoroning o'zida 13 ta stanoqsiz mis to'pi bo'lib, shularning bittasidan bayramlarda o'q uzilardi. To'p o'qlari yetishmas edi, bu yerda oltingugurt ko'pligidan undan ko'plab porox ishlab chiqarilardi.

Xullas, iqtisodiy inqirozning tashqi sabablaridan biri chamasi, XVI asrda dengiz yo'llarining ochilib, XVII asrda qadimgi karvon yo'llari bo'ylab savdoning to'xtashi bo'lsa kerak. O'rta Osiyo xalqlari jahonning savdo va siyosiy markazlaridan uzilib qolib, yuvropada fan va texnika sohasida erishilgan eng yaxshi kashfiyotlardan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lishdi. Shayboniylar sulolasi qulashi bilan xonlikka saylash butkul o'zbek qabilalarining sardorlariga bog'liq bo'lib qoldi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida inqirozni bartaraf etish boshlandi. Savdo birmuncha rivojlandi. Qozoq cho'llari Rossiya tassarufiga o'tishi bilan O'rta Osiyoning Rossiya bilan savdo munosabatlari yaxshilandi. Xiva va Samarqand savdo markazlari sifatida o'z mavqeini tiklay boshladi, yangi shaharlar barpo etildi. Mol – pul munosabatlarining rivojlanishi xonliklarda davlat hokimiyatini birmuncha mustahkamlashnishiga imkon berdi.

Buxoro xonlikning aholi tarkibida: qadimdan bu yerda yashab kelgan tojiklar, turk – qarluqlar, arablar, eronliklar, marvliklar, lo'lilar, juhudlar, qisman hindular va forslar o'troq edi.

XIX asr o'rtalarida xonlikdagi barcha aholining umumiy soni chamasi 2,5 min kishidan ortiq bo'lgan.

Mamlakat tepasida turgan mang'it sulolasi va unga yaqin ko'chmanchi o'zbeklar imtiyozli o'rinda edi. Buxoro amaldorlarining aksariyati o'zbeklar edi. Ular o'zlarini "oqsuyaklar" deb atashar, mahalliy turkiy tilli aholi esa "sartlar" deb yuritardi. Sartlar Xivaning eng ko'p sonli aholisi hisoblanardi. (Bu nom etnik nom emas, sart – o'troq, shaharlik, savdogar degan ma'nolarni anglatgan).

Saidlar (payg'ambar Muhammad allayhissalomning uch xalifsasi avlodlari yoki sohta avalodlari) nomini olgan arablar guruhi ham imtiyozli qatlamga mansub edi.

Hind, juhud va shu kabi g'ayridinlar juda kamsitilardi. Hindlar yo choy sotishar yoki sudxo'rdik qilishardi. Juhudlar esa gazlama bo'yashar, poyafzalni ta'mirlashar va shunga o'xshash ishlarni bajarishardi.

Boshqaruv va moliya ishlariga kelsak, o'z siyosiy tuzulishiga ko'ra O'rta Osiyo xonliklari YAqin Sharqning boshqa musulmon davlatlariga (Turkiya, Eron, Misr) mutlaqo o'xshamas edi.

XIX asrda Buxoro xonligiga amir hokimlik qilgan. (arbacha bu unvon payg'ambar Muxammadning noibi – xalifa boshqaradigan yaxlit musulmon davlati viloyatlaridan birinigina hokimi ekanini anglatadi).

Oliy ma'muriy hokimiyat qushbegiga taalluqli edi, chunki u katta (bosh) vazir hisoblanar edi. U Buxoro viloyatini (tuman) hokimi ham bo'lgan.

Amirga eng yaqin kishi qozikalon bo'lib, uni amir tayinlardi. Qozi shariat aqidalariga qarab ish olib borgan, uning qarori qat'iy bo'lib, shikoyatga o'rin yo'q. Murakkab xollardagina qozi ishni ulamolar hukmiga havola etgan. O'lim jazosi uchun qozi amirning ruxsatini olishi kerak bo'lgan. Hukm darhol ijro etilgan. jazo turlari: jarima solish, qamoq, darra urish, qo'l yoki oyoq barmoqlarini kesish (ug'rilik uchun) va qizib turgan yoqqa tiqish. Katta gunoh qilganlarni baland minoralardan tashlaganlar.

Xiva xonligi. Bir vaqtlari Shayboniylarga tobe bo'lgan Xorazm Abdullaxon vafotidan so'ng (1598) yanada o'z mustaqilligiga erishdi.

Elbars hukmronlik qilgan Xiva xonligi tasarrufiga Xorazm – Amudaryo etaklaridagi qadimiy dehqonchilik vohasi, shuningdek Minqishloqning Abdulxon tog'lari, Dehiston va O'zboy atrofidagi ko'chmanchi turkman xududlari kirgan.

Amudaryoning o'z yo'nalishini o'zgartib, Kaspiy dengiziga oqmay qo'yishi (1573 - 1575) va o'n besh yil davomida Orol dengizi tomon burilib, natijada eski atrofidagi yerlarning cho'lga aylanishi Xiva xonligi iqtisodi uchun katta talofat bo'ldi. Urganch va uning atroflari, unga qarashli yerlar qishloqlar cho'lga aylandi, aholisi boshqa yerlarga ko'chib keta boshladi.

Xiva xonligining aholisi etnik, madaniy va til jihatidan bir biridan keskin farqlanuvchi uch guruhga bo'lingan edi.

1 turkiylashgan qadimgi xorazimliklarning bevosita avlodlari. Ular dehqonchilik, hunarmandchilik, hamda savdo – sotiqni yaxshi bilishgan.

2 turkman qabilalari. Ular asosan chorvachilik bilan shug'ullangan, na shahar va na qishloqlar bunyod etishgan.

3 Dashti Qipchoqdan Xorazmga Elbars bilan birga ko'chib o'tgan ko'chmanchi o'zbeklar. Ular qabilalarga bo'lingan bo'lib asosiylari 4 – ta: qiyot – qo'ng'iroq; o'yg'un – nayman; qang'li – qipchoq; nuquz – mang'it. Feodal o'zaro nizolar Arab Muxammad (1602 - 1623) davrida eng yuqori nuqtasiga yetdi. O'g'illari Xabash va Elbars unga qarshi bosh ko'tarib, natijada Elbars taxtni egallaydi, lekin ko'p o'tmay uning ukasi Asfandiyor uni taxtdan ag'daradi va o'zi egallaydi.

Asfandiyor (1623 - 1643) vafotidan keyin Buxoro xoni Xivani o'z mulkiga qo'shib olib uchun necha bor urinib ko'rdi. Lekin Abdulg'ozixon (1643 - 1663) Buxoroliklarning xujumini qaytaradi.

1662 yilda Abdulg'ozixon Buxoro bilan sulh tuzdi. Uning o'g'li Anusha (1663 - 1687) davrida xonlikning ancha rivojlangan va ravnaqi davri hisoblanadi. Anusha vafot etgach, Xiva xonligi tushkunlikka tutdi. 1698 yilda Buxoro xoni Subxonkulixon Xiva xonligini egallab, unga xon Shoxniyozni hukmdor etib tayinlaydi. Shoxniyoz va boshqa noiblar Buxoro xoniga qaram bo'lishdan qutilish uchun xomiy topish uchun xarakat qiladi. 1700 yilda u o'z xoliysidan yashirin holda Petr I ga elchi yuborib, u orqali xonlikni Rusiya tobeligiga qabul qilishni so'raydi. Petr I 1700 yil 30 iyundan yorliqa rozilik bildiradi.

Bunday yorliq yangi Xiva xoni Arab Muhammadga (1702 - 1714) ham 1708 yilda jo'natilgan. Biroq chinakam tobelik bo'lmadi. Bunday munosabat Petr I ning O'rta Osiyoga e'tiborini tortdi xolos.

1714 – 1717 yillarda Bekovich – Cherkasskiy ekspeditsiyasi tashkil etilib, (Petr I tomonidan) Xorazmga yuborildi. Bekovich – Cherkasskiy otryadi tor – mor keltirilganligiga qaramay aholi doim o'ch olinish xavfi bilan yashadi.

Xiva xonligining aholisi 350 – 500 ming kishidan iborat edi.

Xorazmiylarning qadimiy o'troq aholisining asosiy qismi o'zlarini sartlari yoki tatlar deb yuritishdi. Bular asosan qipchoq, qanglilardan iborat edi. orenburg va Astraxan orqali Rossiya bilan olib borilgan barcha

tashqi va ichki savdo ularning qo'lida edi. biroq aholidining ana shu guruhi eng huquqsiz hisoblangan. Qoraqalpolar 100 ming kishi edi. 1850 yilda ular 20 ming kishidan iborat edi, qolganlari Buxoro xonligiga ko'chib ketgan.

Xiva xonligida dehqonchilik qilish mushkul edi. Yerlar Amudaryodan olingan katta kanallar orqali sug'orilgan. Sug'orish hayvonlar harakati vositasida ishlatiladigan chig'irlar yordamida amalga oshirilgan. Xivada yerlarning ko'p qismi (qariyb yarmi) xon va uning qarindoshlariga tegishli edi. qolgan yerlar davlat ixtiyorida edi.

Xivada ham ma'muriy boshqaruv Buxoro xonligiday tuzilgan.

1884 yili Xiva xonligini davlat tarkibiga kiritish uchun kurash boshlandi. Bu sulolaga Inoq Muhammadning nabirasi Eltuzar asos solgan bo'lib, u 1804 yili xon unvonini olgan edi. Eltuzarning ukasi Muhammad Rahimxon I (1806 - 1828) bu sulolaning eng yirik namoyandalardan biri edi. u soxta xon Abdulg'ozixonning hokimiyatini tiklash bilan o'z nufuzini oshirdi. Bu kurash shafqatsizlik bilan kechdi, oqibatda ko'plab qabila boshliqlari o'ldirildi, yoki Buxoroga qochdi.

Muxammad Rahimxon ma'muriy va soliq islohotlarini o'tkazdi. Bojxona tashkil qilindi, oltin va kumush tanga zarb qila boshladi. Keyin asta – sekin mayda bekliklar bo'ysindirildi, 1811 Orol atrofidagi qabilalar bo'ysundi, XIX asr boshlarida esa qoraqalpoqlar.

Turkmanlarni ham itoatda tutdi.

Sirdaryo bo'ylaridagi qozoqlarni ham buysundirishga harakat qildi, lekin ular allaqachon rus tobeligiga o'tishgan edi.

Muxammad Rahimxon vafotidan so'ng uning o'g'li Olloqulixon (1825 -1842) taxtga chiqdi. Bu davr o'zaro urushlarga boy bo'ldi.

Qo'qon xonligi. O'rta Osiyodagi feodal davlat o'lib, territoriyasi asosan Farg'ona vodiysida bo'lgan, poytaxti Qo'qon shahri edi.

O'zbeklarning ming qabilasidan chiqqan xonlar idora qilgan. Sulola asoschisi Shohruxbiy 1710 yili Chodak (Chust shahridan 40 km sharqda) xojalari hokimiyatini yo'qotib, dastlab Farg'ona vodiysida Buxoro amiligidan mustaqil bir kichik mulkka asos solgan.

Shohruxbiy o'g'li Muhammad Raximbiy hukmronligi davrida (1721 - 1740) Xo'jand, Marg'ilon shaharlarida savdo va hunarmandchilik taraqqiy etgan, yangi ariqlar qazilib, dehqonchilik, bog'dorchilik rivojlangan.

Shohruxbiyning ikkinchi o'g'li Abdulkarimbiy (1740 – 1760 yil) Farg'onaga xujum qilgan qalmoqlarga zarba bergan. Uning davrida Rossiya bilan iqtisodiy aloqalar yo'lga qo'yilib, Qo'qon, Anijon, Namangan va Marg'ilon shaharlarida savdo va hunarmandchilik taraqqiy etgan. Abdulkarimbiy markaziy hokimiyatini mustahkamlash uchun feodallar o'zboshimchaligiga chek qo'yishga intilgan.

XVIII asrning o'rtalarida Farg'ona bilan qo'shni bo'lgan Jung'oriya (Qalmaqiston) Xitoy imperatori Kuen – Lun tomonidan talon – taroj qilindi, natijada jung'orlar g'arbga intilib, Farg'onaga kirib bordilar. Qonli janglar jung'orlarning chekinishi bilan tugadi.

Biroq Farg'ona hukmdorlari mustahkam davlat apparatiga ega emas edi. Bundan turli ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalar foydalanishdi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Toshkentda hokimiyat XVI asrning mashhur shayxi Shayxontohur (Shayx Xovandi To'hor)ning avlodlari bo'lmish xojalar qo'lga o'tdi. Ularga Yunusxoja boshchilik qildi. Toshkentning turt dahasi Shayxontohur. Sebzor, Ko'kcha, Beshyog'ochning o'z hokimlari, o'z qo'shini bo'lib ular bir – biri bilan doim kurashib kelgan.

Buning oqibati – dehqonchilik tanazzulga uchradi, bog'lar vayron bo'lgan, hunarmandchilik to'xtab qolgan. Qo'qon xonligi aholisining ko'p sonli guruhini qadimgi aholi avlodlari tashkil etgan. Ulardan bir qismi etnik va tili jixatidan – tojik tilini saqlab qolgan va toqqa yaqin hamda Pomirning tog' dehqonchilik viloyatlaridan, qisman Toshkent viloyatida yashagan.

Farg'ona vodiysining murakkab etnik tarkibini turkiylar tashkil etgan. Ular Toshkent viloyatida, Yettisuvda, qozoq dashtlarining janubiy qismida yashagan. Ularning umumiy nomi Xivadagidek "sart" bo'lgan, qirg'izlar va ko'chmanchi o'zbeklar ham aralashib ketgan. XVII asrdan ularni o'zbek deb hisoblangan quramalari (qozoqlarning o'zbeklar bilan duragayi) yashagan.

Ko'chib kelganlar – qashg'arlar, hindlar, arablar va no'g'aylar. No'g'aylar XVII asrda Rossiyadan kelib Toshkent yaqinidan No'g'oyqo'rg'on qishlog'ida joylashgan.

4 savol. Uchta xonlik boshqaruv tizimida feodal munosabatlar asos qilib olingan edi. xonliklar xududida yer egaligining uchta turi: davlat yerlari, xususiy yerlar, vaqf yerlari mavjud edi.

Xonliklar aholisi asosan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanar edilar. Asosiy soliq turlari xiroj

, zakot bo'lib, shu bilan birga turli majburiyatlar mavjud edi. bular Xiva xonligiga begar, qazuv, mushrifona va boshqalar bo'lsa, Buxoro amirligida urush paytida olinadigan favqulotda soliq jul, suv haqi va boshqalar. Qo'qon xonligida esa hashar, harbiy xizmat majburiyatlari bor edi.

Xonliklar boshqaruvida islom mafkurasi asosiy o'rinni egallagan bo'lib, diniy mutaassiblik mamlakat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatar edi. ayniqsa, xonliklar ichida etnik guruhbozlik fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishiga to'siq bo'lar edi. undan tashqari turli urug' vakillari davlat boshqaruvida yuqori mavqeyga ega bo'lish uchun boshqa urug' vakillariga qarshi zimdan va ochiqchasiga kurash olib borib, siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarar edilar. Buni Xiva xonligidagi XVIII asr voqealarida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bu davrda Xivada turli urug' vakillaridan xonlar ko'tarildi. Bu xonlarning almashishi xalq uchun katta kulfatlar keltirar edi. XVIII asr oxirlariga kelib Xiva xonligida Qo'ng'irotlarning mavqei osha bordi va 1804 yilda ular Xiva xonligi taxtini egallab, 1920 yilgacha bu xonlikda hukmronlik qilishdi. Qo'qon xonligida hukmronlik qilishgan minglar sulolasi o'zlarining tashqi istilochilik urushlari va o'zaro sulolaviy kurashlari bilan xonlik aholisining ijtimoiy, iqtisodiy ahvolini yanada og'irlashtirdi, Xudoyorxon davrida talonchilik urushlari va solingan ko'plab soliqlar ko'plab aholi noroziligiga sabab bo'ldi, natijada Xudoyorxon ikki marotaba taxtdan xaydalib, yana qayta taxtni egalladi. Minglar sulolasi Qo'qonda 1710 yildan 1876 yilgacha hukmronlik qilishdi.

XVII – XVIII asrning birinchi yarmida bitta iqtisodiy hududdagi bir elat, bir xalqning uchta mustaqil, siyosiy xonlikka ajralib ketishi, bu hududda yashayotgan xalqlarning boshiga juda og'ir kulfatlarni keltirdi. Yanada og'irlashtirdi. Xivaliklarning turkman urug'lariga qarshi uyushtiradigan bekliklariga qarshi olib borgan urushlari, Qo'qon xonligining Toshkent va Xo'jand uchun Buxoro amiriga qarshi kurashlari bitta xalqning parchalanishiga, o'zaro madaniy, savdo aloqalarining uzilib qolishiga sabab bo'ldi. Xonliklar hududidagi xalq norozilik harakatlari shafqatsizlik bilan bostirildi, har qanday ilg'or fikr, yangilik diniy mutaassiblarini taqibiga uchrar edi. bu paytda nafaqat boshqa xududlar bilan hatto Qo'qon, Xiva, Buxorodagi madaniy markazlarning ham o'zaro aloqasi yo'q edi. bu o'z navbatida O'rta Osiyo ilm – fanini turg'unlikka, hatto tanazzulga olib keldi. Tabbiy fanlarga e'tibor umuman yo'qoldi. O'rta Osiyo xalqlari yuvropa fan texnika taraqqiyotidan bexabar bo'lib, orqada qolib ketdi.

Rossiya bilan o'rnatilgan savdo aloqalari asosan bir guruh boylar qo'lida bo'lib, ular madaniy aloqalarga, fan texnika taraqqiyotini kirib kelishiga aytarli ta'sir ko'rsatmadi va o'lkadagi iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy vaziyat chor Rossiyaning o'z agressiv maqsadlari uchun sharoit yaratib berdi. Natijada Rossiya O'rta Osiyoni osonlik bilan bosib oldi.

O'rta Osiyo xonliklarning qoloqligining sababalarini yana bir ta'kidlaymiz:

1 Xonliklarda asrlar davomida o'zgarmay kelatyogan davlat idora usuli qaror topgan edi.

2 Asrlar davomida bir butun davlatning uchtaga bo'linib ketishi, ular o'rtasidagi hokimiyat uchun urushi, ichki nizolarni kuchaytirdi.

3 Dehqonlar yerga ega emas edi, shuning uchun yerning unumdorligi, hosildorligi uchun bosh qotirmas edi.

4 Etnik guruhbozlikning ildizi – yagona xalq, yagona Vatan tushunchasining bo'lmaganligida edi.

5 Xon va beklarning zo'ravonligi, o'zboshimchaligi aholining ahvolini qiyinlashtirdi, turmush darajasi o'ta past edi. ishlab chiqarish faqat iste'mol uchun edi.

6 Xonlar ishlab chiqaruvchi kuchlar usishiga xalaqit bergan.

7 Xonliklar oltin gugurt, marmar, neft va boshqa qazilmalarga boy edi, lekin ularni qazib olishga befarq qaraldi, shuning uchun xonliklarda sanoat rivojlanmagan.

8 Tijorat, tovar – pul munosabatlari rivojlanmagan. Xullas, ushbu sabablar Rossiya tomonidan ularni bosib olish uchun imkoniyat yaratdi.

9 MAVZU: CHOR ROSSIYANING TURKISTONDA YURITGAN MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI.

REJA

1. XIX asr o'rtalarida Turkistonda ijtimoiy – siyosiy ahvol.
2. Rossiyaning O'rta Osiyoni bosib olishi.
3. Rus podsholigining O'rta Osiyoda olib borgan mustamlakachilik siyosati.

ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Asarlar. T. "O'zbekiston", 1996 1 jild.
2. YU.Bayoniy Shajaran Xorazmshohiy T. "Kamalak", 1991
3. X.Ziyojev Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T. "Sharq", 1998
4. SH.Karimov, R.Shamsutdinov Turkiston Rusiya bosqini davrida. Andijon "Meros", 1995
5. SH.Karimov Qafasdagi qush orzusi. T. 1992
6. X.Majidiy Turkiston bosqini T. "Nur", 1992
7. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida (O'zbekistonning yangi tarixi) 1 kitob, T., 2000 yil.

Ma'ruza maqsadi

Chor Rossiyasi o'zining tish –tirnog'i bilan qurollangan harbiy kuchlaridan foydalanib, Turkiston xalqlarining mardona qarshiliklarini sindirib mamlakatda mustamlakachilik siyosatini o'rnatdi.

Ma'ruzada mustamlakachilik siyosatining mohiyatini birinchi navbatda Rossiyaning iqtisodiy manfaatlarining amalga oshirilishi va uning qanday salbiy oqibatlarga olib kelganligini bayon etish lozim.

9 mavzu bilimlarining egallanganlik darajasini aniqlash uchun tayanch tushunchalari: mustamlakachilik; ruslashtirish siyosati; general – gubernatorlik; ma'muriy idora usuli; rus – tuzem maktablari; chorizmning agrar siyosati; Turkiston Rossiya uchun xom ashyo makoni sanoat mollari bozori; Temir yo'l qurilishi ; madaniy – oqartuvchilik siyosatining mustamlakachilik mohiyati.

1 savol . XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Ashtarxoniylar sulolasi o'rnida o'chta davlat: Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari vujudga keldi. Bu davlatlari asosan o'zbek etnik guruhlar (mang'it, qo'ng'iroq, ming, kenagas va boshqalar)ning uyushuvi va jipslashuvi zaminida tashkil topdi. Savdo munosabatlari tovar almashuvi xarakterida bo'lganligi natijasida xalqning shakllanishini ta'minlovchi yagona ichki bozor vujudga kelmadi. Bu o'sha davrda O'rta Osiyoning iqtisodiy hayotida turg'unlik holatining asosiy sabablaridan biri edi.

Yana bir sababi qishloq xo'jaligida feodal munosabatlarining hukmron mavqei saqlanib qolganligida edi.

O'rta Osiyoda ming yillar davomida barcha yerlar xonlar, podsholar, amirlarning xususiy mulki bo'lib, boshqalarga foydalanish uchun berilar edi.

Buxoro amirligidagi hosildor yerlarning 2/3 qismi amirga qarashli bo'lib, shundan sug'oriladigan yerlar 2 mln. 450 ming desyatina bo'lgan.

XIX asr boshlarida O'rta Osiyo xonliklari ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot jihatidan qo'shni davlatlarning ko'pchiligidan orqada edi. Uzoqni ko'ra bilmagan, asosan shaxsiy manfaatlar gadosi bo'lgan xonlar, amirlar, beklar, din xomiyolari O'rta Osiyoni iqtisodiy – siyosiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti yo'llarini izlamas edilar. Shu tufayli O'rta Osiyo ijtimoiy – iqtisodiy jihatdan juda sekinlik bilan rivojlanar edi.

Xonliklar o'rtasidagi nizolar esa taraqqiyotini yanada orqaga surar edi.

O'sha davrda Buxoro amirligi territoriyasi bir muncha katta bo'lib, g'arbdan Qizilqumdan boshlangan qozoq dashtlari Shimolda Turkistongacha tutashgan: Sharqiy tomoni Oqtov, Qorativ, Shahrisabz tog'lari bilan o'ralgan; Sharqiy shimolda O'ratepa yerlari orqali Qo'qon xonligi orqali janubiy Balx, Andijon, Eron va Xiva xonligiga qarashli yerlar bilan chegaralangan edi. Buxoro amirligi O'rta Osiyoda 5600 ming kvadrat km maydonni egallagan; Xiva xonligi shimoliy g'arbda Sirdaryoning quyi oqimi, Orol bo'yi orqali Qo'qon xonligi va Rossiyaga qarashli Sibir yerlari bilan chegaradosh; Sharqda esa Qizil – Qum orqali Buxoro amirligi bilan; janubda Xuroson tog'larigacha chegaralangan edi; Quqon xonligining chegarasi Umarxon davrida (1809 - 1822) Turkiston shahrigacha kengaydi. U Buxoro amirligiga qarashli yerlarni ham bosib olgan edi. 1817 yili Oqmachit qal'asi qurilib, harbiy ahamiyatga ega bo'lgan qal'aga aylantirildi.

XIX asrda O'rta Osiyo shaharlari aholisining soni, ularning tarkibi va o'zgarishi haqida aniq ma'lumotlar yetarli emas. Masalan, Buxoroda Turkistonni ruslar bosib olgunga qadar sayoxatchilar va josuslar ma'lumotiga ko'ra taxminan 1500 xonadon yashagan. 1840 yilda Buxoroda 38 ta karvonsaroy, 9 ta tim, 16 ta shahar hammomi, shahar va shahar atrofida 22 ta bozor bo'lgan.

Mayyendorfnining fikricha 1820 yilda Samarqandda 50 ming, Toshkentda 20 ming aholi yashagan, Potanining fikriga ko'ra Qo'qonda 3000 xonadon yashagan, 8 ta bozor bo'lgan.

1822 yili Qo'qon xoni, Umarxon vafot etgach, uning 14 yoshli o'g'li Muhammad Alixon (Madaminxon) taxtga o'tirdi. Xon yosh bo'lgani uchun, davlat ishlarini uning onasi – mashhur shoira Nodirabegim (Mohlaroyim) zimmasiga tushgan. Nodirabegim madaniyat va san'atga ixlosi baland bo'lib bozor va rastalar, masjid va madrasalar, xonaqoh va maqbaralar, hammom va karvonsaroylar qurilishiga alohida ahamiyat bergan.

Qo'qon xonligida, Qo'qon va Toshkentdan tashqari savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi Andijon, Namangan, Xo'jand, Chimkent, Xovos, Zomin, O'ra – tepa kabi aholi zich yashaydigan punktlar mavjud edi.

N.N.Murav'yov ma'lumoticha, 1820 yili Xivada 3000 xonadon bo'lib, bu yerda ipakchilik va to'qimachilik rivojlangan. Bu yerda Buxoro, Rossiya va YAqin Sharq shaharlariga karvonlar qatnagan. XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyodan Rossiyaga har yili o'rtacha 4 mln so'mlik tovar chiqarilib, 3 mln so'mlik tovar keltirilgan. Masalan, Buxorodan Rossiyaga jo'natilgan tovarlarning 75% ni paxta, ip – gazlama buyumlari tashkil etgan bo'lsa, Rossiyadan Buxoroga 3 ming pud mis keltirilgan. Mahalliy ustalar misdan idishlar yasashgan, tangalar zarb qilingan. Temir, po'lat, cho'yandan, dehqonchilik qurollari yasalgan.

Savdo karvonlari Toshkentdan Rossiyaga ikki yo'l bilan Orenburg yo'nalishida Troitsk orqali va Sibir yo'nalishida Semipalatinsk va Petropavlovsk orqali qatnagan. Har yili Toshkentdan turli meva – chevalar, don paxta, gazlama, jun, gilam va boshqa tovarlar orilgan 15 – 19 ming tuya Rossiyaga jo'nagan. Rossiyadan Toshkentga temir, cho'yan, mis, po'lat, qand, movut va boshqalar orilgan 11 – 15 ming tuya kelgan.

1840 – 1848 yillarda O'rta Osiyodan Rossiyaga kumush bahosi bilan 2 mln so'mlik gulli chit olib borilgan bo'lsa shundan 51400 so'mlik mahsulot Toshkentdan chiqarilgan. Shu davr ichida Rossiyadan Toshkentga Orenburg orqali 1547 pud, Xivaga esa deyarli 1335 pud mis keltirilgan, Toshkentga Troitsk orqali 46212 pud temir keltirilgan.

Movoraunnahr hunarmandchiligi asosan uy – ro'zg'or buyumlari, dehqonchilik ish qurollari, kulolchilik idishlari, kiyim – kechaklar, diniy marosimlar uchun zarur buyumlardan iborat bo'lib qoldi. Bulardan tashqari matolarni bo'yash, teri oshlash, moyjuvoz, tegirmon sovun ishlab chiqarish kabi dastlabki korxonalar vujudga kela boshladi.

Ko'chmanchi chorvadorlar bilan yirik hunarmandchilik markazlari o'rtasidagi tovar almashuvi iqtisodiy jonlanishga ta'sir ko'rsatdi. Shaharga kelgan ko'chmanchilar o'zlari olib kelgan jun, teri, arqon, gilam, chorva mollari va boshqalarni kiyimlar, paxta va ipak matolar, idish – tovoqlar, bezaklar va boshqalariga ayriboshlashgan. Hunarmandlarning daromadlari nihoyatda tez bo'lib, eng zarur narsalargagina yetar edi.

O'rta Osiyo xonliklarida mahalliy aholi bilan bir qatorda yahudiylar, uyg'urlar, arablar, eronlar, ruslar, tatarlar va boshqa xalqlar yashaganlar. Masalan, 1840 yillarda Qo'qonda Rossiyadan kelib qolgan rus va

tatarlarning soni 100 dan oshgan. Ular qurol – yarogʻ, asbob – uskunalar yasash bilan mashgʻul boʻlganlar. Movoraunnahrda qadimdan sugʻorma dehqonchilik keng rivojlangan boʻlib, bu yerda yirik inshootlari qurishga alohida ahamiyat berilgan. Biroq Oʻrta Osiyo xonlari bu ulkan qurilishlarga deyarli mablagʻ ajratmagan. Masalan, 1848 yili Xiva xoni Olloqulixon Polvonyop kanali qurilishiga 40 ming kishini haydagan. Zarafshon daryosining Choʻpon otadagi suv boʻlgichida 5 ming kishi ishlagan.

Fargʻona vodiysida sugʻorish ishlariga alohida ahamiyat berilgan. Bu yerda XVIII asr XIX asr boshlarida yirik kanallar. Shaxrixonsoy (100 km), Andijonsoy (100 km), Yangiariq (100 km) qazilgan.

Xudoyorxon davrida chek yerlar xon va beklar qoʻlida toʻplanib borgan. Xonning Qoʻqon shahri atrofida 400 tanobdan oshiq yeri boʻlib, ular “Afgʻon bogʻi” va “Urganch bogʻi” deb atalgan. Bulardan, tashqari Namangan, Margʻilon, Toshkent singari yirik shaharlarda ham xonning bogʻlari boʻlgan.

Xiva xonligida sugʻoriladigan yerlarning qariyb 40 foiz machit va madrasalar ixtiyorida boʻlgan. Birgina Madaminxon madrasasining 30 ming tanob, Rahimxon madrasasining 26000 tanob vakf yerlari boʻlgan.

XIX asr oʻrtalarida xonliklarda hunarmandchilik turlari koʻpaya bordi. Rossiyadan keltirilgan choʻyanlardan birgina Buxoro atrofida 6 ta choʻyan eritish ustaxonasi ish yuritgan. Ustaxonalarda 2 – 3 kishidan 16 – 18 kishigacha ishlagan. Bu yerda ish nihoyat ogʻir, ibtidoiy usulda boʻlib, ish surʼati esa past boʻlgan. Yollangan ishchilarning oyligi 3 soʻmdan oshmagan, shuning uchun ham kishilar temirchilikni hohlamas edi. natijada sanoat rivojlanmadi.

40 – yillarda rus asirlari va qochoqlari multiqlar yasay boshladilar. Biroq temir, choʻyan yetishmagani uchun multiqlar oz ishlab chiqarilar, qoʻshinlar asosan yogʻoch qurollardan foydalanishardi.

Oʻrta Osiyo xonliklari moliyaviy qiyinchiliklar tufayli qoʻshinlar sonini koʻpaytirishga, qurollarni takomillashtirishga qiynalishgan. Masalan, 40 yillarda Buxoro amirligi sarbozlarning umumiy soni bor – yoʻgʻi 3900 kishi boʻlgan.

Oʻrta Osiyo xonliklarida harbiy oʻquv yurtlari boʻlmagani tufayli qoʻshinlar uyoqda tursin, hatto boshliqlar ham harbiy taʼlim koʻrmaganlar.

Harbiy kuchlarga xos oʻnboshi, ellikboshi, yuzboshi, ponsodboshi va ming kabi unvonlar boʻlgan, bu lavozimlarni koʻpincha harbiy xizmatga layoqatsiz boʻlsada, xonlarga maʼqul kishilar qoʻyilgan.

Xonliklar hukmronlikka intilib oʻzaro urushlarni avj oldirdilar.

40 yillarda Buxoro amirligi bilan Qoʻqon xoni oʻrtasida ziddiyat keskinlashdi. Amir Nasrulloxon Qoʻqonni bosib olish maqsadida, Madalixonidan norozi boʻlgan kishilarni Buxoroga toʻplab boshladi.

1840 yili Nasrulloxon Qoʻqonga elchi yuborib, maktub orqali urf – odatlarga zid ish qilgani uchun Mvadalixonni qoraladi. Bunga javoban Buxoro elchilari qamaldi. Shu bahonada urush harakatlari boshlanib ketdi. Madalixonning 400 sarboziga qarshi 800 kishi bilan hujum boshlagan Nasrulloxon Oʻratepa yaqinidagi Peshagar qalʼasida Madalixon qoʻshinlarini yengib orqaga qaytdi. 1841 yil qayta hujum boshlab, Oʻratepani, Toshkentni qoʻlga kiritdi. Shu yil kuzda tuzilgan sulhga koʻra Qoʻqon xoni Buxoro amirligiga Oʻratepa, Zomin va Toshkentni berdi. Xoʻjand va unga qarashli yerlar Madalixonining ukasi Sulton Maxmudga berilib, u mustaqil xonlik deb eʼlon qilindi.

Amir Nasrullo vaʼdalariga uchgan Sulton Maxmud oʻz atrofiga Madalixonidan norozi kishilarni toʻplab. Qoʻqon xonligini qoʻlga kiritish uchun astoyidil kirishdi. Sulton Maxmud hukmronligi va Qoʻqon xonligining 2 ga boʻlinishi uzoqqa choʻzilmadi. Ularning onasi Mohlaroyim (shoira Nodira) oʻgʻillarini yarashtirishga muvaffaq boʻldi. Xoʻjand Qoʻqonga birlashtirildi.. sulton Maxmud Toshkent begi qilib tayinlandi.

Bundan norozi boʻlgan Amir Nasrulloxon 1842 y bahorida 10000 kishilik qoʻshin bilan Qoʻqonga yurish boshladi. Saroy ahllari, sarbozlar va xalqning oʻziga munosabati oʻzgarganini sezgan Madalixon Namanganga qochdi. Amir Nasrullo qarshiliksiz, Qoʻqonni egalladi.

U Madalixon, uning oʻgʻillari Muxammad Amin bilan Muzaffarxon, Sulton Maxmud, Moxlaroyim va xonning xotinlarini asir olib qatl qildi. Nasrulloxon 250 asir va 40 arava qimmatbaho mollar bilan Buxoroga qaytdi. Asirlar orasida yuzboshi Musulmonqul ham bor edi. Amir Nasrulloxonning Qoʻqonni yaxshiylarcha talashi va oʻzini Turkiston podshosi deb eʼlon qilishi, Xiva xoni Alloqulixonning nafsoniyatiga tegdi. Amirning Qoʻqonligidan foydalanib, Buxoro yerlarini talay boshladi. Nasrulloxon Buxoroga qaytishga

majbur bo'ldi.

Qo'qon xonligi aholisining Amir Nasrullo bosqinchiligiga qarshi noroziligi kuchayib bordi. Musulmonqul xiyla bilan asirlikdan qochib Qo'qonga keldi.

1842 yili qo'qonliklar qo'zg'olon ko'tarib amir Nasrullo odamlaridan ko'pini o'ldirishadi va Sheralini xon qilib ko'tarishadi. Ibrohim xayol esa Buxoroga qochadi.

Yangi xon Musulmonqulni mingboshi qilib tayinlaydi. 1845 yili O'sh shahrida qo'zg'olon ko'tariladi. Uni bostirish uchun Musulmonqul mingboshi qo'shin bilan yo'lga o'tlanadi. Uning yo'qligidan foydalanib, taxtga asli xivalik Murodxon chiqib oladi, Sheralixon esa o'ldiriladi.

Musulmonqul qo'zg'olonni bostirgach, Namanganga kelib, o'z qizini 16 yoshli Xudoyorga nikoh qilib beradi. So'ngra Qo'qonga kelib, Murodxonni o'ldirtirib, Sheralixonning o'g'li Xudoyorni xon deb e'lon qiladi. Xudoyorxon juda yosh bo'lganligi tufayli, davlatni boshqarish Musulmonqul mingboshi qo'lga o'tadi va u eng muhim lavozimlarni qipchoqlarga beradi. Biroq bunga qarshi norozilik paydo bo'ladi va u mingboshilikdan bo'shatiladi. Musulmonqul o'z mavqesini tiklamoqchi bo'lib ruslar bilan aloqa o'rnatishga intiladi. Shunday qilib, XIX asr o'rtalarida O'rta Osiyo xonliklarida bo'lib o'tgan o'zaro urushlar shahar va qishloqlarni vayron qildi. Xalq nihoyatda besaramjon bo'ldi. Xonlar o'zaro urushlarda yordam istab, Rossiyaga elchilar yubora boshladilar.

2 savol. O'rta Osiyo xonliklarni bosib olish niyati Petr 1 davrida boshlangan edi.

XVII asr boshlarida metallurgiya sanoatini rivojlantirish zarurati qistovida o'ris hukmdorlari va tadqiqotchilari O'rta Osiyoning boy konlari taqdiri bilan astoydil qiziqdilar. O'rta Osiyoda to'lib – toshib yotgan oltin sochmalari haqidagi ma'lumotlarga xukumat alohida e'tibor berar va shu tufayli Petrning shaxsan o'zi o'zbek xonliklari xududiga suqulib kirishi rejasini ishlab chiqqan edi. Petr I tajovuzkor siyosatni amalga oshirishi maqsadida O'rta Osiyoga 1714 yilda Preobrajenskiy polkining poruchigi knyaz Aleksandr Bekovich – Cherkasskiy, 1715 yilda kapitan Ivan buxgolts raxbarligida Xivaga ikki marta qo'shin yuboradi. Yurishlarning muvaffaqiyatsiz tugaganiga qaramay Petr xukumati o'z niyatidan voz kechmaydi. Petr Buxoroga elchi qilib italiyalik Florio Benevelini jo'natadi. Unga “oltin sochmalarining” makonini, u yerga borish yo'llarini aniqlashni topshiradi. Beneveli tarix, jo'g'rofiya, etnografiya bo'yicha juda ko'p qimmatli ma'lumotlar to'pladi. Uning fikricha, bu ma'lumotlar o'rganilsa, u yerlarda hukmron tariqasida o'rtnashib olish uchun birgina kuchli hamla kifoya ekan. Benevelining safari ham muvaffaqiyatsiz tugadi, uning o'zi Buxoro amiridan zo'rg'a qutilgach, Petr o'limidan keyin, 1725 yilda Rusiyoga qaytdi.

Chor hokimiyati, Petr siyosatini davom ettirgan. Chorizm rus – turk munosabatlariga diqqatini qaratdi.

Tashqi siyosat Qora dengiz sohillarini bosib olish maqsadi asosida qurildi. O'zbek xonliklari bilan munosabatda esa dastlab harbiy kuch ishlatmasdan, Qozog'iston orqali doimiy savdo muomalalarini o'rnatish yo'lidan borildi.

XVIII asr boshlarida har uchala juzning qozoqlari, qalmiq (jungar) larning doimiy bosqinlari ostida qolgandi. Qozoq dashti 1723 yilga kelib og'ir ocharchilikni boshdan kechirgani oqibatda katta juz jungarlarga siyosiy qaram bo'lib qoldi. O'rta juz Buxoroga ko'chib borib, Buxoro xonligiga, kichik juzning bir qismi esa Xiva xonligiga bo'ysundi.

Jungarlarning xataridan saqlanish va o'z hokimiyatini mustahkamlash niyatida katta juz hamda kichik juz xoni Abdulxayrxonni chor xokimiyati bilan yaqinlashuvga undardi.

Abdulxayrixon 1730 yilda juzni rus fuqaroligiga qabul qilishni so'rab Ufaga elchi yuboradi. Rusiyo xukumati O'rta Osiyoga xujum qilish uchun ishonchli istehkomga ega bo'lish uchun xonning iltimosini kechiktirmay qondiradi.

Ko'pchilik qozoq oqsoqollarining qarshiligiga qaramay, 1730 yilda Kichik juz bilan birga Semekxon boshchiligida O'rta juzning bir qismi ham Rusiyo imperiyasi qo'l ostiga o'tdi.

1721 yili Petr I tomonidan Rossiya imperiya deb e'lon qilingan edi. Imperiya o'z iqtisodiy va harbiy qudratini mustahkamlash hamda taraqqiy ettirish niyatida o'zga yurtlar, mamlakatlar yerlarini asta – sekin egallab, buning hisobiga o'z qaddini rostlab oldi.

XVIII –XIX asrlarga kelib, Rossiya imperiyasi tarkibida Boltiq bo'yi, Ukrainaning o'ng sohili, Belorussiya, Polshaning bir qismi, Bessarabiya, Kavkaz, Finlyandiya, Zakavkaz'ye, Uzoq Sharq, Sibir, Qozog'iston,

O'rta Osiyo, Pomir kabi o'lkalar bo'lib, 2264 million kvadrat km yerni egallagan edi. Chor Rossiyasi xududida 81 guberniya, 20 viloyat, 931 shahar bo'lib, unda 100 dan ortiq xalqlar, elatlar (g'ayri rus millati 57 % tashkil qilardi) yashar edilar.

1738 yil avgustda V.N.Taxtishchev (rus tarixchisi) poruchik Miller boshchiligidagi karvon tarkibida Toshkent shahri tomon yo'l oladi. Unga Buxoroning bir qancha shaharlaridagi hamda Toshkentdagi siyosiy ahvol to'g'risida va yana boshqa hil ma'lumotlar to'plash topshirilgandi. Bu karvonning ham omadi chopmadi, uni O'rta juz qozoqlari tor – mor qildilar.

Yekaterina II xukumati XVIII asr 70 - yillarining oxirlarida O'rta Osiyo bilan o'rislar uchun har tomonlama foydali bo'lgan savdo – sotiq masalalariga katta e'tibor bera boshladi va XIX asrning birinchi choragidayoq o'zbek bozorlarida o'rislar mustahkam mavqega ega bo'lib oldilar. Chunonchi Buxoro amiri Shohmurod Ernazar elchi madrasasi qurilishiga 134 ming so'm ajratgan.

Ovrupadagi taranglashayotgan xalqaro vaziyat, Napoleonga qarshi kurash (1805 - 1807), o'ris – turk urushi (1806 - 1812), o'ris-shved urushi (1808 - 1809), o'ris – fors urushi (1805 - 1813), 1812 yiligi Vatan urushi va Napoleonga qarshi urushning davom ettirilishi Chor hukumatining O'rta Osiyoga nisbatan bosqinchilik siyosatini olib borishga uzoq vaqtgacha yo'l bermadi.

Faqat Nikolay II hukumati davrida O'rta Osiyo bozorlarini butunlay Rusiyoga qaram qilish maqsadida Turkistonni bosib olishni tezlashtirishni o'ylay boshladi.

Shunday qilib, 1840 yil noyabrning ohirlarida Orenburg harbiy gubernatori general – mayor V.A.Perovskiy boshchiligidagi 2 ta zambarak, 40 arava, 5 ming piyoda askar, hamda 10 ming tuyadan iborat karvon O'rta Osiyo tomon yo'lga chiqadi. Og'ir ob – havo sharoiti, yoqilg'ining yo'qoligi, oziq – ovqat tanqisligi, kiyim – kechaklarning yaroqsizligi natijasida Perovskiy qo'shini Xivaga yurishini tuhtashiga majbur bo'ladi.

Istilochilar 1841 yilda Xonikov yetakchiligidagi Buxoroga o'tlanishadi. Bu yurish natijasida Butenyov ikki xonlikni qurol bilan bosib olish imkoniyatlari, yo'llari, rejalari kabi ma'lumotlarni o'zida jamlab noma yozadi.

Xullas, O'rta Osiyo xonliklarni bosib olish niyati, Petr I davrida boshlangan edi. 1717 yili A.Bekovich – Cherkasskiy boshchiligidagi 3,5 mingdan ortiq yaxshi qurollangan Xivva xoni Sherg'ozixon tomonidan qirib tashlangan edi.

1830 yili Orenburg general – gubernatori Perovskiy qo'shinlari bilan Xivaga yurish boshladi, biroq og'ir sharoitga bardosh bera olmay orqaga qaytdilar.

Rossiyaning O'rta Osiyo hududiga ko'z olaytirishga asosiy sabablar quyidagilardan iborat edi: 1) Rossiya sanoati rivojlanishi uchun xom ashyo va bozor kerak edi. Rivojlanganyuvropa mamlakatlari bozorlaridan Rossiya savdo – sanoat burjuaziyasini tobora siqib chiqara boshladilar; 2) 1862 yillarda AQSH dagi fuqarolar urushi tufayli Amerika paxtasining Rossiyaga kelishi keskin kamaydi. Asosan Amerika paxtasi bilan ishlaydigan Rossiya to'qimachilik sanoatida paxta tanqisligi kuchaydi. Rus burjuaziyasi vakili mayor Berigin podsho Nikolay I ga yuborgan maktubida "Bu mamlakatni bosib olish, uning bosh shaharlarini egallash bilan birga, barchasi Eron, Afoniston, Hindiston, Xitoy devorlarini ochib beradi, inglizlarni O'rta Osiyoga suqulib kirishlariga barham beradi" degan edi. 3) Rossiya – Krim urushidan ko'rgan zararini shu yerdan chiqarib olmoqchi bo'ladi.

Turli tashviqotlar ta'sirida rus podsholigi o'zbek xonliklari tassarrufidagi yerlarni bosib olishga astoydil kirishdilar. 1847 yili ruslar Sirdaryoning Orolga quyilishi joyini egallab, bu yerda harbiy qal'a qurdilar. Oqmachit (Qizil O'rda), Turkiston, Chimkent, Avliyoota, Pishpak, To'qmoq va boshqa mavzelarda Qo'qon xonligining harbiy istehkomlari mavjud edi. 1852 yili Rus qo'shinlari Oqmachitga hujum qildi, lekin uni olisha olmadi.

1853 yil dekabr oyida 13000 ming kishidan iborat qo'shin YOqubbek qo'mondonligida Oqmachitga kelib dushman bilan to'qnashadi. Natijada, yurt himoyachilaridan 2000 ga yaqin kishi o'ldiriladi va yarador qilinadi. Rus qo'shinlaridan 55 kishi o'ldirildi. Biroq bunday ketma – ket mag'lubiyatlarga qaramasdan, vatan himoyachilari umidsizlikka tushmadilar. 1855 yili fevralida 1500 kishilik qo'shin va ko'ngillilar Oqmachitga o'tlanadilar. Biroq ular dushman safiga ham yangi kuchlar qo'shganligini eshitib orqaga qaytishdi. 1860 yili Pishpakda ham dushman qo'shini bilan to'qnashuv bo'ladi. Jangda dushman qo'li yana

baland keldi, ular snaryad va o'qlar otib himoyachilardan ko'p kishilarni halok qildilar. Shu yili To'qmoq qal'asi dushman tomonidan zabt etiladi. Shundan keyin, o'zbek, qozoq va qirg'izlar birlashib Toshkent hokimi Qanoatxon boshchiligida urushga o'tlanishadi. Ularning soni 20000 ga yaqin edi.

1864 yil iyun oyida Turkiston shahrida ham rus hukumati o'z xukumronligini o'rnatdi. Avliyoota va Turkistonni dushman tomonidan zabt etilishi Qo'qon xonini oyoqqa turg'azdi. Toshkent bosqinchilarga qarshi kurash markaziga aylandi. Bu yerga Marg'ilondan Yusupbek, Xo'janddan Mirzaaxmad qushbegi qo'mondonligida qo'shinlar, Andijon, Namangan va boshqa joylardan harbiy qo'shinlar keltirildi. Qo'shin va xalq qasoskorlariga Qo'qon xonligining lashkarboshisi Alimqul boshchilik qilib, Chimkent sari yo'l oldi. Chimkentda bir kecha – kunduz davomida to'plardan otishuv bo'ldi. So'ngra to'rt tomondan, - deb yozadi o'sha davr voqeanavisi Muxammad Solix o'zining, “Tarixi jadidi Toshkand” asarida, - Askarlar otdan tushdilar va karnay ostida rus askarlariga qarshi humjunga o'tdilar. Himoyachilar dushmanning to'p va miltiqlaridan yomg'irdek yog'ilgan o'qlari ostida qoldilar. Shunga qaramasdan vatan himoyachilari mardonavor jang qildilar. Natijada 12 ming kishi halok bo'ladi va yaralanadi. General Chernyayev boshchiligidagi chor qishini urushni davom ettirilishiga botinaolmay, Turkistonga chekinadi.

Shunday keyin Alimqul Qo'qonga Buxoro amiri Muzaffarxon hujum qilganligi haqidagi habarni oladi va Chimkentda qo'shimning bir qismini qoldirib Qo'qonga qaytadi. Bundan foydalangan Chernyayev 1864 yil 21 sentyabrda Chimkentni egallaydi. Chernyayev 1864 yil 27 sentyabrda Toshkentni istilo qilish uchun yo'lga tushdi. Bu vaqtda Toshkent mudofaasi umumxalq mudofaasiga aylandi. O'sha zamonda Toshkent qalin devor bilan o'ralgan bo'lib 12 ta darvozasi bor edi. Devor ustida 2 ta otliq bemalol yurishi mumkin edi. chor qo'shinlari sahar turib, shaharni o'qqa tutadilar. Bosqinchilarni bir guruhi shahar devori atrofidagi zovurga tushib oladi, biroq himoyachilar qarshiligini yenga olmadilar. Jangda 72 kishisini yo'qotib general Chernyayev Chimkentga qaytadi. 1865 yil 28 aprelda Chernyayev Niyozbek qal'asini ishg'ol qiladi va Toshkentga oqadigan Kaykovus arig'ini buzib, uni Chirchiq daryosiga burib yuboradi. Natijada toshkentliklar suvsiz qolib, og'ir ahvolda qoladi. Ko'p o'tmay Alimqul qo'shinlari bilan shaharga keladi. Chernyayev qo'shini bilan himoyachilar o'rtasidagi jang Salor arig'i atrofida davom etadi.

Alimqul boshchiligidagi qo'shin va xalq dushmanga xujum uyushtirib uni chekinishga majbur etadi. Bu g'alaba shaharda katta xursandchilik bilan qarshi olindi. Shahar himoyachilari SHo'ratepaga joylashib olgan rus qo'shinlariga hujum qiladi. O'sha jangda Alimqul qattiq yaralandi. Bu holat himoyachilar ruhiga salbiy ta'sir qildi.

“1865 yil 21 may – deb yozadi Xoqandiy – kofirlar safidan bir o'q otildi va u Mulla Amir lashkariga tegib, uni yarador qildi va u otdan yiqilib tushdi. Uni Toshkent qal'asiga olib keldilar. Shu sabab lashkari istom parokandalikka tushdi. Bundan dard chekib (Alimqulning) kasali yanada og'irlashdi va vafot etdi. Uni shayx Xovandi Tohur mozorida dafn qildilar... Musulmonlar besaramjon bo'lib, boshsiz qoldilar. Har bir firqa o'z holicha edi”. Toshkentliklar Buxoro va Xiva xonliklariga yordam so'rab murojaat qiladi. Biroq kutilgan yordam kelmadi. Og'ir vaziyatdan foydalangan Chernyayev 1865 yil 14 iyunda shaharga bostirib kiradi. har bir mahalla jang maydoniga aylanib ketdi. Abduraxmon Yasavul boshchiligidagi ko'ngillilar kun bo'yi dushman hujumini dafn etib turdi. Dushman qo'shinlari sotqinlar ko'magida shahardagi o'q – dori omborini topib uni portlatib yubordilar. Nihoyat, 1865 yil 17 iyulda shahar aholisi taslim bo'lishga majbur bo'ldi. 1866 yil yanvar oyida general Chernyayev Jizzaxga xujum boshladi.

1866 yil 11 oktyabr rus qo'shinlari Jizzaxni o'rab olishdi. Nihoyat qattiq janglardan keyin himoyachilardan 2,5 mingga yaqin kishi o'ldirildi va yarador qilindi. Jizzax dushman tomonidan egallandi. 1866 yil avgust oyida Toshkent rus davlati tarkibiga kiritilganligi haqida rasmiy farmon e'lon qilindi. Shuni aytish kerakki, yuqori tabaqaning ayrim vakillari o'z manfaatlarini o'ylab bosqinchilarga yordam berishdi. Ana shu toifa orasida Toshkentlik savdogar Saidazimboy jonbozlik ko'rsatgan. Rossiya tarafdorlarining hamda ruslardan iqtisodiy manfaat kutgan bir guruh shaxslarning hatti – harakati, xalqning hohishi – irodasini ifoda etmagan. 1867 yili O'rta osiyoning rus hukumati bosib olgan joylarida hamda Qozog'istonda tashkil etilgan Sirdaryo va Yettisuv viloyatlari tarkibida Turkiston general – gubernatorligi tashkil etildi. Toshkent uning markazi bo'lib, general Kaufman general – gubernator qilib tayinlandi. General Kaufman qo'lga kiritgan joylarda rus davlati mavqeini mustahkamlash va qonli urushlarni niqoblash maqsadida bir guruh vakillarni rus

davlatiga sodiq, rus qo'shinlariga har tomnlama yordam bergan kishilar sifatida Peterburgga yuborishga qaror qildi. Ular orasida Shayxul – islom Nosir Mulla Isoq (turkiston), Qozi mulla Talashpan (Chimkent), Dulat qabilasining biyi mayor Xudoybergan (Avliyo - ota), Sayidazimbay Muxammad o'g'li (Toshkent), Yusufxo'ja Abdullaxo'ja o'g'li (Xo'jand va boshqalar) bor edi.

Turkiston vakillari 1867 yil mart oyida Peterburgga keladilar. Ularni Aleksandr II qabul qiladi. Vakillar imperatorga go'yo Turkiston aholisi rus davlati tobeligiga olinganligidan baxtiyorligini, unga mangu sodiqligini izhor qiluvchi maktub topshiradilar. Maktubga Toshkent, Turkiston, Chimkent, Xo'jand va boshqa joylarning boshliklaridan 59 kishi imzo chekkan va muxr bosilgan edi. ana shu taxlitda rus xukumati Turkiston aholisi go'yo ixtiyori bilan Rus davlati fuqaroligiga o'tganligini xorijiy davlatlarga isbot qilishga urindi. Amalda esa u qonli urushlarni davom ettira bordi. Masalan, 1867 yil 7 iyunda Jizzax va Samarqand o'rtasida joylashgan Yangiqo'rg'on 45 ming kishilik Buxoro qo'shini va xalq ko'ngillilarni mag'lubiyatga uchratdi.

1868 yil 1 mayda Samarqand shahri ostonasidagi CHo'ponota tepaligida qattiq jang bo'ldi va chor qo'shinlari Samarqand shahriga bostirib kirdilar. Samarqand egallangach, fon Kaufman general Abramovga amir qo'shinlarini ta'qib etishni topshirdi. General Abramov boshchiligidagi qo'shinlar Samarqandan 80 km masofada joylashgan Kattaqo'rg'on shahriga yurish boshladilar. Shu yerning hokimi YOqubbek shaharni tashlab qochdi. Ruslar Kattaqo'rg'onni jangsiz egallab oldilar. Bundan xabar topgan amir Muzaffar qattiq dahshatga tushib, shu xabar keltirgan choparni osishga farmon beradi. Amirning noshudligiga qarshi xalqning noroziligi kuchayadi, ayniqsa uning rus hukumati bilan sulh tuzishga moyilligi vaziyatni yanada keskinlashtirdi. Natijada xalq amirga qarshi qo'zg'olon ko'taradi. Amir Muzaffar xalq qo'zg'olonini butun Zarafshon vodiysiga tarqalishidan qo'rqib chorizmga qarshi tayyorgarliksiz harbiy yurish uyushtiradi. Zirabuloq tepaligiga kelib o'rtnashadi. Amir Muzaffar xalqqa murojat qiladi: "Sodiq musulmon fuqarolari, g'alaba biz tomonda bo'lg'ay, Samarqand va Kattaqo'rg'onni qo'ldan ketishi biz uchun uncha katta yo'qotish emas. Biz Temuriylar avlodimiz, biz o'z yerimizni qaytarib olishimizni ko'rsatib qo'yamiz. Men dinimiz va Vatanimiz uchun musulmon ahlini qaxramonona jang qilishni, kofirlar ko'z o'ngida namoyon qilishingizni umid qilaman. Musulmonlar, Turkiston General gubernatori talab qilayotgan 125000 tillo (500000 so'm) sovg'a sifatida sizga beriladi". Ushbu murojaat o'q ovozlari ostida o'qib eshittiriladi. 1868 yil 2 mayda dushman bilan jang boshlandi. Biroq amir qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydilar. Amir qo'rqib Qizilqumga qochadi. Zirabuloqda jang vaqtida Samarqandda chorizmga qarshi xalq qo'zg'oloni boshlandi.

Bu vaqtda amir Muzaffarning obro'si va maqei tobora tushib borayotgan edi. 1868 yili 23 iyunda amir Muzaffarning elchilari Samarqandga Kaufman huzuriga kelib, sulh tuqishga rozilik bildirdilar. Sulhga ko'ra, Samarqand, Kattaqo'rg'on va Zarafshon daryosining yuqori qismi xonlikdan ajratib olinib Rossiya tarkibiga kiritildi. Amir tovon sifatida 500000 so'm to'lashga va xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil aloqa qilmaslikka va'da berdi. Shuningdek, Rossiya savdogarlariga xonlik tasarrufida bimalol savdo – sotiq ishlari bilan shug'ullanishga, hamda karvonsaroylar qurishga ijozat etildi. Ular to'laydigan savdo bojlari miqdori buxoroliklar to'laydigan bojlardan oshmasligi kerak edi. xullas, shartnoma tuzilgandan so'ng Buxoro amiri urushni rasman to'xtatib, rus davlatiga tobeligini tan oladi. Hatto amirning o'g'li Katta to'ra va bir necha nufuzli beklar birlashib, Muzaffarxon va chorizm istilochilariga qarshi kurashni davom ettirdilar. Ular amirning taxdan mahrum etilganini e'lon qilib, Shahrisabz va Kitobda katta kuch to'pladilar. Shaxrisabz beklari Katta to'rani xon deb e'lon qildilar. Natijada amir Muzaffarning ahvoli nihoyatda og'irlashdi. Ota – bola qo'shinlari o'rtasida Samarqand yaqinidagi Jom qishlog'ida sodir bo'lgan jangda amir sarbozlari yengiladi. Shundan so'ng amir chor ma'muriyatiga harbiy yordam so'rab murojaat qiladi. Buni inobatga olgan general Abramov 1870 yilda Shahrisabz va Kitobda Jo'rabek va Bobobek boshchiligidagi qo'shin va olomonni yengib, u joylarni amir Muzaffar ixtiyoriga topshiradi. Bundan ilgari, ya'ni 1868 yilda chor qo'shinlari tomonidan bosib olingan Qarshi shahri ham amirga qaytariladi. Bu bilan chor xukumati amir Muzaffarni rus davlatiga yanada qullarcha itoat etishini mustahkamlay bordi. Amir esa sulh shartlarini og'ishmay bajaraverdi.

Chor xukumati Xiva xonligini bosib olish uchun, katta tayyorgarlik ko'rdi. 1869 yilgi ma'lumotlarga qaraganda Xiva xonligining 2,5 ming kishidan iborat muntazam armiyasi bo'lsa – da, harbiy texnikasi

nihojatda nochor ahvolda edi. Rus hukumati xonlikka qarshi 3 tarafdin: Turkiston general – gubernatorligi, Orenburg va Kaspiy dengizi tomonlaridan harbiy kuch tashladi. Qo'shin yaxshi qurollangan 12000 kishidan iborat bo'lib, ularga fon Kaufman qo'mondonlik qildi. 1873 yil may oyida yo'lakay xivaliklar qarshiligini yengib borgan istilochilar 28 mayda Xiva shahri ostonalarida to'xtadilar. Bu vaqtda Said Muxammad Rahimxon qochishga ulgurgan edi. Qo'shin general Velyovkin boshchiligida Xiva shahriga xujum boshladi. Biroq fon Kaufman urushni to'xtatib, Xiva xonining taxtni qaytadan egallashni taklif qildi. Shundan so'ng Muxammad Rahimxon Xivaga kelib, rus davlatining vassali sifatida taxtni egalladi. 1873 yil 12 avgustda sulh tuzilib, Xiva xoni o'z siyosiy mustaqilligini yo'qotadi. Xon tovon to'lashni va rus savdogarlariga xonlikda bemaolol yurishlari uchun sharoit yaratib berishni zimmasiga oldi. Amudaryoning qirg'og'i Rossiya ixtiyoriga o'tkazildi.

Shunday qilib, Buxoro va Xiva xonliklari o'z mustaqilliklarini yo'qotib rus davlati manfaati doirasida ish yuritishga majbur bo'ldilar. Buxoro xonligi urush harajatlarini qoplash uchun 500000 so'm, Xiva xonligi esa 2 mln. 200000 so'm tovon to'lashga majbur bo'ladi.

Rus istilochilarining keyingi niyati Qo'qon xonligini yo'qotish edi. Ular Turkiston, Chimkent, Toshkent va boshqa joylarni egallab, Qo'qon xonligiga qattiq zarba berdilar. Qo'qon xoni Xudoyorxon qo'rqqoq va tadbirsiz bo'lganligi uchun, vatan himoyasi uchun arzigulik biror – bir ish qila olmadi. 1868 yili rus davlati bilan sulh tuzib, amalda Rossiyaga qaram bo'lib qoldi. Xudoyorxonning itoatkorligi aholining g'azabini oshirib yubordi. Natijada 1872 yili xonning subutsizlik va zulmiga qarshi xalq qo'zg'oloni ko'tarildi. Qo'zg'olon 1876 yilgacha davom etdi.

Qo'zg'olonga Xudoyorxon tomonidan o'ldirilgan Musulmonqulning o'g'li Abduraxmon oftobachi rahbarlik qildi. Qo'zg'olonga shahar, qishloqlar aholisi bilan birga qipchoq va qirg'izlar ham qo'shildilar. Ruslarga qarshi g'azovat (Muqaddas urush) boshlandi. Xudoyorxon 40 aravaga xazinasini yuklab Xo'jandga qochdi. Uning katta o'g'li Nasriddin xon deb e'lon qilindi. Amalda esa xokimiyatni Abduraxmon Oftobachi va xonning ukasi Sulton Murodbek boshqargan. Ular ruslardan madad so'rashgan. Xo'jandda ruslar qo'liga tushgan Xudoyorxon Toshkentga jo'natildi. Bu yerda uning mol – mulki musodara qilinib, o'zi Orenburgga surgun qilindi.

1876 y. 19 fevralda Qo'qon xonligini Rossiyaga qo'shilganligi e'lon qilindi. Farg'ona vodiysi harbiy gubernatori qilib M.Skobelov tayinlandi.

Qo'qon xonligi bosib olingach, Turkiston general – gubernatorligi chegarasi Tyan – Shan tog'laridan Amudaryogacha kengaydi. Oq podsho endi turkman cho'llarini ham qo'lga kiritishga kirishdi. Krasnovodsk shaharchasi barpo qilingach 1869 yildan boshlab, ruslar turkmanlar yerlariga to'xtovsiz hujum qilib turdilar. 1877 yili Axaltekin vodiysidagi Qizil – Arvat shahri egallandi. Biroq bundan keyingi dastlabki yurishlar muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. General Lazarev qo'shinlari No'ktepa qal'asini qamal qilishganda 200 kishidan ajralib mag'lubiyatga uchradi.

General Golovachyov qo'mondonligidagi rus qo'shinlari turkman qabilalarini bo'ysundirishga astoydil kirishdilar. Xiva beklari (YOqubbek) urush oldini olishga qanchalik urinishmasin bundan foyda chiqmadi.

Turkmanlar tovon to'lashdan bosh tortib, ruslarga qarshi g'alayon ko'targan edi. Bu haqda harbiy zobit V.Tixmenev "Turkiston otryadining 1873 yili Xivaga yurishi bayoni" asarida shunday yozadi: "Biz Xivaga 29 mayda kirib keldik, iyulning birinchi kunlarida esa biz tovon to'lashlarni talab qildik. Birgina yovmudlarning 10000 xonadoniga 300000 so'm kumush pul hisobidan soliq solindi. Turkmanlarning Bayramali urug'i esa 8000 xonadondan iborat edi, ularga 15 kunlik muddatda soliq to'lash belgilangandi. Tovu to'lash bilan birga, yovmudlar yurtiga general – mayor Golavachyov boshchiligida 8 piyoda rota, 84 funtlik to'p, 2 tez otar va 6 ta kazak batareyasi yuborildi. Ularga mabodo turkmanlar soliq to'lashdan bo'yin tortsa, ayamasdan barcha uy anjomlarini yoqib, qarshiik ko'rsatganlarni esa oila a'zolari bilan shafqatsizlarcha qirib tashlashga ko'rsatma berildi".

"O'z navbatida turkmanlar ham jangga tayyorgarlik ko'rib, joylaridan ko'cha boshladilar. Ular ruslarga qarshi kurashda jonni ayamaslikka qasamyod qildilar. Ruslar 14 dan 15 iyulga o'tar kechasi turkmanlarning oila a'zolari to'planganlarga xujum qilmoqchi bo'ldi.

Bu jangda bizdan atigi 34 kishi o'ldi va yarodir bo'ldi, dushman tomondan esa taxminan 600 – 700 kishi

halok bo'ldi ...".

Rus qo'shinlari qariyb 10 yildan keyingina, ya'ni 1881 yili Guk – tepa (hozirgi Ashxobod)ni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldilar. 1884 yili Marv vodiysi ruslar ixtiyoriga o'tdi. 1881 yili Rossiya – Eron chegarasi, 1885 – 87 yillarda Afg'oniston bilan chegaralar belgilab olindi.

Shunday qilib, rus podsholigi o'zining asriy maqsadiga erishdi. Asrlar davomida adabiyoti, fani, mehr – oqibatli, ma'rifatparvar, tinchliksevar xalqi bilan jahon e'tiborigi tushgan buyuk Turkiston mustamlakaga aylandi. G'arbda Hazar dengizi va O'rol tog'laridan Buyuk Xitoy devorigacha, janubda Eron va Afg'oniston, Sibirgacha bo'lgan Turkiston yerlarining umumiy maydoni 5 mln 733 ming 800 kvadrat km edi. Vatanimiz g'arbini Rossiya bosib olgan bo'lsa, Sharqini 1876 yili xitoylar istilo qildi. Rus bolshevizmi davlat to'ntarishi yasab, ikkiga bo'lingan Turkistonni yana bir necha bo'laklar (jumhuriyatlar)ga bo'lib yubordi. Shunday qilib, erkin, ozod, hur. Turkiston mahalliy xukmdorlarning o'jizligi tufayli parchalanib bosqinchilarga yem bo'ldi.

3 savol. Turkistonning bosib olinishi burjuaziyasi manfaatlariga to'la mos kelar edi. Rossiya O'rta Osiyoda mustamlakachilik siyosatini avj oldirish uchun avvalo temir yo'l qurilishiga kirishildi. U Qizil – Arvot va Ashxobod orqali 1888 y. 15 mayda Samarqandga yetib keldi. 1889 y. Maridan Kushkagacha, 1899 yili Toshkent va Andijongacha temir yo'l o'tdi. 1900 – 1905 yillarda Toshkent – Orenburga temir yo'li qurildi. Natijada o'lkadan ko'plab xom – ashyo, tabiiy boyliklarni tashib ketish imkoniyati kengaydi.

Masalan, Buxorodan chetga sotilgan paxta 1850 – 60 yillarda qariyb 50000 pudni tashkil qilgan bo'lsa, 1915 yilga kelib 2 mln pudga, qora ko'l teri 30 – 40 ming donadan, 1,5 mln donaga yetdi.

Qishloq xo'jaligida ham katta o'zgarishlar yuz berdi. Sug'oriladigan maydonlar kengaydi, qishloq xo'jalik mahsulotlari ko'paydi. Ayniqsa paxtachilikning rivojlanishiga katta ahamiyat berildi. Amerikadan paxtaning yangi navlari keltirilib katta maydonlarga ekila boshlandi va u boshqa qishloq xo'jalik ekinlarini tobora siqib chiqara boshladi. Natijada Rossiya Turkistonda paxtachilikni rivojlanishi xisobiga chet el paxtasiga to'layotgan bojidan qutildi. 1879 – 1898 yillarda 203 mln so'm davlat xazinasida qoldi. Shu yillar Turkistonda Rossiyaga 26 mln pud tola olib ketildi. Amerikadan keltirilayotgan paxtaga nisbatan Turkiston paxtasining 60 mln so'm foyda olindi. Rossiyaga paxta tashib ketish 5 mln pudan 18 ming pudga yetdi. Agar 1900 yilda Rossiyaning paxtaga bo'lgan ehtiyojining 32,6 foizi Turkiston hisobiga qoplangan bo'lsa, 1918 yilda bu ko'rsatgich 55 foizni tashkil qildi.

Turkiston xalqlari risqini ham enidan, ham bo'yidan qirqish rejasining yana bir bosqichi ularga Rossiya aholisini ko'chirish orqali amalga oshirildi. 1910 Turkistonda (Sirdaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida) dastlabki 124 ta rus posyolkalari vujudga kelib, ularda 70 ming kishi yashagan (shaharlardagi ruslar bilan 200 ming kishi).

Ko'chib kelganlarning 36,6 foizi mol – mulksiz, 61 foizi esa mutlaqo pulsiz bo'lib, mahalliy aholidan unumdor yerlarni tortib olingan olib berilgach, asta – sekin boyib ketishdi. Masalan, Yettisuv aholisi qozoq va qirg'izlar bo'lib, ulardan ko'chirib kelinganlar foydasiga 2 mln desyatina yer tortib olindi. Bu yerda milliy munosabatlar keskinlasha boshladi. Yettisuvda kazaklar 30000 kishidan ortiq bo'lib, ularning qo'lida 610000 desyatina ortiq yer bor edi. qazaklar tortib olib yerlarining katta qismini qozoq va qirg'izlarga ijara berar, ularni ayovsiz eksplutatsiya qilar edi.

Turkiston viloyatlarining taraqqiyot darajasi o'sha vaqtda har xil edi. Farg'ona sinfiy ziddiyatlarning keskinligi bilan ajralib turar edi, bu yerda dehqonlar ko'proq tabaqalanib milliy burjuaziya shakllanayotgan edi. Farg'onada 16000 boyning 312000 desyatina, 233000 kambag'al dehqonning atigi 98000 desyatina yeri bor edi. bu yerda ekin maydonining yarmidan ko'piga paxta ekilar edi.

Turkistonda paxta zavodlari bilan birga vino, pivo zavodlari, tamaki fabrikasi paydo bo'ldi. 1908 yili o'lkada 234 paxta tozalash zavodi bo'lib, ularning ayrimlari bug' va kerosin bilan ishlagan,elektr nuri bilan yoritilgan. Ularda 7000 ishchi ishlagan. Paxta zavodlaridan tashqari 20 ta yog' zavodi, 9 ta vino zavodi, 9 ta un zavodi, 7 tamaki fabrikasi va boshqalar bor edi. Shaharlarda sanoatning rivojlanishi Turkiston xalqlarining ijtimoiy – iqtisodiy o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Yirik shaharlar (Toshkent, Qo'qon, Andijon, Samarqand, Xo'jand, Verniy) aholisi 13 yil ichida (1897 yildan 1910 yilgacha) 440 mingdan 613 ming kishiga ko'paydi.

Aholining ko'payib borishi ayniqsa, Farg'ona vodiysida yaqqol sezila boshladi. Yersiz qolgan dehqonlar mardikorlikka yollandi. Mardikorlar 7 – 8 oylab uylaridan ish izlab chiqib ketishar, 10 – 12 soatlab qilgan mehnatlariga har kuni o'rtacha 70 tiyindan haq olishgan. Agar o'sha vaqtda bitta qo'y 2 so'm, 1 kg un – 4, guruch – 5 tiyin turganini hisobga olsak, mardikorlik ish kuni ancha barakali bo'lgan.

Agrar munosabatlarining keskinlashuvi qishloq aholisini tobora ikki tabaqaga ajratdi: boylar va kambag'allarga.

Kambag'al dehqonlar ahvoli juda og'ir bo'lib, ularning ish hayvonlari yo'q barcha ishlar ketmon bilan bajarilgan. Mehnat nihoyatda og'ir bo'lsada, ish haqi past edi. Birinchi jahon urushidan Farg'ona vodiysi dehqonlarning 50 % qarzga botgan edi. 500 ga yaqin dehqon o'z yerlarini suv tekinga sotishga majbur bo'lgan.

Paxta rus kapitalini O'rta Osiyoga ko'plab jalb qildi. 1913 yili “Besh - Bosh” savdo – ishlab chiqarish tashkiloti tuzilib, u 30 foiz paxtani sotib ola boshladi. Uning ixtiyorida 29 ta paxta tozalash zavodi bor edi. Savdogar Ved'yayevlar ixtiyorida esa 30 ta zavod bo'lgan. Rossiyaning yirik banklari: rus Osiyobanki, Moskva savdogarlik banki va davlat banki asosiy sudxo'rlarga aylandi.

XX asr boshlarida Rossiya mustamlakachilik siyosatini avj oldirsa – da, uning asl maqsadi oshkor bayon qilinmas edi. Turkistonning paxtasi, pillasi, qorako'l terisi, g'allasi gaz va nefti Rossiya sanoatini boyiti, Turkiston rus sanoati uchun xom ashyo bazasi bo'lishi kerak edi. O'lkani bosib olishdan maqsad ham shu edi. Fikrimizni oydinlashtirish uchun 1906 yili mart oyida harbiy vazirlik tomonidan graf Vitte nomiga yuborilgan xatda quyidagilarni o'qiymiz. “Turkiston o'lkasi Rossiyaga foyda keltirishi mumkin bo'libgina qolmay, balki majburlar. Bu foydalar Rossiyaning o'lkani istilo qilish davridagi ketgan harajatlarni qoplash kerak. Vaqt o'ta oz va qimmatdir. Uni boy berish katta xatolarga olib keladi. Shuning uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

a) Foydalanishdan chetda qolgan yerlarni davlat hisobiga o'tkazishni tezlatish.

b) O'lkani tog' boyliklaridan keng foydalanish.

v) O'lkani ruslar tomonidan istilo qilinishini kuchaytirishga imkoniyat yaratib berish.

Shuni ham nazardan qochirmaslik kerak – ki, Turkiston musulmonlar beshigidir. Ular hech qachon xristianlarga yon bosmaydilar. Ular dinsizlarga bo'lgan o'z munosabatlari va faqat kuch ishlatilgandagina o'zgartirishi va o'z taqdirga tan berishi mumkin”.

Ruslar O'rta Osiyoni egallagach, mahalliy xalqqa nisbatan o'z muomalasini o'zgartira bordilar. Endi ular Turkiston xalqlarini umumiy bir nom bilan sart, deb atay boshladilar. Rus hukmdorlari endi sartlar yetishtirayotgan xom ashyolarni o'zlarniki hisoblab, shu yerning o'zida qayta ishlash rejasini tuza boshladilar. Sanoat korxonalarini qurish rejasi bir tomondan o'lkada paxta yakka hokimligini kuchaytirsar, ikkinchi tomondan, yersizlar kuchidan ununmli foydalanish mumkin bo'lardi, chunki aholiga yer yetishmasdi. Masalan, birgina 1890 yilning o'zidagina Marg'ilon uyezdida hammasi bo'lib 13 ming 963 xo'jalik yersiz edi.

Shunday qilib, o'lkada korxonalar qurish keng yo'lga qo'yildi. 1914 yilning 1 yanvarigacha olingan ma'lumotlarning guvohlik berishicha, o'lkada 706 ta korxona bo'lgan va ularda 20 ming 925 kishi mehnat qilgan. Bu korxonalarda asosan xom ashyo tayyorlanar va to'g'ri Rossiyaga tashib ketilar edi. O'sha paytda asosiy korxonalarni sanaydigan bo'lsak, bular 46 ta sovun zavodi, 40 ta mineral suv tayyorlaydigan korxonalar, 20 ta g'isht zavodi, 197 ta paxta tozalash zavodi va hokazolar edi. ana shu zavod va fabrikalardagi qora ishchilarning 13,2 foizi ruslar, 86,8 foizi esa “sart”lar edi.

Rus hukumati Turkistonning tub aholisi vakillarini oliy va o'rta boshqaruv idoralariga yaqinlashtirmasdan, faqat quyi munosabatlardagina tayinlar edi. O'zbeklar siyosiy huquqlaridan mahrum etilib, xokimiyat butunlay rus amaldorlari qo'lida edi. Turkiston general gubernatori juda katta huquq va imtiyozlarga ega bo'lib, uni hatto yarim podsho deb atardilar. Rossiya qoloqligi, zolimligi, kuchliligi bilan Ovrupa davlatlari orasida ajralib turar edi. Bu mamlakatda yakka xokimlik xukumron edi. Rus istibdodi barcha xalqlarni zulm iskanjasida ushlab turardi. Ayniqsa O'rta Osiyo xalqlari hayoti g'oyat mushkul edi. natijada o'lka xalqlari o'rtasida norozilik kuchaya boshladi, sinfiy ziddiyatlar vujudga keldi. Turkiston xalqlari endi nafaqat bosqinchilarga qarshi, balki mahalliy hukmdorlarga ham qarshi chiqa boshladilar.

10-mavzu CHORIZM ISTIBDODIGA QARSHI TURKISTON XALQLARINING MILLIY- OZODLIK KURASHI. JADIDCHILIK.

REJA

- 1 Chor Rossiyaning bosqinchilik va mustamlakachilik siyosatiga qarshi milliy- ozodlik harakatlari.
- 2 XX asr boshlarida Turkistonning ijtimoiy-siyosiy xayoti. Demokratik va inqilobiy harakatlari.
- 3 Turkistonda jadidlar harakatining yuzaga kelishi.
- 4 1916 yil xalq qo'zg'oloni, uning mohiyati, ahamiyati.

Adabiyotlar

- 1 I. A. Karimov . Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent "O'zbekiston" 1994 yil.
- 2 I.A. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent "Sharq" 1998 yil .
- 3 M. Sodiqov. Erksevar, huriyatparvar el vorislarimiz. Toshkent " Kamalak" 1992yil . 20-30 betlar.
4. Fozilbek Otabek o'g'li. Dukchi Eshon fojiasi. Toshkent "CHO'lpon" 1992 yil.
5. B. Qosimov. Ismoilbek G'aspirali. Toshkent 1992 yil.
6. O'zbekim "Vatan" seriyasi. Toshkent 1992 yil. 142-180 betlar.
7. A.Aliyev . Maxmudxo'ja Bexbudiy. Toshkent " Yozuvchi"1994 yil.
8. X.Yunusova 1892 yil Toshkentdagi xalq qo'zg'oloni. T. , 1998 yil.
9. Vatan tuyg'usi. T. "o'zbekiston" 1996 yil.

Ma'ruza maksadi.

O'lkada XIX asr ikkinchi yarimida kelib chor Rossiyaning mustamlakachilik ulug' davlatchilik, shovinistik siyosati mahaliy aholining milliy ozodligi uchun kurashning kuchayishiga sabab bo'ldi.

Ma'ruzada O'rta Osiyo xalqlarining chorizmga qarshi olib borgan eng yirik va ommaviy tus olgan kurashlarini qayd qilishimiz lozim. Undan tashqari XX asr boshlariga kelib Rossiyadagi ijtimoiy, siyosiy vaziyat Turkistonga o'z ta'sirini o'tkazganini ko'rsatish kerak . Jadidchilik harakatini yoritib berish ma'ruzaning masalalaridan biri .

10 mavzudagi bilimlarning egallaganlik darajasini aniqlash uchun tayanch tushunchalar: miliy-ozodlik harakatlari; Qurbonjon doxoh; YOqubbek ; 1892 yili Toshkent qo'zg'oloni ; 1898 y. Andijon qo'zg'oloni; Namoz Primqulov , jadidchilik; Ismoil Gaspirinskiy, Maxmud Bexbudiy,Munavvar qori ,A.Avloniy; A.Fitrat; Hamza; 1916 yil qo'zg'oloni.

1-savol. Chor Rossiyaning Turkiston xalqlarini ochiqdan-ochiq talash ularning iqtisodiy taraqqiyotiga to'sqinlik qilish bu yerda feodal munosabatlarini saqlab qolishga urinish haqli ravishda xalq ozodlik harakatlarining ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

Chorizmga qarshi qo'zg'olonlar dastlab Qozog'iston mintaqasida boshlandi. 1783-1793 yillarda Sirim Botir raxbarligida , 1822-1823. Jaloli Tilanchi boshchiligida, 1836-1938 Isatoy Toymon boshchiligida, 1837-1846. Sulton Kengesarin boshchiligida, 1856 yili Sirdaryo viloyati Jo'nxo'ja Nurmuxammad boshchiligida xalq qo'zg'olonga ko'tarildi. Shunday qo'zg'olon 1863 yili Samarqandda boshlandi. Rus qo'shinlarining Zarbuloqda amir qo'shinlari bilan urushyotganligidan foydalangan Samarqand aholisi qo'zg'olon ko'tardi . Ularga atrofdagi tumanlardan naymanlar ,qoraqalpoqlar, xitoy qipchoqlari, qirqjo'zlar, Jo'rabek va Bobobek

boshchiligidagi Shaxrisabz va Kitobdan jami 20 ming kishi yordamga kelishdi. Uch kunlik jangda har ikki tomon ko'plab qurbonlar berdi. Dushmanlardan 275 kishi o'ldirildi va yarador qilindi. Qo'zg'olon bostirilgach, 19 kishi o'limga va 19 kishi Sibirga surgun qilindi.

Bosqinchilar jazo choralari kuchaytirishga qaramasdan ozodlik harakatlari to'xtamadi. Yangi xarakat markazi Farg'ona vodiysiga ko'chadi. Bu yerda 1871 yili Yotimxon qo'zg'oloni, 1873-76 yili Po'latxon, Madalixon (Dukchi Eshon 1898) qo'zg'oloni va boshqalar bo'lib turadi.

Bular ichida Po'latxon qo'zg'oloni uyushqoqligi va ommaviyligi bilan ajralib turadi.

Xudoyorxondan norozi bo'lgan sarkardalar Abduraxmon Oftobchi, Iso Avliyo, Xolnazar Dodxox va xonning katta o'g'li Nasriddinbeklar fursatdan foydalanib qo'shinlar bilan 1875 yili iyulida Po'latxon tarafiga o'tdilar. Qo'zg'olonchilar hujumni kuchaytirib Namangan, Andijon va Oltiariqni egalladilar. Yakkalanib qolgan Xudoyorxon 1875 yili 22 iyulda boyliklarini 40 aravaga yuklab Xo'jandga qochdi. Xudoyorxon rus elchilari panoxida Toshkentga qochganidan keyin uning o'g'li Nasriddinbek xon qilib ko'tariladi.

Taxtga o'tirgach, Nasriddinbek va Oftobchi xalqqa hiyonat qilishi yo'liga o'tdilar, ular Turkiston general-gubernatoriga xat yozib, undan madad so'radilar. Kaufman jazo otryadini yubordi. Qo'zg'olonchilar jangda katta talofat ko'rib Maxram qa'lasiga chekindilar. 1876yil 19 fevralda maxsus jazo otryadlari Po'latxon qarorgoxiga hujum qilib uni qo'lga tushirdilar va uni 1876 yil 29 fevral Marg'ilonida osib o'ldirdi.

Vatan ozodligi uchun, el dardiga malham bo'lish uchun nafaqat erkaklar balki ayollar ham jonlarini fido qilishga tayyor turishgan. Shulardan biri, Po'latxon qo'zg'olonining ishtirokchisi Zinnatxon (Qurbonjon dodhoh qizi) qo'zg'olonda o'g'illari (Abdullabek, Maxmudbek, Xasanbek, va Botirbek) bilan ishtirok etgan. Yoshligida juda go'zal, mard va moxir chavondoz bo'lgan Qurbonjon birinchi eridan ko'p yil turmay ajrashdi. Uning dovrug'ini eshitgan Andijon xokimi Olimbek sovchi qo'ygan unga uylandi. 1861yili Olimbek fitna qurboni bo'lgach, Qurbonjon Qo'qon xonligi siyosatidan norozi bo'la boshlaydi. Qurbonjon Oloy-O'sh xokimi bo'lib turgan paytda O'sh noibi bo'lib turgan o'gay o'g'li Jorqinboy Chernyayev otryadi tomonidan o'ldirildi.

Bosqinchilarga nafrati kuchli bo'lgan Qurbonjon Qo'qon xonligi tugatilgandan keyin ham taslim bo'lmasdan o'g'illari bilan asosiy tog' yo'larini egalab ruslarga qarshilik ko'rsatdi. 1876 yili 25 aprelda uning qo'shinlari Yangiariq mavzeida Skobelev otryadiga qattiq zarba berdi. Biroq keyingi jangda xoinlik tufayli mag'lubiyatga uchrab, dastlab Qashqarga keyin Afg'onistonga o'tib ketgan. Biroq u bilan aloqasini uzmagani, Oloyda esa vaziyat notinch bo'lib, Qurbonjonning hohlagan paytda qaytib kelishi mumkin bo'lganidan cho'chigan Skobelev mayor Ivanovni uning oldiga kuzatish uchun jo'natadi. Biroq generallik unvoniga ega bo'lgan Qurbonjon uni qabul qilmaydi. Shundan keyin Skobelevning o'zi uchrashadi va muzokaralardan so'ng qon to'kish befoyda ekanligini, Qurbonjon barcha qo'zg'olonchilarga omonlik berish sharti bilan sulxga rozi bo'ladi va so'zining ustidan chiqadi. Qurbonjon 1907 yil 1 fevralda 97 yoshida vafot etgan. U O'shdagi "Sari mozorga" dafn etilgan.

Xalq xarakatlaridan eng yiriklaridan biri 1892 yili Toshkentda bo'lib o'tgan "Vabo" qo'zg'oloni edi. Bu qo'zg'olonning asosiy sababi Toshkentda 2000 kishini yostig'ini quritgan vabo kasaliga qarshi emlash ishlari va uni tarqatmaslik uchun Chor xukumati ko'rgan chora-tadbirlardan norozilik sababi kelib chiqan. Butun qabristonlar yopib qo'yildi. Rus amaldorlari vabodan o'lganlarini boshqa joyga olib borib ko'mishga majbur qildilar. Ko'mishga ruxsat olish uchun 3-4 kun vaqt kerak edi. Shaxarda o'liklar tobora ko'paya bordi. Bu qo'zg'olon ko'tarilishga bahona bo'ldi. Qo'zg'olonning asl sababi esa, mehnatkashlarning og'ir axvolda ekanligi edi.

Qo'zg'olonning xarakatlantiruvchi kuchlari-bu mahalliy hunarmandlar, ishchilar, mayda savdogarlar, aravakashlar, qishloqdan kelgan mardikorlar va hokazolar.

Bu shahardagi birinchi qo'zg'olon edi. Qo'zg'olonchilar jabr-zulumning haqiqiy aybdorlari kim ekanligini juda yaxshi tushunishardi. Biroq shifokorlar go'yo davolash muassasiga xujum qilishmadi. Podsho amaldorlari qo'zg'olonchilardan ayovsiz o'ch oldi. 60 kishi qamoqa olindi, ulardan 8tasi Sibirga abadiy surgun qilindi, 15 kishi turmaga tashlandi.

Farg'ona vodiysida bosqinchilarga qarshi ko'tarilgan yirik qo'zg'olonlardan biri Dukchi Eshon

qo'zg'olonidar . Andijonda boshlangani sababli tarixda Andijon qo'zg'oloni deb nom oldi .

Qo'zg'olonni sababi chorizmni paxtachilikni rivojlantirishdagi yaxshiyona siyosati edi. Sharqiy Farg'ona eng yirik paxtakor viloyati hisoblanar edi, zotan Turkistondagi jami paxtaning salkam uchdan bir qismi Farg'onaga to'g'ri keladi. Xalq ommasining mustamlakachilar va boylar tomonidan ezilishi, sudxo'rlikning avj olishi va xokazolar, chorakorlar, batraklarni ko'paytirib yubordi.

Qo'zg'olonga sabab bo'lgan narsa yer solg'ining 80 yillar boshida joriy qilingan yangi tartibda bo'lgan, uning oqibatida soliqlar 2-3 martaga ko'payib ketdi. Aholini xatto daryo yuvib ketgan yerlar uchun ham soliq to'lashga majbur etdi.

Madalixon boshchilik qilgan xalq xarakati juda murakkab edi.

1898 yili 17 martdan 500 kishidan iborat otryad Madalixon rahbarligida Andijon shahar garnizoniga yurish boshladi. Yo'lda bu guruxga xanjar, pichoq ,o'roq va boshqa qurollar bilan qurollangan kishilar qo'shildi. Keyinchalik, mukofot evaziga ikki maxalliy sotqin Dukchi Eshonni tutib berishdi.

Madalixon va uning izdoshlari ustidan 1898 yili 2 iyunda Andijonda sud bo'ldi. Madalixon va uning besh safdoshi o'limga hukm qilindi. 380 qo'zg'olonchi qo'lga olinib ,ulardan 15 kishisi umurbod, qolganlar 10 yildan 20 yilgacha Sibirga surgun qilindi. Qo'zg'olon bochstirilgach, Andijonda oq do'ppi kiygan yoki salla o'ragan ko'plab mo'min-musulmonlar qatag'on qilingan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkin , qo'zg'olonlarning yengilishiga asosiy sabablardan biri, qo'zg'olonchilarning aniq maqsadlari va rejalarining yo'qligidir, yagona bir markazdan boshqarilmaganligi va aynan bir vaqtda barcha viloyatlardan ommaviy tus olmaganligi edi. Undan tashqari yuqori tabaqalarning qo'llab-quvatlamaganligi (faqat dastlabki paytda).

Bu qo'zg'olonlar yengilishiga qaramay izziz yo'qolmadi. Turkiston xalqlari yanada jipslasha boshladilar, ularning ijtimoiy, siyosiy tafakkurlari shakllana boshladi.

2 savol . Ikkinchi savolga o'tar ekanmiz, shuni aloxida aytish zarur, XIX asrning 80-90 yillari mahalliy ishchilarning ilk xarakatlari ko'zga tashlandi. Biroq harakat shakllari hali yetilmaganligini ko'rsatadi. O'ngsiz, stixiyali,masalan ishchilar, zavod do'konlari vayron qilishar edi, mashinalarni buzishadi va ish tashlashgan. 1885 yil Zavron – Qoshtut toshko'mir konidagi o'zbek va qirg'iz ishchilari kon boshqaruvchisi va ikkita rus nazoratchisini do'pposlashdi, kondagi asboblarini sindirishdi va boshqaruvchi ustidan xokimiyatga arz qilish uchun Panjikentga yo'l olindi. Bu harakatda 80 ga yaqin kishi qatnashdi, Panjikenta ulardan 3 tasi xisobga olindi. 1898 yil fevralda Qo'qon yaqinida 130 quruvchi ish tashladi.

Xullas ,XIX asr oxirida ishchilar xarakati biron reja, raxbarlik va xokazolarsiz, o'z-o'zidan va uyushmagan holda ro'y berib turdi.

XX asr boshlarida Turkistonda dastlabki yashirin inqilobiy-ijtimoiy demokratik to'garaklar tuzila boshladi. Ular 1903-04 yillarda Ashxobod ,Samarqand , Toshkent, Qizil Arvot, Qizil O'rda va boshqa shaharlarda paydo bo'ldi . Bu tashkilotlar inqilobiy kuchlarni birlashtirish ishlarni o'z oldilariga vazifa qilib qo'ygan edilar.

Turkiston mehnatkashlari 1905-1907 yillari inqilobida qatnashdi.

Turkistondagi dehqonlar xarakati 1905 yil inqilobi davrida qurolli qo'zg'olonga aylanib ketmagan bo'lsada, dehqonlar ommasi ancha faollashganidan dalolat berdi. Namoz Primqulov kim bo'lgan?

Tergov hujjatlariga qaraganda u 1877 yili tug'ilgan. Chaqaloqligidan yetim qolib amakisi qo'lida yashaydi. So'ng qarovsiz daydi bolalar bilan Samarqand, Toshkent shaxarlariga boradi. Mustamlaka zulmi va adolatsizliklar Namozda ezilayotgan xalqi uchun o'ch olish hissini kuchaytiradi.

Namoz boshchiligidagi dehqon va kambag'allar xarakati tarqalgan Nurota , Karmana va Qarshi, Kitob viloyatlaridan rus posyolkalarida kuchli sotsial-demokratik tashkilotlar bo'lib, ular ishchilar xarakatiga rahbarlik qilar edi.

Dehqonlar yeri tortib olinib rus axolisi berilishi qashshoqlik va yollanma ishchilar safini ko'paytirdi va tabiiyki, ularning noroziligini va chiqishlarini keltirib chiqardi. Dehqonlardan iborat mayda "Qaroqchi" otryadlarning paydo bo'lishi dehqonlar harakatlanishining o'ziga xos shakllardan biri edi.

Bu partizanlik harakat edi. Dehqonlar ommaviy ravishda bosh ko'tarib chiqish imkoniyatga ega bo'lmaganligi uchun bunday otryadlar paydo bo'ladilar. Namoz Pirimqulov boshchiligidagi dehqon

otryadlar uch yil kurash olib bordi.

Ammo , Namoz ko'rsatgan qaxramonliklar o'zbek xalqining kolonial kullik va zulmga qarshi kurashning timsoli bo'lib qoldi.

3 savol. Jadidchilik xarakati Turkiston xalqining chorizm istibdodiga qarshi milliy –ozodlik kurashini davom ettiradi .

Jadidchilik XIX asrning oxiri –XX asri boshlarida Turkistonda maydonga kelgan milliy va ayni paytda ijtimoiy-siyosiy, madaniy- ma'rifiy xarakat sifatida paydo bo'ldi. Jadidlar xarakati Turkiston xalqlari tarixida kam o'rganilgan yo'nalishlaridan biri hisoblandi. Jadidchilikni o'rganish tarixi, quydagi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

1900-1925 y.

1925-1938 y.

1938-1956 y.

1956-1985 y.

1985-1991 y.,(asosan mustaqillik davrida o'rganildi)

Xalqaro miqyosda ko'proq o'rganilgan , masalan, olimlar Lazzeriy, Benishson A. , Olvort E.,Baldauf I., Komatsu X. tomonidan.

Jadidlar (arabcha “jadid”-“yangi” degani) davlat sifatida mustaqilligini yo'qotgan xududda birlik eng muhim masala ekanligini yaxshi tushunar edi. Shuning uchun ushbu xududda yashagan xalqlarning tarixi bilan chuqur qiziqishdi va uni zamonaviylashtirishga urindilar .

1903-1904 yillarda ular bir qancha yilnoma yaratishdi. Masalan , mang'it va qo'ng'iroq sulolasining O'rta Osiyo xalqlari uchun ahamiyatini qayta ko'rib chiqishga urindi. (Masalan, Mirza Abdulazim, Somiy va Muxammad, Yusuf Bayoniy)

O'rta Osiyo jadidlarning tarix, maorif va tilni “Zamonaviylashtirishga oid fikrlarni Islombek G'asparali qo'llab-quvatladi.

Jadidlar o'z siyosiy dasturini taniqli qirim –tatar siyosiy arbobi Ismoilbek Gaspirinskiydan oldilar. U yuqori aslzoda oilasidan chiqqan Qrimdagi musulmon diniy maktabida diniy ta'lim, Moskva katedlar korpusida xarbiy ta'lim. Turkiya,Fransiya bo'ylab ko'p sayoxat qilgan,Fransiyada ikki yil yashagan edi. O'sha vaqtda Krim yarim orolida yashagan aholining 25 % tashkil etgan qrim tatarlardan chiqqan bo'lib, turk tilini saqlanib qolishi bu tatarlar uchun millat sifatida omon qolishlikning birdan-bir vositasi edi. U islomni yangilash, ilohiyot va turk tilini saqlab qolish yo'li deb biladi. U taraqqiyotga maorifning zamonaviy tizimi orqaligina erishish mumkin deb hisoblardi. Uning “Tarjimon” gazetasi Turkiston aholisi o'rtasida katta mavqega ega bo'lgan.

Jadidlar maorifning diniy tizimini ham zamonaviylashtirishga urinib ko'rishdi. (Jamoliddin Afg'oniy va Muxammad Abdu) XX asr oxirida Turkiyada ularning yangi usuldagi dastlabki maktablari paydo bo'ldi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra , o'lkada 100 yaqin shu xil maktab, ularda 8-10 ming bola tahsil olgan. Dastlab bunday maktablarda tatar, turk, fors va ozarbayjon yozgan darsliklar bilan bir qatorda turkistonlik mua'liflar yozgan darsliklardan foydalanilgan .

Toshkentdagi madrasalarning birida Munnavar Qori dars bergan va yangi dasturni ishlab chiqqan. Uning qo'lida bo'lajak shoir va romanchi Oybek tahsil olgan. Quydagi fanlar o'qitilgan: 1) diniy ta'lim, 2) muqaddas an'analar, 3) islom ta'limoti tarixi,4) arab grammatikasi , 5) meros huquqi, 6) arifmetika, 7) butun jaxon jo'g'rofiyasi, 8) islom tarixi, 9) muqaddas tarixi,10) arabiy va forsiy imlo.

Yangi usuldagi maktablari kam bo'lsada, lekin tez ko'payib borayotganligi hokimiyatni xavotirga soladi, ayniqsa, bundan ruxoniylar cho'chir edi.

Ilk darsliklardan Munavvar Qori “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Xavoyiji diniya”, Bexbudiyning “Kitobatul atfol”, “Jug'rofiya”, Avloniyning “Adabiyoti”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Turkiy guliston”, “Maktab guliston” kabi darsliklari yaratildi.

“Turkiston musulmonlari orasida madaniy- ma'rifiy uyushma, jamiyatlar paydo bo'ldi. Milliy kadrlar tayyorlash masalasi yaxshi yo'lga qo'yildi. Turkiston va Buxoro yoshlari Turkiya, Misr , Olmoniya kabi davlatlarga va ichki Rossiyaning Moskva, Peterburg, Saratov, Qozon, Ufa, Orenburg kabi shaharlariga

o'qishga yuborildi.

Diniy mutassiblikka qarshi kurashishda jadidlik harakatining taniqli mafkurachisi Abdurauf Fitrat (1886-1938) katta hissa qo'shdi. Jumladan, u o'zining "Munozara" nomli mashxur asarida Buxoro ullomalarining nodonligi va poraxo'rligini ayyovsiz ochib tashladi.

Jadidlar 1911-1913 yillarda teatr san'ati sahnasida katta ishlarni amalga oshirdi, bu esa qishloq aholisi dunyoqarashini shakllantirishda katta o'rin tutdi. Bu borada bevosita raqiblarni yo'qligidan jadidlar bu san'atdan o'z maqsadlarida bimalol foydalandilar.

Jadidlar teatrining 6 yillik faoliyati mobaynida kamida 21 pyesa yaratildi. Shulardan, Maxmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" pyesasi islom dinining Turkiyadagi inqirozini ko'rsatadi. Boshqa mashhur pyesalar orasidan Nusratullo Qudratuloning "Juvonmarg" pyesasida o'zi xoxlamagan odamga majburan yerga berilgan qizning fojiali qismatini ko'rsatish orqali xotin – qizlarning xuquqsizligi muammosini ko'taradi.

"Zaxarli hayot" va "Baxtsiz kuyov" pyesalarida Xamza bilan Qodiriy xam majburiy nikox va ko'p xotinlik xodisalarini qoralaydi.

Teatr san'atidagi isloxotlar haqida jadid matbuoti xabar berib turardi, Bexbudiynashr etgan "Samarqand", "Oyna", "Sadoiy Turkiston" ro'znomalari shular jumlasiga kiradi.

Jadid matbuotining asosiy vazifasi dinni "tozalash", maorifni tubdan qayta ko'rish va ijtimoiy taraqqiyotni targ'ib etishdan iborat bo'lgan.

Turkistondagi mustamlakachi ma'murlar, amirlar, xonlar va din peshvolarning jadid matbuotiga qarshi olib borgan kurashi jadidlarning madaniy isloxatdan siyosiy qarshilik ko'rsatishga o'tishga olib keldi. Buning natijasi Turkiston jadidlarning siyosiy tashkilotlari paydo bo'ldi ulardan "Ittifoqi muslimin", "Yosh buxoroliklar", "Yosh xivaliklar", "Turk adam markaziyati", "Itthod va taraqqiy", "SHo'royi Islomia", "Ulamo", "Milliy istiqlol", "Turkiston milliy birligi" va h.z. Ularning xar bittasi o'z siyosiy, iqtisodiy, madaniy programmalarini tuzgan.

Milliy mustaqillikning qo'lga olishda jadidlar uch yo'lni ko'rsatadi:

1. Rossiya tobeligidan zo'rlik bilan qutilishi, kuch bilan istiqlol olish (Dukchi Eshon qo'zg'oloni, 1916 yil voqealar, "Bosmachilik").
2. Murosa yo'li. Ruslar yordamida ma'rifatga erishish. Ma'rifat masalasida haq-xuquq olish, milliy xususiyatlarni tiklash. (Gaspirali Behbudiyn).
3. Hamkorlik yo'li. Chor ma'murlari, so'ngra esa sho'ro hukumati bilan birga ularning programmalarida qatnashish va imkon bo'lishi bilan mustaqillikni qo'lga olish. Buning uchun ma'lum tayyorgarlik ko'rib borish (Munavvarqori, Hamza, Avloniy).

Jadidlar sho'rolar davrida "reaksionerlar", pantyurkistlar, panislomistlar deb ayiblashdi, bu esa jadidlarning O'rta Osiyo tarixidagi o'rnini to'la va to'g'ri baho bermaslikning, tarixiy xaqiqatni bo'g'ib ko'rsatish deb bilamiz. Chunki ular orasidan yetuk olimlar, progresiv ziyolilar yetishib chiqqan.

Ularning taqdiri fojiali bo'lib chiqdi, ayrimlar (M.Behbudiyn) Buxoro amiri tomonidan qatl qilingan, ba'zilari joxil musulmonlar tomonidan o'ldirildi (Hamza), ko'plari 20-30 yillarda chakuvlar va imzosiz xatlar bo'yicha aksiinqilobiy, sovetlarga qarshi kurashgan deb asossiz ayiblangan (Fitrat, Cho'lpon).

Xulosa sifatida shuni taqidlash lozim, jadidlar o'z faoliyatida ikkita xatoga yo'l qo'yishdi.

1 Xalq ommasiga tayanmadi.

2 yuvropa madaniyatini o'rganishga qiziqqan jadidlar o'z milliy madaniyatlarini jahon madaniyatiga qo'shgan hissani baxolay olishmadi. Masalan: Munavvar Qori 1906 yil shunday yozgan edi: "Agar biz talabaning qo'lga Fuzuliy asarlari o'rniga o'qish kitobini, Bedil o'rniga arifmetikani, Xofiz o'rniga-amaliy bilimlarni bersak, bu ish ko'p foydali bo'lar va talaba haqiqiy musulmon bo'lib yetishardi".

3 savol. Turkiston xalqining feodal va mustamlakachilik zulmiga qarshi eng yirik chiqishi 1916 yildagi iyul qo'zg'oloni bo'ldi.

1915 yil oxiri 1916 yil boshlarida qimmatchilik tufayli ko'plab shaharlarda g'alayonlar yuz berib turdi. Buning ustiga o'sha vaqtlarda o'lkada Rossiya ko'p miqdorda paxta, meva-cheva va boshqalar olib ketishi yanada ko'paydi. Natijada ocharchilik boshlandi, hayot chidab bo'lmaydigan darajaga yetdi. Shunday

vaziyat 1916 yil 25 iyunda podsho Nikolay II imzosi bilan “Imperiyada rus bo‘lmagan erkak aholini harakatdagi qo‘shin mudofaa inshootlari va harbiy aloqa yo‘llarini qurish uchun olib boriladigan tadbirlarga, shuningdek, davlat mudofasi uchun zarur bo‘lgan har qanday ishlarga jalb qilish” haqida farmon e‘lon qilindi. Farmonga binoan Turkiston o‘lkasidagi 19 yoshdan 31 yoshgacha bo‘lgan 200 ming kishini mardikorlikka Rossiyaga jo‘natish kerak edi. Bu xabar axolini g‘azabga keltirdi. Oqibatda, bu noroziliklar yirik qo‘zg‘olonlarga aylanib ketdi. Qo‘zg‘olon dastavval 1916 yil Xo‘jandda boshlandi. 13 iyulda qo‘zg‘olon Jizzax shahrida amalga oshirildi va so‘ngra butun Turkistonga yoyildi. Jizzax ishi bo‘yicha 1000ga yaqin kishi hibsga olindi, 151 kishi sud qilindi, 84 kishi osib o‘ldirishga hukm qilindi. 1916 yili xalq qo‘zg‘oloni mustamlakachilarga qarshi yirik ozodlik xarakatlaridan biri edi. Dehqonlar, hunarmandlar qo‘zg‘oloni asosiy xarakatlantiruvchi kuchi edi. Garchi qo‘zg‘olon dehqonlar urishi tusini olgan bo‘lsa-da, unda shahar mexnatkashlari-mahalliy ishchilar, yarim prolitarlar, chorakorlar, shuningdek, demokratik ziyolilar, jadidlar ham ishtirok etgan. Qo‘zg‘olon jarayonida xalq orasida ommaning haqiqiy rahbarlari yetishib chiqdi.

11 mavzu : Turkistonda mustabid Sovet xokimiyatining o‘rnatilishi va unga qarshi qurolli xarakati.

Reja

1. 1917 yil fevral inqilobining Turkistonga ta’siri.
2. Oktyabr to‘ntarishi. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o‘rnatilishi, uning shovinistik siyosati.
3. Turkistonda “Turkiston muxtoriyati” ning tuzilishi va uning tor-mor keltirilishi.

Adabiyotlar

1. I.A. Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida : xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., “O‘zbekiston” 1997.
2. I.A. Karimov Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q T., “O‘zbekiston” 1998.
3. S.A‘zamxo‘jayev Turkiston muxtoriyati (mustaqilligimiz tarixidan sahifalar) T., “fan” 1996.
4. Mustafo-CHO‘qay o‘g‘li. Istiqlol jallodlari (1917 yil xotiralari) T., Nashriyot –matbaa birlashmasi. 1992.
5. Inqilob jangchilari. T., “O‘zbekiston” 1990.

Ma’ruza maqsadi.

Oktyabr qurolli to‘ntarishidan so‘ng bolsheviklar tomonidan olib borilgan siyosat chekka o‘lkalardagi ayniqsa, Turkistonga o‘xshash sobiq koloniyalar xalqlarining ommaviy noroziligiga sabab bo‘ldi. Chunki bolsheviklar aytgan gaplar, qilayotgan ishlariga mos emas ekanligi ma’lum bo‘lib qoldi. Ayniqsa “Turkiston muxtoriyatining” tugatilishi, mahalliy mulkdorlarning mol-mulkdorlarining musodara qilinishi o‘lkada sovet xukumatiga nisbatan norozilikni kuchaytirib yubordi. Natijada 1918 yilning baxoridan o‘lkada sovetlarga qarshi ozodlik va erk uchun kurash boshlandi. Bu xarakat uzoq yillar mobaynida tarixda “bosmachilar” xarakati deb noto‘g‘ri talqin qilinib kelindi. Bu tarixiy xulosa amalda zo‘rma-zo‘rakilik bilan

fanga kiritilib uni xammaga ishontirishga urinib ko`rildi.

9 mavzudagi bilimlarning egallanganlik darajasini aniqlash uchun tayanch tushunchalari : “SHo`roi islomiya”; “Shuroi Ulamo”; “Turk odami markaziyati firqasi”; oktyabr to`ntarishi”; Muvaqqat hukumat; Qurultoy; ittifoq musulimiy”.

1 savol . 1917 yil 27 fevralda Petrograddagi burjua-demokratik inqilobi g`alabasi Turkiston o`lkasiga ham o`z ta`sirini o`tkazdi. Natijada Turkistonda ham ishchi va soldat deputatlari Sovetlari va har xil toifalar vakillridan tuzilgan ijroiya komitetlari tashkil etila boshlandi. Toshkentning hamma daha vakillari to`planib “SHo`roi islomiya” tashkilotini tuzdilar .

1915 yilning mart oyida o`lka muxtoriyati masalasi “Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida asosiy masala bo`lib qoldi. Turkistonga muxtoriyat maqomini berish g`oyasi nafaqat demokratik ziyolilar o`rtasida, hatto oddiy fuqorolar orasida ham keng tarqaldi. 31mart kuni rus podshosini o`lkadagi tayanchi-Turkiston general gubernatori tark etdi.

1917 7 aprelda Muvaqqat hukumat qarori bilan kadet N.N. Shchepkin raisligida Turkiston komiteti tashkil qilindi.

9 kishidan iborat bu komitet a`zolariing to`rtasi: Buxeyxonov, Tinishboyev, Maqsudov va Davletshin mahalliy axoli vakillaridan edi .

Turkiston mahalliy axolisining oshib borayotgan ijtimoiy-siyosiy faolligi sharoitida Toshkentda 1917 yil 16 aprelda “SHo`roi Islomiya”ning Toshkent tashkiloti tashabbusi bilan chaqirilgan Butunturkiston musulmonlarning 1 qurultoyi ish boshladi.

Qurultoy so`nggi majlisida markaziy rahbar organ-Turkiston o`lka musulmon SHo`rosi tashkil etilishi haqida qaror qabul qildi . Shunday qilib , Turkistonning birligi va yaxlitligi tomon muhim qadam qo`yildi . Afsuski ,birlashish jarayonlari har doim ham bir tekis rivojlanmadi. Munavvar Qori boshchiligidagi “SHo`roi Islomiya” dan 1917 yil iyun oyida asosiy diniy ulomolardan tashkil topgan “SHo`roi Ulamo” ajralib chiqadi . Toshkentdagi ishchi va soldat deputatlari Soveti musulmonlar o`rtasidagi ushbu bo`linishdan ustalik bilan foydalanishga urindi. Sentyabr voqealari natijasida Toshkent Soveti hokimiyatini qo`lga olishga harakat qildi .

1917 yil 10 sentyabrda Toshkentda Butunturkiston Musulmonlarining II qurultoyi ochildi. Ushbu qurultoy hokimiyatni soldat, ishchi va dehqon deputatlari Sovetlariga berishga qarshi chiqdi. Sentyabr voqealari jamiyatdagi siyosiy qarama-qarshiliklarni keskinlashtirib, o`lkadagi ishchilar harakati bilan milliy harakatning keyingi yo`llarini bir-birdan ajratib yubordi.

Toshkentda 1917 yil 17-20 sentyabrda turkistonlik va qozoq musulmonlarining qurultoyida “SHo`roi Ulamo”, “Turon” va boshqalarni birlashtirish yo`li bilan butun Turkiston va Qozog`iston uchun umumiy bo`lgan “Ittifoqi muslimin” degan partiya tuzishga qaror qilindi .

“Ulamochilar” qurultoydagi masala Turkiston o`lkasining bo`lg`usi siyosiy boshqaruvi to`g`risida bo`lib , unda demokratik Rossiya tarkibida hududiy federatsiya-“Turkiston Federativ Respublikasi”ni tuzish g`oyasi olg`a surildi. Fevral inqilobining ta`siri bilan Turkistonda kasaba uyushmalari ommaviy ravishda tashkil etildi, mahalliy halqlar tillarida gazetalari chiqq boshladi.

2 savol . 1917 yil sentyabr oyida bolsheviklashgan Toshkent soveti soldatlarining va asli rossiyalik siyosiy ishchilar o`z tomoniga to`rta olingan edi . Toshkentdagi oktyabr to`ntarishi qatnashchilari 1 noyabrdan Bosh komissar general Korovichenko va Muvaqqat hukumatining turkiston komiteteni qamoqa oldilar va shu kuni Turkistonda Sovet hokimiyatining o`rnatilganligi e`lon qilindi. Qurollangan rusiyzabon ishchilar ,asosan temir yo`lchilar , Toshkent garnizonining soldatlari bilan birgalikda bir guruh mahalliy binokor ishchilarining hayrihoholigi bilan davlat to`ntarishini o`tkazdilar .

Turkiston bolsheviklar o`lkadagi butun hokimiyatini o`z qo`llariga olish uchun shavqatsiz kurash olib bordi . 1917yil 15-22 noyabrda Toshkent shahri bo`lib o`tgan ishchi, soldat va dehqon deputatlarning III o`lka s`yezdida hokimiyat masalasi hal qilindi. Bunda 15 kishidan iborat Turkiston halq komissarlari Soveti tuzildi

(8 so'l eser va 7 bolshevik). Hukumatga mahalliy aholidan bironta ham vakil kiritilmadi. Sherali, Lapin boshliq "Ulamochi" lar, menshevik va so'l eserlarning o'lka soveti tarkibida musulmon vakillarini ham kiritish borasidagi takliflari inobatga olinmadi. Bu esa bolsheviklar tarafidan boshqa masalada yo'l qo'ygan katta siyosiy xatosi bo'lib, hukumatning bunday ziddiyati tarkibi o'lkadayuvropalik aholi hukumronligini mustahkamladi.

Rossiya Xalq Komissarlari Soveti 2 noyabrda "Rossiya xalqlari huquqlarining deklaratsiyasi" va 20 noyabrda "Rossiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga" murojanomani e'lon qildi. Dabdabali deklaratsiyada xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash xuquqi rasmiy ravishda tan olindi : hattoki ajralib chiqish va mustaqil davlat tuzish huquqi , hamma va har qanday milliy , diniy imtiyozlar va cheklashlar bekor qilindi .

Ushbu deklaratsiyalar qanchalik balandparvoz va'dalar bermasin, amalda quruq tashviqot bo'lib chiqdi. Ko'p o'tmay , Turkiston XKS "SHo'roi islomiya", "SHo'roi Ulamo" tashkilotlarini tarqatib yubordi. Keyinchalik bu tashkilotlarning rahbarlari "Turkiston muhtoriyatiga" kirdi, milliy istiqlool harakatida qatnashdi.

3 savol. 1917 yil 26-28 noyabrda Qo'qon shaxrida Turkiston o'lka musulmonlarning favqulodda IV qurultoyi bo'lib o'tdi . Qurultoyda demokratik musulmon ziyolilar talabi bilan Turkiston aholisining yuvropali qismi vakillari ham teng huquqli bo'lib ishtirok etdilar. Turkistonni boshqaruv tuzumi to'g'risidagi masala uch kun davom etgan qurultoyning diqqat markazida turdi.

Qurultoyning barcha viloyatlaridan vakil bo'lib kelgan qariyb 200ga yaqin qatnashchilar muhtoriyat va mustaqillik e'lon qilish g'oyasini qo'llab quvatladilar .

Qurultoyda qabul qilingan qarorda: «Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da'vat etgan xalqlarning o'z taqdirini o'zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib Turkistonni Rossiya tarkibida xududdiy muxtor deb e'lon qildi»

28 noyabrda tarkib topayotgan makur davlatning nomi aniqlanib «Turkiston muxtoriyati» deb ataladigan bo'ldi. Butunrossiya Ta'sis majlis chaqirulgunga qadar hokimiyat Turkiston Muvaqqat Kenggashi va Turkiston xalq (millati) majlisi qo'lida bo'lishi kerak edi . Turkiston Muvaqqat Kengashi a'zolaridan tuzilgan muvaqqat xukumat hay'ati tarkibiga 8 kishi saylandi ,ulardan 4 o'rin rusiyzabon aholi vakillarga ajratildi .

Qurultoy jarayonida turkiston Millat majilisi 54 kishidan iborat qilib aylandi, shundan 2/3 qismi, ya'ni 36 nafari aholidan edi .

Turkiston muxtoriyati hukumati qisqa fursat ichida xalq o'rtasida katta e'tibor qozondi. Fitrat muxtoriyat e'lon qilingan kunni «milliy laylaturoqodirimiz» deb atadi. Turkiston muxtoriyatini barcha demokratik kuchlar qizg'in quvvatladi.

Afsuski, o'lka bolsheviklari Turkiston Sovetlarining IV s'yezdi Turkiston muhtoriyat hukumati va uning a'zolarini qonundan tashqari deb hisobladi va hukumat a'zolarini qamoqqa olish haqida qaror qildi . Turkiston XQS muhtoriyat hukumatini tugatish uchun harbiy harakatlarni boshladi . Turkiston bolsheviklari buning uchun qizil askarlardan tashqari armanlarning «Dashnaqtuyun» partiyasi a'zolaridan keng foydalandi .

1918 yil 19 fevralida (eski hisob bilan 6 fevral) Qo'qon shaxrida faoliyat ko'rsatayotgan Turkiston muxtoriyati hukumati bolsheviklarining qonli hujumlari natijasida ag'darib tashlandi. Hukumat ag'darilgach Qo'qon va uning atroflaridan tinch aholini talash va o'ldirish battar avjiga chiqdi. Faqat Qo'qonning o'zida uch kun davomida 10000 kishi o'ldirildi .

«Ulug' Turkiston» gazetasi chuqur qayg'u bilan xabar berganidek, 20(7) fevral Qo'qand tarixining eng daxshatli kuni bo'ldi . eski shaxardagi hamma magazinlar savdo firmalari , banklar va ozmi ko'pmi yaxshiroq ko'ringan xususiy xonadondarning hammasi talangan . Gazetadagi ushbu maqola «Qo'qand hozir o'liklar shaxri» deb tugaydi. Turkiston muxtoriyatini ag'darilishi, O'rta Osiyoni sovetlashtirishga keng yo'l ochib berdi.

12 MAVZU: MUSTABID SOVET TUZUMINING O'ZBEKISTONDAGI QATAG'ONLIK SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI.

REJA:

1. Sovet tuzumining milliy rahbar – xodimlarga nisbatan qatag'onlik siyosati (20 – 30 y.)
2. 20 – 50 yillarda ziyolilarning ta'qib qilinishi.
3. Qatag'onlikning yangi to'liqlari.

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarag'g'iyot kafolatlari. T. "O'zbekiston" 1997 y.
2. I.A.Karimov O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. "O'zbekiston" 1996
3. I.A.Karimov. Shahidlar xotirasi – mangu barhayot. ("Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuining ochilishiga bag'ishlangan marosimda so'zlagan nutqi. 13 may 2000 yil. "Toshkent haqiqati").
4. SH.Usmonov. Qatag'on qurbonlari. T., "O'zbekiston" 1992 y.

Ma'ruza maqsadi.

Sobiq ittifoqda olib borilgan mafkurachilik qabul qilingan qonunlarga qat'iy amal qilishni taqazo etmas edi. ayniqsa, milliy masalada, milliy kadrlar tayyorlash masalasida jiddiy kamchiliklar mavujud edi, bu borada quyidagi jarayonlarni yoritishni maqsad qilib qo'yamiz.

Mahalliy xalq vakillarining "xalq dushmani", "sotsializm dushmani" degan tuhmatlar bilan qatag'on qilinishi fikrimizning dalilidir. Bu jarayonning ilk davri istiqlolchilar harakatini tugatish bilan tamom bo'lgan bo'lsa, 30 – yillarda Respublika, partiya va xukumat vakillarning ommaviy qatag'onlik qilinishi, 50 yillarning oxirlarida adabiyot va madaniyat xodimlarining bunday siyosat qurboni bo'lganligin, 80 – yillarda yana "Paxta ishi", "O'zbeklar ishi" degan sohta gaplar bilan xalqimizning badnom qilinganligi qonunlarning buzulganligidir.

12 mavzudagi bilimlarining egallanganlik darajasini aniqlash uchun tayanch tushunchalari: "Xalq dushmani"; "Sotsializm dushmani"; ma'muriy buyruqbozlik; "Byurokratik tuzum"; T.Risqulov, M.Abdurashidxonov, K.Otabayev, N.To'raqulov, I.xidiraliyev; "Musbyurs"; "18 lar guruhi"; "Inog'omovchilar"; "Qosimovichlar"; I.Ikromov, F.Xo'jayev, Segizboyev, A.Fitrat, A.CHo'lpon, A.Qodiriy, U.Nosir, Oybek, M.Shayxzoda, shuhrat, Shukurullo.

1 savol. 1918 yil aprel oyida RSFSR tarkibidagi Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzildi. Bolsheviklarning majburdan yon berishi bilan hokimiyat organlarida mahalliy aholi vakillari ishtirok qila boshladi. 1919 yil sentyabr oyida mahalliy aholining Sovetlarga jalb qilinishiga xalaqit beruvchi sovet hokimiyatining o'lkadagi tayanchi faqat rus ishchilari deb hisoblaydigan, mahalliy aholiga ishonchsizlik bilan qarovchi Turkistonning bir qator rahbarlarga nisbatan choralar ko'rildi. Shu o'rinda qayd qilish lozimki, o'lkada mustamlakachilik siyosatini olib borishda Markaz tashkil Turkkomissiya va RKP (b) Mk Turkbyuro, keyinroq uning o'rniga VKP (b) MK ning O'rta Osiyo byurosi kabi tashkilotlar katta xizmat ko'rsatdilar.

Turkistondagi rahbar xodimlar, xususan Turor risqulov (Turk MIK raisi) boshliq mahalliy kommunistlar turkiy xalqlar, Turkiston mustaqilligi va o'z taqdirini o'zi belgilashdek demokratik tamoyillar uchun kurasha

boshladi. 1920 yilda TKP Musulmon byurosining III konferensiyasi va TKP ning V o'lkasidagi konferensiyasida T. Risqulovning turk xalqlari kommunistik partiyasi tuzish va Turkiston respublikasini Turk respublikasi deb atash haqidagi g'oyalari ko'rib chiqildi va ma'qullanadi. Biroq bu g'oyalarning asl maqsadi Turkiston mustaqilligi bo'lganligi bois, Markaz T. Risqulov va uning tarafdorlarining fikrlariga qarshi chiqdi. Markazning Turkistondagi hukmronligining ijrochisi Turkkommissiya bu harakatni rad etdi va millat fidoiylarini quvg'inga uchratdi.

A. Ikromov va T. Risqulov o'lkada ulug' davlatchilik shovinizm, burjua millatchiligi yuzaga kelayotganligi to'g'risidagi masalalarni ko'tarib chiqdilar. A. Ikromov partiya ichida toqat qilib bo'lmas holatlar, qo'rqinch hissi mavjudligini ochiq – oydin bayon qildi. U Turkistonda ko'p sohalarda mustamlakachilik qoidalari saqlanib qolganligini ko'rsatib o'tdi. Ushbu vatanparvarlarning chiqishlari, keyinchilik jismoniy mahv etilishda ayblov uchun asos bo'ldi.

Turkistonning sotsial – iqtisodiy rivojlanishi borasida bildirilgan muqobil fikr mualliflari millatchilikda ayblandilar. Ayni shu damlarda O'zbekistonning ilg'or, xurfikrli farzandlari “inog'omovchilik”, “18 lar guruhi”, “qosimovchilik” kabi guruhbozlikda va davlatga qarshi, millatchilikda ayblanib qatag'on qilindilar. 20 yillarning oxiriga kelib respublikada mustabid tuzum o'zini to'liq namoyon etdi. Siyosiy qatag'onliklar avj oldi.

1929 yilda mashhur jadidlar, ma'rifatparvar Munavvar qori Abdurashidxonov boshliq “milliy istiqlol” tashkiloti a'zolarini qamoqqa olish boshlandi.

Bu tashkilotning qamoqqa olingan 85 a'zosidan 15 tasi otildi, qolganlari ahloq tuzatish lagerlariga jo'natildi. “Milliy ittixod” tashkilotining a'zolari ham qatag'on qilindilar. Mashhur jamoat arboblari Mannon Abdullayev (ramzi), Nosir saidov, Maxmud Mirxodiyev, Xosem Vasilov, Sobir Qodirov va boshqalar o'lim jazosiga hukm qilindilar, so'ngra uzoq muddatli qamoq jazosiga almashtirildi.

1930 yilda Davlat banki apparatida o'tkazilgan tozalash vaqtida qator rahbar xodimlar qamoqqa olindilar. O'zbekiston SSSR Sudi raisi Sa'dulla Qosimovning “qosimovchilik” deb nomlangan ishini ko'rib chiqish boshlandi. Bu jarayonlarning mohiyati ko'zga ko'ringan siyosiy arboblarni tugatishga qaratilgan.

30 yillarning boshida dindor va e'tiqodli kishilarga nisbatan zo'ravonlik siyosati qatag'onlikning chso'qqisi bo'ldi. Juda katta miqdorda islom, xristian, budda diniga ta'luqli asarlar yo'q qilindi. Bu davrda O'zbekistondagi dindorlar, ulamolarning asosiy qismi qamoq lagerlariga jo'natildi. O'tmishda nafaqat diniy rusumlar ado etadigan, balki madaniyat, fan, tarbiya, san'at markazi, xalqning ko'p asrlik merosini saqlovchisi bo'lgan machit va madrasalarni deyarli yopib qo'yildi, ayrimlari buzib tashlandi.

Butun respublikaning hayoti Markazning qattiq nazorati ostida o'tdi. Partiya direktivlaridan har qanday chekinish kontrrevolyutsion, siyosiy muxolifat deb baholandi.

1937 yildan “Antisovet”, “Xalq dushmanlari” ni qidirib topish, jazolash keng tus oldi. Siyosiy boshqaruv organlari (OGPU) faoliyati asosan ana shunday shaxslarni masalan, F.Xo'jayev, A. Ikromov, D. Manjara, A. Karimov kabi partiya va davlat rahbarlari kasbga olindi. Davlat ularni o'lim jazosiga hukm qildi.

O'zbekiston Ichki Ishlar Xalq Komissarligining “uchliklar” olib borgan faoliyati oqibatida 1939 – 1953 yillar mobaynida 61799 kishi qamoqqa olingan, ulardan 56112 nafari turli yillarga qamoq jazosiga, qolganlari otuvga hukm qilingan.

13-Mavzu: SOVET XOKIMIYATI DAVRIDA O'ZBEKISTONNING MA'NAVY-MADANIY QARAMLIGI VA UNING OQIBATLARI.

REJA:

1. O'zbekiston iqtisodi va uning Markazga qaramligi.
2. «Shaklan milliy mazmunan sotsialistik madaniyatning oqibatlari.

Adabiyotlar.

1. I.A.Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li. Asarlar 1 jild. O'zbekiston, 1996.
2. I.A.Karimov. O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li . T.O'zbekiston,1993.
3. I.A.Karimov Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q T,O'zbekiston. 1998.
4. I.A,Karimov. Barkamol avlod orzusi. T.O'zbekiston1999.
5. O'zbekiston Respublikasi. ensiklopediya. T. o'zbekiston.1997.
6. Axmedov E, Saydaminova Z. O'zbekiston Respublikasi. Qisqacha ma'lumotnoma. T. O'zbekiston.1995.
7. To'xliyev N. O'zbekiston iqtisodiyoti savollar va javoblar. T.O'zbekiston ,1997.
8. O'zbekiston tarixi .(1917-1993) T. O'zbekiston. 1994.

Ma'ruza maqsadi :

20-30 yillarda Respublika hayoti Markazning qattiq nazorati ostida o'tar edi. Partiyaning yo'l-yo'riqlaridan bir oz bo'lsa -da chetga chiqish siyosiy, aksil inqilobiy harakat deb baholanar edi.

Ijtimoiy- siyosiy ,iqtisodiy va madaniy hayotni yangidan qurushning muqobil yo'llarini yoqlab chiqqin respublika partiya va davlat arboblari partiyaning bosh yo'liga suiqasd qilishda ayiblandi. Natijada totalitar targ'ibot qaror topdi. Bizning maqsadimiz ma'ruza davomida shularni, ya'ni respublikaning markazga xar tomonlama qaramligini va uning oqibatlarini ko'rsatishdir.

13 mavzudagi bilimlarning egallanganlik darajasini aniqlash uchun tayanch tushunchalar :

Respublikaning markaz sanoati uchun hom ashyo bazasiga aylantirilish; «Quloq»larni sinf sifatida tugatishi; paxta yakxaxokimligi ; «Xujum» siyosati ; «Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat»; savdosizlikni tugatish; iqtisodiy tanglik, qo'shib yozishlar ; ma'naviy merosni begonallashtirish.

1 savol: 20-yillarning boshlarida joriy etilgan iqtisodiy siyosat O'zbekistonning ham iqtisodiyotida jonlanishga olib keldi. «Harbiy kommunizm» va o'lkadagi ocharchilik oqibatida millatning ko'plab qirilib ketishining oldi olindi. Lekin 20-yillarning ikkinchi yarmida bu siyosat o'zining mohiyatini yo'qota boshladi va 1929 yili batamom bekor qilindi erkin savdo , xususiy tadbirkorlikka chek qo'yildi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini xarid narxi tushirilishi oziq-ovqat muammosini keltirib chiqardi, dehqonlar qashsholashdi.

O'zbekistonda Sovet hokimiyatini mustahkamlashning zaruriy sharti sifatida industriyalashtirish siyosatini amalga oshirish boshlandi. Sanoati qoloq, malakali ishchi kadrlari, mutaxassisleri deyarli yo'q o'lkada industriyalashtirish g'oyat og'ir kechdi. Shu bahona malakali ishchilar , muxandis- texnik xodimlarini, Rossiyaning markaziy hududlaridan ko'chirib keltirildi.Faqat 1931 yilning o'zida ko'chirib keltirilganlar 15.000 nafarni tashkil qildi. Oqibatda 1926-1939 yillarni O'zbekiston axolisi 37 foizga ko'paygan bo'lsa, yuvropaliklar soni 62 foizga oshdi.

Industriyalashtirishning dastlabki paytida kichik suv elektrostansiyalari, qishloq xo'jaligiga , paxtachilikka qaratilgan, xom-ashyoni qayta ishlash korxonalari qurilib ishga tushirildi. Chirchiq kaskadidagi GESlar, Toshkent tikuvchilik, poyafzal, tamaki, Farg'ona to'qimachilik. Samarqand va Marg'ilondagi ipak fabrikalari shular jumlasidandir. 30-yillarda Toshkent to'qimachilik kombinati, qishloq xo'jalik

mashinasozlik zavodi, Chirchiq ximiya kombinati, va boshqa ko'plab yirik korxonalar ishga tushirildi. Jami 30-yillar oxirida Respublikada 1445 har xil sanoat korxonalari mavjud bo'lib bularda 142 ming ishchi mehnat qilar edi.

Sovetlarning «o'z kuchimiz bilan qisqa muddatda» deb olib borgan industriyalashtirish siyosati O'zbekiston uchun g'oyat og'ir kechdi. Markaz tomonidan Respublikaning yer osti va yer usti qazilma boyliklari, xomashyo manbalari talon-taroj qilinib arzon, deyarli tekin ishchi kuchidan foydalanib o'lkadan maksimum foyda olish harakatida bo'ldi. Bu siyosat ayniqsa millionlagan dehqonlarning hisobidan amalga oshirildi.

1930 yilning boshlaridan yoppasiga jamoalashtirish harakati boshlanib katta yer egalari, o'rta xol dehqonlar va kambag'allarning yerlari jamoa xo'jaliklariga birlashtirildi, ularning qo'llaridagi ot-ulov, mehnat vositalari, chorva mollari ham majburan umumiyashtirildi.

Davlat jamoa xo'jaliklari orqali rejalashtirilgan yo'l bilan dehqonlar mehnatining deyarli barcha natijasini yig'ib oladigan bo'ldi, vaqti kelganda zo'rlik bilan kuch ishlatib soliqlarni yig'ib dehqonlar xo'jaligini xonavayron qildilar. 30-yillar boshlarida yuz bergan ocharchilik, uning oqibatida milliondan ortiq kishilarning qirilib ketishi, axolining xaligacha qishloq xo'jalik mahsulotlariga yalchimay kelishi o'sha davr ko'r-ko'rona siyosatining natijasidir.

Ommaviy jamoalashtirishga suyanib badavlat xo'jaliklar, ayrim o'rta xol dehqonlardan 5,5 mingdan ortiq dehqon oilalari bilan uzoq o'lkalarga surgun qilindi. Bu bilan qishloqlarning bosh ko'targan, esini tanigan vaziyatni tushinadigan kishilarni yo'q qilib talonchilik siyosatini osonlashtirdi.

Jamoalashtirish siyosati natijasida qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi pasayib, moddiy manfaatdorlik yo'qoldi, qishloq aholisi qashshoqlashdi, dehqon ekspluatatsiya qilishning birdan-bir takomillashgan uslubi kashf etildi.

Buning evaziga, O'zbekistonda paxta yakkahokimligini kuchaytirish yo'li bilan sobiq SSSRda paxta mustaqilligiga erishdi. 1941 yili O'zbekiston 1,646 ming tonna paxta yetishtirish, paxta hosildorligi jihatdan jahonda 1 o'ringa chiqdi.

Ikkinchi jahon urushi yillari izdan chiqqan O'zbekistonning iqtisodiyoti urushdan keyingi 1946-1950 yillari g'oyat keskinlashgan xalqlaro vaziyatda qayta tiklanadi.

Mamlakatning ichki resurslari, tabiiy boyliklari va arzon ishchi kuchini g'oyat kuchli ekspluatatsiya qilish evaziga, xorijiy sarmoyalardan bosh tortgan holda olib borilgan iqtisodiyotni tiklash xalq boshiga og'ir kunlarni keltirdi. O'zbekiston xalq xo'jaligini tiklash ishlari sovet hukumatining zo'r berib qurollanish siyosatiga bo'ysundirildi. Ayni bir vaqtda o'zbek xalqi urushda vayron bo'lgan o'lkalarni tiklashga ham o'z xissasini qo'shdi. Urush davrining shart-sharoitlari saqlangan holda xalqning mardona va fidokorona mehnati bilan besh yil ichida sanoat mahsulotini ishlab chiqarish urushdan avvalgi darajaga yetdi.

14- Mavzu : O`ZBEKISTONDA DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO`LGA KIRITILISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI.

REJA:

1. O`zbekiston - buyuk o`tmish va uzoq tarixga ega bo`lgan davlat. O`zbekiston xalqining milliy istiqlol uchun kurash tarixidan.
2. O`zbekistonning davlat mustaqilligini qo`lga kiritish tomon yo`l tutish.
3. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

Adabiyotlar :

1. Karimov I.A. O`zbekistonning o`z istiqlol taraqqiyot yo`li . T. «O`zbekiston»,1992.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q . T. «O`zbekiston»,1998.
3. Karimov I.A. Istiqlol yo`li : muammolar va rejalar . Asarlar ,1-jild 1996.
4. Karimov I.A. Xushyorlikka da`vat :T. «O`zbekiston»1999.
5. Karimov I.A. Adolat va diyonat targ`ibotchisi (I.Karimov.Ma`naviy yuksalish yo`lida .T. «O`zbekiston»,1998).
6. Karimov I.A.Ma`naviy yuksalish yo`lida .T.O`zbekiston 1998.
7. Karimov I.A. Buxoroi sharifning ulug`vorligi. (I.Karimov. Ma`naviy yuksalish yo`lida . T. «O`zbekiston»,1998).
8. Karimov I.A. Go`zal diyorimiz gavhari .(I.Karimov, Ma`naviy yuksalish yo`lida. T. «O`zbekiston»,1998).
9. Karimov I.A. Amir Temur davri insoniyat tarixida yorqin iz qoldirdi. .(I.Karimov, Ma`naviy yuksalish yo`lida. T. «O`zbekiston»,1998).
10. Karimov I.A. Amir Temur - faxrimiz,g`ururimiz. .(I.Karimov, Ma`naviy yuksalish yo`lida. T. «O`zbekiston»,1998).
11. Karimov I.A. Buyuk allomaga yuksak ehtirom. .(I.Karimov, Ma`naviy yuksalish yo`lida. T. «O`zbekiston»,1998).
12. Karimov I.A. Al-Farg`oniy dahosiga ta`zim . .(I.Karimov, Ma`naviy yuksalish yo`lida. T. «O`zbekiston»,1998).
13. Karimov I.A. O`zbekistonda demokratik o`zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo`nalishlari. T. «O`zbekiston» 2003.
14. Usmonov Q. , Oblomurodov N. O`zbekiston tarixi. 1-qism. Oliy o`quv yurtlari uchun o`quv qo`llanma . T. «Sharq» 2000.
15. Azamat.Ziyo O`zbek davlatchiligi tarixi .T. «Sharq»,2000.
16. Mo`minov I. Amir Temurning O`rta Osiyo tarixida tutgan o`rni va roli , T. «Fan», 1993 .
17. Ziyoyev H. O`zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi T. 2001.
18. O`zbekiston Respublikasi: Mustaqil davlatning bunyod bo`lishi . T. «O`zbekiston», 1992.
19. O`zbekistonning yangi tarixi. Birinchi ,ikkinchi, uchinchi kitoblar .T. «sharq»2000.
20. Qosimov B. Imoilbekov Gasparali. T. 1992 .
21. G`ulomov S. Usmonov Q. Mustaqillik O`zbekistonga nima berdi? T. 2001.
22. G`ulomov S., Usmonov Q. G`aniyev D. Asarlarga teng yillar T,2001.
23. Leonid Levitin. O`zbekiston tarixiy burilishi pallasida. T. «O`zbekiston»,2001.

Ma`ruza maqsadi :

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishganiga qisqa vaqt bo'ldi, lekin bizning xalqimiz uchun tub burilish bo'ldi. Ya'ni o'z-o'zini anglash, milliy iftixor, milliy g'urur tushunchalarini anlab yetish davri bo'ldi.

Tarixiy merosimizga bir nazar tashlaydigan bo'lsak bizning tabarruk zaminimizda insoniyat bir million yillar avval paydo bo'lib, O'rta Osiyo odamzodning ilk ajdodi makonlaridan biri ekanligini tarixiy manbalar guvohlik beradilar. Bizning maqsadimiz O'zbekistonning bu taraqqiyot bosqichidagi rivojlanish darajasini ko'rsatish.

14 mavzudagi bilimlarini egallaganlik darajasini aniqlash uchun tayanch tushunchalar: mustaqillik, sobiq ittifoq, ramzlar, deklaratsiya, konstitutsiya, qadriyatlar, milliy istiqloq.

1 savol : O'zbekiston davlatining mustaqillika erishganiga mana 14 yil bo'ldi. Tarix g'ildiragida aylanayotgan insoniyat uchun tub burilishlar : o'z-o'zini anglash, milliy iftixor, milliy g'urur tushunchalarini anglab yetish davri bo'ldi.

Tarixiy merosimizga bir nazar tashlaydigan bo'lsak bizning tabarruk zaminimizda insoniyat bir million yillar avval paydo bo'lib, O'rta Osiyo odamzodning ilk ajdodi makonlaridan biri ekanligiga tarixiy manbalar guvohlik beradilar.

O'rta Osiyo xududidagi qadimgi ilk ajdodi makonlaridan biri ekanligiga tarixiy manbalar guvohlik beradilar. O'rta Osiyo xududidagi qadimgi ilk davlat uyushmalari haqidagi dastlabki ma'lumotlar «Avesto»da yunon olimlari Gerodot, Gekatey, Ktesiy va boshqalarning asarlarida berilgan. Ana shu manbalarda qayd etilishicha, bu xududdagi eng qadimgi davlat uyushmalari mil.av. IX-XII asrlarda hali o'lkamizga ahmoniyar kelgunga qadar bo'lgan. Qadimgi katta Xorazm, Qadimgi Baqtriya, So'g'diyona kabi davlatlar ilk qadimiy davlatlar hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida tarixiy merosimizni o'rganishga e'tibor juda bir boshqacha ma'no kasb etdi. Xorazmning 2700 yillik tantanalarida Prezidentimiz eng qadimgi qo'lyozmamiz «Avesto» mana shu o'lkada yaratilgani, Xorazmning muqaddas zamin ekanligi haqida gapirganlar. Xalqaro «Oltin meros» jamg'armasi faollari «Avesto» qadamjoylari bo'ylab ekspeditsiya uyushtirdilar. Ma'lumki. IX-X asrlarda Xorazmga kelgan arab sayyoxlari bu o'lkada 12 ming qal'a - qo'rg'on borligini qayd etganlar. Abu Rayxon Beruniy esa 300 qal'a shahar mavjud deb guvohlik beradi. Ekspeditsiya davomida aniqlashicha vohada hozir 50 ta qo'xna qal'a qolgan xalos. Shundan Xiva va Hazorasi qal'alaridagina odamlar yashaydilar. Vohada 100 dan ziyod «Avesto» davri ko'hna qal'alari, qishloq, tog', daryo, ko'llarning toponomik nomlari mavjud. Yenboshqal'a, Tovurqal'a, Oqchaqal'a, Xushbuztepa o'rganilgan. Ekspeditsiya davrida qo'lga kiritilgan ashyoviy dadillar hozirgi kunda Urganchda «Avesto» bog'ida joylashgan «Oltin meros» muzeyini bezab turibdi. bu katta ham idishlar, ko'za, sopol -tosh haykalchalar, tosh va temirdan yasalgan chiroqlar, otashparastlik diniy ramziy belgilari va boshqalar.

O'tgan yilning kuzida jamg'arma faollari O'zRFA Arxeologiya instituti, Ma'mun akademiyasi qoraqalpoq bo'limi, Urganch davlat universiteti olimlar bilan hamkorlikda Hozorasp qal'isida qazilma ishlarini bajardilar. Bunday hamkorlik Hozoraspda yaxshi natijalar berdi, qazilma ishlarida nemis olimasi doktor Nadya Fredi ham kuzatuvchi sifatida ishtirok etdi. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek davlatchiligining asosi bo'lgan Xorazmda Hazorasp shahri katta mavqega ega, davlatning iqtisodiy, madaniy, diniy markazi maqomiga erishgan ekan. Uning yoshini 2700-2800 yil deb belgilashga yetarli asoslar mavjuddir. shu asosda Hazorasp tarixi kitobi, «Hozarasp» rangli almanaxi nashr etildi.

Atoqli olim E.Rtveladze o'zining «O'rta Osiyoning qadimgi tangalari» kitobida eng Ko'xna Xorazm tangasini noma'lum xokimning VI-VII asrlarda chiqarilgan tangasini keltirildi. Ro'yxatda ta'kidlanishicha, eng birinchi Xorazm tangasi eramizning I asriga oid. Qo'ng'irqal'adan topilgan bu kumush tangada xorazmcha yozuv ham bor. Xullas yuqorida keltirilgan ma'lumotlar o'lkamiz eng qadimgi madaniyat o'choqlaridan biri ekanligiga kishini ishontiradi, bu davr to'g'risidagi ma'lumotlar doirasini kengaytiradi.

Qadimgi Turon zamini necha yuz yillar davomida tashqi dushmanlar bilan kurashib kelgan, mustaqillik uchun o'z boshidan nelarni kechirmadi deysiz. Qadimgi yunon tarixchilari Gerodot, Ksenofont, Yustin, Strobon va boshqalar bergan ma'lumotlarga qaraganda ahmoniy podshosi Kir II mil.av.VI asrda Sharqiy Eron viloyatlari, O'rta Osiyoning Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyona va sak qabilalari yashayotgan xududlarni bosib oladi. Erk va ozodlikni hamma narsadan ustun qo'ygan O'rta Osiyo xalqlari ahmoniyar

zulmiga qarshi muttasil kurash olib borganlar afsonaviy mardlik, qaxramonlik va jasurlik namunalarini ko'rsatganlar . Mil.av. 530 y. massagetlar yo'lboshchisi malika to'marisning Kir II ustidan yorqin g'alabasi bunga misol bo'la oladi.

Ahmoniylar shohi Doro Ining shaxsan o'zi mil.av. 519- 518 yillarda parfiyoniliklar va sak qabilalari ustiga qo'shin tortib borishga majbur bo'lgan. Doro I O'rta Osiyo xalqlaridan qattiq o'ch oldi, ammo ayni paytda o'zi ham katta talofat ko'rdi. Bu o'rinda Shiroqning afsonovaiy harbiy jasoratini eslatib o'tish diqqatga molik. Shiroq obrazi millat, yurt va vatanga fidoylik, vatanparvarlikning yorqin timsolidir.

O'rta Osiyo zaminida dushmanlarga qarshi kurashgan Spitamen, Muqanna , Najmiddin Kubro, Temur Malik , Jaloliddin Manguberdi, Maxmud Tarobiy ,buyuk Soxibqiron Amir Temur, Madali Eshon, Nomoz Primqulov, jadidchilik harakati vakillari yurt ozodligi uchun buyuk jasorat , qahramonlik namunalarini ko'rsatganlar.

YUqorida nomlari zikr etilgan buyuk tarixiy siymolar ortida katta-katta davrlar, buyuk o'zgarishlar, xalqlar taqdiri, tarixiy voqealarni ko'z oldimizdan o'tkazishimiz tabiiy. Shulardan jadidlar harakatiga nazar tashlaydigan bo'lsak XIX asr oziri XX asr boshlarida vujudga kelgan jadidlar harakati XX asr 20-30 yillarida o'z faoliyat markazini mustaqillik g'oyasi masalasi qilib shu uchun tinmay kurashdi. Lekin 1937-38 yillardagi siyosiy qatag'on jadidlar harakatini butunlay barbod etdi. Uning yirik vakillari F.Xo'jayev , CHO'lpon, Usmon Nosir, Fitrat, Abdulla Qodiriy ana shu dahshatli qatag'onning qurboni bo'ldilar.

SHo'rolar hukumati O'zbekistonda 1946-1990 yillar orasida ongli sur'atada 2 marta dahshatli qatag'onliklarni tashkil etdi. I- 40 yillarning oxiri 50 yillarning boshlarida uyushtirilgan bo'lsa, II-80 yillarda tashkil etildi. O'zbekiston ziyolilardan 1939 -53 yillarda jami bo'lib 61 ming 799 kishi qamalgan, shulardan, 56 ming 112 kishi turli muddat bilan ozodlikdan mahrum qilingan, 7 ming 100 kishi otib tashlangan. 50 yillarning boshlarda «qora ro'yxatga» tushgan adiblar soni 60 kishidan iborat edi . M.Shayxzoda, Oybek, Abdulla Qahhor ,M.Boboyev, O'.Rashidov, Mirtemir, Shuhrat ,Said Ahmat ,Mirza Kalon Meli Jo'ra ,Yong'in Mirzo, aka -uka Abdunabi va Abduraxmon Alimuxammedovlar, Ne'mat Toshpo'lat, Maxmud Murodov va boshqalar.

Quvg'in va qatag'on bolasiga giriftor bo'lganlar faqat badiiy ijod vakillarigina emas balki jamiyatshunos olimlardan qomusiy bilim egasi, sharqshunos hamid Sulaymon , tarixchi A.Boboxo'jayev, iqtisodchi O.Aminov ,tilshunos olim A.G'ulomov va boshqalar yuzlab kishilar ham «millatchilik» qarashlari azobini tortdilar .

Asosiz qatag'on qilingan ming-minglab vatandoshlarimiz 1956 yilda oqlandi. Siyosiy ishlar bo'yicha oqlanishning boshlanishi 1955 yilga to'g'ri keladi va 1989yilga qadar 1850 kishi oqlangan.

Qatag'onlikning navbatdagi yangi bosqichi 80 yillarga to'g'ri keladi. bu qatag'onlik sho'rolar hukumatining yana bir navbatdagi nayrangi bo'lib , «o'zbeklar ishi», «paxta ishi» ,»o'zbek mafiyasi», «qo'shib yozish» kabi izoxli lug'atimizga mustamlakachilar tomonidan kiritilgan yangi so'zlar bilan bog'liq.

Maxsus va ataylab uyushtirilgan navbatdagi qatag'onlik tepasida O'zbekistonga markazdan yuborilgan minglab «kadrlar desanti» turdi .

Ma'lumki, 1983-1989 yillarda respublikamizda ro'y bergan ayanchli voqealar ko'pchilik yuragida o'chmas iz qoldirdi . O'shanda jamiyatchilikka qarshi kurashish niqobi ostida sobiq markazdan ketma-ket turli tergov guruhlari yurtimizga tashlandi. 1989 yilgacha bu ishlar bo'yicha 4,5 mingdan ortiq kishi sudlandi .

1989 yil 23 iyun kuni respublika raxbarligiga I.A.Karimov saylandi . rahbarimiz o'zi o'tkazgan birinchi yig'ilishdayoq Markazdan kelgan «mehmonlar» faoliyatini to'xtatib «Paxta ishlariga qo'pollik zo'ravonlik va savodsizlarcha yondoshilganligini» alohida ta'kidladi. Shundan so'ng oradan ko'p o'tmay «paxta ishi»ni chuqur o'rganib chiqish uchun Prezident taklifiga ko'ra maxsus kamissiya tuzildi . Oliy sudga viloyatlardan «paxta ishi» bilan bog'liq barcha delolar olib kelindi. Bu ishlar jami 40 ming tomdan iborat bo'ldi. Dastlabki ishlar ko'rib chiqish chog'idayoq ilgari hech kim e'tibor bermagan bir qator huquqiy muammolar , qonunni qo'pol buzish holatlari aniqlandi. Mana bir misol : Shahrisabz r-nidagi Engels nomli kolxoz raisi Suvonov 1983 yil noyabrda paxta planini bajaradi. Shunday bo'lsa, obkomning II kotibi Golovochev unga qo'shib yozishni taklif qildi. Tabiiyki rais bunga rozi bo'lmaydi, u dalada paxta qolmaganligini aytadi. Shunga qaramay Golovochev uni haqoratlab hatto uradi, natijada rais qo'shib yozishga majbur bo'ladi va oqibatda

10 yilga ozodlikdan mahrum etiladi. Jinoyat tashkilotchisi Golovochev esa javobgarlikdan ozod etiladi.

YUqoridagi misoldan ko`rinib turibdiki planni bajarmaslik, hatto paxta planini bajargan xo`jalik rahbarlari ham qo`shib yozishga majbur qilinganlar.

Komissiya 2 yildan ortiq vaqt davomida 40 ming tomlik jinoyat ishlarini ko`rib chiqdi. 3,5 mingdan ko`proq kishi oqlandi. Shuni alohida ta`kidlash joizki, davlat mulkini o`zlashtirganlarning birortasi oqlanmadi. Ular faqat Sibir koloniyalaridan O`zbekistonga olib keltirildi. Ularga nisbatan tayinlangan jazo kamaytirildi. bir qismi esa Prezident tomonidan avf etildi.

Komissiya ishining muhim bir tomoni shuki, paxta ishlari bo`yicha sudlanganlarning aksariyati hayotligida oqlandi, yurtdoshlari, oilalari oldida yuzlari yorug` bo`ldi, toptalgan huquqlari tiklandi, o`z ish joylarga qaytishdi.

Sobiq Ittifoqqa kirgan ko`pchilik respublikalar uchun 80 yillarning oxirlari mustaqillik uchun qat`iy kurashga o`tish yillari bo`ldi. Respublikalar huquqini kengaytirishni talab qilib ,Ittifoq shartnomasini yangilashni talab qila boshladilar. 1991 yil iyun oyi oxirlarida Novo-Ogorevoda Mustaqil DavlatlarIttifoqi tuzish to`g`risida kelishilgan shartnoma loihasi ishlab chiqildi. 1991 yil 19-21 avgust voqealari Rossiya Federatsiyasi rahbariyati boshchiligidagi demokratik kayfiyatdagi kuchlar tomonidan bostirildi. Biroq endilikda mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat yanada taranglashdi. Markaz hokimiyati falaj bo`lib qoldi, KPSS halokatga uchradi, Respublikalar birin-ketin SSSR tarkibidan chiqqanligini e`lon qildilar, SSSR parchalana boshladi.

2 savol : 1991 yil 1 sentyabrdan e`tiboran O`zbekistonning yangi tarixi boshladi, u mustaqil taraqqiyot yo`liga kirdi.

1991 yil 29 dekabrda mamlakatimizda umumxalq referendumini o`tkazilib 9,7 mln.dan ortiq kishi yoki ovoz berishda qatnashganlarning 98,2 foizi respublika mustamlakachiligini quvvatlab ovoz berdi. Shu kuni O`zbekiston tarixida birinchi marta umumxalq tomonidan muqobillik asosida mamlakat prezidenti saylandi. Saylovchilarning 86% ovozini olib I.A.Karimov nomzodi prezidentlikka o`tdi.

Har qanday davlat mustaqilligining asosiy shartlaridan biri davlat ramzlari ,Davlat bayrog`i, Davlat gerbi va Davlat madhiyasidir .

Davlat bayrog`i 12 chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VII-sessiyasida 1991 yil 18 noyabrda tasdiqlangan.

Davlat gerbi 12 chag`irig` O`zb.Resp. Oliy Kengashining X-sessiyasida 1992yil 2 iyulda qabul qilingan.

O`zb.Resp. Davlat Madhiyasi 12 chaqiriq O`zb.Resp. Oliy kengashining XI sessiyasida 1992 yil 10 dekabrda qabul qilingan.

Mamlakatimiz prezidenti I.A.Karimovning mustaqillikning qadriga yetish, uni ko`z qorachig`idek asrab-avaylash, millat shani va g`ururi yo`lida ,kerak bo`lsa, jonni ham fido qilish lozimligi to`g`risidagi gaplarining asl mohiyati nimada ekanligini tushunib yetmog`imiz lozim. Mana shu tushuncha, mana shu e`tiqod bilangina biz o`zligimizni saqlashimiz, himoya qilishimiz, farzandlarimizning yorug` kelajagini ta`minlashimiz mumkindir. Zero, yuz yillab orzu qilingan mamlakat, mustaqil mamlakat, mustaqil millat maqomini o`lkada ko`tarish hech qachon hech kimga onson bo`lgan emas .

1999 yil 16 fevral voqealari mamlakatimiz mustaqilligini , erishayotgan yutuqlarimizni ko`ralmayotgan qabix niyatli kuchlarning ishi ekanligi ayon. Zero bu xunrezlik ortidagi eng asosiy maqsadlardan biri - mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning hayotiga tajovuz qilishdan iborat bo`lgan.

Voqea sodir bo`lgan joyda prezidentimiz jurnalistlarga intervyu berib, quydagilarni aytdi: qo`poruvchilik qilganlarning maqsadi -xalqimizning tinchligini buzish, qo`rqitish, yuragiga vahima solish, yuritayotgan siyosatimizga ishonchini so`ndirish, amalga oshirayotgan ulkan ishlarimizga zarba berishdan iborat bo`lgan. Shu orqali O`zbekiston xalqining o`zi tanlagan yo`lidan chekintirish. Ammo .bizni hech kim qo`rqita olmaydi, tanlagan Vatanimizning mustaqilligi yo`lidan qaytara olmaydi.

Mamlakatimizning mustaqilligidan to fevral voqealarigacha bo`lgan davrni jamiyat, ijtimoiy iqtisodiy ma`naviy hayotdagi o`zgarishlarni tahlil qilish natijasida bu voqeaning asl mohiyati diniy aqidaparastlik, ayrim vatangadolar ishidir. Bundan tashqari 1999,2000,2001 yillarida Surxandaryo viloyati Uzun tumani, Toshkentning Parkent tumani, Qirg`iziston bilan chegaradosh yerlarimizda ham terrorchi to`dalarni

chegaralarimizga bostirib kirish xolatlari yuz berdi. Lekin hukumatimiz ,xalqimizning sa'iy xarakatlari tufayli bu balolar tez vaqtda daf qilindi.

YUqorida keltirilgan voqea hodisalar xalqimizni doimo sergak, ogoh bo'lishga undaydi. Bu esa mustaqillikni avaylab asrash omllidir.

Erkinlik mustaqillik hamisha zaruratni, ma'suliyatni anglashni taqazo etadi. Erkinlik va mustaqillik jamiyatning har bir a'zosi oldiga «Biz kim edik?» , «Hozir qanday ahvoldamiz?», «qanday bo'lishimiz kerak?» degan savollarga vijdonan javob berishni talab etadi. Mustaqillik yillarida farovon va baxtli hayotni bizga kimdir yaratib bermasligin, balki o'z aqlimiz, kuchimiz bilan yaratishimiz lozimligini anglashni taqazo etadigan dunyoqarash shakllangani, bu savolarga javoblar izlanayotganligi ularni hal qilish choralari ko'rilayotganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash , jamiyat hayotini tubdan islox etishning asosiy tamoyillari Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqildi. Bu jarayonning umuminsoniy jixatlari va jahon sivilizatsiyasiga xos tomonlarining amalga oshirishi muayan muddatni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda , respublikamiz jahon maydonida o'zining o'rniga ega bo'lib, ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy ,ijtimoiy o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda . Mustaqillikni buyuk ne'mat deb anglash, bilish uni qadriga yetish har birimizning vazifamiz ,burchimizdir.

3 savol: Konstitutsiya - davlatning asosiy qonuni bo'lib, buyuk kelajakning huquqiy kafolatidir. Yangi Konstitutsiyani tayyorlash g'oyasi 1990 yilni mart oyida ilgari surila boshlandi. Ko'p o'tmay, iyun oyida Oliy Kengashning ikkinchi sessiyasida I.A.Karimov boshchiligidagi Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi. Komissiya mustaqillikning huquqiy asoslarini ishlab chiqish jarayonida xalqaro huquq qoidalariga, birlashgan Millatlar Tashkiloti Hujatlariga, Butunjahon inson huquqlari Deklaratsiyasiga tayanchdi. Shu bilan birga boy tariximizdagi davlat boshqaruvi va adolatli qonunshunoslik an'analari ham chuqur o'rganildi.

Loyihaning dastlabki nus'hasi 1991 yilni noyabrida tyyorlanib har tomonlama ko'rib chiqildi va 1992 yilni sentyabrida umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Tuzatishlar va aniqlashlar- loyiha 60 dan ortiq moddasiga kiritildi. 1992 yil 8 dekabrda O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashining XII chaqiriq XI sessiyasida mustaqillik Konstitutsiyasi qabul qilindi. Uning mohiyati Asosiy qoidalar bo'limiga bayon etilgan. bu qoidalar: davlat suverenteti: xalq hokimiyati: fuqarolar huquq va erkinliklarining himoya qilish: shaxs davlat birligini ta'minlash: qonuniylik:hokimiyatini ajratish: mahlliy o'z-o'zni boshqarish: sud tizimi va odil sudlovni tashkil qilish va boshqalardan iborat. Konstitutsiya preambula, 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi fuqorolarning inson huquqlari demokratik xartiyasi bo'lib, insonparvar huquqiy davlat shakllantirishning strategik dasturidir. Uning qabul qilinishi g'oyat katta siyosiy, huquqiy va xalqaro ahamiyatga ega bo'ldi. Mustaqillik Konstitutsiyasi barcha qonunlarning va boshqa davlat va jamoat tashkilotlarini huquqiy xujjatlarining asosi bo'lib xizmat qiladi.

15 MAVZU. O'ZBEKISTONDA HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING BARPO ETILISHI.

REJA:

1. Totalitar tuzumdan huquqiy davlatga o'tish
2. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi
3. Ko'p partiyaviylik tizimi. Milliy siyosat.

ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T. O'zbekiston 1993 y.
2. I.A.Karimov O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. Asarlar 1 jild O'zbekiston 1996 y.
3. I.A.Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida ... T., "O'zbekiston" 1997 y.
4. I.A.Karimov Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., O'zbekiston 1998.
5. I.A.Karimov Barkamol avlod orzusi. T., O'zbekiston 1999 y.
6. I.A.Karimov O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., O'zbekiston 1999 y.
7. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., "O'zbekiston" 1992 y.
8. Vatan tuyg'usi. T., O'zbekiston 1996 y.
9. Davlat, jamiyat, oila va yoshlar tarbiyasi muammolari. T., "O'zbekiston" 1997 y.

MA'RUZA MAQSADI

Demokratik davlat va fuqarolik jamiyat qurish bobida hamma davlat uchun tayyor qolip va andozalar yo'q. Lekin O'zbekiston demokratik jamiyat qurishda jahon xalqlari tajribasi sinovidan o'tgan tamoyillarga asoslanadi. Shu bilan birga xalqimizning necha ming yillik tarixiy va ma'naviy taraqqiyoti tajribasiga, milliy davlatchiligimiz negizlariga, ma'naviy merosimizga, milliy xususiyatlarimizga tayanadi.

Bizning vazifamiz O'zbekistonning demokratik jamiyat qurish yo'lini tushuntirib berishdir.

15 mavzudagi bilimlarning egallanganlik darajasini aniqlash uchun tayanch tushunchalar: Siyosiy islohotlar; qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati; Oliy Majlis; ko'ppartiyaviylik; Vazirlar Mahkamasi; mudofaa va tashqi ishlar vazirliklari; milliy xavfsizlik xizmati; davlat bojxona va soliq qo'mitalari; mahalliy davlat hokimiyat organlari; kadrlar siyosati; sud hokimiyati islohotlari; yagona fuqarolik; milliy siyosat; ommaviy axborot vositalari.

1 savol. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab huquqiy davlatchilik asoslarini yaratish muhim vazifalardan biriga aylandi. Milliy davlatchilik rivojlanishining ming yillardagi an'analari chorizm mustamlakasi davrida batamomo inkor etilgan edi. Mustaqil O'zbekiston rahbariyati tarixiy an'analarga, dunyo tajribalariga, o'lkaning milliy rivojlanishga hamda uning o'ziga xos tomonlariga tayangan holda jamiyatni tubdan isloh qilish yo'llarini ishlab chiqdi. Bu jarayonda ikkita vazifa:

1. Eski ma'muriy tizimni tugatish va hokimiyat boshqaruv organlarini qayta qurish;
2. Yangi davlatchilikning huquqiy – siyosiy asoslarini yaratish, davlatchilikda yangi markaziy va mahalliy boshqaruv tizimini shakllantirish masalalari hal qilindi.

O'zbekiston Respublikasi huquqiy Davlat qurilishining kafolati - O'zbekiston Konstitutsiyasidir. Davlat hokimiyati tashkil etishning muhim demokratik tamoyillari Konstitutsiyasida qayd qilingan bo'lib unda hokimiyat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlaridan iborat deb ko'rsatilgan. Bu organlar faoliyati erkin, bir – biridan mustaqil bo'lib ayni vaqtda bir – biri bilan chambarchas bog'liqdir.

1994 yil 24 dekabrda ko'ppartiyaviylik va muqobillik asosida saylangan Respublika Oliy Majlisi qonun chiqaruvchi hokimiyat vazifasini bajaradi. Oliy Majlisga saylovlar demokratik rivojlanishning yangi bosqichga o'tganligidan dalolat berdi. Oliy Majlisga 250 deputat saylanib, ularning 120 nafari viloyatlar deputatlari kengashidan saylangan bo'lib, qolganlari har xil partiyalardan vakillar edi.

Davlatni boshqarishning prezidentlik shakli mamlakatni boshqaruv tizimini isloh qilishning boshlanishi bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat hokimiyatining boshlig'i bo'lib, bir vaqtning o'zida Vazirlar Mahkamasining Raisi vazifasini ham bajardi. Prezident fuqarolar erkinligi va huquqlarini himoya qilish, Konstitutsiya va O'zbekiston qonunlariga rioya qilinishini kafolatlaydi. Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyat organi bo'lib, u ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jabhalardagi vazifalarning bajarilishini, qonunlar, Oliy Majlis qarorlari, mamlakat Prezidenti farmonlari va qarorlarining ijro etilishini ta'minlaydi.

Ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimi hokimiyatdan tubdan farq qilib, bu tizim jamiyat hayotida muvofiqlantiruvchilik vazifasini bajardi. Sobiq O'zbekiston Respublikasida 28 ta ittifoq va 17 ta respublika vazirliklari va komitetlari ish qurgan bo'lsa, endilikda ular o'rniga bozor iqtisodi tizimiga mos keladigan

vazirliklar tashkil etilgan.

Respublikada hokimlar boshqaruvining joriy etilishi ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi, hokimlikka tajribali va malakali shaxslar Prezident tomonidan tayinlandi va xalq deputatlari kengashlari tomonidan tasdiqlandi. Xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vazifalarini hal etadi. Aholini huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy qo'llab – quvvatlash, ijtimoiy jamg'armalar tashkil etish, turli xayriya tadbirlari o'tkazishda mahallaning o'rni benihoyat kattadir. Undan tashqari mahalla yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mehr – oqibatli qilib voyaga yetkazishda katta ishlarni amalga oshirmoqda. Fuqarolar yig'ini, Oqsoqollar Kengashiga 1998 yil noyabr – dekabr oylarida bo'lib o'tgan saylovlarda mahalliy organlarga ko'pchiligi oliy ma'lumoti, ko'p tajribaga ega kadrlar ishga tortildi. Bular davlat organlari vazifalarini jamoat tashkilotlariga o'tkazish jarayonining faol qatnashchilaridir.

Yangi davlat apparati shakllanishi va faoliyatini davr talabiga mos keladigan kadrlarni siyosatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu nuqtai – nazardan O'zbekistonda ishni yuqori darajada olib borishga qodir bo'lgan ma'naviy yetuk kadrlarni tayyorlash va tarbiyalashga qaratilgan qator chora – tadbirlar o'tkazilmoqda. Xususan, davlat va jamoa tashkilotlari, huquqiy organlari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlab beradigan bir qancha oliy o'quv yurtlari tashkil etildi.

2 savol. Fuqarolik jamiyati, bu insonning, rivojlanishiga imkon yaratadigan, uning huquq va erkinliklarini to'la darajada ta'minlaydigan qonun ustuvor bo'lgan ijtimoiy jamiyatdir. Bunday jamiyat qurish davlat qonunlari va inson huquqlarini poymol etmaslikni, insondan qonunlarga qat'iy rioya qilishni talab etadi. Har bir fuqaroni davlat boshqaruviga keng jalb etilishi, inson huquqlarini himoya qilishda faol qatnashishni ta'minlash uchun shart – sharoitlar yaratilishi zarur.

Huquqiy davlatda sud hokimiyati O'zbekiston Respublikasida odil sudlov va tarbiyalash vazifalarini bajarish bilan alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyati tizimiga besh yil muddatga saylanadigan Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi, harbiy sudlar tizimi, Qoraqolpog'iston Respublikasi oliy sudi, Qoraqolpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyat, rayon va shahar sudlari kiradi. sud hokimiyatining faoliyati to'g'risidagi qonun – qoidalar O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan “Sudlar to'g'risida”gi qonunda bayon etilgan.

Jamiyat tizimini qayta tashkil etkan, Respublika rahbariyati sud hokimiyati doirasida islohotlar o'tkazib, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, ularning erkinligi va majburiyatlarini kafolatlovchi huquqiy mexanizmni shakllantirdilar. Bu jarayonda, respublikamizda demokratik jamiyat talablariga mos tushadigan saylov tizimining tashkil etilishi ham muhim ahamiyatga egadir. Bu o'zgarishlarining barchasi shaxsning davlat va jamiyat bilan munosabatlarini belgilashga qaratilgan. Davlat va shaxs o'rtasidagi munosabat fuqarolikni namoyon etadi va ularning o'zaro huquq va majburiyatlaridan kelib chiqadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisning 1999 yil oxiridagi sessiyasi sud – huquqiy ishlaridagi islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida advokatura tizimini kuchaytirish, sud'yalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash vazifalarini qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 28 dekabrda, 1995 yil 5 maydagi Qonunlari negizida demokratik saylov tizimi asoslab berilgan. “Saylov tizimi” to'g'risidagi Qonunga asoslanib 1994 yilning 25 dekabrda vakillik organlariga birinchi marta hududiy bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'p partiyaviylik asosida besh yil muddatga deputatlar saylandi. Prezident I.A.Karimov davlat va jamiyat hayotini erkinlashtirish yuzasidan muhim vazifani belgilab: “... hokimiyat vakolatlarini nodavlat va jamoat tashkilotlariga, fuqarolarni o'z – o'zini boshqarish organlariga bosqichma – bosqich o'tkaza borish, ularni haq – huquqlari va erkinliklarini muhofaza etishni kuchaytirishdan iborat. Oliy Majlisning XIV sessiyasi “kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyat siri” degan siyosiy qurilish dasturini belgiladi.

3 savol. Muxolif partiyalar va harakatlar demokratik jamiyat qurishning zaruriy sharti 80 – yillarning oxirlaridan boshlab O'zbekistonda bir qator ijtimoiy harakatlar paydo bo'ldi.

Mustaqillik yillari mamlakatimizda 5 ta siyosiy partiya tashkil topdi. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi 1991 yil noyabrda faoliyat ko'rsatib, o'z safida 420 mingdan ziyod a'zoni birlashtirgan. Oliy majlisning 69

ta deputati – uning a’zolaridir. “Vatan taraqqiyoti” partiyasi 1992 yil may oyida tuzilgan bo’lib, uning sarflarida 35 mingdan ortiq a’zo bor. Uning 14 a’zosi Oliy Majlis deputati, “Adolat” sotsial – demokratik partiyasi 1995 yil fevralda tashkil topgan bo’lib, 30 mingdan ortiq a’zosi bor. Oliy majlisda 47 deputatdan tashkil topgan o’z fraksiyasiga ega. “O’zbekiston Milliy Tiklanish demokratik partiyasi” 1995 yil iyunda tashkil topgan. Sarflarida 6 mingga yaqin a’zosi bor. 1998 yil “Fidokorlar” milliy – demokratik partiyasi tashkil topdi. Shuningdek, Respublikasida 1995 yil iyun oyida ta’sis etilgan “Xalq birligi” harakati ham mavjud. Bu partiya va harakatlarning har biri jamiyatda ma’lum qatlamlarining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy qarashlarini va vakillik organlari saylovlariga ishtirok etadilar va qonun doirasida faoliyat ko’rsatadilar. Shuningdek, bu partiyalar saylangan deputatlari orqali qonun chiqarish jarayonida ishtirok etadilar.

Mamlakatimizda partiya va harakatlardan tashqari 200 ga yaqin kasaba, tadbirkorlar, yoshlar, fahriylar kabi ijtimoiy uyushmalari ham mavjud. Bular orasida eng ommaviysi kasaba uyushmalari bo’lib, tarkibida 7,5 mln a’zo bor. O’zbekiston hayotida yoshlarning o’rni beqiyosdir. 1991 yil oxirida O’zbekiston yoshlar ittifoqi tuzilgan. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 7 yanvar farmoni bilan iqtidorli yoshlarni xorijdagi ilg’or taraqqiy etgan oliygohlarda bilim olishlarini tayyorlash, tashkil etish uchun “Umid” jamg’armasi tuzildi. Hozirgi kunda 2300 jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlari faoliyat ko’rsatmoqda. Prezident I.A.Karimov “Bu tashkilotlar faqat xayriya va muvvaqat muassasalariga aylanib qolmasdan demokratik qadriyatlarini, kishilarning qonuniy haq – huquqlarini va erkinliklarini himoya qilishlari kerak, deb vazifa qo’ydi.

O’zbekiston Respublikasi 120 dan ortiq millatlar va elatlarni birlashtirgan ko’p millatli davlat. Bugungi kunda respublikada yashovchi har bir fuqaro millati kelib chiqishi, dini va irqidan qat’iy nazar teng huquq va imkoniyatlariga ega. Aynan mana shu tamoyil milliy siyosatimizning asosini tashkil etadi. Respublikadagi barcha millatlarni rivojlanishiga katta e’tibor qaratilib, ularning tili va dinini hurmat qilish, milliy va xalq an’analarini saqlash, erkin va har tomonlama taraqqiyotni ta’minlash maqsadida 110 ga yaqin milliy markazlar tashkil etilgan. bularning faoliyatini 1993 yil yanvarida tashkil etilgan Respublika baynalmilal madaniy markazi boshqarib boradi. Respublikamizda millatlararo munosabatlarda barqarorlikka erishilgan, bu O’zbekistonda demokratik jamiyat qurishning garovidir. Millat va elatlarga o’zaro hurmatda bo’lish – jamiyat ma’naviy barkamolligining belgisidir. Bu holat davlatdagi milliy barqarorlikdan tashqari, bu barqarorlikning yanada mustahkamlanishi uchun zamin yaratadi.

Hozirgi bosqichda jamiyatning demokratiyalashuvida “to’rtinchi hokimiyat” – matbuotning ahamiyati kattadir. 1997 yil Respublikamizda 8 tilda 495 ta gazeta, 1844, 2 ming nusxada, 113 ta jurnal, 820 ming nusxada nashr etilgan. Ommaviy axborot vositalarini demokratiyalashtirish va qo’llab – quvvatlash maqsadida ijtimoiy – siyosiy jamg’arma tashkil etilgan. Respublikamizda jurnalist kadrlarni, ayniqsa, xalqaro jurnalistlarni tayyorlashga katta e’tibor berilmoqda. Bu borada 1999 yil mart oyida Vazirlar Mahkamasining O’zbekistonda jurnalist kadrlarni tayyorlashni, Toshkent Davlat universitetining jurnalistika fakulteti va jahon tillar universitetida markazlashtirish katta ahamiyat kasb etadi.

16 – MAVZU. MUSTAQILLIK YILLARDA O’ZBEKISTONNING IQTISODIY TARAQQIYOTI.

REJA:

1. O’zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo’nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari.
2. Iqtisodiyotda yuz bergan tarkibiy o’zgarishlar, bozor infratuzilmasining shakllanishi.
3. Qishloq xo’jaligida islohotlar, uning vazifalari va yo’nalishlari. Moliya bank tizimi.

ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T., "O'zbekiston" 1993 y.
2. I.A.Karimov O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.
 1. I.A.Karimov O'zbekistonning siyosiy – ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining tamoyillari. "O'zbekiston ovozi", 25 fevral 1995y.
 2. I.A.Karimov Mulkdorlar sinfining shakllanishi – islohotlar muvaffaqiyatining bosh mezonlari "Xalq so'zi", 8 fevral 1997.
 3. I.A.Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida... T. "O'zbekiston", 1997,188 – 211 bb.
 4. I.A.Karimov Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti – hayot manbai. "Iqtisod - hisobot", N2, 1998.
 5. I.A.Karimov Xalq farovonligi – faoliyatimiz mezon. "O'zbekiston ovozi", 25 iyul, 1998.
 6. Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida. "Xalq so'zi", 22 yanvar, 1994y.
 7. O'zbekiston Respublikasi, Ensiklopediya T. , "O'zbekiston", 1997 y
 8. Chet el investitsiyalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuni. "Xalq so'zi", 20 may, 1998 y.
 9. A.O'lmasov, SH.Jabborov. Daromadning yangi manbalari: u o'zi nima? "Xalq so'zi", 21 – 22 aprel, 1998y.

Ma'ruza maqsadi.

Mamlakatimizda bozor munosabatlari qadim zamonlaridan boshlab asta – sekin shakllanib kelgan.

Ma'ruzada quyidagi savollarga javob berishni lozim topdik.

- O'zbekiston nima uchun bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lini tanladi?
- O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tishda tanlangan o'ziga xos yo'li nimalarga tayanadi?
- Nima uchun iqtisodiyot siyosatga nisbatan ustuvor bo'lishi kerak?
- Davlat bosh islohotchi deganda nimani tushunasiz?

16 mavzudagi bilimlarning ekanligi darjasini aniqlash uchun tayanch tushunchalari: "O'zbekiston modeli"; iqtisodiy islohotlar; "ustivor yo'nalishlari" mulk; xususiylashtirish; strategiya; bozor infratuzilmasi; chuqur tarkibi o'zgarishlar; investitsiya; agrar islohotlar; dehqon – fermer xo'jaliklari; makroiqtisodiyotni barqarorlashtirish; soliq siyosati; milliyvaluta – so'm; kuchli ijtimoiy siyosat.

1savol. Davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish uchun qulay sharoit va keng imkoniyatlar yaratdi.

Bizning diyorimizda bozor munosabatlari yangilik emas. Ming yillar davomida ajdodlarimiz xunarmandlar ishlab chiqargan ajoyib mahsulotlarni, tabiiy boyliklarini dunyoning to'rt tomoniga chiqarib savdogarlik qilgan, mol almashishgan.

O'zbekistonning boy imkoniyatlari, geopolitik sharoitidan foydalanib o'zimizning ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiy yo'limizning belgilash dastlabki kunlarning eng muhim vazifasi bo'lib qoldi. O'zbekiston tanlagan islohot yo'li ijtimoiy yo'naltirgan bozor iqtisodini shakllantirishga qaratildi.

Bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurishining asosiy yo'nalishlari Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilib dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning yirik mutaxassislari, davlat arboblari tomonidan tan olindi va o'zining xayotiyligini namoyish etmoqda. Bu tamoyillarning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

- iqtisod siyosatdan ustun turib mafkuraviy tazyiqlarsiz, o'ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanmog'i kerak;
- davlat bosh islohotchi o'rinda bo'lib, u islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi va ularni izchillik bilan amalga oshirishi lozim;
- bozor munosabatlariga o'tish qonun ustivorligini talab qiladi. Butun xalq tomonidan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarga amal qilishi shart;
- bozor munosabatlariga o'tish qonun ustivorligini talab qiladi. Butun xalq tomonidan qabul qilingan Konstitutsiyai va qonunlarga amal qilish shart;

- bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini himoya qilishning kuchli ijtimoiy siyosatini o'tkazish;

Ijtimoiy islohotlarining rivojlanib borishi va yo'nalishini belgilab beruvchi tamoyillardan biri bozor iqtisodiyotiga o'tish evolyutsion yo'l bilan, bosqichma – bosqich amalga oshirilishi zarur.

Yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish tamoyillari asosida g'oyat mas'uliyatli va murakkab vazifa – iqtisodiy islohotlar strategiyasi ishlab chiqildi: Iqtisodiy strategiyani boshlang'ich nuqtasi ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlarning pirovard maqsadini belgilab olishdan iborat. Bu vazifa markazlashtirilgan, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga, bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tishdan iboratdir. Bozor munosabati bu jihatdan klassik kapitalistik va sotsialistik iqtisodiy tizimdan farq qiladi. Bozor islohotlarini amalga oshirish dasturiga ko'ra ustuvor vazifalar bosqichma – bosqich hal qilindi. Birinchi bosqichda totalitar tizimidan hozirgi zamon bozor munosabatlariga o'tish davridagi bir – biriga bog'liq ikki vazifani bir vaqtda hal qilishga to'g'ri keladi: ma'muriy buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarni tugatib, iqtisodni barqarorlashtirish va bozor munosabatlarining negizini shakllantirish. Bu bosqich jarayonida iqtisodiy islohotning g'oyat muhim yo'nalishlari O'zbekiston Prezidenti tomonidan belgilab berdi:

- o'tmish jarayonining xuquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy – xuquqiy bazasini mustahkamlash va rivojlantirish;

- qishloq xo'jaligida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish;

- ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish.

Iqtisodiy islohotlarini huquqiy asoslovchi qonun – qoidalar yuridik tashkilotlar va yetuk olimlar tomonidan tayyorlandi va jahonning yirik mutaxassislari tomonidan quvvatlanib tan olindi.

Dastlabki vaqtning o'zida iqtisodiy munosabatlarining xuquqiy negizini barpo etadigan 100 ga yaqin asosiy xujjatlari qabul qilingan. Iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va chet el investitsiyalari bo'yicha Prezident huzurida maxsus Idoralararo kengash tuzildi.

Bozor munosabatlariga o'tishning asosiy shartlaridan biri mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish amalga oshirildi. Bu bilan davlat monopoliyasi tugatilib, ma'muriy buyruqbozlik tizimi buzildi va bozor iqtisodiyotiga asos solindi, xususiy mulkdorlarning keng qatlami shakllantirildi va xorijiy sarmoyadan foydalanib, ishlab chiqarish samardorligini oshirish orqali aholining turmush darajasi yaxshilana boshladi.

Mulkni xususiyashtirish va ko'p ukladli iqtisodni shakllantirish O'zbekistonda o'ziga xos yo'l bilan birinchi bosqichda 1992 – 1993 yillari amalga oshirildi.

Bu davrda asosan maishiy xizmat va savdo korxonalari, transport va qurilishning kichik korxonalari, davlat sanoat va masulot qayta ishlash korxonalari mulk shaklini o'zgartirdi. Bular mulkning ijara, jamoa va aksiyadorlik shakliga aylantirildi. Uy – joylar keng miqyosda xususiyashtirib aholining ayrim qismiga tekin, boshqa qismiga esa narxda xususiy mulk etib berildi.

Dastlabki davrning o'zida qishloq xo'jaligida 770 kolxoz va davlat xo'jaliklari xususiyashtirib jamoa va ijara xo'jaliklariga aylantirildi. Lekin qishloqda bu jarayon sekin va qiyinchiliklar bilan amalga oshirildi. Agrar sohadagi byurokratik boshqaruv tizimining har xil to'siqlari qishloqda islohotlarning borishiga xalaqit qildi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish jarayonining birinchi bosqinchidan eng muhim xulosa mulkdorlar sinfining shakllana boshlagani bo'ldi.

2 savol. Davlat mulkini xususiyashtirishning ikkinchi bosqichi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 21 yanvardagi "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishning chora – tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida olib borildi. Bu davrda ochiq shakldagi aksiyadorlik jamiyat qurish, korxonalar aksiyasini chiqarish, auksion (kim oshdi) savdosi orqali davlat mulkini shaxslarga sotish, qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish va xususiyashtirishni yoppasiga olib borish uchun sharoit yaratish ishlari amalga oshirildi.

Aloqa transport, geologorazvedka, yoqilg'i – energetika komplekslari xususiyashtirilmadi. Ayrim sohalarda – kimyo, oltin qazish, paxta tozalash, tog' – kon sanoatida – 51 % aksiya davlat ixtiyorida bo'ldi.

1994 yil oxirigacha 54.000 korxona mulk shaklini o'zgartirdi. Xususan, 34% - xususiy, 48% - aksiyadorlik,

16% - jamoa, 1% ijara xo'jaligiga aylandi.

Natijada Respublikada nodavlat sektorning iqtisodiyotdagi ulushi ortib bordi. Mazkur sektor 1995 yili sanoat mahsulotning 44 foizi, qishloq xo'jaligi mahsulotining 97 foyizini ishlab chiqardi. Barcha kapital mablag'ning 44 foyizi ana shu nodavlat sektoriga to'g'ri keldi. Butun mamlakat 32.000 kichik korxona 18.000 dehqon (fermer) xo'jaligi mavjud bo'ldi. Xususiy tadbirkorlik sub'yektlari 300.000 tani tashkil qildi. Bularning ko'pchiligini qishloq xo'jalik tadbirkorligi tashkil qiladi.

Mamlakatda ikki yo'l bilan mulkdorlar sinfi shakllana boshladi. Birinchidan, kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish yo'li bilan, ikkinchidan, pul mablag'larini omonat kassalari yoki banklarga qo'yish, qimmatbaho qog'ozlarga aylantirish yo'li bilan.

Sobiq SSSR ning tarqatib yuborilishi bilan respublikalar va shaharlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar uzildi, oqibatda O'zbekistonning bir qancha sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish kamaydi, iqtisodning ko'pgina muhim sohalarini qayta qurish yoki yangidan qurish kerak iste'mol talablarini qondiradigan mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilish zarur edi. "Barqarorlashtirish siyosati, - deydi Prezident I.A.Karimov, - eng avvalo, bu makroiqtisodiyotda muvozanatni saqlash, ishlab chiqarishning keskin darajada pasayishiga va ommaviy ishsizlikka yo'l qaymaslikdir". Bozor munosabatlariga o'tish davrida iqtisodning ustuvor, katta istibolga ega bo'lgan tarmoqlarini har tomonlama rag'batlantirib, shu orqali butun iqtisodiyot tarkiban qayta qilindi.

Iqtisodiy o'sish iqtisodiyotning barcha sohalarida ishlab chiqarish hajmi oshgani bilan ifodalanadi. Bu ko'rsatkich 1990 yil bilan qiyoslanganda sanoatda 106,5, qishloq xo'jaligida 105,8, qurilishda 102,6 savdoda 112,7, aholiga pullik xizmat ko'rsatish sohasi 121,3 foyizni tashkil etdi. Xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarish bir yilda 112 foyizga ko'paydi. Bo'nday o'sishga, eng avvalo, iqtisodiyotda o'zlashtirgan kapital mablag' hajmining oshgani (17 foyiz), zamonaviy texnologiya bilan jihozlangan yangi sanoat ob'yektlari qurilishi va ishga tushirilgan tufayli erishildi.

Mustaqillik davridagi O'zbekistonning iqtisodiy o'sishini Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligidagi mamlakatlar iqtisodiy ahvoli bilan taqqoslansa faqat O'zbekistongina 90 – yillar boshidagi darajadan oshib bir tekis rivojlanmoqda. Bu holatni jahonning ko'p yirik rivojlangan mamlakatlarining davlat rahbarlari, taniqli mutaxassilari tan olmoqda.

1998 yil ayrim rivojlangan mamlakatlardagi moliyaviy krizis, jahon bozorida O'zbekistonning muhim eksport mahsulotlari – paxta tolasi, rangli metallarning narxini tushib ketishi mamlakatimizning iqtisodiy va moliyaviy ahvoliga ta'sir qilmay qolmadi. Shunga qaramasdan O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik davom etdi. Xususan, 1998 yili ichki yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi 4,4 foyiz, shu jumladan, sanoat ishlab chiqarishi 5,8 foizga ortdi. Iste'mol mollarini ishlab chiqarish 7,2 foyiz ko'paydi. Avvalgi yillardagi kabi qat'iy moliya – kredit siyosati amalga oshirildi. Natijada inflyatsiya darajasining pasayishga olib keldi. Endilikda mamlakatimizning yoqilg'i mustaqilligiga erishish siyosati izchillik bilan amalga oshirildi. Istiqbolga erishgan O'zbekiston tarixda ilk bor 1995 yilda neft mustaqilligiga erishdi. Mamlakat endilikda neft mahsulotlariga bo'lgan o'z ichki ehtiyojlarini to'la qondiribgina qolmay, katta salohiyatga ega bo'lgan istiqbolli va ishonchli eksportyor sifatida jahon bozoriga yo'l oldi.

O'zbekistonda neft va gaz kondensatini ishlab chiqarish 1990 yili 2,8 mln tonnani tashkil qilgan bo'lsa, 1997 yil bu ko'rsatkich 7,9 mln tonnaga yetdi va chetga neft mahsulotlarini sotish qobiliyatiga ega bo'ldi. Jumladan, 1997 yili 250 ming tonna benzin, 600 ming tonna neft yoqilgisi, 450 ming tonna mazut, 100 ming tonna aviatsiya kerosini eksport qilindi. Tabiiy gaz ishlab chiqarish 1990 yilgi 40,8 mlrd kubometrdan, 1998 yil salkam 54 mlrd kubometr ga ko'paydi. Aholini tabiiy gaz bilan ta'minlash yuzasidan katta yutuqlarga erishildi. Xususan, mustaqillik arafasida shahar aholisining 43 foyizi, qishloqlarda esa 17 foyizi aholi tabiiy gaz bilan ta'minlangan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1997 yili 64 va 48 foyizni tashkil qildi.

O'zbekistonning jahondagi ko'plab mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalari kengayib mustahkamlanib bormoqda.

Endilikda jahondagi eng yirik konlardan hisoblangan Qizilqumning oltin va uran boyliklari mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Sobiq SSSR ning parchalanib ketishi oqibatida Rossiya korxonalari hamda O'zbekiston uran va oltin qazib olish sanoati o'rtasidagi kooperativ aloqalarning uzilishi natijasida harbiy

sanoat kompleksining Navoiy viloyatidagi 50 ming nafar injener va malakali ishchilari ikki o'rtada qoldi. O'zbekiston Prezidenti yirik, iqtisodchi mutaxassis I.A.Karimov vaziyatni har tomonlama o'ylagani holda Navoiy tog' – metallurgiya kombinatini tiklash va rivojlantirish ishlarini davlat zimmasiga o'tkazdi. Kombinatni qayta qurish maqsadida xorijdan olingan qarzdan tushgan foydalarni besh yil davomida korxona ixtiyorida qoldirildi. Xorijiy davlat korxonalari bilan bitim tuzish, qarz olish, investitsiyalardan foydalanishda kombinatga to'la mustaqillik berildi. Hisob – kitoblar, katta jamoaning mehnati o'z natijalarini berdi. Besh yildan keyin Muruntovdan tonnalab olingan oltinlar davlatni valuta zahirasi to'ldirdi. Arzon va sifatli uran olish ham yo'lga qo'yildi.

Amerikaning Kolorado shtatidagi "N'yumont" firmasi bilan Muruntovda qo'shma korxona qurilishi bilan ishlar yana qizib ketdi. "Zarafshon - Nyumont" qo'shma korxonasiga firma tomonidan ajratilgan 200 mln dollar investitsiya yordamida oddiy sharoitda yarim asrlik ishlar ikki yilda o'z natijalarini berdi. Navoiy tog' metallurgiya kombinati oltin rudasini qazib olishdan to'zargarlik bezaklarini tayyorlaydigan jahonda to'la siklda ishlaydigan yagona korxonaga aylandi.

O'zbekistonning istiqloli mashinasozlik sanoatini, ayniqsa uning muhim tarmog'i – avtomobilsozlikning rivojlanishiga bog'liq. 1992 yilning avgust oyida janubiy Koreya Respublikasi bilan O'zbekiston o'rtasida tuzilgan bitim asosida "UzDEU avto" qo'shma korxonasi tashkil etildi va Asaka shahrida yengil avtomashinalar ishlab chiqarishga kirishildi. 1993 yilda GFR dagi "Mercedes Bens AG" korporatsiyasi bilan Xorazmda yuk avtomashinasini chiqarish uchun shartnoma tuzildi. 1994 yili "Do'stlik" avtomobil zavodida dastlabki 350 "Mercedes Bens" yuk avtomobili ishlab chiqildi. 1996 yilning mart – iyul oylarida "UzDEU" avtokorxonasi "TIKO", "NEKSIYA" yengil avtomashinalarini chiqara boshladi. Endilikda "DEU" korxonasi bilan shartnomaga ko'ra bu mashinalarning yangi modellarini ishlab chiqarish rejalashtirildi. 1995 yili "O'zavtosanoat" uyushmasi bilan Turkiyaning mashhur "Kochxolding" kompaniyasi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida Samarqandning So'g'diyona mavzesida qad ko'targan avtobus zavodi 1999 yil mart oyida o'zining mahsulotini bera boshladi. Yangi korxonaning ochilishi marosimida ikki davlat Prezidentlari I.A.Karimov va S.Demirel qatnashdilar.

3 savol. Iqtisodiy islohotlarning hal qiluvchi bo'g'ini sifatida qishloq xo'jaligida tub islohot o'tkazish, uni jadal rivojlantirishga alohida ahamiyat berildi.

Qishloq xo'jaligida islohotlarni amalga oshirishda eng ustuvor masala sifatida yerga mulkchilik masalasi hal qilindi. O'zbekiston Respublikasida sug'oriladigan yerlarning kamligi hisobga olib, yer xususiy mulk qilib sotilishi mumkin emasligi, balki uni uzoq muddatli ijara shartlari bilan topshirish mumkinligi huquqiy hujjatlarda qayd etildi. "Yer to'g'risida"gi Qonun qishloq xo'jaligida iqtisodiy munosabatlarining qanday tashkil etish shartlari ko'rsatilib berildi. Qishloq xo'jaligida ko'p ukladli iqtisod vujudga keldi. 1997 yili shaxsiy tomorqa xo'jaligi – 3 mln gektarni tashkil qildi. Tomorqa xo'jaligining ekin maydoni 1989 yili 257 ming gektar bo'lsa, 1997 yil – 599, 7 ming gektarga ko'paydi. 1996 yili shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda 640 ming t go'sht, 2,968 ming t sut, 1,711 ming t sabzavot, 321 ming t meva, 307,8 ming t poliz, 338,1 ming t kartoshka, 729 mln dona tuxum yetishtirildi. G'allakorlar O'zbekistonning g'alla mustaqilligiga katta hissa qo'shmoqda. Ular 1996 yili davlatga 2 mln 100 ming tonna g'alla topshirgan bo'lsalar, 1998 yili 4,6 mln tonna g'alla hosili yetishtirdi. Bundan 3,5 mln tonnasi bug'doy edi. g'allakorlarning yutuqlari o'z – o'zidan bo'lgani yo'q.

Paxta maydonlarini qisqartirish evaziga don ekinlarining maydoni kengaytirilib 1,5 mln gektaraga yetkazilib paxta maydonlari bilan tenglashtirildi. G'allachilikning texnika bazasi mustahkamlandi. 8159 ta "Niva", "Don", "Sibiryak" kombaynlar bilan bir qatorda amerikaning "Keys" firmasidan keltirilgan 637 kombayn g'alla o'rim – yig'imida qatnashdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisning 1 chaqiriq 10 sessiyasi (dekabr, 1997 yil) agrar va iqtisodiy munosabatlarni tubdan o'zgartirish yuzasidan qator qonunlar qabul qildi. "Yer kodeksi", "Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida", "Dehqon xo'jaligi to'g'risida", "Yer kadastr to'g'risida"gi qonunlar qishloq xo'jaligining huquqiy asoslarini mustahkamladi.

O'zbekiston taraqqiyotidagi o'ziga xos yo'lning asosiy tamoyillaridan biri kafolatlangan ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdan iboratdir. Uning mohiyati jamiyatda kam ta'minlangan, boquvchisi yo'q, ko'p bolali

oilalarni, nogironlar va qariyalar ijtimoiy himoya qilish, jamiyat a'zolarining o'ta boylar va kambag'allarga tabaqalanib ketishni oldini olishga qaratilgan.

Shu maqsadda mustaqillikning dastlabki yillarida aholi turmush darajasini barqarorlashtirishga qaratilgan zaruriy chora – tadbirlarning dasturi ishlab chiqildi va hayotga tadbiiq etilmoqda. Bu tadbirlarni amalga oshirish uchun davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar hajmi yildan – yilga ortib bormoqda. Xususan, 1999 yil davlat budjetini shakllantirishda ob'yektiv sabablarga ko'ra yuz bergan ayrim qiyinchiliklarga qaramasdan, ma'muriy va boshqaruv organlari tizimida o'tkaziladigan qisqartirishlar hisobiga ijtimoiy sohalarga ajratiladigan mablag'laring kamayishiga yo'l qo'yilmadi.

1998 yil oxiridagi hisobiga ko'ra mamlakatda 3 mln 252 mingdan ortiq kishi pensiya va nafaqalar oldi va bu maqsad uchun 75 mlrd 541 so'm miqdorida mablag' ajratildi. Shundan faqat ikki yoshgacha bolasi bor onalarga 10 mlrd 448 so'm nafaqa berildi.

Kam ta'minlangan aholi qatlamlari nafaqa va moddiy yoramdan tashqari turli xil imtiyozlardan keng foylanadi. Jumladan, jamoat transportida tekin yoki arzon haq to'lab yurish, turar joy va kommunal xizmatlari uchun xaq to'lashda, dori – darmonlar va eng zarur oziq – ovqat mahsulotlarini belgilangan me'yorda bepul yoki arzon narxda olish va boshqa bir qancha yengilliklar berilgan. Bulardan tashqari mustaqillik yillarida o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarining professor – o'qituvchilariga, tibbiy xodimlarga elektr energiya, gaz va kommunal xizmatlaridan foydalanishda qator imtiyozlar berildi.

Bozor munosabatlariga o'tish munosabati bilan aholi daromadning mohiyati yangilanmoqda. Ularning manbalari o'zgarmoqda. Maosh bilan o'lgangan ish haqidan tashqari tadbirkorlik daromadi, aksiyadorlik dividendi, mulkdan kelgan daromad, tomorqa mas'hsulotlarini sotishdan olinadigan tushum shakllarida bozor daromadlari paydo bo'ldi.

Aholi daromadlarining bozorga bog'liq manbalarining yildan – yilga o'sib borishi munosabati bilan ish haqining salmog'i pasayib bormoqda. Masalan, 1992 yili ish haqi aholi daromadning 57% ni tashkil qilsa, 1995 yilda esa 44,2% ni tashkil qildi. 1997 yili aholi barcha daromadlarining qariyb chorak qismi tadbirkorlik faoliyatidan tushdi.

Mustaqillikning dastlabki kuchlaridan boshlab bozor munosabatlariga mos pul – kredit tizimi shakllantirildi. 1991 – 1996 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi hukumati Milliy bank va Moliya tizimi yuzasidan bir qancha qarorlar qabul qildi. 1995 yil dekabrda Oliy Majlisning navbatidagi sessiyasi Markaziy bank va banklar to'g'risida Qonunlar katta ahamiyatga ega bo'ldi. Markaziy bankdan tashqari Toshkent shahri va viloyatlarida 30 ta aksiyador – tijorat, shirkat va xususiy banklar faoliyat ko'rsatmoqda (1995). Ularning har qaysisida filiallar mavjud. Masalan, "Paxta bank" da 184, "O'ztadbirkor" bankda 254 va h.filiallar xizmat qilmoqda. 1994 yilning 1 iyulda boshlab iqtisodiy mustaqillikning zaruriy sharti tariqasida O'zbekiston Respublikasining pul birligi – so'm muomalaga kiritildi. Milliy valutaning muomalag kiritilishi iqtisodiyotni barqarorlashtirish, korxonalar va tarmoqlar moliyaviy ahvolini mustahkamlash, aholi va mamlakat iste'mol bozorini muhofaza qilishda katta o'rin tutdi.

Mustaqil O'zbekiston xazinasini to'ldiruvchi, iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli o'tkazishning asosiy manbai soliqdir. Shuning uchun soliq tizimini takomillashtirishga dastlab katta e'tibor berildi.

Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 12 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida Davlat Soliq organlari haqida"gi Qarori asosida davlat soliq tizimi shakllana boshladi. Soliq to'lovchilar soni yildan – yilga ko'payib bormoqda. Agar 1994 yilda 91 mingdan ortiq soliq to'lovchi yuridik shaxs ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, 1997 yili ularning soni 148 mingtaga yetdi.

Xullas, iqtisodiy islohotlarning yutuqlari mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlamoqda.

17 – MAVZU: O'ZBEKISTONNING MA'NAVIY, MADANIY TARAQQIYOTI.

REJA:

1. Mustaqillik yillarida ma'naviy hayot.
2. Milliy istiqlol mafkurasining shakllanishi.
3. Ta'lim to'g'risidagi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi.

ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov Istiqlol va ma'naviyat. T., "O'zbekiston", 1994
2. I.A.Karimov O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T., "O'zbekiston", 1992
3. I.A.Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. "O'zbekiston", 1997 y.
4. I.A.Karimov. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. "O'zbekiston", 1997 y.
5. I.A.Karimov. Jamiyatimiz mafkurasini xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. T. "O'zbekiston", 1998
6. I.A.Karimov. "O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz" "Turkiston" gazetasi muhbiri savollariga javoblari. "Turkiston", 22 yanvar, 1999 y.
7. X.Ziyoyev. Amir Temur davlatining mafkurasini. "O'zbekiston ovozi", 12 oktyabr, 1995
8. A.Choriyev. Milliy istiqlol mafkurasini va uning asosiy xususiyatlari. "Muloqot" №4, 1996 y.
9. A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo'rayev Vatan tuyg'usi. T. "O'zbekiston", 1996 y.

Ma'ruza maqsadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi dolzarb muammolaridan biri yangi tarixiy sharoitda jamiyatga munosib kelishlarni tarbiyalash edi. Ma'ruza davomida quyidagi savollarni tushuntirish lozim.

- Ma'naviy meros nima?
- Ma'naviy qadriyatlarni tiklash yo'lida amalga oshirilgan tadbirlar.
- Davlat tili to'g'risidagi Qonun.
- Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy qilinishini to'g'risida.
- Din va davlat o'rtasidagi munosabat.
- Milliy istiqlol mafkurasini yaratishning hayotiy zarurligi.
- Milliy mafkurasining vazifalari.
- Ta'lim islohotlari.

17 mavzudagi bilimlarining egallanganlik darajasini aniqlash uchun tayanch tushunchalar: ma'naviy hayot; ma'naviy qadriyatlar; buyuk allomalar; ma'rifatparvarlar; diniy qadriyatlar; milliy istiqlol mafkurasini; ta'lim to'g'risida qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturning qabul qilinishi; "Umid", "Ulug'bek", "Kamolot" jamg'armalari; Aholi sog'liqni saqlash tizimining mustahkamlanishi; farmatsevtika sanoatining o'sishi.

1 savol. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy islohotlarini amalga oshirish bilan bir vaqtda ma'naviy merosimizni, madaniy qadriyatlarimizni tiklash va ularni xalqimizga yetkazish borasida keng ko'lamda faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublika Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek, ma'naviyatning mohiyati shunchalik kengki, uni o'lchab ham, poyoniga yetkazib ham bo'lmaydi. U inson uchun butun bir olamdur.

Jamiyatimiz hayotida ma'naviy kamolotni tezlashtirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish milliy qadriyatlarni o'rganish mustaqillikni mustahkamlashning asosiy vazifalaridan biridir.

Hayotimizda ma'naviy kamolotni rivojlantirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda – ajdodlarimizning bizgacha yetib kelgan boy madaniy meroslarini o'rganish ham katta o'rin egallaydi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qadriyatlar, urf – odatlar, buyuk ota – bobolarimizning bizga qoldirgan meroslarini o'rganish va targ'ib etish uchun keng yo'llar ochildi. Bu boradagi tadbirlar mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq amalga oshirila boshladi.

1991 yili buyuk alloma, g'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy yubileyini o'tkazish katta voqea bo'ldi. Bu tantanaga bag'ishlanib Respublikamizda shoirning asarlari nashrdan chiqarildi. 1994 yili Mirzo Ulug'bek tavallud topgan kunning 600 yilligi keng ko'lamda, jahon miqyosida nishonlandi. YUNESKO ning Parijdagi qarorgohida yubileyga bag'ishlangan xaftalik va ko'rgazma ochildi.

Mustaqillik yillarida buyuk sohibqiron Amir Temurning 660 yilligi bo'lib o'tdi. YUNESKO tomonidan 1996 yil “Amir Temur yili” deb e'lon qilindi. Shu yili YUNESKO ning Parijdagi qarorgohida “Temuriylar davri, fan, madaniyat va maorifning gullab yashnashi” mavzuida anjuman va unga bag'ishlangan ko'rgazma ochildi.

Mamlakatimizda “Temur va temuriylar Muzeyi, Temur nomi berilgan bog'lar, ko'chalar barpo etildi.

Respublikamizda bizgacha yetib kelgan boy meroslarni o'rganish, milliy o'zlikni anglash, ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishga katta ko'lamda e'tibor berilmoqda va ularga nisbatan xalqimizning chuqur hurmat va ehtirom ko'rsatilmoqda. So'nggi yillarda tashkil etilgan “Oltin meros” jamg'armasi, Abdulla Qodiriy nomidagi “Meros” nashriyotlari keng miqyosda ma'naviy – ma'rifiy ishlarni olib bormoqda.

Islom olamining allomalari Iso at – Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud Zamahshariyning 920 yilligi, Najmiddin Qurbonning 850 yilligi, Bohovuddin Naqshbandiyning 675 yilligi keng ko'lamda nishonlandi. Ularning boy asarlari nashrdan chiqarildi.

Barcha viloyatlar va shaharlar har yili Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiyarga bag'ishlanib kechalar o'tkaziladi, Jaloliddin Manguberding 800 yillik tavalludiga, “Alpomish” dostonini 1000 yilligiga yaratilishiga bag'ishlangan turli kechalar, bahslar tashkil etildi.

Ma'naviy hayotni takomillashtirish borasida 1994 yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ma'naviy qadriyatlarni o'rganish va uni takomillashtirish borasida “Ma'naviyat va ma'rifat” jamoatchilik markazini tuzish haqida farmon e'lon qilindi. Markaz tomonidan Imom al-Buxoriyning yubileyiga bag'ishlab, Qur'oni Sharifdan keyin ikkinchi o'rinda turadigan “Al-Jome' as-Sohiyh” (Ishonarli to'plam), “Al-adab, al-Mufrad” (Adab durdonalari) o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashrdan chiqarildi.

1998 yili Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi, Ahmad al-Farg'oniyni tavalludining 1200 yilligi jahon miqyosida keng nishonlandi. Yubileylar munosabati bilan allomalar hayotiga bag'ishlangan ilmiy anjumanlar va badiiy ko'rgazmalar ochildi.

Bularning barchasi O'zbekistonda chinakkam milliy qadriyatlarni tiklash uchun yuritilayotgan katta ishlardan dalolat beradi.

Ayniqsa, al-Buxoriy xalqaro jamg'armasining ochilishi katta voqea bo'ldi. Respublikamiz Prezidenti Imom al-Buxoriyning, Ahmad al-Farg'oniyni mo'tabar nomlarini tiklash, xalqimiz, qolaversa, butun dunyo musulmonlariga qaratilgan shaxsiy tashabbusi bilan ul zoti shariflar sha'niga ulug'vor yodgorliklar va jamg'armalar tuzishga imkon yaratildi.

Jamg'armaning maqsadi Imom al Buxoriyning hayoti, ilmiy merosi, u yashagan davr fani va madaniyatiga oid bo'lgan tarixiy manbalarni o'rganishi o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Islom olami buyuk namoyondalarining to'y – tantanalari rivojlanishi butun dunyo xalqlarining diqqat – e'tiborida bo'ldi.

Ma'naviy merosining tiklanishi, uning bir bo'lagi bo'lgan diniy qadriyatlarga ham e'tiborini kuchaytirdi. 1992 yil Prezident farmoni bilan Ramazon va Qurbon xayit kunlari umumxalq bayrami deb e'lon qilindi, “Haj” safarlari tiklandi.

“Movoraunnaxr” diniy boshqarmasi ham faoliyati Respublikamiz hayotida o'z o'rnini egallardi.

Xalqimizning asrlar davomida nishonlanib kelingan bayramlardan “Navro'z” umumxalq bayrami sifatida qayta tiklandi.

2 savol. Jamiyat taraqqiyotida ro'y berayotgan o'zgarishlarni tushunish, xurfikrlikka intilish uchun

kishilarini yangi yoʻldan olib boruvchi gʻoyaviy qarashlar ham hozirgi kunning asosiy vazifalaridan biri boʻlib qolmoqda.

Jamiatimizda siyosiy mustaqillikka erishib iqtisodiy, madaniy – maʼrifiy ishlar amalga oshirilayotgan bir vaqtda kishilar ongida mustaqillik gʻoyasi, milliy istiqlol mafkurasini mustahkam oʻrin olishi zarur. Busiz, yaʼni fikrlash, eʼtiqod oʻzgarmasdan bozor munosabatlariga oʻtish davrida siyosiy – iqtisodiy beqarorlik mustahkam boʻlishi qiyin vazifa. I.A.Karimov milliy mustaqillik mafkurasiga taʼrif berib milliy mustaqillik mafkurasining ... asl maʼnosi aksincha aqidalardan holi boʻlgan, mustaqil va yangicha fikrlovchi kishilarni tariyalashdan iborat” deydi. Mustaqillik gʻoyasi, mafkurasining xalqimizga toʻgʻri yoʻl koʻrsatuvchi, uni birlashtiruvchi, buyuk maqsadlar uchun butun kuchlarimizning uygʻunlashtiruvchi ahamiyatini nazarda tutib Prezident I.A.Karimov mustaqillikning dastlabki kunlarida, 1993 yil 6 may Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 2 chaqiriq, 11 sessiyasida “Oldimizda turgan eng muhim masala, bu – milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotimizga tadbiq etishdir” degan edi. kishilarimizni qaysi toifa va guruhdan boʻlishidan qatʼiy nazar inqirozdan chiqaradigan yagona milliy gʻoya atrofida birlashtiradigan birdan – bir qudratli kuch ana shu milliy mustaqillik mafkurasidir.

Yagona maqsad, yagona gʻoya boʻlmasa jamiyat inqirozga uchraydi, xalok boʻladi. Buni biz yaqin va olis oʻtmishdagi tariximizdan bilamiz. Milliy mafkura kelajak maqsadni ifodalaydigan, xalqimizning ming yillik tarixini buyuk kelajak bilan bogʻlaydigan, ana shu yuksak maqsad yoʻlida yuzdan ortiq millatlar va elatlarni, barcha kishilarimizni birlashtiruvchi bayroq vazifasini bajaradi.

Oʻzbekistonning bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurish yoʻlidagi iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy, madaniy – maʼrifiy ishlarimizdagi barqarorlik mafkuraviy tahdidlarni oldini olishi muhim vazifa qilib qoʻyadi.

Milliy istiqlol mafkurasini ahamiyatini koʻrsatib, yurtboshimiz I.A.Karimov: “... xalqimizning anʼanalariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr – oqibat, insof, sabr – toqat, adolat, maʼrifat tuygʻularini ongimizga singdirish lozim” degan edi.

Milliy mustaqillik mafkurasining eng muhim vazifalaridan biri mustaqilligimizning tayanchi va kelajagi yosh avlodni insoniy, milliy gʻurur, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat. Mustaqillik gʻoyalari mafkurasiga eʼtiborsizlik ogʻir oqibatlarga olib kelishi mumkin.

1999 yil 16 fevral “qonli seshanba” kungi voqealar milliy umustaqillik gʻoyasini, mafkurasini yoshlarimiz diliga yetkazish zarurligini, buning uchun gʻoyaviy, mafkuraviy ishlarimizning kuchaytirish lozimligini koʻrsatdi.

3 savol. Istiqlol yoʻlida qadam tashlab borayotgan Vatanimizdagi mavjud maʼnaviy, madaniy omillarga eʼtibor berish bilan birga fan, maorif, taʼlim – tarbiya ishlariga ham eʼtibor kuchaytirildi.

“Taʼlim – tarbiya tizimini oʻzgartirmasdan turib, ongni oʻzgartirib boʻlmaydi. Ongni, tafakkurni oʻzgartirmasdan turib esa, biz koʻzlagan oliy maqsad – saodat va obod jamiyatni barpo etib boʻlmaydi”, - deydi I.A.Karimov.

Respublikamizda taʼlimning yangi tizimini amalga oshirishda, Oʻzbekiston hukumati tariximizdagi taʼlim jarayonlarini oʻrganib chiqib taʼlimni islohot qilish dasturini tayyorladi. Barcha eʼtibor taʼlim tizimlarini demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirib, uning moddiy texnika bazasini, zamon va davr talablari darajasiga koʻtarish va Oʻzbekistonning maʼrifiy salohiyatini kuchaytirishga qaratildi. Shu maqsad 1997 yil 2 avgustda Respublikamizda “Taʼlim toʻgʻrisidagi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi”.

Taʼlimni islohot qilish quyidagi tamoyillar asosida olib boriladi:

- taʼlim – tarbiyaning insonparvarligi va demokratiyaviyligi;
- taʼlim tizimining uzluksizligi, izchilligi, va dunyoviyligi ;
- taʼlimda umuminsoniy va milliy –madaniy, maʼnaviy qadriyatlarning ustuvorligi ;
- eʼtiqodi , dinidan qatʼiy nazar barcha fuqorolar uchun taʼlim olish imkoniyatlari yaratilgan ;
- taʼlim muassasalarining siyosiy partiyalar va harakatlar taʼsiridan holiligi.

1993 yil Respublikamiz Prezidenti tomonidan “Oʻzbekistonda oʻquvchi yoshlarni ragʻbatlantirish choralari toʻgʻrisi”dagi farmoniga binoan talaba va aspirantlar uchun mahsus stipendiyalar belgilandi. Ular

uchun hatto, rivojlangan davlatlardagi universitetlarda ta'lim olish, ulardagi ilmiy markazlarda ishlash, malakalarini oshirish uchun sharoitlar yaratib berildi.

Madaniy – ma'rifiy ishlarning rivojlanishi uchun davlat tomonidan katta mablag'lar ajratildi. O'zbekistondagi barcha davlat teatrlari, madaniy uylari, san'at oliy o'quv yurtlari, folklor – etnografik guruhlar madaniyat o'choqlariga aylanib qoldi. Teatr sahnalarida yangi zamonaviy spektakllar qo'yila boshlandi. MDH dagi davlatlar bilan ijodiy hamkorlik yo'lga qo'yildi, turli xalqaro anjumanlar o'tkazildi.

Badiiy adabiyotda partiyaviylik, sinfiylik nuqtai nazaridan yondoshishga chek qo'yildi. Bahovuddin Naqshbandiy, Feruz, Xo'ja Axror, CHO'lpon, Fitrat kabi allomalarning nomlari tiklanib asarlari chop etildi. Davlatimizdagi ustuvor vazifa aholi sog'ligini saqlash borasidagi tadbirlardir. Shu maqsad uchun 1999 – 2000 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi ishlab chiqildi. Sog'lom avlod masalasi asosiy maqsadga aylandi. Yoshlarni jismoniy va ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash, onalik va bolalikni himoya qilish asosiy vazifa bo'lib qoldi.

Mamlakatda “sog'lom avlod” dasturi ishlab chiqildi. Jismoniy sog'lomlik, barkamol insonni tarbiyalash odob ahloq masalalari bilan bog'lab olib boriladi. Respublikamizdan chiqqan ko'plab sportchilarimiz Osiyo va jahon chempionatlarida ishtirok etib kelmoqdalar va g'oliblikni qo'lga kiritmoqdalar. Ular uchun bir qancha stadionlar, sport maydonlari, futbol, voleybol, basketbol maydonchalari, sport komplekslari qurilib, qayta ta'mirlanib foydalanish uchun topshirildi.

Respublikada birinchi bo'lib “Sog'lom avlod uchun” ordeni ta'sisi etildi. 1998 yil “Oila yili” deb e'lon qilindi.

Shu maqsadda onalik va bolalikni himoya qilish borasida bir qancha tadbirlar o'tkazildi. Yangi imtiyozlarga ega bo'lgan shifoxonalar qurilib, zamonaviy texnologiya bilan ta'minlandi. Bepul davolash yo'lga qo'yilib respublika viloyatlarida dam olish va sog'lomlashtirish maskanlari bunyod etildi.

Umuman, O'zbekiston o'zining qisqa vaqtdagi mustaqillik yillari davomida iqtisodiy – ijtimoiy boradagi yutuqlari bilan bir qatorda, ma'naviy, madaniy tomonlarga ham e'tiborni kuchaytirib, o'z allomalarini dunyoga tanitib jahonning rivojlangan davlatlari orasida o'z nufuzi va obro'sini yuqori ko'tardi.

18 – MAVZU. O'ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI.

REJA.

1. Tinchliksevar tashqi siyosat asoslarining ishlab chiqilishi, uning asosiy tamoyillari.
2. O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorligi.
3. O'zbekiston va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi. (MDH)

ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov O'zbekiston istiqlol va taraqqiyot yo'li. T.1992 y
2. I.A.Karimov O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida T. 1995 y.
3. I.A.Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida ... T. 1998 y.
4. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., O'zbekiston 1999 y.
5. N.Jo'rayev va boshqalar ... O'zbekiston tarixi T. 1998
6. Qasimov A. Vas'kin I. Osnovniye napravleniya vneshney politiki Respubliki Uzbekistan. T. 1994 y.

Ma'ruza maqsadi.

Insoniyat tarixida ko'pgina quvonch va tashvishlarga, yutuqlar va muvaffaqiyatsizliklarga guvoh bo'lgan XX asr tarix sahniga, poyoniga ketmoqda. So'zsiz bu asr insoniyat tarixida katta va sarmazmun hayotiy voqealarga boy yillar sifatida qoladi. Jahon urushlari, mustamlakachilik siyosatiga qarshi milliy ozodlik harakatlari, ilmiy – texnika inqilobi, iqtisodiy taraqqiyotning integratsiyalashuvi XX asr tarixining asosiy shtrixlarini tashkil etadi. Bu taraqqiyot bosqichida jahon siyosatida yetakchi rol o'ynagan sobiq Ittifoqning tarqalib ketishi va uning o'rnida mustaqil davlatlarining tashkil topishi, ayniqsa O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga faol va dadillik bilan kirib borayotganligi muxim bosqichdir. Siyosat, iqtisodiyot masalalari keng jahon jamoatchiligi tomonidan belgilanadigan bo'ldi. Ikki tomonlama, ko'p tomonlama hamkorlik qilish tendensiyalari kuchaydi. Inson huquqlarini poymol etilishiga jahon mamlakatlarining e'tiborini qaratish ommaviy tus oldi. YUqoridagi qayd etilgan yo'nalishlarni yoritib berish ma'ruzaning asosiy maqsadir.

18 mavzudagi bilimlarining egallanganlik darajasini aniqlash uchun tayanch tushunchalar: XXI asr bo'sag'asida dunyo; O'zbekistonning jo'g'rofiy – siyosiy imkoniyatlari; tashqi siyosat asoslari; BMT; YEXHT, yuvropa Ittifoqi, Qo'shilmaslik xarakati, MDH, Davlatlararo Iqtisodiy Qo'mita (DIQ) NATO; EKO; Xorijiy sarmoyalar; qo'shma korxonalar, Markaziy Osiyo davlatlari bilan xamkorlik.

1 savol. XX asrning oxirgi o'n yilligi insoniyat tarixida buyuk o'zgarishlar davri bo'lib kiradi, chunki yer yuzida vaziyat, kuchlar nisbati keskin o'zgarib, ilgari bir – biriga qarama – qarshi bo'lgan SSSR va AQSH yetakchilik qilgan ikki ijtimoiy – siyosiy blok barham topdi. SSSR parchalanishi va sotsialistik sistema halokati natijasida dunyoda yangi mustaqil davlatlar vujudga keldi.

Mustaqil O'zbekiston xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yishi nuqtai – nazaridan va o'z taraqqiyot istiqbollari uchun qulay geografik – strategik ahamiyatga ega. O'rta Osiyoda geografik – siyosiy jihatdan markaziy o'rin tutgan O'zbekistonning ushbu mintaqada kuchlar nisbati va muvozanatini saqlash, barqarorlikni ta'minlash, hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatlari bor.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq O'zbekistonning milliy manfaatlarini mos keladigan puxta tashqi siyosiy yo'lni belgilash; jahon hamjamiyatiga qo'shilishi, xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ilmiy – texnikaviy, madaniy aloqalar o'rnatish masalalari dolzarb vazifalar deb belgilandi. Chunki

ittifoq davrida O'zbekiston tashqi dunyodan ajralgan, to'g'ridan – to'g'ri aloqa qila olish tajribasiga hamda bu sohadagi kadrlarga ega emas edi.

Prezident I.A.Karimov o'zining “O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li” kitobida mustaqil tashqi siyosat yuritish qoidalarini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17 – moddasida mamlakatimiz tashqi siyosati qoidalarini qonunlashtirildi. Bu qoidalar “O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida” gi, “Chet el investitsiyalari to'g'risida”gi, “Xorijiy investorlar va investitsiyalarga kafolat berish to'g'risida”gi, “Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida”gi kabi hujjatlarda asoslab berildi.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasini 48 (1993) va 50 – yubiley (1995) sessiyalaridagi nuqtalarida mustaqil O'zbekiston tashqi siyosatining bosh yo'nalishlari belgilab berildi.

O'zbekiston hukumati respublika tashqi siyosati asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish;
- boshqa davlatlarning ichiki ishlariga aralashmaslik;
- nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish;
- kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;
- inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash;
- ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalarini va normalarining ustivorligi;
- davlatning, halqning oliy manfaatlarini, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish;
- tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;
- davlatlararo aloqalarda teng huquqlik va o'zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi;
- tashqi aloqalarini ham ikki tomonlama ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik.

Tashqi siyosatdagi ochiq – oydinlik, teng huquqlik, demokratik prinsiplarga sodiqlik, umuminsoniy qadriyatlarni ulug'lash, respublika ijtimoiy hayotidagi demokratik jarayonga ta'sir qilish bilan birga O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatida mavqeini ham oshirib bormoqda.

Mamlakatimizning jahon halqlari tinchligi va xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyochsati uning jahon miqyosida mustaqil davlat sifaida tezda tan olinishi ta'minladi. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini dunyodagi 165 davlat tan oldi, ularning 120 tasi bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy – texnikaviy va madaniy aloqalar o'rnatildi. Toshkentda 35 mamlakatning elchixonasi ochildi. Bular AQSH, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Xindiston, Pokiston va boshqa rivojlangan mamlakatlardir. Shuningdek O'zbekistonda 88 ta xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Dunyodagi 20 dan ortiq yirik davlatlarida O'zbekistonning elchixonalari ishlab turibdi.

O'zbekiston jahon iqtisodiyotiga integratsiyalash yo'lidan borib jahon banki, Xalqaro valuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotda ko'maklashuvchi tashkilot va boshqa moliyaviy iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi va ular bilan hamkorlik qilmoqda. Shu bilan birga O'zbekiston BMT doirasidagi iqtisoslashgan muassasalar – Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, BMT ning bolalar fondi, Xalqaro pochta ittifoqi, Elektron aloqasi bo'yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro Olimpiada qo'mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda. Ularning vakillik tashkilotlari Respublikimizda ochildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston ko'pgina mintaqaviy tashkilotlar, chunonchi, yuvropa Ittifoqi, NATO, EKO, Islom konferensiyasi tashkiloti, qo'shilmaslik harakati va boshqalar bilan ham samarali hamkorlik qilmoqda. I.A.Karimov 1999 yili aprelida Shimoliy Atlantika Ittifoqi qoshidagi “Tinchlik yo'lida hamkorlik”

dasturining a'zosi sifatida NATO ning 50 yillik yubiley tantanalarida qatnashdi.

O'zbekiston O'rta osiyo davlatlari bilan Turkiya, Pokiston, Eron tomonidan tuzilgan iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lib kirdi va Transs Osiyo temur yo'lini tashkil etishda faol ishtirok etdi. Bu O'zbekiston uchun dengiz yo'llarigi, xalqaro transport tarmog'iga, tovar va kapital xalqaro bozoriga chiqish imkoniyatini berdi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarda Respublikamiz iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarni jalb etishga katta ahamiyat berilmoqda. Iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb etishga O'zbekiston quyidagi tamoyillarga amal qiladi.

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish;
2. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyadorlarni keng jalb qilishni ta'minlaydigan huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy shart – sharoitlar yaratish, tashkilotlar va muassasalar tuzish;
3. Ilg'or texnologiyaning kirib kelishiga, xo'jalik tarkibini zamonaviylashiga ko'maklashadigan xorijiy sarmoyalarga nisbatan "ochiq eshiklar" siyosatini o'tkazish;
4. Respublika mustaqilligini ta'minlaydigan o'rta muhim sohalarni ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlash hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratish.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishni huquqiy jihatdan ta'minlovchi qonunlar qabul qilindi. "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida", "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi va "Xorijiy investorlar va investitsiyalarga kafolat berish to'g'risida"gi, "Bankrotlik to'g'risida"gi qonunlar va boshqa me'yoriy xujjatlar shular jumlasiga kirdi. Bu huquqiy xujjatlar tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish, xalqaro shartnomalar tuzish va ularni bajarishi uchun shart – sharoit yaratdi. Tashqi savdo uchun imtiyozlar berildi. Tovarlarini import va eksport qilish uchun bojxona to'lovlari ancha kamaytirildi.

O'zaro sarmoyalarni himoya qilish maqsadida jahonning ko'pgina mamlakatlari, jumladan, Germaniya, Turkiya, AQSH, Fransiya va boshqa mamlakatlar bilan shartnomalar imzolandi.

Institutsional o'zgarishlar sohasida siyosiy va moliyaviy xatarni himoya qiluvchi "O'zbekinvest" milliy sug'urta kompaniyasi tuzildi. "O'zbekinvest", Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki "ALC, inc" Amerika moliyaviy guruhi bilan birgalikda Londonda siyosiy xatarning shtab kvartirasi va Toshkentda moliyaviy xatarning oldini olish shtab kvartirasi bilan o'zaro sug'urta kompaniyasi tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida investitsiyalarga ko'maklashish muassasalari – chet el investitsiyalari bo'yicha agentlik, tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, Lizing kompaniyasi tashkil etildi.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan siyosati, respublika xorijiy sarmoyalarning to'xtovsiz kirib kelishini ta'minlamoqda. O'zbekiston xukumati Kanada, XXR, Turkiya, Gollandiya, Germaniya, Shvetsariya banklari va firmalari bilan 1,5 milliard AQSH dollari hajmida 32 ta yirik kredit bitimi tuzdi va ular amalga oshirmoqda. Faqat 1994 yilda respublikaga 640 mln AQSH dollar miqdorida investitsiya kreditlari berish to'g'risida xalqaro moliya muassasalari Amerikaning "N'yumont - Mayning" kompaniyasi bilan hamkorlikda oltin qazib oladigan "Zarafshon - Nyumont" qo'shma korxonasi qurilib ishga tushirildi. Toshkentda xalqaro savdo – ko'rgazma kompleksi, Xorazmda qand – shakar zavodi qurildi.

Janubiy Koreya sarmoyadorlari bilan "O'zDEU avto", "O'zDEU elektronika" xissadorlik birlashmalari keng faoliyat ko'rsatmoqda. Germaniya va Janubiy Koreya bilan hamkorlikda telefon tarmoqlari yangilanmoqda.

1997 yil oxirlarida O'zbekistonga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi 8 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi. Hozirgi kunda dunyoning xorijiy mamlakatlarni sarmoyadorlari ishtirokida 3200 dan ortiq qo'shma korxona qurilmoqda, bir qismi faoliyat ko'rsatdi,

O'zbekistonning barcha rivoj topgan xorijiy mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy, siyosiy madaniy adloqalari kengayib bormoqda.

3 savol. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida Hamdo'stlik mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish alohida ahamiyatga egadir. O'zbekiston hamdo'stlik g'oyasini qo'llab uning ta'sis etuvchilaridan biri bo'lib ular bilan iqtisodiy integratsiya hamda savdo aloqalarini mustahkamlash borasida faol ish olib bormoqda. O'zbekiston davlatlararo iqtisodiy qo'mita, davlatlararo bank va boshqa hamdo'stlik iqtisodiy tuzilmalarining shakllanishida faol ishtirok etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi hamdo'stlik doirasida ikki tomonlama tashqi siyosiy, iqtisodiy va boshqa shartnoma kelishuvlarni Rossiya, Ukraina, Belorusiya, Moldaviya, MDH ning boshqa mamlakatlari bilan imzolab o'zaro manfaatli hamdo'stlik aloqalariga mustahkam asos yaratdi.

MDH borasida ayrim davlat rahbarining tashabbuskorligi muhim rol o'ynadi. 1992 yil mayda MD, rahbarlari Toshkent uchrashuvida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan kollektiv xavfsizlik to'g'risida shartnoma imzolandi.

Hamdo'stlikka a'zo bo'lgan davlatlarga milliy mudofaani kafolatlashga, ilmiy texnika taraqqiyoti yutuqlari va aloqa vositalari, yangi texnologiyaga erishishga, xorijiy davlatlardan mahsulot tashish, zarur xom ashyo va tayyor mahsulotlarni keltirish hamda o'z mahsulotini jahon bozoriga olib chiqish, ekologiya sohasida tadbirlarni birgalikda o'tkazish, tabiiy ofatlar oqibatini tugatish uchun imkoniyatlar yaratildi.

MDX davlatlari orasida munosabatlar tizimi va yo'nalishining tubdan o'zgarishda O'zbekistonning mavqei mustahkamlanmoqda. Respublika bu davlatlarning ko'pchiligidan savdo to'lov sohasida manfaatdorlikka ega. Shu bilan birga shuni alohida ta'kidlab aytish zarurki, sobiq Ittifoqni qayta qurishga urinish, ma'muriy buyrug'bozlik boshqaruv tuzumiga qaytish O'zbekiston uchun umuman to'g'ri kelmaydigan harakatdir.

O'zbekiston tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri O'rta Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan hamkorlik, qardoshlarcha do'stlik aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan. Qardosh xalqlarning tarixi, madaniyati, urf odatlari, an'analari, turmush tarzi va boshqa ko'pgina tomonlari bir – biri bilan chambarchas bog'liq. Bugungi kunda ham O'rta Osiyo davlatlarining siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ekologik muammolari o'zaro aloqalarni kuchaytirishni talab qiladi. Shularni hisobga olib 1994 yil 10 yanvarda O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarining erkin o'tib turishini nazarda tutuvchi hamda o'zaro kelishilgan kredit, hisob – kitob, budjet, soliq, narx, boj va valuta siyosatini ta'minlovchi yagona iqtisodiy makonni tashkil etish to'g'risida shartnoma imzolandi. Bu shartnomaga Qirg'iziston, keyinchalik Tojikistonning ham kirishi O'rta Osiyo mintaqasida iqtisodiy integratsiya jarayonining chuqurlashuviga katta imkoniyat yaratdi. Kelishuvida qatnashgan mamlakatlar vakillarining davlatlararo ijroiya qo'mitasi Olmota shahriga joylashgan bo'lib Toshkent shahrida xududiy Markaziy bank faoliyat ko'rsatmoqda.

1995 yil 15 dekabrda Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston Respublikalari davlatlararo Kengashining navbatdagi majlisi bo'ldi. Prezidentlar 2000 yilgacha bo'lgan iqtisodiy integratsiya va birinchi navbatda sarmoya sarflanishi lozim blgan loyihalar dasturlarini hayotga joriy etish, kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish masalalarini muhokama etdilar. Integratsiya dasturi yuzasidan 56 ta loyiha ishlab chiqildi. O'rta Osiyo davlatlari rahbarlarining Qizil O'rda (1993), Nukus (1994), Tashhovuz (1995) shaharlarida bo'lib o'tgan uchrashuvlarida Orol dengizi muammosiga bag'ishlangan chora – tadbirlar ko'rildi.

O'rta Osiyo davlatlari hamdo'stligining tuzilishi ularning boshqa davlatlardan uzoqlashishini ko'rsatmaydi, balki murakkab o'tish avrida mintaqa mamlakatlarining o'zaro yordam va hamkorligini chuqurlashtirishga qaratilgan.

Xulosa, O'zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish borasida bir necha o'n yillarga arziydigan ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston o'zining tinchliksevar, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro foydali, hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egalladi, uning mavqei yildan yilga mustahkamlanib bormoqda.